

T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev,
J.Eshonqulov, A.Tilavov

O'ZBEK FOLKLORI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rarev,
J.Eshonqulov, A.Tilavov**

O'ZBEK FOLKLORI

Darslik

**Toshkent
«MALIK PRINT CO»
2021**

UO'K: 39(575.1)(07)

KBK: 82(50')ya7

O' 16

O'zbek folklori [Matn]: darslik / T. Mirzayev, Sh. Turdimov, M. Jo'rayev, J. Eshonqulov, A. Tilavov. -Toshkent: «MALIK PRINT CO», 2022. - 240 b.

Mazkur darslikda xalqimizning boy ma'naviy merosi hisoblangan og'zaki ijod namunalari tadrijiy tamoyilda, sodda, ravon yoritilgan.

Har mavzu nazariy ma'lumotlarni mustahkamlovchi misollar, ilmiy adabiyotlar bilan boyitilgan.

Talaba folklorshunoslikning eng so'nggi yutuqlari, shuningdek, tahlil va talqindagi yangicha ilmiy-nazariy qarashlardan bahramand bo'ladi.

In this textbook the rich and cultural heritable Uzbek folklore examples are described with gradual leaning and easy ways. Every topic is become enriched with theoretical information, many examples and scientific literatures. The student can get the useful information about successful achievements of folklore, as well as, the new point of scientific-theoretical views.

В данном учебнике освещены примеры фольклора, которые считаются богатого духовного наследия нашего народа.

Каждая тема обогащена примерами, перечню научной литературы, которые усиливают значение теоретических материалов.

Студент с посредством учебника узнает самые последние достижения, познакомится с новыми научно-теоретическими взглядами в фольклороведении.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 14-iyuldagи 531-sonli buyrug'iga asosan darslik sifatida nashr etishga ruxsat etildi.

Filologiya fanlari nomzodi

Omonilla Madayevaning umumiy tahriri ostida

Taqrizchilar:

Darmonoy O'rayeva – filologiya fanlari doktori, professor
Shahnoza Nazarova – filologiya fanlari nomzodi

ISBN 978-9943-7906-3-6



KIRISH

O'zbek xalqining jahon xalqlari orasida tutgan o'mni, insoniyat tamaddunlariga qo'shgan munosib hissasi, avvalo, xalq og'zaki ijodi namunalari misolida yaqqol ko'rindi. O'zbek folklorini yozib olish, nashr qilish, tadqiq etish ishlari o'tgan asr avvallaridan boshlangan bo'lsa-da, xalq og'zaki ijodini chinakam, har tomonlama o'rganish, mukammal nashrlarini amalga oshirish, ularning tariximiz va bugungi kunimizdagi ahamiyatini ko'rsatish, anglab yetish bevosita mustaqillik sharofati bilan ro'y berdi. Ushbu xayrli ishlarning bosh sababchisi mustaqilligimiz bo'ldi. 1990-yilda Navro'z bayramini umumxalq tantanasi darajasida nishonlash an'anasing boshsanishi, «Alpomish» dostonining 1000 yillik to'yi va eng ulkan tarixiy voqeя O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida»gi farmonining e'lon qilinishi va bu ishningamalga oshishi til, adabiyot qatorida o'zbek folklorining ham har tomonlama o'rganish ishlariga keng imkoniyatlar yaratdi. «Folklorshunoslik va dialektologiya» kafedrasining ushbu universitet tarkibida tashkil topishi fikrimizni dalillaydi. «O'zbek folklori» fanining yangi talablar asosida o'qitilishi ushbu kafedra faoliyatining muhim bir qismi hisoblanadi. I.Karimovning 2008-yil e'lon qilingan «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobida: «Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa

sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir»¹, – deyilgan. Xalq ijodi, xususan, og'zaki ijod namunalari yurtboshimiz to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek ajdodlarimiz tafakkuri va dahosini namoyon etuvchi ma'naviy xazina hisoblanadi. Bu xazina boyliklarini yosh avlodning ma’nan kamolot topishi yo‘lida xizmat qildirish soha xodimlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev xalqaro baxshichilik festivali ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи nutqida ta’kidlaganidek: “...Tengsiz ma'naviy boyligimiz bo‘lmish mumtoz san’atni, xalq ijodining nodir namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg‘or fikrli olimlar va san’atkorlarning, davlat va jamiyat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir”². Ushbu ma’ruza matnlari ayni maqsad yo‘lida tuzilmoqda.

Mualliflardan

¹ Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B.31.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga bag‘ishlangan marosimdagи nutqi // Xalq so‘zi gazetasи, 2019-yil, 7-aprel. – №68(72-98) son. –B.1.

1- MAVZU. MUSTAQILLIK DAVRIDA «O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI»NI O'RGANISHNING YETAKCHI MASALALARI. FOLKLOR ATAMASI, YETAKCHI XUSUSIYATLARI, TUR VA JANRLARI

Reja:

1. Mustaqillik va xalq ijodining o'rganilishi masalalari, mustaqillik davri folklorshunosligining o'ziga xos xususiyatlari, folklor – milliy ma'naviyatimizning asoslaridan biri sifatida.

2. Folklor atamasi, yetakchi xususiyatlari, tur va janrlari.

1. Mustaqillik va xalq ijodining o'rganilishi masalalari, mustaqillik davri folklorshunosligining o'ziga xos xususiyatlari, folklor – milliy ma'naviyatimizning asoslaridan biri sifatida. Ma'naviyat kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgan tushuncha emas, u asrlardan buyon xalqimiz bilan birga yashab, birga taraqqiy etib kelayotgan buyuk bir qadriyatdir. Inson dunyoga kelgan kunidan boshlab, to hayotining eng so'nggi lahzasigacha o'zi mansub xalqning qadriyatları, an'anaları ichida ulg'ayadi, kamol topadi. Hatto o'zini folklorga begona deb bilgan, bu atama ta'rifidan mutlaqo yiroq bo'lgan kishi shu an'anaları ichida ulg'aygan, uning ongi, shuuri shu qadim an'analar ta'sirida shakllangan bo'ladi.

Har bir sohaning o'z tarixi bo'lganidek, folklorshunoslik borasidagi izlanishlarning ham o'z ildizlari mavjud. Bu izlanishlar ildizi olis o'tmishga borib taqaladi. Mahmud Koshg'ariy zamonidan to bugungi kungacha xalq og'zaki ijodi haqida nimaiki aytilgan, yozilgan bo'lsa bularning bari o'zbek xalq og'zaki ijodini o'rganishga o'zining munosib ulushini qo'shgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishish ostonasida birinchi Prezidentimiz tomonidan ko'plab hayotbaxsh farmonlar bilan bir qatorda, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va Navro'z bayramini qayta tiklanishi xalqimizning ma'naviy hayotida katta iz qoldirdi. Shubhasiz, aytish mumkinki, bugun mamlakatimiz iqtisodiy, madaniy sohada nimaiki yutuqlarga, yuksalishlarga erishgan bo'lsa, ana shu sa'yi harakatlarning alohida o'rni bor. Zero, til millat tafakkurini shakllantiruvchi bir mezondir. Til va tafakkur bir-biriga bog'liq jarayon. Millatning til ravnaqi, shubhasiz, uning badiiy asarlarida namoyon bo'ladi. Xalq og'zaki ijodi ana shunday tafakkurni shakllantiruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Folklor turli davrlarda turlicha o'rganilgan, turlicha yondoshuvlar bo'lgan, biroq mustaqillikdan keyin u tom ma'noda yangicha mazmun va mohiyat kasb etdi.

«Alpomish» dostonining ming yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi, «O'zbekiston xalq baxshisi» unvoni joriy etildi. Bu esa milliy ma'naviyatimizning asoslardan biri bo'lgan xalq ijodining yuksalishiga xizmat qildi.

«Alpomish» dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir, – deb yozadi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobida. – Agarki, xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas doston bo'lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti, desak, to'g'ri bo'ladi». ¹ Bu nafaqat «Alpomish» dostoniga, balki, butun folklor asariga, milliy-ma'naviyatimizga berilgan yuksak bahodir. Shuning uchun ham mustaqillikka erishganimizdan keyin folklor milliy ma'naviyatimizni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida o'rganib kelinmoqda.

¹ Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B.32-33.

Mustaqillik davridan oldin folklor asarlari o'rganil-maganmi, nashr etilmaganmi degan haqli savol tug'ilishi tabiiy. O'rganilgan, tadqiq etilgan va nashr ham etilgan. Biroq, bu nashrlar mukammal nashrlar emasdi. Ularda ko'plab qisqartirishlar, buzib talqin qilinishlarga yo'l qo'yilgandi. Birgina misol: «Rustamxon» dostonining folklor arxivida saqlanayotgan qo'lyozmasida Sultonxonning farzandli bo'lish oldidan tush ko'rgani shunday tasvirlanadi: «Sultonxon ul kecha yotib tush ko'rdi. U tushida shunday ayon bo'ldi. Bu Xudoy bergen farzanding, Qurudum mamlakatiga safar qilsang, o'n to'rt jil deganda borib kelsang shu bolang turadi, bo'Imasa nobud bo'ladi» (Hodi Zarifov nomidagi folklor arxivi. Qo'lyozma, inv. № 112, 6–7-betlar.).

Bu tush motivi Sultonxonning Qurudum mamlakatiga safarga chiqishining sababini hamda tug'ilayotgan farzand Rustamning oddiy farzand emas, ilohiyot bilan bog'liqligini ko'rsatuvchi muhim bir jihatdir. Aytish mumkinki, doston tush motivi bilan boshlanadi va doston so'ngidagi voqealar ana shu tush bilan bog'liq holda kechadi. Biroq «Rustamxon» dostonining 1965-yilgi va 1985-yilgi nashrlarida bu motiv tushirib qoldirilgan. Oqibatda Sultonxonning safarga chiqishi ham noayon bo'lib qoladi.

Yoxud qo'lyozmada: Ko'rolmaysan, bildim yolg'iz qo'zingdi,

Kelgin sarson opa, endi birga jilayik, – deya Ximchaoyim Xuroyimga murojaat qiladi. Bu murojaatda «Sarson, sargordan, ya'ni ovvora bo'lgan opa, kelgin, birga yig'laylik», - deyilyapti. Nashrda esa oxirgi misra: «Kelgin, chopson, opa, endi birga yig'laylik» – tarzida berilganki, oqibatda chopson so'zining misradagi ma'nosи noaniq bo'lib qolgan. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

«Alpomish» dostonidagi poyga epizodini eslang. Mustaqillikdan oldingi yillardagi nashrlarda «bog'langan

band»dan Rajabxo‘ja pirning yordamida xalos bo‘lgan Qorajonga qarata aytilgan:

Dam bu damdir o ‘zga damni dam dema,

Qoldim deb Qorajon, sira g ‘am yema, – so‘zлari «Otning aytayotgan so‘zi» tarzda berilgan edi.

Folklorni tadqiq etish borasida mafkuraviy tazyiq va chegaralanishlar ta’siri yaqqol sezilib turadi. Shuning uchun mustaqillik davri folklorshunosligi tamomila bir yangi folklorshunoslikdir. Bugungi kunda ham faol ijod qilib kelayotgan T.Mirzayev, O.Safarov, O.Madayev, M.Jo‘rayev, Sh.Turdimov, J. Eshonqulov kabi folklorshunos olimlarning izlanishlarini alohida ta’kidlab o’tish joiz.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan «O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari»ning 100 jildligi nashr etish yo‘lga qo‘yildi. Bu loyihaning amalga oshishi, shubhasiz, mamlakatimiz ma’naviy hayotida ulkan voqeа bo‘ladi.

Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kitobxonlikka, umuman ma’naviyat masalalariga alohida e’tibor qaratmoqdalar. Zero, ma’naviyat masalalari hamma davrda eng dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelgan. XX asr boshida ma’rifatparvar jadidchilar til, adabiyot va tarbiya masalasi o‘z davri uchun muhimligini urg‘ulashgan. Bu bejizga emas, millatning mavjudligi, erkinligi, ozodligi, taraqqiyoti uning tilidan, tafakkuri – ma’naviyatidan boshlanadi.

Biz bugun global jamiyatda yashayapmiz. Tilimizga, madaniyatimizga, o‘zligimizga bo‘layotgan ma’naviy tahdid ko‘lami ham globaldir.

Biz har qancha ma’naviyat to‘g‘risida qayg‘urmaylik, jon koyitmaylik, bizni qurshab turgan muhit ommaviy madaniyat ta’siri ostida ekan, bolalarimiz tili va tafakkuri shu madaniyat ostida shakllanayotgan ekan bizning qilayotgan

barcha urinishlarimiz o‘z samarasini bermaydi. Shu ma’noda bugungi folkloini o‘rganish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Inson ma’naviyatini yuksaltirishda folkloning o‘rnii haqida gap ketar ekan, aslida bu jarayon bolaning tug‘ilishidan boshlanadi. Momolarimiz, onalarimiz aytgan allalar, erkalamalar, aytimlar, topishmoqlar, tez aytishlar, ertak va qo‘shiqlar bolaning tili, dunyoqarashining shakllanishiga xizmat qiladi. Xalq o‘yinlari esa bolaning ham aqlan, ham jismonan ulg‘ayishi uchun muhim omillardan biridir. Bola ana shu qadim an’ana va qadriyatlar ichida voyaga yetadi, biroq bugungi global jamiyatda ulg‘aygani sari go‘yo bu muhitga begona bo‘la boshlaydi. Bu begonalik, eng avvalo, har qadamda o‘z ta’sir kuchini ko‘rsatayotgan ommaviy madaniyat ta’siridan boshlanadi. Bularning barchasi ma’naviyat ravnaqiga emas, aksiga xizmat qiladi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun esa, ta’lim jarayonining barcha bo‘g‘inlarida, maktabgacha ta’limdan to oly o‘quv yurtida til o‘qitishda, o‘rganishda folklorga va yana folklorga qaytib ish ko‘rish lozim bo‘ladi.

Xalqning til boyligi birinchi galda uning folkorida namoyon bo‘ladi. Biror bir xalqning qanday xalqligini bilish uchun uning folklorini o‘rganish zarur. Folklorda xalqning til imkoniyatlari, mushohada tarzi, ijodiy quvvati aks etgan bo‘ladi.

Og‘zakilik, variantlilik folkloning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, u xalq ijodi namunalari bevosita jonli ijro jarayoni bilan bog‘liq ekanligini namoyon etadi, ya’ni folklor asarlariga turg‘unlik xos emas, u har galgi ijroda o‘zgaradi, yangilanadi, bu esa badiiy til imkoniyatlarining yuksak namoyishi demakdir. Shuning uchun aytish mumkinki, folklor – shunchaki so‘z san’ati namunasigina emas, balki xalqning

til zaxirasi, tushuncha va tafakkur tarzini bor bo'y basti bilan o'zida aks ettirgan, olis o'tmishdan to bugungi kungacha jonli holatda xalqning o'zi bilan birga yashab kelayotgan doimiy harakatdagi tarixi va madaniyati hamdir.

Folklor asarlarida birinchi navbatda mifologik tafakkurdan poetik tafakkurga o'tish jarayoni aks etgan ekan, demak til tarixini o'rganishda xalq ijodi namunlariga suyanib ish ko'rish lozim bo'ladi. Tildagi hech bir so'z o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, u zarurat tufayli tarixiy taraqqiyot jarayonida yuzaga keladi va yoki o'zlashadi. Qachonlardir mifologik tasavvurni ifodalagan so'z keyinchalik o'zining asl ma'nosini unutib yoki dastlabki ma'no qatlami xiralashib, keyingi ma'no qatlamini yuzaga keltiradi. Bizzagi mavjud ertak, doston, qo'shiq va boshqa janrlar tahlilidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, folklor asarlarida ko'proq xalqimizning samoviy jismilar, o'simliklar olami va hayvonot dunyosi bilan bog'liq eng qadimgi tasavvurlari o'z ifodasini topgan. Bu tasavvurlar tilimizdagи ko'plab so'zlarining kirib kelishiga, obrazli badiiy tafakkur tarzining shakllanishiga zamin yaratgan.

O'zbek tilidagi «Bo'ri» so'zi bugun qaysidir o'rinda salbiy ma'nodagi so'z sifatida, ko'chma ma'nosida ishlataladi. Biroq dostonlarimizda doimiy ravishda keladigan «Chopinganda bo'riday» misralari, jonli tildagi «Bo'rimi, tulki» iborasi «Bo'ri» so'zining yuzaga kelish ildizlari qadimiy, totemistik tasavvurlar bilan bog'liq ekanini urg'ulaydi.

Alloma Hodi Zarifov: «Folklor asarlarining ilmiy va badiiy qiymati ularning lug'at boyligi bilan belgilanadi», – degan edi. Xalq dostonlari o'zbek tili tarixining serqatlamliligini va bo'yoqdorligini o'zida to'la mujassam etadi. Shuning uchun xalq dostonlarning tilini tadqiq etish bir tomondan til tarixining qadimiy ildizlari haqida kengroq ma'lumot bersa, ikkinchi tomondan hozirgi zamon o'zbek adabiy tilini

to‘laqonli o‘rganishda, uni boyitishda asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Baxshilarimizning xalq tili imkoniyatlaridan unumli foydalanishi, har galgi ijroda bu badiiy til tovlanishi, uning yangicha mazmun va mohiyat kasb etishi epik ijodning o‘ziga xos xususiyatidir. Chunki, xalq og‘zaki ijodi og‘zaki ijro etilgani uchun emas, balki og‘zaki ijro jarayonida yuzaga keladigan san’at asari bo‘lgani uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa jonli ijro jarayonini, ya’ni epik ijod tilini bilmasdan turib uning badiiyati haqida so‘z yuritib bo‘lmasligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tili ijod namunalarida tilimizning dialektologiyasi, leksikologiyasiga oid juda ko‘p qimmatli so‘z va iboralar mavjud. Bu so‘z va iboralarni, ayniqsa xalq ijodining gultoji hisoblangan dostonlarimiz tilini o‘rganish nafaqat o‘zbek tili, balki umumturkiy til uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, dostonlarimiz tili nafaqat folklorshunoslarimiz uchun, balki tilshunoslarimiz, barcha til o‘rganuvchilar uchun ulkan manba va tadqiqot obyekti bo‘la oladi.

Folklor asarlari leksikasini tadqiq qilar ekanmiz, biz unda hozirda iste’molda bo‘lgan sheva va arxaik so‘zlar bilan bir qatorda bugungi kunda qadimiy ma’nosи o‘zgargan yoki unutilgan so‘zlarni ham ko‘plab uchratamiz. Demak, adabiy til leksikasining shakllanishi, rivojlanish va o‘zgarish bosqichlarining xususiyatlarini aniqlashda epik ijod namunalari alohida o‘rin tutadi. Ulardagi qadimiy so‘z va birikmalarning lug‘atini o‘rganish nafaqat folklorshunoslik, balki tilshunoslik oldidagi eng dolzarb vazifalardan biridir.

Tilni o‘rgatishda folklor asarlarining janriy xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish talab etiladi. Doston, ertak kabi yirik epik janrlar til taraqqiyotida qanchalik muhim o‘rin tutsa, qo‘shiqlar, maqol, matallar kabi eng kichik janrlar ham birdek qimmatli va ahamiyatlidir.

Folklorning yozma adabiyotga ta'siri, umuman so'z san'ati haqida gap ketar ekan, folklor ko'plab san'atlarning ibtidosi ekanini, badiiy ijod, musiqa, raqs va tasviriy san'at ildizlari folklor bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Qaysiki ijodkor folklor an'analari ichida yashagan, uni o'ziga singdirgan bo'lsa, o'sha ijodkorning asari til jihatdan ham, badiiylik nuqtai nazaridan ham ancha mukammal ekanligi kuzatiladi. Zero, milliy ong va tafakkurning shakllanishida badiiy asarning o'rni beqiyosdir. Yuksak saviyada ijro etilgan yoxud yozilgan har qanday badiiy asar bu, eng avvalo, til hodisaside. Ona tilning eng go'zal jihatlarini, nozik tovlanishlarini namoyish eta olgan asargina mukammal asar hisoblanadi. Har bir tilning o'ziga xos milliy fazilatlari va go'zalliklari bo'ladi. Ana shu fazilatlar va go'zalliklarni faqat yuksak saviyadagi asarlarga namoyish eta oladi. Bunday asarda til yana bir bor yangilanadi, u yana bir yuksak pog'onaga ko'tariladi. Bunday asar tafakkurni yangilaydi, tilga mehr uyg'otadi, tilimizni har xil buzilishlardan asraydi.

Xulosa qilib, aytganda, bugungi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda, ma'naviyatini yuksaltirishda ko'plab usullar, vositalar, metodlar mavjud. Biroq bu usul va metodlar, birinchi navbatda, so'z san'atining ibtidosi sanalgan folklor namunalariga suyanilgan holda amalga oshirilsa, yanada samarali va ta'sirchan bo'ladi.

Xalqimizning milliy taraqqiyotida, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy yuksalishida folklor, umuman badiiy so'z san'ati hamisha tayanch nuqta bo'lib kelgan. Zero, folklor bu millatning quvvati, tirikligi va buyukligidir.

Bugungi global jamiyatda davlat chegaralari qo'riqlangani, muhofaza etilgani kabi millat tili va tafakkuri, estetik didi ham xuddi shunday asrab avaylanishga, qattiq himoyaga muhtojdir.

2 Folklor atamasi, yetakchi xususiyatlari, tur va janrlari.

Folklor atamasini 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo‘lib, «xalq donoligi» degan tushunchani ifodalaydi. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san’at namunalari – me’morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo‘zlik, musiqa, raqs, og‘zaki adabiyot namunalari tushuniladi. Har bir san’at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o‘zi tanlagan turni «folklor» deb ataydi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqlarini, arxitektor xalq me’morchiliginini, folklorshunos olim xalq dostonlari, ertaklarini folklor asari deb hisoblaydi.¹

Dastlabki vaqtarda «el adabiyoti», «xalq adabiyoti», «og‘zaki adabiyot», «og‘zaki ijod» deb yuritilib kelingan o‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi ilk bor H.Zarif (1934-35 yillar) tomonidan qo‘llanilgan «folklor», «O‘zbek folklori» sifatida keng ommalashdi.

O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi ko‘plab janrlardan tarkib topgan og‘zaki so‘z san’ati namunalari bo‘lib xalq hayoti, tarixi, orzu-tilishlari, dunyoqarashlarini badiiy tarzda o‘zida aks ettiradi, ijro etiladi va ijro jarayonida og‘izdan og‘izga, avloddan avlodlarga o‘tib keladi.

Folklor – sinkritik xususiyatga ega bo‘lib, barcha san’at turlariga xos elementlarni o‘zida mujassamlashtirgan, so‘z, kuy va ma’lum turlarida raqs bilan uyg‘unlikda ijro etiladi.

Folklorda xalq hayoti, tarixi, taqdiri badiiy aks etadi. Folklor asarlari mag‘zida xalqning dunyoqarashlari, ibridoiy mifologik tushunchalardan mukammal diniy e’tiqodga bo‘lgan tushunchalar tadrijiy ravishda bo‘y ko‘rsatadi.

Folklor asarlari so‘z san’ati sifatida o‘ziga yaqin yozma adabiyot namunalari va san’atning boshqa turlaridan bir qator xususiyatlariga ko‘ra alohida ajralib turadi. Folklorga

¹ Introduction to Folklore. London, 2008. Page7

xos bu xususiyatlar, avvalo, uning jamoaviy (kollektiv) ijod ekanligida, shu sababli ham folklor namunalarining muallifi xalq ommasi hisoblanadi, ularning aniq ijodkori noma'lum – anonimlik ularga xos va xalq orasida avloddan avlodga og'zaki tarzda o'tib tarqaladi, og'zaki ijod etilib, ijro qilinadi, ijro va ijodda an'analarga rioya etilib, ommaviylik tusini oladi, ijro jarayonida variantlarga va davrlar o'tib versiyalarga ega bo'ladi. Ushbu asosga ko'ra, folkloriga xos xususiyatlar sifatida jamoaviylik, anonimlik, og'zakilik, an'anaviylik, variantlilik va versiyaviylik ko'rsatiladi.

Jamoaviylik – o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi xalq tomonidan yaratiladi. Ammo jamoaviylik shaxsiy ijodkorlik imkoniyatini inkor qilmaydi, aksincha, uni zaruriy dastlabki shart sifatida qamrab oladi. Tabiatda tomchilardan jilg'alar, jilg'alardan daryolar paydo bo'lishini ko'ramiz, biroq daryodan bir hovuch yoki bir ariq suvni ajratib, bu falon jilg'aning suvi deyish mumkin bo'limganidek, an'anaviy xalq qo'shig'i, dostoni yoki ertagidan bir band yoki qismni ajratib biror individual ijodkorga nisbat berish qiyin. Ammo bu ijodkor, albatta, bo'lgan. Xalq ijodi namunalari ana shunday kollektiv ijod mahsuli bo'lganligi uchun asarlarning bosh qahramoni yoki «men»i ham o'z xarakteri jihatidan yozma va og'zaki adabiyotda sezilarli farqlanadi. Folkloarning qahramoni tipik holatga kelgan umumiyligiga, tom ma'noda xalq ommasiga tengdir.

Xalq turmushining, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning takomillasha borishi, inson tafakkurining mifologik tafakkurdan mifopoetik va badiiy-estetik tafakkurga o'tish jarayonida alohida ijrochilar – qo'shiqchilar, ertakchilar, baxshilar, qiziqchilar va boshqa ijodkorlar, ijro maktablari, ustoz va shogirdlik munosabatlari paydo bo'ldi. Xalq orasida o'z iqtidori, ijro san'ati bilan ajralib turuvchi: Tilla kampir,

Sulton kampir, Jalmon baxshi, Bo'ron shoir, Jumanbulbul, Jassoq shoir, Xonimjon xalfa, Bibi shoir, Suyav baxshi, Amin shoir, Yo'ldoshbulbul, Sultonmurod, Qurbonbek, Xidir shoir, Yo'ldosh shoir, Suyar shoir, Sherna yuzboshi, Mulla Xolnazar, Haybat soqi, Qunduz soqi, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'lkan Jonmurod o'g'li, Islom Nazar o'g'li, Nurmon Abdivoy o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li, Abdulla shoir, Umir shoir, Xolyor Abdukarim o'g'li, Bola baxshi, Rahmatulla Yusuf o'g'li, Qodir Rahim o'g'li va boshqa namoyandalar yetishib chiqdi. Bu xil ijodkorlarning iste'dodi, iqtidori, mehnatlari tufayli kollektiv dahosi bilan yaratilgan asarlar avloddan avlodga o'tdi, sayqallandi, yuksak badiiy darajaga yetdi, folkloarning mumtoz namunalari bizga meros bo'ldi.

Anonimlik – folklor asarlari mualifining noaniqligi – anonimligi (grek. Anonymis – noma'lum) bilan ajralib turadi. Folklorda biror-bir muallif yo'q. Xalq dostonimi, ertakmi yoki marosim qo'shig'imi ularni ibtidoda kim va qachon yaratgani aniq emas. Har bir asar avloddan avlodga o'tar ekan, vaqt va zamon talablariga ko'ra ma'lum o'zgartishlarga uchrashi mumkin, lekin uning asosi, an'analarini o'zgarishsiz kelaveradi. Folklorda biror-bir asarni kimdir dastlab yaratgan bo'lishi mumkin, lekin bu asar syujeti, tasvir vositalari, ohang yo'llari xalq og'zaki ijodi an'analariga tayanilib ijod etilsa, u folklor asari bo'lib qoladi. Vaqtlar o'tishi davomida xalq ijrochilari tomonidan yanada ishlov berilib, chinakam folklor namunasiga aylanadi. Folklorshunos Omonilla Madayev ta'kidlaganidek: «Anonimlik xalq og'zaki ijodida xalq vakillarining o'z xalqiga xolis, beminnat xizmat qilish namunasi sifatida qadrlanadi». ¹

¹ Madayev. O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent: «Mumtoz so'z», 2011.
– B.15.

Og‘zakilik va badihago‘ylik – xalq ijodiyotining yashash va yaratilish tarzi. Folklor xalqning xotira manbaidan, xotiraning og‘zaki ravishda avloddan avlodga, og‘izdan og‘izga ko‘chishidan paydo bo‘ladi. Bu o‘rinda umumfolkloriy bilim va folklor an’analari asos vazifasini o‘taydi. Xotira manbayi va folkloriy bilim bir yoki bir necha shaxslargagina tegishli bo‘lmay, butun bir xalqning bilim va an’analaridan iborat bo‘ladi. Bu bilim va an’analar ustozdan shogirdga, avloddan avlodga, urug‘dan urug‘ga o‘tib, yangi davr ruhida, yangi ijrochilar va ijodkorlar salohiyatidan sayqal topib yashaydi. Bu xil sayqallanish u yoki bu folklor asarining shakli va mazmuniga qandaydir o‘zgarish kiritishi – nimaningdir qo‘shilishi yoki tushirib qoldirilishida bo‘y ko‘rsatadi. Aytaylik, biror-bir tarixiy fakt unutilishi sababli asardan tushib qolishi mumkin. Yoki dostondagi qo‘shiq qismining unutilishi uning ertak shaklida yashashini tayin etsa, aksincha, biror-bir iste’dodli ijodkor ijrosi sababli ertak syujeti asosida yangi doston paydo bo‘lib an’ana ko‘rinishini olishi mumkin. Bu holatlar og‘zakilikning jonli harakatdagi jarayoni sifatida folkloarning yashash tarziga xos belgilari hisoblanadi. Zotan, folklor og‘izdan og‘izga ko‘chib yashasa, adabiyot yozuv vositasida yashaydi. Folklor asari og‘zaki ijobi etilib kuylansa, adabiyot esa faqat o‘qiladi.

Ijrodagi og‘zaki folklor namunasining keng tarqalishiga, ommalashishiga yordam beradi. Biroq mohir ijrochining biror davrada yuksak badiiy mahorat bilan ijob etgan variant, yozib olinmasa, ijodkor vafotidan keyin aynan shu namuna ham yo‘qolishga mahkum bo‘ladi. Bu ikki holat og‘zakilikning ijobiy va salbiy jihatlaridir.

Ta’bir joiz bo‘lsa, badihago‘ylik – improvizatsiya xalq asarlariga jon bag‘ishlovchi xususiyatdir. Badihago‘ylik hamisha ijroga shukuh, fayz bag‘ishlagan. Badihago‘ylik

ijrochining ilhomiga bog'liq. Folklor ekspeditsiyalari paytlarida talabalarimiz qo'shiqchilarning o'ylamagan tarzda qo'shiq to'qib yuborganliklarini havas bilan eslashadi. Ayniqsa, hozirjavoblik, zukkolik talab qiladigan askiya janrini badihago'yliksiz tasavvur qilish mumkin emas.

An'anaviylik – folkloarning o'ziga xos yashash tarzini, uslubini, ifoda vositalarini ta'min etuvchi yetakchi belgilaridan hisoblanadi. Folklor tom ma'noda an'analar san'atidir. An'anaviylik xalq ijodida u yoki bu asar matnining, iじro usullarining og'izdan og'izga o'tish jarayonida nisbatan barqarorliginigina anglatib qolmaydi, balki o'sha asarning avloddan avlodga o'tish jarayonida dastlabki ijroga xos xususiyatlarini nisbatan o'zgarmagan holda saqlab qolganini ham anglatadi. An'anaviylik – jamoaviy ijod mahsuli va yashash tarzi, shu bilan birga folkloarning folklor asarini jamoaviy holda saqlab qolishning ham o'ziga xos shakli, omili hisoblanadi. Og'zakilik folkloarning ijro usuli va yashash tarzi bo'lib, o'z navbatida, xotirada ijrochidan ulkan xotirani, yoddan aytishni, eslamoqni, vaziyatga mos tayyor shakl va ifoda vositalarini badiha qilishni taqozo etadi. Bu o'rinda folklordagi an'anaviylik eng qulay va ishonchli quvvat zaxirasi hisoblanadi. O'zbek baxshi-shoirlari orasida ko'plab an'anaviy dostonlarni, qanchadan-qancha termalarni bilgan, kuylagan, yana o'zi to'quvchi – badihago'yliarning borligi – shu an'anaviy ehtiyojning hosilasidir. An'anaviylik xalq musiqasi, raqsi va amaliy san'atining ham o'ziga xos belgisi sanaladi.

An'anaviylik o'zining ijtimoiy-tarixiy manbalariga ega. Folkloarning ilk namunalari ibridoiy jamiyatda yaratilgan, ularda o'sha davrga xos dunyoqarashlar, urf-odatlar izlari aniq seziladi. Bu hol folklor asarlari shakli, syujeti, obrazlari va motivlarining muayyan barqarorlik kasb etishining mahsuli

hisoblanadi. Masalan: badik, kinna, buray-buray janrlari, shuningdek, «Sust xotin», «Choy momo», «Barot keldi» marosimlari aytimlarida bu holatni kuzatishimiz mumkin.

Ommaviylik. Folklor asari xalq orasida ommaviy yashaydi. Folklor asarining ijro etilishi, omma tomonidan qabul qilinishida umumiy folkloriy, epik bilimning o'rni katta. Folkloriy bilimning, xususan, epik bilimning unutilishi xalq og'zaki ijodi namunalarining anglanishida ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi. Ayniqsa, folkloriga xos timsollar, ramzlarning omma xotirasidan ko'tarilishi bu namunalarning mazmunini jo'n qabul etilishiga sabab bo'ladi. An'analar omma tafakkurida uzoq davrlar davomida yashaydi, omma folklor asarlari «loyi»ni pishitib beruvchi, ijodkorlar esa bu loydan «imorat»ni har ijroda «qayta» yaratuvchilar sanaladi.

Variantlilik va versiyaviylik – folklor namunalarining har bir ijrosi o'ziga xos variant hisoblanadi. Folklor asari ijro jarayoni davomida qaytadan yaratiladi, yangi yashash holatiga kiradi va bu holat o'ziga xos variantni paydo etadi. Ya'ni folklor ijro jarayonida xilma-xil variantlarda yashaydi. Variantlilik folkloarning yashash tarzi. Variantlilik folklor tabiatи, uning yaratilishi va jonli og'zaki ijodda yashash qonuniyatlaridan kelib chiqqan xususiyat bo'lib, u folklor asarlarining syujetи, obrazliligi, poetikasi, janr xususiyatlarini to'la qamraydi. Variant – ma'lum bir asarning jonli og'zaki epik an'ana zaminida vujudga kelgan, bir-birini inkor etmasdan yonma-yon yashay oladigan va o'zaro farqlanuvchi turli-tuman nusxalaridir. Variantda asar syujetи, motivlar tartibi, qahramonlar harakatida umumiylig bo'lib faqat ularni talqin etishda, tasvirlashda, ifoda shakllarida ma'lum bir farqlar bo'lishi mumkin. Ijodkor vaziyatga ko'ra u yoki bu motiv tasvirini cho'zishi yoki qisqa shaklda kuylashi yoki tushirib qoldirishi mumkin.

Variant folklor asarlarining ommaviyligini aniqlashda, tarqalish chegaralarini belgilashda, folkorda kechayotgan o'zgarishlarning sabablarini o'rganishda va ijro jarayoni bilan bog'liq qonuniyatlarni tadqiq etishda boy materiallar berishi bilan ham ahamiyatlidir.

Variantlilikning muhim bir xususiyati ma'lum bir versiya ichida mavjud bo'lishidir. Versiya mohiyatan birmuncha keng hodisa bo'lib, biror-bir asarning turli talqinlarda, kompozitsion qurilishda, ba'zan qahramonlarning o'zgacha nomlanishida keluvchi yagona syujet va janr doirasidagi namunalarini o'z ichiga oladi. Versiyalar ma'lum bir urug' va qabilalarning turli joylarga tarqalib, turli ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tishi u yoki bu asarning o'zaro yonma-yon, qo'shni yashayotgan xalqlar orasiga yoyilishi sababli paydo bo'ladi. Masalan, «Algomish» va «Go'ro'g'li» dostonlarining qarindosh va qo'shni xalqlar orasida mavjud versiyalarini keltirib o'tish mumkin.

Folkorda tur va janrlar. Xalq og'zaki ijodi namunalari ham barcha san'at asarlari kabi tuzilishi, ijro o'rni, ko'rinishi, bajaradigan vazifasi, musiqaga bog'liqlik darajasi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga ko'ra muayyan tur, guruh va janrlarga bo'lib qaraladi. Bu xil tur, guruh va janrlarga ajratish, tasniflash nafaqat ijrochilar, balki tinglovchilar, hodisani tadqiq etuvchilar uchun ahamiyatli bo'lib, folklor namunalarining tabiatи, shakllanishi, tadrijiy taraqqiyoti, u yoki bu tur va janrlarning paydo bo'lishi, mukammal shaklga kelishi, o'zgarishlarga uchrashi, o'rin almashinishi va inqirozga yuz tutishi kabi jarayonlarni kuzatish, o'rganish imkonini beradi. Folklor asarlari o'z tarkibiga ko'ra uch turdan iborat ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ularni umumiy shaklda epik, lirk, dramatik turlarga ajratib tasnif etish qabul qilingan. O'z navbatida bu turlar ichki janrlardan tashkil topgan. Epik

tur namunalarida voqelik keng ko‘lamli, obyektiv syujetlikoyaviy shakllarda tasvirlansa, lirk turda subyektiv holda insonning voqelikdan olgan taassurotlari, ichki hishayajonlari aks etadi. Dramada esa personajlarning nutqi va harakatlari orqali voqelik tasvirlari beriladi. Epik tur – doston, ertak, afsona, rivoyat, naql, latifa va boshqa janrlardan, lirk tur – marosim lirkasi, mehnat qo‘shiqlari, tarixiy qo‘shiqlar, lirk qo‘shiqlar, alla, bolalar qo‘shiqlari, dramatik tur esa og‘zaki drama, qo‘g‘irchoq o‘yin, askiya kabi namunalarni o‘zida qamraydi.

Folklorshunoslikda tur deyilganda voqelikni ifodalash yo‘li, usuli tushunilsa (epik, lirk, dramatik), janr deganda badiiy shakl tiplari (doston, ertak, qo‘shiq, maqol...) tushuniladi. Ammo har bir janr ham ichki xilma-xilliklarga ega, bu uning mavzu mohiyatidan kelib chiqadi. Masalan, ertaklarning ichki ko‘rinishlari sifatida hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklar kabi xillari mavjud. Bir qator mutaxassislar maqol va topishmoqlarni maxsus tur sifatida tilga olib o‘tishadi.

Folklor janrlarini ijro xususiyatlari va funksiyalariga ko‘ra ikki yirik guruhga ajratib tasnif etish keng tarqalgan:

1. Marosim folklori janrlari. 2. Marosim bilan bog‘liq bo‘limgan folklor janrlari. Folklor asarlarining kimga mo‘ljallanganligini hisobga olib ham ayrim guruhlarga bo‘lish mumkin. Bolalar folklorini alohida olib ajratish shundan kelib chiqqan.

Folklorshunoslikda gohi-gohida turlar aro qorishiq holatda uchrovchi namunalarga nisbatan liro-epik qo‘shiq yoki ertak afsona singari atamalar qo‘llanilsa-da, bu holat umumiy holat emas.

Xalq badiiy tafakkurining tarixiy taraqqiyot darajasi folklor namunalarining tadrijida aks etgani kabi u yoki

bu janrning yuzaga kelishi, turg'unlashuvida muhim o'rin egallaydi. Insoniyat mifologik tafakkur bosqichidan mifopoetik, so'ngra badiiy estetik tafakkur tadrijiga erishdi. O'zbek folkloridagi aksariyat janr namunalari aynan badiiy estetik tafakkur darajasida mumtoz holatga kelganligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ham o'zbek mifologiyasi xususida so'z ketsa, xalq dostonlari, ertaklari mag'zida turuvchi mifologik tasavvurlarni, ularning bu asarlar syujeti, yetakchi motivlari va obrazlar qatidan ajratib, tiklab qarash lozim bo'ladi.

O'zbek folklori janrlar tarkibi boyligi, xilma-xilligi bilan alohida ajralib turadi. Bu o'rinda dunyoning barcha xalqlari uchun umumiy bo'lgan – ertak, maqol, topishmoq kabi janrlar qatorida askiya, lof kabi faqat o'zbek xalq ijodiga xos janrlar mavjudligiga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

O'zbek folklori janrlari xilma-xilligi ijodkorlarning faoliyati va ularning professionallashuvi bilan ham chambar-chas bog'liq. Xususan, doston, ertak, og'zaki drama, askiya kabi janrlar ijrosi maxsus tayyorgarlikni, muayyan ustozdan ta'lim olishni talab etadi. Bu janrlar ijrosi maxsus maktablarning paydo bo'lishini, ularning o'z an'analari doirasida shakllanib rivojlanishini ta'minlaydi.

O'zbek folklori janrlari ijro usullari, ya'ni yakka ijro, jamoaviy ijro, sozli va sozsiz ijroga ko'ra ham farqlanadi. Ertak, afsona va rivoyat aytilsa, doston ham kuylash, ham ijro etishga mo'ljallangan. Lapar kuylab va raqsga tushib ijro etilsa, og'zaki drama namunalari so'z (ba'zan kuylab, kuy jo'rligida) va harakat omuxtaligida ko'rsatishga, namoyish qilishga mo'ljallangan. O'lanlar tarafma-taraf kuylangan. Latifa va loflar yakka ijro etilgan.

O'zbek folklorining janrlar tizimi g'oyaviy-badiiy prinsiplarining umumiyligi, tarixan taraqqiy etgan o'zaro

mushtarak munosabatga egaligi bilan yaxlit tizimni tashkil etadi. Ularning barchasida xalq hayoti, uning o‘zligini namoyon etuvchi xususiyatlar, ruhiyat, orzu-intilishlar aks etadi. Folklorning barcha janrlari uchun badiiy-estetik prinsiplar ham umumiy ko‘rinishga kelgan. Sodda shakl, donishmandlik, badiiy-tasviriy vositalar tizimidagi umumiylilik, ramziylik, shartlilik, qahramonlarning yuksak axloqiy mezonlar asosida aniq bahoga egaligi, syujet va kompozitsion qurilishdagi an’anaviylik ustuvor ko‘rinish oladi.

Xalq bilan birga tug‘ilgan bu xususiyatlar xalqning tarixi, madaniyati, turmushi, e’tiqodi va tiliga xos xususiyatlarni, milliy o‘ziga xoslikni yorqin ifoda etadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Mustaqillik davrida va mustaqillikdan oldingi davrda folklor asarlari nashri, tadqiqi borasida qanday o‘zgarishlar bor?
2. Inson ma’naviyatini yuksaltirishda xalq og‘zaki ijodining o‘rni nimalarda namoyon bo‘ladi?
3. “Folklor” atamasining mazmun-mohiyati, xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘zlang.
4. Folklordagi tur va janrlar haqida umumiy ma’lumot bering.
5. San’at asari qanday fazilatlarga ega bo‘lishi lozim deb o‘ylaysiz?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajakni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

3. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T., «Musiqa», 2010.
4. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: «Mumtoz so‘z», 2010.
5. Madayev O., Sobitova T. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T., 2005.
6. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – T., 2009.
7. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 1-kitob. T., 2006.
8. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 2-kitob. T., 2010.
9. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. T., 2010.
10. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. – T.: Fan, 1995.
11. Turdimov Sh. Etnos va epos. – T.: O‘zbekiston, 2012.
12. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. – Toshkent: Fan, 2006.
13. Introduction to Folklore. London, 2008.

2-MAVZU. MIF VA UNING MOHIYATI. AFSONA, RIVOYAT, NAQLLARNING BADIYATI

Reja:

- 1. *Mif va uning mohiyati.***
- 2. *Miflarning tasnifi va tadrijiy rivoji bosqichlari.***
- 3. *Afsona, rivoyat, naql janrlari.***

1. Mif va uning mohiyati. Mif qadimgi odamning borliq haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmuyi bo‘lib, koinotning yaratilishi, inson, o‘simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo‘lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma’budlar va ilohlar to‘g‘risidagi e’tiqodiy qarashlarni o‘z ichiga olgan. Hali o‘zini tabiatdan ajratib olmagan qadimgi odam o‘z atrofidagi moddiy mavjudlikning paydo bo‘lish sabablarini mifologik tasavvurlar vositasida izohlashga, tushuntirishga harakat qilgan. Mif qadimgi odamning voqelikka bo‘lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasi bo‘lib, tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qadimgi tasavvurlar silsilasidir. Mifologik tasavvurlar muayyan voqelik mohiyatini xayoliy uydirma vositasida izohlasa-da, mif yaratilgan va ommalashgan joyida o‘z ijodkori va ijrochilar tomonidan haqiqatda bo‘lib o‘tgan voqealar bayoni sifatida qabul qilingan.

Qadimgi odamning tabiatni tushunishi va voqelikni idrok etishi g‘oyat murakkab tafakkur hodisasi hisoblanadi. Ajdodlarimiz o‘zini o‘rab olgan moddiy olamning sir-asrorlarini tushunishga, tabiiy hodisalarning mohiyatini anglashga harakat qilar ekan, butun borliqni borlig‘icha qabul qilgan. Moddiy olamdagи voqelikni idrok etishda obrazlilik va poetik ramzlardan foydalanish esa badiiy ijodga xos belgi

bo‘lib, voqelikka ongli hissiy munosabat bildirishga asoslanadi. Dunyodagi moddiy mavjudlikning paydo bo‘lishi, muayyan tabiiy hodisalarining ro‘y berish sabablari, tabiat va inson munosabati masalalari qadimgi odam ongida asotiriy tarzda talqin qilingan. Olam haqidagi ana shu eng qadimgi e’tiqodiy qarashlar asosida dastlabki mifologik tasavvurlar tizimi kelib chiqqan. Mahmud Koshg‘ariy «Devonu lug‘otit turk» asarida «sav.» so‘ziga izoh beradi. Olimlarning ta’kidlashicha, bu so‘z ajdodlarimiz aytgan birinchi gaplardan iboratdir. «Savlashmoq» esa otalar so‘zini eslab suhbatlashmoqdir. Demak, «sav» so‘zining ham mif ma’nosiga yaqin jihatni bor. Mif – qadimgi odamning voqelikka bo‘lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasidir.

«Totemizm» so‘zi lug‘at va qomusiy kitoblarda qayd etilishicha, «uning urug‘i»dan olingan ekan. Shimoliy Amerikada yashovchi qabilalardan biri kishilar bilan hayvon va o‘simgiliklarning muayyan turlari o‘rtasida qon-qarindoshlik bor deb hisoblaganlar. U hayvonlar ov qilinmagan, o‘ldirilmagan, go‘shti yeylimagan. O‘simgiklar esa e’zozlangan. Bu odad dunyodagi hamma xalqlarning e’tiqodida ham bor bo‘lib, bugungi kungacha saqlanib kelmoqda. Turkiylarda ot, qo‘y, echki kabi hayvonlar, g‘oz, o‘rdak, qaldirg‘och kabi qush, parrandalar totem hayvon sifatida e’zozlangan.

«Fetishizm» so‘zi lug‘at va qomusiy kitoblarda portugalcha «feitico», fransuzcha «fetiche» – sehrli narsa ma’nosini ifodalashi qayd qilingan. Uning asosini qadimgi zamon odamlarining jonsiz narsa-predmetlarda ilohiy fazilat bor deb tushunishlari tashkil etadi. Ma’lumki, inson hayoti davomida o‘zi bilmagani holda quyosh, oy, yulduzlar, tog‘, suv kabi narsalar bilan ham munosabatda yashaydi. Ayniqsa, quyosh, suv inson taqdirda muhim ahamiyat kasb etadi. Qadim zamonlarda yashagan ajdodlarimiz o‘zlaricha pichoq, non,

o‘choq, tandir, do‘ppi, kitob, supra, ayniqsa, o‘q, yoy kabi narsalarni ham muqaddas hisoblaganlar.

Fetishizm tushunchasida turli narsa-predmetlardan tash-qari ranglar, tush ham saqlanib qolgan. Oq, qora, ko‘k, yashil, qizil, malla kabi ranglar muayyan ma’noni bildirgan. O‘zbekiston bayrog‘idagi yashil, oq, ko‘k, ular oralig‘idagi qizil, burchakdagi oy va 12 yulduzlarning hammasida ramziy ma’nolar mujassamlashgan. Odatda, yashil yoshlik, qizil, bir tomondan to‘kilgan qon, ikkinchi tomondan, qizlik g‘ururi, oq hayot, qora, bir tomondan fofja, ikkinchi tomondan, buyuklik, ulug‘lik, malla yetuklik, balog‘at ma’nolarini aks ettirgan.

«Animizm» lotin tilidagi «anima»dan olingan bo‘lib, ilmiy adabiyotlarda jon, ruh ma’nosini anglatishi ta’kidlanadi. Animizmga binoan qadimgi ajdodlarimiz dunyodagi hamma narsaning joni bor, deb bilganlar. Ibtidoiy davrda inson tana va ruhdan iborat hisoblangan. Ular ham ruh tanani tark etganda inson o‘ladi, deb o‘ylashgan. Har bir narsaga bu tushuncha tatbiq etilgan. Shuning uchun mifologiyadagi totemizm va fetishizm hodisalariga ishonch bildirishni, ularning mavjudligiga bo‘lgan e’tiqodiy munosabatni animizm bilan bog‘lash ma’qul. Soddaroq qilib aytganimizda, odamning totemizm va fetishizm hodisalariga ishonishi uyg‘un holatda animizmda namoyon bo‘ladi. So‘zning magik – mo‘jizaviy kuchidan foydalanib inson ruhiyatiga ta’sir etish, uni xastalikdan ozod qilish, tabiatiga ruhiy tetiklik bag‘ishlash animizm fazilatlari hisoblanadi. Shuning uchun xalq baxshilar deganda baxshilik, ya’ni shifo bag‘ishlash ma’nosini saqlanib qolgan.

Mifologik tasavvurlar olamning yaratilishi, o‘simplik va hayvonot dunyosining yuzaga kelishi, odamzotning paydo bo‘lishini xayoliy uydirma vositasida izohlasa-da, mif o‘z ijodkori va ijrochilarini tomonidan bo‘lib o‘tgan voqealar

bayoni sifatida baholangan. M.I.Steblin-Kamenskiyning ta'kidlashicha, «mif – bu muayyan voqelik bayoni bo'lib, unda hikoya qilingan voqeа-hodisa nechog'lik uydirma bo'lmasin, yaratilgan va yashab kelgan joyida u hamisha haqiqat, real voqelik ifodasi sifatida qabul qilingan. Albatta, mifni o'rganadigan tadqiqotchi undagi uydirmaga ishonmaydi. Shuning uchun ham mif bugungi kunda haqqoniy hayotiy voqelik ifodasi sifatida anglashilmaydi. Shu tariqa tadqiqotchining mif haqidagi o'z tasavvuri, ya'ni «mif – uydirmadir» degan qarashi yuzaga keladi. Yaratilgan va ommalashgan joyida mif aslida real voqelik ifodasi deb tushunilgan» (Стеблинъ-Каменский М.И. Миф. – Л: Hayka, 1976. – С.4-5).

O'zbek tilida qadimgi ajdodlarimizning tizimli shaklda ifodalangan, so'z (hikoya qilish), harakat (marosimiy raqlar) va tasvir (qadimiyoq osori-atiqalar, qoyatosh suratlari va h.k.) orqali bayon etilgan mifologik tasavvurlari o'zbek tilida «asotir», «mif» kabi atamalar bilan nomlanadi. XI asrda yashagan buyuk tilshunos olim Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida mif tushunchasi «sav» so'zi bilan ifodalangan. Bu so'z qadimgi turkiylar tilida «xabar», «maqol», «qissa», «hikoya», «so'z», «nutq» ma'nolarini anglatgan. Mahmud Koshg'ariy o'z asari uchun material to'plaganida turkiy qabilalarining mifologik tasavvurlarini ham sinchiklab o'rgangan. Zero, «Devon»da qush tuxumidan chiqqan it – «baroq» to'g'risidagi mif hamda, Oltin qoziq (Temir qoziq) yulduzlarini haqidagi samoviy qarashlar keltirilganligi ham shu fikrni tasdiqlaydi. «Qazunuq» - qoziq. Qutb yulduzini «Temur qazunuq» deyish ham shundandir. «Temir qoziq» demakdir. Chunki osmon buning ustida aylanadi» («Devon», 3-jild, 3393-bet), - deb yozadi Mahmud Koshg'ariy. Olim «ko'k tubulg'on» so'ziga izoh berib,

quyidagilarni yozadi: «ko‘k tubulg‘on – bir qushning nomi. Aytishlaricha, bu qushning ikki qanotida po‘lat bo‘ladi va qanoti bilan toqqa urib, bir tomondan boshqa tomonga o‘tadi. Bu so‘zni menga o‘zim foydalananib yurgan bir kishi aytdi» («Devon», 1-jild, 474-bet).

Ko‘rinadiki, bu mifologik afsonada qadimgi turkiylar folklorida mavjud bo‘lgan xayoliy qush to‘g‘risidagi xalq qarashlari o‘z ifodasini topgan. O‘zbek tilida qattiq patlari o‘sib chiqqan qush poloponini «temirqanot bo‘libdi» deb ta’riflashda ham ana shu ko‘hna tasavvurlarning izi saqlanib qolganga o‘xshaydi.

2. Miflarning tasnifi va tadrijiy rivoji bosqichlari. O‘tmishda yashagan ajdodlarimizning olam haqidagi tasavvurlarini o‘zida jamlagan, uning dunyoqarashini ifodalagan va avloddan avlodga yetkazishga mo‘ljallangan miflarning ommalashish usullari ham turlicha bo‘lib, asosan, jonli og‘zaki ijro orqali, so‘z vositasida hikoya qilib berilgan. Ya’ni mif – afsona janrining badiiy shakli asosida bayon etilgan.

Mifologik tasavvurlar ibridoiy udum va marosimlarda ritual o‘yinlar sifatida namoyish qilingan. Qadimgi tasavvurlar asosida yaratilgan osori-atiqalar hamda xalq hunarmandchiligi va amaliy san’ati asarlaridagi ramziy chizgilarda ham mifik syujetlar aks ettirilgan.

Ajdodlarimizning olam, tabiat hodisalari va ijtimoiy hayot xususidagi qadimiylar fantastik tushunchalarini o‘zida aks ettirgan miflar quyidagi turlarga bo‘linadi. 1) *ibtido haqidagi miflar* (olamning yaratilishi va yerda hayotning paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi miflar); 2) *samoviy miflar* (osmon jismlari va tabiat hodisalarining paydo bo‘lishi haqidagi miflar; 3) *antropogenik miflar* (g‘ayrioddiy xislatga ega bo‘lgan afsonaviy personajlar haqidagi miflar - masalan, Gerakl, Gilgamesh, Odami Od, Hubbi haqidagi miflar); 4) *kult miflari*

(muayyan e'tiqodiy inonchlar bilan bog'liq miflar, masalan, hosildorlik kulti, suv kulti, o'simlik kulti, olov kulti haqidagi miflar); 5) *totemistik miflar* (totem-ajdod haqidagi qadimgi tasavvurlar asosida kelib chiqqan); 6) *kalender miflar* (yil, oy, kun hisobi bilan bog'liq miflar - masalan, Ayamajuz, Ahman-dahman, chilla, to'qson hisobi bilan bog'liq miflar); 7) *o'lib-tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar* (masalan, Siyovush haqidagi mifologik syujetlar); 8) *animistik miflar* (jon to'g'risidagi qadimgi tasavvurlarni o'zida mujassamlashtirgan miflar); 9) *manistik miflar* (ajdodlar homiyligi haqidagi miflar); 10) *dualistik miflar* (ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rta sidagi kurash haqidagi asotiriy qarashlarni o'zida aks ettirgan miflar); 11) *esxatologik miflar* (olamning intihosi, oxir zamon to'g'risidagi miflar).

Insoniyat tafakkuri taraqqiyotining ilk bosqichi sifatida muhim amaliy ahamiyat kasb etgan mifologiya ibtidoiy madaniyatning negizi, olamni idrok etishning qadimiylar vositalaridan biri, badiiy tafakkurning ibtidosi hisoblanadi. Mifologiyaning asosini qadimgi odamning koinot, tabiat, inson, osmon jismlari, narsa va hodisalarning paydo bo'lishi haqidagi miflar tashkil etadi.

Mifologiyaning arxaik qatlami quyosh, oy va yulduzlar to'g'risidagi shamsiy, qamariy va astral miflar, olamning paydo bo'lishi haqidagi samoviy miflar, odamzotning yaratilishi haqidagi antropogenik miflar, qadimgi e'tiqodiy qarashlarni o'zida ifoda etgan totemistik, animistik va kult miflaridan tashkil topgan. Dehqonchilik madaniyat shakllangan hududlarda esa tabiiy-iqlimiylar o'zgarishlarning ramziy-metaforik talqinlari asosiga qurilgan taqvimiylar (kalender) miflar va o'lib-tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar keng tarqalgan. Xususan, Osiris (qadimgi Misr), Adonis (Finikiya), Dionis (Yunoniston), Siyovush (O'rta Osiyo) haqidagi

mifologik syujetlar shu tariqa yuzaga kelgan. O‘zining ilk taraqqiyot bosqichida eng sodda ibtidoiy inonchlardangina iborat bo‘lgan mifologiya insoniyat tafakkurining tadrijiy rivoji davomida olam, jamiyat va tabiat haqidagi asotiriy syujetlar, mifik obraz va tasavvurlar silsilasini o‘z ichiga olgan mukammal tizimga aylangan.

Ijtimoiy ongning animizm, totemizm, fetishizm kabi qadimi shakllari mifologiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Ibtidoiy dunyoqarash tizimi sifatida shakllangan mifologiya qadimgi diniy e’tiqodlarning ilk kurtaklari, ajdodlarimizning falsafiy, axloqiy va ijtimoiy qarashlari, olam va odam hayotiga doir eng sodda tushunchalari, voqelikni ongsiz-hissiy anglash asosiga qurilgan ramziy-metaforik obrazlar, shuningdek, so‘z san’ati, marosimlar tizimi va mifologik tafakkurning turli xil shakllarini o‘z ichiga qamrab olgan. U qadimgi odamning borliq olamni idrok etishga doir tasavvur va qarashlarini o‘zida jamlagan izchil tizim sifatida ibtidoiy mafkuraning yetakchi g‘oyasi bo‘lib xizmat qilgan. Mifologiya ibtidoiy insonning qarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan sinkretik hodisadir. Shu bois, mifologiya folklor, yozma adabiyot, san’at va ma’naviy qadriyatlarning shakllanishi uchun zamin vazifasini o‘tagan.

Ezgulik kuchlarining xaos(zulmat)ni o‘ziga makon qilgan yovuzlikka qarshi kurashini o‘zida aks ettirgan qadimgi miflar badiiy tafakkurning shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Voqelikni estetik kategoriya sifatida idrok etish hamda badiiy so‘z vositasida talqin qilish an’anasi kelib chiqqach, qadimgi miflarning asosiy qismi so‘z san’atining turli janrlariga singib ketgan. O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodiyotidagi ko‘plab epik syujet va an’anaviy motivlarning genetik ildizlari bevosita mifologik tasavvurlar qatlamiga borib taqaladi. Miflar «Avesto», «Iliada», «Ramayana», «Shohnoma», «Kalevala»,

«Alpomish», «Go‘ro‘g‘li» kabi buyuk badiiy yodgorliklarning yaratilishida ham salmoqli o‘rin tutgan.

Qadimgi mifologik tasavvurlar va asotiriy syujetlar badiiy tafakkurning shakllanishi hamda taraqqiyotida o‘ziga xos sarchashma vazifasini o‘taganligi uchun ham xalq og‘zaki badiiy ijodiyoti, yozma adabiyot va san’at asarlarida mifologik negizga ega bo‘lgan ko‘plab asotiriy personajlar uchraydi. Mifologik tasavvurlar asosida kelib chiqqan bunday obrazlar xalq xayoloti va voqelikni fantastik talqin qilish an’anasining mevasidir. Mifik obrazlar muayyan voqeа-hodisaning jonlantirilgan timsoliy ifodasi bo‘lib, voqelik mohiyatini metaforik, ramziy va istioraviy holatda o‘ziga ko‘chirganligi uchun ham uning shakli tajassumi hisoblanadi.

Mifik obrazlar ibridoiy badiiy uydirma – fantaziya mahsuli bo‘lib, koinot, tabiat va jamiyatdagi turli-tuman hodisalar, qadimgi odam tasavvurida mavjud bo‘lgan g‘ayrioddiy kuchlarning kelib chiqish sabablarini izohlashga xizmat qilgan. Badiiy tafakkur shakllangach, qadimgi mifologiyaning tarkibiy qismi sanalgan asotiriy obrazlar adabiyot va san’atga ko‘chgan. O‘zbek mumtoz adabiyoti namoyandalarining asarlari, «Alpomish», «Kuntug‘mish», «Rustamxon» hamda «Go‘ro‘g‘li» turkumiga mansub dostonlar, o‘zbek xalq afsonalari va ertaklaridagi mifologik obrazlar shular jumlasidandir. Folklor va yozma adabiyotdagi mifik obrazlar badiiy talqinning to‘laqonli chiqishi hamda poetik tafakkurning keng qamrovligini ko‘rsatish vazifasini bajaradi.

Mif qadimgi odamning ishonch-e’tiqodlari, o‘y-xayollari, diniy qarashlari va ilk ijodiy izlanishlarining so‘z vositasida ifoda etilgan ko‘rinishlaridan biridir. Mifni ibtidoiy odam ma’naviy olamining muayyan ehtiyojlari, ya’ni o‘z dunyoqarashini bayon etish zarurati yuzaga keltirgan.

Voqelikni badiiy idrok etish an'anasining ibtidosi sifatida qadim zamonlarda shakllangan mifologik tasavvurlar tizimi folkloragi epik janrlarning syujet silsilasi va obrazlar tarkibining yuzaga kelishiga asos bo'lgan. Demak, mifning mohiyati, turlari, o'ziga xos xususiyatlari, obrazlar tizimi, mifologik syujetlarning epik diffuziyasi va folklor asarlari tarkibidagi poetik vazifalari kabi masalalarini o'rganish mifshunoslikning asosiy yo'nalişlarini tashkil etadi.

O'zbek miflarining yuzaga kelishi va shakllanish bosqichlarini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

1. O'rol-oltoy qabilalarining mifologik tasavvurlari. Ma'lumki, tilshunoslikda «oltoy tillari oilasi», «prooltoy tili» kabi tushunchalar mavjud. «Oltoyshunoslik nazariyasi» tarafdarlarining fikricha, turkiy, mo'g'ul-buryat, tungus-manchjur (ba'zilar coreys va yapon tillarini ham shu tarkibga kiritadilar) xalqlarining qadim ajdodlari aslida yagona bir qabilaga mansub bo'lib, ular «prooltoy tili» yoki «prooltoy shevasi»da so'zlashganlar.

Biz ham ana shu nazariyaning asosiy xulosalariga suyangan holda turkiy-mo'g'ul-buryat-tungus-manchjur tillarida so'zla-shuvchi xalqlar folkloridagi tipologik mushtaraklikni tashkil etadigan epik qatlam bu xalqlar og'zaki ijodiyoti tarixining oltoy davriga mansub qadimiy syujetlar silsilasidan iborat, deb hisoblaymiz. Ana shu mushtarak epik an'ananing asosiy qismi arxaik miflarning qoldiq holda yetib kelgan ko'rinishlari bo'lib, bu asotirlar tarixan «prooltoy folklori» yoki «prooltoy mifologiyasi»ning tarkibiy qismini tashkil etgan. Mushtarak variantlari yoki o'xhash namunalari mo'g'ul-buryat va tungus-manchjur xalqlari og'zaki ijodida ham mavjudligi aniqlangan o'zbek miflari (yoki muayyan syujet elementi, obraz, motiv tarzida saqlanib qolgan mif

qoldiqlari) «prooltoy mifologiyasi»ga mansub asotirlar sirasiga kiradi. O'zbek mifologiyasi rivojining bu davriga oid folklor asarlaridan eng xarakterlisi bo'ri to'g'risidagi totemistik miflardir.

2 Qadimgi turkiy qavmlar mifologiyasi. O'zbek folklorida saqlanib qolgan arxaik miflarning asosiy qismi qadimgi turkiy mifologiyaning epik diffuziyasi natijasida yetib kelgan. Qadimgi turkiy qabilalar og'zaki ijodiyotida olamni mifologik anglash asosida yaratilgan kosmogonik, totemistik, animistik, etiologik va etnogenetik miflar asosiy o'rinni egallagan.

3 Zardushtiylik bilan bog'liq mifologik tasavvurlar. Xalq og'zaki ijodida an'anaviy tarzda qo'llaniluvchi *ajdar, dev, pari, Semurg', Jo'mard, Aranja bobo, Axriman, aranglar, Zahhok, Siyovush, Hubbi, Ashshadarоzi, Sust xotin, Haydar* kabi ko'plab asotiriy obrazlarning tarixiy asoslari zardushtiylik mifologiyasiga borib taqaladi.

«Avesto» mifologiyasi va zardushtiylik rituallari negizida keyinchalik o'zbek marosim folkloridagi ayrim janrlar shakllangan. Yomg'ir chaqirish maqsadida o'tkazib kelingan Sust xotin marosimi, Amudaryo suvining mo'l bo'lishi hamda toshqin halokatining oldini olish maqsadida Orolcha avliyo degan joyda shu nom bilan ataluvchi afsonaviy homiy sharafiga ho'kiz so'yib qurbanlik qilish, Navro'z bayramini o'tkazish, sumalak pishirish, bahor faslida an'anaviy gul sayllari (boychechak sayli, lola sayli, guli surx sayli, qizil gul sayli kabilar)ga chiqish, safar qochdi va oxir chorshanba marosimlarini o'tkazib, olovdan hatlash, shamol piri sifatida e'tirof etilgan Haydar yoki Ajdar boboga murojaat qilib, shamol chaqirish, sumalak pishirayotganda Ashshadarоzi o'yinini tashkil etish, kelin-kuyovni olov atrofidan aylantirish, marhumlar mozoriga «qushlar haqi» deb bug'doy sepib qo'yish, daryodan o'tayotganda Hubbiga sig'inish va

suvga tuz tashlash, dalaga birinchi qo'sh chiqarishdan avval ho'kizlarning shoxini moylash kabi an'anaviy marosim va udumlarimizning tarixiy asoslari bevosita zardushtiylik hamda «Avesto» mifologiyasining e'tiqodiy inonchlar tizimidagi talqinlariga bog'lanadi.

4 Arab-islom mifologiyasi an'analari. Ma'lumki, VII asr oxirida Movarounnahr arablar tomonidan fath etila boshlangan bo'lib, bu jarayon VIII asr o'rtalarida nihoyalangan. Natijada bu o'lkaga yoyilgan islom dini O'rta Osiyoga Sharq xalqlari mifologiyasi va folklorining epik an'analariga mansub syujet, motiv va obrazlarni ham olib keldi. Garchi islom mifologiyasining tarkibi ko'pqatlamlı bo'lib, *o'zak miflar* (arab asotirlari) hamda *o'zlashtirma asotirlar* (ya'ni keyinchalik fath etilgan xalqlar folklori va boshqa diniy qarashlarga aloqador miflar)ni o'z ichiga olgan bo'lsa-da, uning asosini qadimgi arab qavmlarining og'zaki ijodi namunalari tashkil etgan.

Arab xalq kitoblari, rivoyat va asotirlari syujetining epik ta'siri natijasida O'rta Osiyo xalqlari folklorida ko'plab yangi asarlar yaratilgan. Ajdodlarimizning mifologik tasavvurlari arab-islom asotirlariga oid personajlar tizimi bilan boyitilgan. Xususan, *ango*, *jin*, *g'ul*, *Odami Od*, *Morut*, *Lot*, *Manot*, *Ko'hi Qof*, *Eram* kabi mifologemalarning ilk manbai aslida arab folkloridadir.

Demak, o'zbek mifologiyasining tarixiy asoslari ajdodlarimiz o'tmishining eng quyi bosqichlariga mansub e'tiqodiy qarashlarga borib taqaladi. Mifologik inonchlarning ilk qatlami qadim zamonlarda yashagan bobolarimizning totemistik, animistik va dualistik tasavvurlari, magik inonchlar asosida kelib chiqqan e'tiqodlari, shuningdek, tabiatni asotiriy anglash va hosildorlik g'oyasini o'zida mujassamlashtirgan qadimgi kultlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Qadimgi miflarning asrlar davomidagi tadrijiy

takomili natijasida ezgulik va yovuzlik kurashini aks ettiruvchi dualistik miflar, olamning yaratilishi va intihosi haqidagi xalq qarashlarini o‘zida ifoda etgan kosmogonik miflar, osmon yoritqichlari to‘g‘risidagi astral miflar, vaqt hisobi amallarining paydo bo‘lishi haqida bahs yurituvchi taqvimiylashtiruvchi asotirlar, urug‘-qabilalarining kelib chiqishini izohlashga bag‘ishlangan etnogenetik miflar, g‘ayrioddiy qahramonlarning sarguzashtlarini bayon etuvchi antropogenik miflar tizimi shakllangan.

O‘zbekistonning istiqlolga erishishi qadimgi tasavvurlar bilan bog‘liq folklor asarlari, jumladan, mifologik syujet va motivlarni keng ko‘lamda o‘rganishga katta imkoniyatlar yaratdi. Xususan, o‘zbek folklorida mifologiya va mifologik tasavvurlarning marosim folklori genezisida tutgan o‘rni, mifologiyaning o‘zbek xalq eposidagi o‘rni va mif diffuziyasi, o‘zbek folklori mifologik obrazlar tizimi keng o‘rganildi. Folklorshunoslikka «o‘zbek mifologiyasi» tushunchasi olib kirildi va u turkiy mifologiyaning tarkibiy qismi bo‘lib, O‘rta Osiyoda istiqomat qilgan qadimgi aholining e’tiqodiy qarashlari, tasavvur va inonchlarini o‘zida mujassamlashtirganligi ilmiy jihatdan asoslandi.

3. Afsona, rivoyat, naql janrlari. Har bir fan, sohaning muhim nazariy masalalari bo‘ladi. Badiiy adabiyotni o‘rganuvchi fan adabiyotshunoslik deb ataladi. Xalq og‘zaki poetik ijodini o‘rganish sohasini folklorshunoslik deymiz. Folklorshunoslik adabiyotshunoslik tarkibidagi mustaqil fan hisoblansa-da, o‘rganish obyekti badiiy adabiyot bo‘lgani sabab bir qator umumiy va mushtarak jihatlar bor. Xususan, janrlar masalasi adabiyotshunoslik uchun ham, folklorshunoslik uchun ham muhim hisoblanadi. Faqat adabiyotshunoslikda yozma adabiyot vakillari qalamiga mansub g‘azal, ruboiy, doston, noma kabi (mumtoz adabiyot);

she'r, hikoya, roman, drama kabilar (zamonaviy adabiyot) ning janr xususiyatlari o'rganiladi. Folklorshunoslikda esa xalq og'zaki adabiyotidagi maqol, qo'shiq, ertak, doston kabi janrlarning o'ziga xoslik tomonlari tadqiq etiladi. Ammo qaysi shaklda yaratilgan adabiyot ekanidan qat'i nazar har bir yo'nalishdagi yutuqlar va kashfiyotlar adabiyotshunoslik ilmi taraqqiyotiga qo'shilgan hissa sifatida baholanaveradi.

Afsona fors tilidan olingan bo'lib (افسانه) ma'no mohiyatida ikki tushuncha yetakchilik qiladi: 1 – biror voqeani, lavhani hikoya qilish; 2 – bu hikoya uydirma, to'qimalardan iborat bo'lishi. O'zbek tilining izohli lug'atida so'zning bir necha ma'nolari ko'rsatilgan: «afsona bo'lmoq», «afsona to'qimoq», «afsonaviy» va boshqalar. Lekin asosiy ma'no tafakkur fantaziyasi bilan bog'liq bo'lib, aql bovar qilmaydigan uydirma voqealarni hikoya qilish va shu bilan shuhratga ega bo'lish tushunchasi yetakchilik qiladi.

Afsonalar mazmunida eng qadimgi uydirma hodisalar, muayyan hudud nomini izohlovchi toponimik ma'lumotlar beriladi. «Kuygan yor», «Ellik paysa», «Tuya cho'kdi», «Oshoba», «Qonqus» kabi namunalar ana shunday mavzularni o'zida aks ettiradi. Folklor ekspeditsiyasi davomida deyarli har bir qishloq, buloq, tepalik, suv manbalari haqida hayratomuz afsonalarni yozib olish imkoniyatiga ega bo'lганmиз. Ertaklardan farqli o'laroq ularda syujet tizimining barqarorligi kuzatilmaydi. Ularning mavzu yo'nalishini uchga bo'lib tahlil qilish mumkin:

1. Sof mifologik afsonalar.
2. Tarixiy voqealarni izohlovchi afsonalar.
3. Mahalliy hududlardagi geografik nomlar bilan bog'liq afsonalar.

Afsonalar badiiy ijodning dastlabki namunasi sifatida odam qalbida ishonch tuyg'usini hosil qilishga, har bir

insonning o‘z qobiliyati, harakati natijasida baxtini topishi mumkinligiga umid paydo bo‘lishiga xizmat qilgan. Masalan, qadimdan taqdir tushunchasi odamlarning ongida mavjud bo‘lgan. Har bir ko‘ngilsiz mushkulotni odam taqdir, deb qabul qilgan. Ammo shunday afsonalar borki, ularda inson xatti-harakati, niyati, ayniqsa, keskin qarori, duosi bilan qismatida o‘zgarish yasashi mumkinligi uqtiriladi.

Xullas, afsonalar mazmun jihatdan, asosan, axborot yetkazuvchi o‘ta sodda syujetli uydirmalardan tashkil topadi. Ularda ijod qilgan millatning, koinotdagi quyosh, oy, yulduz, sayyoralarning paydo bo‘lishi, geografik nomlarning izohi, turli-tuman tarixiy voqealar, rasm-rusumlar sharhi o‘zining ifodasini topadi. Qadim zamonalardan ajdodlarimiz o‘z hayotiga tegishli har bir savolga, har bir muammoga, an’ana – udumlarga, hatto o‘zi yashayotgan vatanga ongli munosabatda bo‘lgan va xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari qatori afsonalar vositasida yakuniy xulosasini, tajribasini bildirgan. Folklorshunoslikda afsonalarni tadqiq etish og‘zaki ijod tarixining nazariy va amaliy jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Rivoyatlar. Bu so‘z arab tilidan olingan bo‘lib, hikoya, qissa ma’nolarini ifodalaydi. Rivoyatlar afsonalardan hayotga yaqinligi bilan farq qiladi. Agar afsonalarda ro‘y berishi mumkin bo‘limgan hodisalar hikoya qilinsa, rivoyatlardagi voqealar, ko‘pincha, tarixiy shaxslar, taniqli allomalar, davlat arboblarining hayotlaridagi muayyan lavhalar yuzasidan xabar beradi. Ba’zan bir voqeani eshitganimizda, uning aynan ro‘y berishiga to‘liq ishonamiz, ba’zan alohida fantastik tasvirdan xoli bo‘lsa ham hikoyaga ishonmasligimiz mumkin. Shuning uchun afsona va rivoyat o‘rtasida keskin farqni belgilash qiyin kechadi. Har holda ko‘p yillik tajribadan kelib chiqib aytish mumkinki, ishonilgan voqeani rivoyat, ishonish

mumkin bo‘lmanini afsona deb qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki mazmun, syujet tizimi jihatdan afsona va rivoyatlarning farqi bo‘lmaydi. Faqat rivoyatlar tarixiy dalil, isbot ildiziga ega hisoblanadilar.

Rivoyatlar o‘zida aks ettirgan voqeа bayoniga ko‘ra afsonalar kabi epik jinsga mansubdirlar. Ular hajm jihatdan qisqa bo‘ladi. Matn hajmi qisqa, ifodalangan voqeа lavhalari son jihatdan chegaralangan. Badiiy tasvirga ortiqcha urg‘u berilmaydi, chunki ularda voqeа bayoni ustuvor hisoblanadi. Mazmun yo‘nalishiga ko‘ra tarixiy voqelar, ularda ishtirok etgan shaxslar jasorati yoki xiyonati asosida yoki yurtimiz viloyatlaridagi o‘rin-joylarning nomlanishini izohlash maqsadida yaratilgan rivoyatlarga bo‘linadi. Tarixiy rivoyatlarda To‘maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur kabi yurti ozodligi va mustaqilligi uchun jonini qurbon qilgan el farzandlari mardligi, shu bilan birga o‘zining o‘tkinchi hirsiy nafsi yo‘lida vataniga xiyonat qilgan Dalvarzin, Guldursunga o‘xshagan xiyonatkor shaxslar kirdikorlari hikoya qilinadi. Mard, jasurlarning ishlari ham, xoinlarning xiyonati ham unutilmaydi.

Rivoyatlarning yana bir turi mahalliy hududlardagi o‘rin-joylarning nomiga oidligi bilan ajralib turadi. Muhimi shundaki, bunday rivoyatlarda asosiy e’tibor tasvirlanayotgan voqeадаги fantastik jihatlarga emas, balki hayotni kuzatish, to‘g‘ri xulosalarga kelish, aqlni ishga solish fazilatlariga qaratiladi.

Rivoyatlar haqida aytilgan fikrlardan shunday xulosalarga kelish mumkin:

1. Rivoyatlar afsonalardan farqli ravishda bevosita hayotda bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqealarga asoslanadi.
2. Ular mavzu jihatdan turlarga bo‘lingan holda yo biron tarixiy shaxs hayotidagi ibratli voqeani bayon etadi yo geografik o‘rin-joyning nomini izohlaydi.

3. Rivoyatlarda badiiy tasvirdan ko‘ra ro‘y bergan voqeani qisqa va ixcham, sodda va raxon tarzda bayon qilishga ko‘proq e’tibor beriladi. Aslini olganda, aynan shu fazilatlar rivoyatlarning badiiyligini belgilaydi.

Mumtoz adabiyot va zamonaviy o‘zbek adabiyotida rivoyatlarning go‘zal namunalarini ko‘rish mumkin.

Naql. Naql atamasi O‘rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan mavjud bo‘lib, turli xil ma’nolarni anglatgan. Dastlab folklorning ayrim janrlari shu nom bilan yuritilgan. U adabiy jarayonda yuz berib, turkiy xalqlar madaniyati, axloq falsafasi, tafakkuri zamirida paydo bo‘lgan.

Zarbulmasal arabcha so‘z bo‘lib, aybdorni masal bilan urmoq (tanqid qilmoq)ni anglatadi. Muhammad Jobalrudi (XVII asr) bu so‘zni masal va tamsilning sinonimlari sifatida qo‘llagan, boshqa o‘rinda uni ramzli hikoya ma’nosida keltirgan. «G‘iyos ul-lug‘at»da uni nutqda u yoki bu ko‘chma ma’noni tashuvchi, deb belgilangan. O‘zbek xalq nasrida esa masal naql deb atalgan. Zarbulmasal dastlab yozma adabiyotning alohida janri bo‘lgan. Keyinchalik u masal atamasi bilan yuritilgan. Naql rus folklorida pritcha. Fors tilida naql masal, maqol (allegoriya), tojik tilida u ertak, matal, masalni bildiradi, turkman tilida naql-topishmoq, qozoq, qirg‘iz tillarida metel deb yuritiladi.

Turkiy xalqlar folklorida ham turli xil janrlarga mansub asarlar naql atalgan. Ayniqsa, qadimgi yodnoma, xalq kitoblari, qo‘lyozmalarda belgilangan ertak, afsona, rivoyat, doston, maqol, matal va hatto, topishmoqni ham naql atash hollari uchrab turadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Ozarbayjonda ertak naql deb yuritiladi. Naql og‘zaki hikoyani anglatadi. Asosan u arabcha so‘z bo‘lib, uch xil ma’noni bildiradi: birinchisi, harakat, ko‘chish, ya’ni ko‘chma ma’noli voqeja va hodisalar shu nom bilan atalgan. Ikkinchisi, voqeani

bayon qilish, hikoya qilish; uchinchisi, og‘zaki nasriy turning alohida janrlari: qissa, ertak, matal bir butun holda naql deb yuritilgan.

Mazkur janrlar bir-biriga yaqin, ularni majoziy ma’no, allegoriya tenglashtiradi. Demak, majoziy ma’no naql, matal, masal, maqol, topishmoq uchun umumiy, ayni paytda asosiy va hal qiluvchi belgi. Naql, asosan, hikmatli fikr, o‘gitlar majmuyi. Binobarin, u hayotiy voqeа va hodisalardan falsafiy umumlashmalar yaratib, majoziy yo‘l bilan ibratli xulq, muomalani bayon etuvchi hikoya. Demak, naql aql, odob, donolikni ulug‘lab, anglash va baholash imkonini beradi

O‘zbek mumtoz adabiyoti hamda xalq og‘zaki ijodi asarlarida noqil va naql atamasi juda ko‘p uchraydi. Biri aytuvchi, bayon etuvchi, ikkinchisi hikoya ma’nosini anglatadi. Dastlab, qissa, maqol, ertak, matal, topishmoq, dostonlar ham naql deb yuritilgan. Noqil esa o‘rnak olsa arziydigan axloq, odob normalari haqida hikoya qiluvchini bildiradi.

Naqliy asarlar, asosan, ta’limiy-estetik funksiyani ado etadi. Shuning uchun ham u «Naql – koni aql» deb nomlangan. Ertak, doston, maqol, topishmoqlar qadimda bir so‘z bilan naql atalgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Mif va uning mohiyati haqida so‘zlab bering.
2. Totem, fetish, anim qanday tushunchalar?
3. Miflarning tasnifi va tadrijiy bosqichlari haqida ma’lumot bering.
4. Afsona, rivoyat va naql janrlari haqidagi fikrlaringizni misollar asosida bayon qiling.
5. Alisher Navoiy va Jaloliddin Rumiy asarlaridagi hikoyat va rivoyatlarni tahlil qiling.
6. Tug‘ilgan joyingiz bilan bog‘liq rivoyatlarni yozib oling.

Adabiyotlar:

1. «Avesto» tarixiy-adabiy yodgorlik. - T.: Sharq NMAK, 2001.
2. Akramov G‘. Animistik mifologiya // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1977. – 3-son. – B.48-53.
3. Akramov G‘. Totemistik miflar // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1978. – 3-son. – B.39-42.
4. Akramov G‘. Manistik mifologiya // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1979. – 6-son. – B.64-69.
5. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar. – Toshkent, 1994.
6. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq samoviy afsonalari. – Toshkent: Fan, 1995.
7. Jo‘rayev M., Shomusarov Sh. O‘zbek mifologiyasi va arab folklori. – Toshkent: Fan, 2001.
8. Jo‘rayev M., Narziqulova M. Mif, folklor va adabiyot. – Toshkent: O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006.
9. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2009. – B.75-96.
10. Jo‘rayev M., Rasulova Z. Mif, marosim va ertak. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2014.
11. Imomov K.. O‘zbek xalq og‘zaki prozasi. – T.: Fan, 1981.
12. Imomov K. O‘zbek xalq nasri poetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.
13. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: «Mumtoz so‘z», 2010.
14. Madayev O., Sobitova T. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T., 2005.
15. Mallayev N.M. O‘zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. – T.: O‘qituvchi, 1971. – B. 41-55.
16. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 1995. –168 b.

17. Sarimsoqov B. O‘zbek folklorining tarixiy taraqqiyoti (qadimgi davr folklori) / O‘zbek folklori ocherklari. 1-tom. – T.: Fan, – B. 25-35.
18. Sarimsoqov B., O‘zbek folklorining janrlar sostavi / O‘zbek folklori ocherklari. 1-tom. – T.: Fan, 1988. – B. 63-85.
19. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: «Musiqa», 2010. – 368 b.
20. Umarov S. Rivoyat va hayot. – T.: Fan, 1988.
21. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 1-kitob. – T., 2006.
22. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 2-kitob. – T., 2010.
23. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. – T., 2010.
24. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 4-kitob. – T., 2011.
25. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 5-kitob. – T., 2015.
26. 40 rivoyatga 40 sharh. Toshkent: “Noshirlik yog‘dusi”, 2016.
27. Eshonqulov J. Mif va badiiy tafakkur. – Toshkent: Fan, 2019. – 309 b.

3-MAVZU. O'ZBEK MAROSIM FOLKLORINING JANRLAR TARKIBI VA BADIYATI

Reja:

- 1. Marosim folklori va uning turlari.*
- 2. Mavsumiy marosimlar.*
- 3. Oilaviy marosimlar.*

1. Marosim folklori va uning turlari. Marosim folklori namunalari folklorning eng qadimiy janrlari sirasiga kiradi. Folklorshunoslikda marosim folklori janrlarini ikki katta guruhga ajratish an'anasi mavjud. Bu turlar quyidagi ko'rinishga ega : 1) mavsumiy marosimlar folklori; 2) oilaviy marosimlar folklori.

Mavsumiy marosimlar yil mavsumlarining almashinushi, avvali va oxiri, ma'lum bir xo'jalik turlarining boshlanib yakun topishi, ob-havo bilan bog'liq mavsumiy marosimlarni o'z ichiga oladi. Mavsumiy marosimlarning aniq vaqtি, belgilangan o'tish muddatlari mavjud va ular bir oila yoki jamoaga tegishli bo'lmay butun xalq ommasiga tegishlidir.

«Mavsum» deganda, asosan, yil fasllari nazarda tutiladi. Binobarin, mavsum qo'shiqlari qish, bahor, yoz, kuz fasllari bilan bog'liq bo'ladi. Marosim esa diniy yoki an'anaviy urfodatlar munosabati bilan o'tkaziladigan tadbir, yig'in demakdir. U bayram umumxalq shodiyonasi, tantana kun ma'nosini ifodalaydi. Ma'lum bo'ladiki, «marosim» tushunchasi «bayram» so'zi ifodalagan ma'nodan kengligi bilan farq qilar ekan. Chunki marosim bir shaxs hayotidagi muhim voqeа bilan bog'lanishi mumkin. Bu tadbir oila chegarasi bilan cheklanadi. Bayramda esa umumxalq ishtiroki bo'lishi lozim. To'g'ri, biz ko'pincha «bayram marosimi» birikmasini qo'llashimiz mumkin, ammo bu holatda gap oilaviy marosim haqida emasligi ta'kidlanadi.

Dunyoda biron ta xalq yo'qki, turli munosabatlar bilan ommaviy bayramlarni nishonlamasini. Bayramlar butun xalq tayyorgarligi bilan o'tkaziladi. Katta shodiyonalar rejalashtiriladi. Maxsus taomlar pishiriladi, bayram liboslari tikiladi, o'yin-kulgilar, sayillar, tomoshalar, musobaqalar uyushtiriladi. Shuning uchun milliy bayramlar tizimida xalq tarixi, milliy xususiyatlar haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Bu tasavvurlarni oilaviy, muayyan hudud aholisi o'rtasidagi marosimlar, qolaversa, milliy urf-odatlar to'ldiradi, mukammallashtiradi.

Oilaviy marosimlar esa aksincha bir oila va oila a'zolari hayotidagi barcha mavsumlar, o'zgarishlarni o'z ichiga qamraydi. Oilaviy marosimlar mazmuni tug'ilish, to'y va motam marosimlaridan iborat va bu marosimlarda ijro etiluvchi folklor namunalari oilaviy marosimlar tarkibiy qismini tashkil etadi.

2. Mavsumiy marosimlar. O'zbek mavsumiy marosim folklori o'z ichiga quyidagi janrlarni qamrab oladi:

Yil fasllari bilan bog'liq marosim folklori janrlari:

a) Qishki marosimlar folklori janrlari: «Sherda», «Qor xat». Xalqimizning qadimiy an'anasiga ko'ra, yil bo'yini mehnat qilib, kuzda dala ishlarini nihoyasiga yetkazgan dehqon va bog'bonlar, shuningdek, o'z suruvini qishlovga qaytarib kelgan chorvadorlar qishi bilan turli-tuman marosimlar orqali vaqtning ko'ngilli o'tishini ta'minlaganlar. Yoshi teng bo'lgan kishilar, ya'ni hamteng, jo'ra, do'st-yorlar «teng-tengi» bilan yig'ilishib, «Gap-gashtako», «Dangana», «To'kma», «Sherda», «Harfona» («Xalpana»), «O'tirishma», «Ziyofat», «Tashkil», «Gurung» kabi turli xil marosimlarni tashkil etishgan. Ana shu xildagi o'tirishlar xalq orasida keng ommalashgan bo'lib, odatda, o'ziga xos marosim tarzida o'tkazilgan.

Qish fasli bilan bog‘liq mavsumiy marosim folklorining o‘ziga xos qo‘shiqlar silsilasini jonli ijro holatida XX asrning 80-yillariga qadar saqlab kelgan qadimiy janrlaridan biri «Sherda» deb atalgan.

Xalqimiz orasida «Sherda» atamasining bir necha xil talqinlari bor. Samarqand viloyati cho‘ponlari shevasida «Sherda» so‘zi «epishirilgan bir butun mol go‘shtini teng bo‘laklarga bo‘lib olish» degan ma’noda qo‘llaniladi. Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi Eski Qamay qishlog‘ida yashovchi Hazratqul baxshi Xudoyberdi o‘g‘lining aytishicha, «sherda deganimiz masalan, 20 kishi birlashib bir qo‘yni bozor kuni so‘yib bir yarim yoki ikki kg.dan bo‘lib olish odati. Ular yanagi haftada men, undan keyingi haftada siz deb navbat tuzib, dastlab sherda boshlaganda qanchadan go‘sht bo‘lib olingan bo‘lsa, ana shu davom etib, yigirmasi ham bittadan qo‘y so‘yib bo‘lib beradi».

«Sherda» marosimining to‘liq tavsifi 1928-yilda etnograf olim M.F. Gavrilov tomonidan Zomin va Shahriston tumanlarida istiqomat qiluvchi «qirq», «ming», «yuz», «qarapchi», «parchayuz» urug‘laridan yozib olingan. An’anaga ko‘ra, «Sherda» marosimi ikki xil yo‘l bilan, ya’ni o‘tirish uchun zarur bo‘ladigan masalliqlarni birgalikda, qo‘shilishib xarid qilish yoki «to‘kma» usulida (shuning uchun ham M.F. Gavrilov bu marosim Toshkent atrofидаги qishloqlarda «to‘kma» deb ataladi deb yozgan edi) hamda marosim ishtirokchilarining har biri galma-gal xarajat qilishi yo‘li bilan tashkil etilgan. «Sherda» qish bo‘yi o‘tkazilishi ko‘zda tutilganligi sababli bu marosimda ishtirok etadigan jo‘ralar, ulfatlar yoki tengdoshlar o‘zlarining ichidan bir kishini «bek» qilib saylaganlar. Bek esa o‘ziga yordam beradigan «o‘ng otaliq» va «chap otaliq»ni tayinlagan. Ular biror sabab bilan bek «Sherda»da qatnashmay qolsa, uning vazifasini bajaruvchi o‘rinbosar hisoblanishgan.

Odatda qish kirishi bilan o‘tkazilgan birinchi «Sherda»da «bek» saylangan. Jizzax viloyatining Forish tumanidagi Forish davlat xo‘jaligining 2-bo‘limida yashovchi 70 yashar Ortiqvoy Risbekovning aytishicha, bu udum «bek ko‘tarish» deyilgan. Bunda «Sherda»ga yig‘ilgan yigitlar o‘zlarining eng obro‘-e’tiborli jo‘rasini «bek» qilib ko‘tarishgach, hammalari qur to‘kib o‘tirishgan va ulardan biri kosagulning qo‘lidan bo‘za quyilgan piyolani olib quyidagi qo‘shtiqni ijro etgan:

*Ey begin, beklikkinangga yona bo ‘l,
Majlisa kirgan yigitlar dono bo ‘l!
Do ‘st kelib, dushman ketar kundir bugun,
Ey begin, qo ‘sh otaliq, mardona bo ‘l,
Begin allayor, allayor,
Begin allayor, allayor!*

*Ey begin, nechada bordir yoshingiz,
Hamisha davlatda bo ‘lsin boshingiz,
Do ‘st kelib, dushman ketar kundir bugun,
Hamisha Xizr bo ‘lsin yo ‘ldoshingiz,
Begin allayor, allayor,
Begin allayor, allayor!*

*Qor yog ‘mayin ola bo ‘lgan tog ‘lar-a,
G‘unchasinda xazon bo ‘lgan bog ‘lar-a,
Kuyistonda kuyib o ‘tgan bedilxon,
Ustida qag ‘illab o ‘tgan g ‘ozlar-a,
Begin allayor, allayor,
Begin allayor, allayor!*

Forishliklar orasida urf bo‘lgan an'anaga ko‘ra, «Sherda»da ba’zan hatto 50-60 nafar ulfatlar ishtirok etgan

hollar ham bo‘lgan ekan. Ana shunday ko‘pkishilik «Sherda»ni boshqarish, tashkil qilish va tartibli o‘tkazish bekdan alohida mahorat, tajriba va qattiqqo‘llikni talab qilgan. Odatda bunday «Sherda»ning «bek ko‘tarish» udumida yigitlar «Sallamno» qo‘shig‘ini ijro etib, bekning sifatlarini ta’rif-tavsif qilganlar. Xususan, Forish tumanidagi Uchma qishlog‘ilik Yusuf degan yigitni bek qilib ko‘targanda jo‘ralari quyidagi qo‘shiqni ijro etishgan:

*Yusufbek Uchma soyidan,
Suhbat qurib jat¹ oyidan,
Ellik yigitga bosh bo‘lib,
Yusuf beginnga sallamno!*

*Ellik yigitniyam ozi,
Yarashiqqa oltin qozi,
Aning o‘zi bo‘lib sozi,
Bahushyoringga sallamno!*

*Yana keldik Yusufbekka,
Erkavoyning bo‘yi tikka,
Kosani sunganda bekka,
Daroz bo‘yingga sallamno!*

*Yasavuli Erkavoydir,
Minganlari qilich toydir,
Aning o‘zi yakka boydir,
Bahushyoringga sallamno!*

Bu marosimning o‘ziga xos jihat shundaki, unda ishtirok etuvchi yigitlarning barchasi «Sherda»da aytildigan

¹ «Jat» - forishlik cho‘ponlar yanvar oyini shu nom bilan ataydilar.

an'anaviy xalq qo'shiqlarini shirali ovoz bilan ijro etishgan. Ishtirokchilardan biri tomonidan ijro etilgan to'rtlik boshqa kishi tomonidan qaytarilmagan. «Sherda» boshlangach, kosagul bo'za quyilgan kosani ulfatlardan biriga tutar ekan:

*Alyor bo 'lsin-ay,
Xo 'jam yor bo 'lsin-ay,
Xo 'jam bergan bu davlatga
Dushman zor bo 'lsin-ay!*

– deb qo'shiq aytgan. Kosani olayotgan kishi bunga javoban odatda «Ollo yor bo'lsin-yey!» degan bo'lsa-da, ko'pincha javob to'rtliklari ham aytilgan:

*Oyga o 'xshaydir yuzing,
Cho 'lponga o 'xshaydi ko 'zing,
Muncha ham yaxshi bo 'lurmi,
El ichinda yulduzing.*

Turkiston, Qarnoq, Iqon, Sayram, Qorabuloqda «Sherda» marosimida ijro etiladigan an'anaviy xalq qo'shiqlari «Haqqonalar», «Ko'nalar», «Bo'zagarlar qo'shig'i» deb atalgan. Bu joylarda urf bo'lган an'anaga ko'ra, bekning amri bilan bo'za to'la kosani olgan kishi childirma jo'rligida «Haqqona» qo'shig'inинг ikki to'rtligini ijro etishi, binobarin, birinchi to'rtlik qaysi so'z bilan boshlangan bo'lsa, ikkinchi to'rtlikni ham aynan o'sha so'z bilan boshlash qoidasiga rioya qilishi lozim bo'lган. «Sherda» marosimining qadimiy an'analari o'tgan asr o'rtalariga qadar yashab kelgan bo'lsa-da, xalqimiz turmush tarzi va qadriyatlarining izchil rivoji davomida saqlanib qolmadı. Ammo bu marosimda ijro etilgan xalq qo'shiqlari keksa avlod xotirasida saqlangan bo'lib,

folklor ekspeditsiyalari chog‘ida «Haqqona», «Ko‘hna» deb ataluvchi bu tafakkur durdonalarining ko‘plab namunalari yozib olingan.

b) Bahorgi marosimlar folklori janrlari: «Boychechak xabari» yoki «Boychechak sayli», «Qozon to‘ldi», Navro‘z, «Sumalak sayli», «Lola sayli», «Guli surx» sayli «Qizil gul sayli», «Shox moylar», yomg‘ir yog‘dirish va uni to‘xtatish marosimi folklori («Sust xotin», «Chala xotin», «So‘z xotin», «Chayla qozoq» va h.k.).

Mamlakatimiz hududida an’anaviy tarzda o‘tkazib kelingan gul sayllarining eng qadimiysi va keng tarqalgani «Boychechak sayli» yoki «Boychechak xabari» marosimi hisoblanadi. Tarixan magik xarakterdagи «Boychechak sayli» yoki «Boychechak xabari» marosimi qadimdan Navro‘zoldi shodiyonalardan biri sifatida o‘tkazib kelingan. Ba’zi joylarda bolalar bir dasta boychechakni uzun xodaning uchiga bog‘lab olganlar va uni ko‘tarib qishloq aylanganlar. Qadimda o‘tgan «Boychechak» marosimida qish va ko‘klamning kurashini ifodalovchi sahnalar bo‘lgan. Bunda qish va yoz tomon ramziy jang qilib, aytim-qo‘shiq kuylab bahslashganlar.

Boychechak chiqqanligi – qish-qirovli kunlar ortda qolib, ko‘klam yaqinlashganligini anglatgan. Shuning uchun keksa va kasal odamlar bolalar olib kelgan boychechakni yuz-ko‘zlariga surtib, undan yaqinlashayotgan bahor hidini tuyganlar. Sog‘-omon Navro‘zga yetib kelganliklariga shukrona aytib, «*Omonlik, omonlik, hech ko‘rmaylik yomonlik, yanagi yil shu kunlarga eson-omon yetaylik! Og‘irligim yerga, yengilligim o‘zimga*», – deganlar.

Xalqimiz tafakkurining betakror mo‘jizasi – Navro‘z bayrami qadim zamonlardan bizgacha yetib kelgan muhtasham qadriyatlarimizdan biridir. Tabiat va jamiyatdagи yangilanishni o‘zida ajoyib tarzda mujassam etgan Navro‘z sayli xalqimiz

dunyoqarashi, turmush tarzi, o'ziga xos milliy an'analarini va badiiy tafakkurining har bir yutug'idan kuch olib, asrlar davomida yanada to'lishib, yangilanib, barkamollahib kelgan umrboqiy shodiyonadir. Navro'z bayrami sayllari yilning eng farog'atli va saodatli davrida, ya'ni butun olam ko'klam tarovatidan yashnab ketadigan, tabiatda ham, inson ko'nglida ham yangilanish, yasharish mavsumi boshlanadigan damda bo'lib o'tadi. Odamlar qalbiga cheksiz quvonch, mehr-oqibat, ezgu umidlar baxshida etadigan yilboshi sayllari g'oyatda hayotbaxsh va ayni paytda, bunday muhtasham qadriyatlarni ijod qilgan ulug' xalqimizning o'zi kabi umrboqiyidir.

Navro'z sayli tantanalarini o'ziga xos tarzda boshlanadi. Barcha shahar, tuman markazlari, qishloq guzarlari va mahallalar bahoriy kayfiyat, ruhiy yangilanish, mehr-oqibat, yaratuvchilik va bunyodkorlik g'oyalarini o'zida aks ettirgan shiorlar, lavhalar, suratlar bilan bezatiladi. Sayildan bir kun oldin gul-chamanlar bilan bezatilgan mashinalarga o'rnatilgan ovoz kuchaytirgich moslamalari yordamida jarchilar yurtdoshlarimizni yilboshi shodiyonalariga taklif etadilar. Bu ezgu tantana targ'ibotida ommaviy axborot vositalari, radio va televideniye xodimlari ham faol ishtirok etadilar. Xalq o'yinlari, ko'pkari, kurash, arg'imchoq uchish, varрак uchirish an'analarini bilan birga folklor-etnografik jamoalari, lapar, o'lan, alla ijrochilari, hunarmandlarning ko'rik-tanlovlari, askiyachilarning bellashuvlari, mahalla-ko'y obodonchiligi, oilalar farovonligi, mehr-oqibatlilik bilan bog'liq ko'rik-tanlovlari o'tkaziladi.

Xalqimizning ko'hna e'tiqodlaridan biri bo'lmish yilboshini sumalaksiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Otabobolarimiz Navro'zga tayyorgarlikni ham sumalak pishirish uchun maysa undirishdan boshlaganlar. Navro'z bamisol tan bo'lsa, sumalak uning joni, ularni bir-biridan ajratish mumkin

emas. Ajdodlarimiz asrlar bo‘yi Navro‘z oqshomi katta-katta doshqozonlarda sumalaklarni qaynatib, kelayotgan yangi yil barakali, qutli va serhosil bo‘lishiga umid bog‘laganlar. Sumalak pishirayotgan onaxonlarimiz qadimiy xalq qo‘shiqlarini, bayt-g‘azallarni aytib, bayram fayziga fayz qo‘sghanlar.

Xalqimiz orasida sumalak pishirish bilan aloqador g‘oyat qiziqarli an’ana va udumlar, e’tiqod va inonchlar bo‘lgan. Ana shunday qadimiy an’analardan biri sumalak pishirish bilan aloqador «**Ashshadarozi**» marosimidir. Amudaryo sohillariga xos bu qadimiy marosim va u bilan bog‘liq o‘yin Xorazm xalq teatri an’analarini o‘rgangan san’atshunos T.Qilichev tomonidan aniqlangan. Olim 1974-yilning 10-noyabrida To‘rtko‘l tumanidagi «Qirqqizobod» jamoa xo‘jaligida yashovchi 70 yashar Bibi momo Qoziyevadan sumalak pishirish paytida o‘ynaladigan «**Ashshadarozi**» nomli xalq o‘yining etnografik tavsifi va qo‘shiqlarini yozib olgan.

Ma’lum bo‘lishicha, «**Ashshadarozi**» marosimi (Bu o‘yinning etnofolkloristik tavsifi T.Qilichevning «Xorazm xalq teatri» (Toshkent, Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988, 70-75-betlar) kitobidagi ma’lumotlar asosida bayon qilindi) sumalak pishirilayotganda tashkil etilgan. Buning uchun ikki yarim - uch metrlar chamasi uzunlikdagi tayoqning uchidan yarim metrlar pastrog‘idan ko‘ndalang qilib kichikroq bir tayoqcha bog‘langan. Tepa qismida qo‘l shakli hosil qilingan ana shu tayoqqa uzun bo‘yli bir ayolning ko‘ylagini kiygizishgan va uning uchiga bir ro‘molni ham tang‘ib, odam boshiga o‘xshatib qo‘yanlar. Uzun bo‘yli yog‘och qo‘g‘irchoqning boshiga xorazmcha duziy do‘ppi kiygizib, ustidan oq ipak ro‘mol tashlaganlar. Uzun ko‘ylakli bu qo‘g‘irchoq «**Ashshadarozi**» deb atalgan. Ayollardan biri

qo‘g‘irchoqqa kiygizilgan uzun ko‘ylakning ichiga kirib olib, Ashshadarozini ko‘tarib, sumalak pishirilayotgan joyga olib borgan.

Odatda, so‘zga chechan, xalq qo‘shiqlarini mahorat bilan ijro eta oladigan ayolga Ashshadarozi roli topshiriladi. U uzun ko‘ylakli sarvqomat qo‘g‘irchoq – kelinchakni ko‘targancha davraga kirib borar ekan, sumalak sayliga yig‘ilgan ayollardan biri erkakcha kiyinib o‘rtaga chiqadi-da, shunday qo‘shiq boshlaydi:

*Ashshadarozi mevaram,
Vaqtি namozi bevaram,
O‘n barmog‘ini o‘ynatib,
Boqqan onangga bir salom!*

Shunda Ashshadarozi, avval, sumalak sayliga bosh - qosh bo‘lib turgan tabarruk momolarga, katxudo - kayvonilarga, so‘ngra barcha davra ahliga ta‘zim qilib, salom soladi. Qizjuvonlar uning tavoze bilan egilib salom berishini zo‘r xursandchilik bilan olqishlaydilar. Erkakcha kiyangan xotin bilan Ashshadarozi rolini bajarayotgan ayol o‘rtasidagi aytishuv esa davom ettiriladi. Keltirilgan barcha marosimlar mag‘zida xalqimizning qadim qish va yoz haqidagi dunyoqarashlari, mifologik tasavvurlar tizimi turadi. Quyidagi jadvalda ushbu tizim aniq aks etgan:

Tavsifi	Yoz (ko‘klam)	Qish (kuz)
Marosimi	«Boychechak» marosimi	Ko‘k bo‘ri (ko‘pkari, uloq xalq o‘yini)
O‘simplik timsoli	Boychechak	Urug‘ (tariq, bug‘doy)

Zoomorfik timsol	Echki (uloq)	Bo'ri
Insoniy timsol	Qiz	Yigit
Asosiy qo'shiqlari	«Boychechak», «Ashshadorozi», «Qoshingni qaro deydilar» o'yin raqslari	«Kichkinajon kichkina», «Gurgak».
Muqaddas taomi	Sumalak	Yorma (halim)
Yulduzlar	Qambar	Hulkar

Xalqimizning bahor fasli bilan bog'liq an'anaviy marosimlaridan biri «Halinchak uchish» yoki «Arg'imchoq uchish» marosimidir. An'anaga ko'ra, bayram kunlari qizjuvonlar to'planishib, bog' sayriga chiqqanlar. Azim o'riklarning baquvvat shoxlariga arqon tashlab, arg'imchoq – halinchaklar yasashgan, hamma navbati bilan arg'imchoq uchgan. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi Tangachar qishlog'ida yashovchi Yaxshigul momo Mulla Niyozberdi qizining aytishicha, kimki Navro'zda arg'imchoq uchsa, yil bo'yi bilib-bilmay qilgan gunohlari «to'kilarmish». Shu bois, keksa momolar ham «*Arg'imchoq uchsak, savob bo'ladi! Og'irligimiz yerga to'kiladi, qushdek yengil bo'lamiz!*» – deyishib, hazil-huzul bilan arg'imchoq uchishgan. Nabiralari esa «momolarimizning yoshiga yetaylik» degan ezgu niyatda arg'imchoqning ipidan tutib harakatlantirganlar.

Xalqimizning Navro'z bayrami bilan aloqador marosimlari sirasiga kiradigan an'anaviy «Qizil gul» sayli agrar kultlar va hosildorlik g'oyasini o'zida mujassamlashtirgan qadimiy

umumxalq tantanalaridan biridir. «Qizil gul» sayli o'ziga xos qo'shiqlar tizimiga ega bo'lgan qadimiy mavsumiy tantanalardan biri bo'lib, har yili bahorda qizil gullar ochilgan paytda an'anaviy tarzda o'tkazib kelingan. U o'z tarkibiga xalq qo'shiqchilik san'ati, o'yin folklori, raqs, xalq teatri, hunarmandchilik, urf-odat va marosimlarni qamrab olgan ma'naviy qadriyat namunasi sanaladi.

Yomg'ir chaqirish bilan bog'liq marosimlarning keng tarqalgan ko'rinishi «Sust xotin» deb atalgan bo'lib, bu marosimga oid ilk ilmiy qayd muallifi o'lakashunos G.Arandarenkodir. U o'zining 1877-yilda yozilgan Zarafshon vohasi aholisining metereologik qarashlariga oid bir maqolasida yomg'ir yog'dirish marosimi bilan bog'liq «Susxotin» marosimi qo'shig'ining bir namunasini keltirgan. Unga ko'ra, mazkur marosimda quyidagi qo'shiq ijro etilgan:

*Yomg'ir yog'sin, Susxotin,
Arpa pishsin, Susxotin,
Sigir iysin, Susxotin.*

Ko'klam qurg'oq kelib lalmiga ekilgan bug'doy o'smay qolsa, o'n-o'n besh chog'li yigit-yalanglar yig'ilishib, bir bolani eshakka teskari mindirib, qo'liga suv to'lg'azilgan kadini tutqazib qo'yishadi. Ikkita toshbaqani tutib kelib, oyog'iga ip bog'lab, eshakka osishadi. Joni og'rigan jonivorlar zorlanib ovoz chiqaradi. Eshak ustidagi bola esa qo'lidagi kadiga solib qo'yilgan naychani aylantirib, toshbaqa ovoziga monand holda «g'urr-g'urr» deb baqiradi. Shunday qilib, yigitlar uyma-uy yurishar, har uyga borganda eshak mingan bola: «*Voy, jonom! Kuydim-ey! Kuydim-ey!*» – deb qichqiradi. Xonadon sohibi bo'lsa bir chelak suv chiqarib haligi bolaning ustiga sepadi. Yigitlar uy egasi bergen don-dun yoki boshqa

biror yegulikni olib qo'shiq aytgancha boshqa hovli tomon yurishadi:

*Havo yog 'mas bo 'larmi,
Tomchi tommas bo 'larmi,
Saksondag'i kampirlarni,
Suv oqizmas bo 'larmi,
Sust xotin-o, sust xotin,
Ko 'ylaklari bo 'z xotin.*

*Dehqonlarni g 'am bosdi,
Omochlarni chang bosdi,
Havo yog 'sin zarchalab,
Bug 'doy bo 'lsin shoxchalab,
Sust xotin-o, sust xotin,
Ko 'ylaklari bo 'z xotin.*

Ko'lbuloqlik Sa'dulla Mirsaparovning xotirlashicha, «Sust xotin» marosimini o'tkazayotganda dehqonlar omochlarining uchini tepaga qaratib qo'yishgan. Omochning tig'iga bitta toshbaqani osib qo'yib qiynaganlar. Go'yo jonivorning qiynalganini ko'rib rahmi kelgan Xudo yomg'ir yuboradi deb umid qilganlar. Ayollar esa uyma-uy yurishib, «Sust xotin» qo'shig'ini aytishgan. Uy egasi bug'doy chiqarib bersa, xotinlar: «Oblohu akbar! Guldur momo, Jaldir momo kelsin, yomg'ir yog 'sin, hammamiz seroblikka chiqaylik!» – deb niyat qilisharkan. Marosim nihoyasida yig'ilgan dundandan osh pishirib, elga tarqatadilar.

d) **Yozgi marosimlar folklori janrlari:** shamol chaqirish («Yo Haydar») va shamol to'xtatish marosimlari («Choy momo», «Yalli momo»), «Haqullo». Marosimning uchinchi lokal varianti Sayram tumanining Pushkin nomli jamoa

xo'jaligida qayd qilingan. Axborotchilarning ma'lumotiga qaraganda, qattiq shamolning oti «**Choymomo**» bo'lib, olmapishar vaqtida kuchli shamol esib, mevalarni to'kib, zarar yetkazadigan bo'lganda shamolni to'xtatish maqsadida mazkur marosim o'tkazilar ekan. Marosimning barcha rituallari, asosan, uchta kampir tomonidan bajarilgan: ulardan biri o'qlog'ini minib olsa, ikkinchisi, supurgi ushlab olgan, uchinchi kampir esa yig'iladigan masalliqlarni to'rvaga solib ko'tarib yurgan. Uch kampir ana shu holatda qishloqdagi har bir uy oldiga borib Choymomo qo'shig'ini aytganlar. Uy egalari xayr-sadaqa qilib chiqarib bergen narsalarni to'plab, xudoyi qilib bergenlar. Axborotchi Jahon opa Imomrashidovaning eslashicha, ularning qishlog'ida istiqomat qilgan Bodomgul momo degan kampir ana shunday marosimlarda doim qatnashib kelgan bo'lib, u quyidagi qo'shiqni aytgan ekan:

*Choymomo, choy, choy, choy,
Chayilib qolsin quv shamol,
Bosa-bosa beringlar,
Bosilib qolsin quv shamol!
Uga-uga beringlar,
Ugilib qolsin bu shamol.
Choymomolar o'libdi,
O'g'li yetim qolibdi,
Choymomoning onasi,
Amakimga boribdi,
Choymomo, choy, choy,
Chayilib qolsin quv shamol,
Bosa-bosa beringlar,
Bosilib qolsin quv shamol!
Uga-uga beringlar,
Ugilib qolsin quv shamol.*

O'zbeklarning shamol chaqirish bilan bog'liq irim-sirimlari va bu e'tiqodiy inonchlar tizimi bilan aloqador magik aytim matnlarida shamolning afsonaviy homiysi – Haydar yoki Mirhaydar nomi tilga olinadi. Xirmon sovurayotganda havo dim bo'lib, somon yurishmasa, sopol yoki chinni idishlarni taqillatib, hushtak chalishgan. Shundayam shamol esavermasa, hushtak chalib turib:

*Shamolingni qo'yvor,
Somoni sendan,
Bug'doyi mendan,
Haydaro, Haydar,
Bolang suvga oqdi,
Yugur ushlab ol!*

O'rta Osiyo turkiy xalqlari folkloridagi shamol homiysining nomi sifatida qo'llaniluvchi «Haydar» atamasining kelib chiqishi «Avesto»da nomi tilga olingan shamol xudosi «Vata» - «Vata» atamasiga bog'lanadi.

O'zbek dehqonlarining an'anasiga ko'ra, bug'doyni o'rib-yig'ib olgandan keyin, yanchiq paytida «Chosh qurdi», «Chosh oshi», «Xirmon oshi», «Choshning belini bog'lash», «Haqullo» kabi marosimlar o'tkazilgan. Bug'doy o'rilmach, dehqonlar arava-ulov bilan g'aramlarni xirmon joyiga tashiganlar. G'alla tashishda ishtirop etadigan yigitlar aravalarda g'aramlarni tashiyotib, «Havvor-havvor» qo'shig'ini ijro etishgan:

*Ko'z tegmasin sayrog'ingga, havvor-havvor,
Tosh tegmasin tuyog'ingga, havvor-havvor,
Asta-asta jebalagin, havvor-havvor,
Quvvat bersin oyog'ingga, havvor-havvor,*

*Uzoq yo 'lda hamrohim, havvor-havvor,
Og 'ir yukdan hinqillab, havvor-havvor,
Sola bersam cho 'qqingga, havvor-havvor,
Yo 'rg 'alagin zing 'illab, havvor-havvor.*

Bir joyga to‘plangan bug‘doy g‘aramlarini yanchish ishi boshlanadigan kunni qashqadaryolik dehqonlar «ayaq qo‘shdi» deb atashgan. Xirmonga uyulgan g‘aramlarni yanchgandan keyin choshni somondan ajratish uchun xirmon sovurayotgan dehqonning yoniga kelgan kishilar xirmonchining ishi yengillashsin uchun «Xirmonga baraka, xirmonga!», «Mo‘lchilik-ko‘lchilik», «Ko‘p bersin, kam qilmasin» deydilar.

e) **Kuzgi marosimlar folklori janrlari:** «qovun sayli». Xalqimizning kuzgi mavsumiy marosim folklori tizimida polizlarda turfa qovunlar g‘arq pishgan paytda o‘tkaziladigan «qovun sayli» alohida o‘rin tutadi. Chunki o‘lkamizda qovunning xilma-xil navlari o‘stirilgan bo‘lib, mirishkor dehqonlar bunday sayillarda o‘zları yetishtirgan yangi navlarni, eng mazali qovunlarni namoyish etishgan.

«Qovun sayli» mamlakatimizning deyarli barcha viloyatlarida an’anaviy tarzda o‘tkazib kelingan. Bu sayilda turli-tuman qovunlar namoyish etilgan, yigitlar va o‘smir bolalar «qovun-qovun» o‘yinini o‘ynaganlar. Bunda o‘yinchilar ikkiga bo‘linib, bir-birlariga qovunlarni otib, ularning shirinligi, tilimi tilni yorishini qo‘sHQ qilib kuylashgan. Aytishuv shaklidagi bu qo‘sHQning har bir to‘rtligi «Qovun-qovunlar dedim» an’anaviy takrorlanuvchi misra bilan boshlanib, keyingi misralarda istalgan qovun nomini qo‘shib ijro etilavergan:

*Qovun-qovunlar dedim,
Mazali qovunlar dedim,
Ey shirinnovvot dedim,
Gurvak qovunlar dedim.*

*Qovun-qovunlar dedim,
Shirin qovunlar dedim,
Oq bekzodi, ko 'k bekzodi,
Qariqiz qovunlar dedim.*

*Shirinnovvot qovunimiz,
Mazasidan tomadi bol,
Farhod bo 'lib bellashamiz,
Shirin bo 'lib ko 'nglimiz ol.*

*O 'ynang qizlar, o 'ynang qizlar,
Bog 'da gulday yashnashaylik,
Shirin novvot bir bahona,
Oshiq ko 'nglin xushlashaylik.*

Xorazm viloyati tumanlarida esa «Qovun sayli»da an'anaviy «Shirinnovvot» o'yini o'ynalgan. Bu o'yinni o'ynash uchun katta ayvoni bor uy tanlangan va yigit-qizlar har xil qovunlarni olib shu uyga yig'ilishgan. Yigitlar qovunlarni ko'tarib tomga chiqishgan va ayvon tepasidan ipga bog'langan qovunlarni pastda turgan qizlar tomonga tushirishgan. Qizlar ilib olish uchun qo'l cho'zishganda ular ipni yuqori tortganlar. Shu tariqa o'yin davom ettirilgan va yigit-qizlar tomonidan lapar usulida qo'shiq aytilgan.

3. Oilaviy marosimlar. Oilaviy marosimlar tizimi ham o'z navbatida ikki katta guruhga ajratiladi. 1. To'y marosimlari folklori. 2. Motam marosimlari folklori.

To'y marosimi folklori. To'y dunyoning barcha xalqlariga xos marosimdir. «To'y» atamasi «to'ymoq», «el-yurtga ziyofat bermoq» ma'nolari orqali muayyan kishi hayotidagi muhim burilish nuqtasini anglatadi. Binobarin, to'y ham moddiy, ham ma'naviy oziqlanish marosimidir.

O'zbek to'y marosimlari nikoh to'ylari bilangina chegaralanib qolmay, balki xatna (sunnat), beshik to'yi kabilardan ham tashkil topgandir. Bu marosimlar turli munosabatlar bilan o'tkazilganligi tufayli ularda ijro etiladigan folklor janrlari ham xilma-xillik kasb etadi.

Beshik to'ylari folklori. Odatda beshik to'yi oiladagi birinchi (to'ng'ich) farzand uchun o'tkaziladi va u tantanali kechadi. Ba'zan oilaning moddiy turmush darajasi bilan bog'liq holda bu tartib o'zgarishi ham mumkin.

Sunnat to'yi folklori. Xalqimizda o'g'il bolalarning «qo'lini halollash», ya'ni sunnat qilish marosimining o'ziga xos folklor an'analari mavjud bo'lgan. «Sunnat» so'zi aslida arabcha bo'lib, Payg'ambarimiz bajargan va boshqalarga ham tavsiya qilgan amallardir. Bu marosim ko'pgina joylarda «xatna to'yi» deb ham ataladi. Zero, «xatna» atamasi arab tilidagi «kesmoq», «qisqartmoq» ma'nolarini anglatuvchi «xatnun» so'zidan olinganligi uchun o'g'il bolalar jinsiy a'zosi uch qismi terisini kesish bilan bog'liq marosim ham «xatna to'yi» deb yuritiladi.

Bolani xatna qilish an'anasing tarixiy ildizlari ibridoiy jamoa davridagi sinov-initsiatsiya rituallari, xususan, bolalarni bir yosh-jins mansubiyatidan boshqasiga o'tkazish bilan bog'liq qadimgi udumlarga borib taqaladi. Xatna qilish odati qadimiy Misr, Indoneziya, Avstraliya, Afrika xalqlarida ham kuzatilgan. Sunnat qadimiy Bobilda yashagan somiy xalqlar o'rtasida ham keng tarqalgan. Xatna O'rta Osiyoda qadimdan mavjud bo'lgan degan taxminlar bo'lsa-da, biroq u islam dini kirib kelgandan (VIII asr)dan so'ng keng tarqalgan.

Bu marosim mamlakatimiz viloyatlarida «*xatna to 'yi*», «*sunnat to 'yi*», «*ummat qilmoq*», «*huydo-huydo qilmoq*», «*chuk to 'yi*», «*to 'yi pisar*», «*chukburon*», «*gula qildirish*», «*kestirish*», «*chukron to 'yi*», «*o 'g'il to 'yi*», «*nevara to 'yi*», «*qo 'l halollash to 'yi*» kabi nomlar bilan ataladi.

Mamlakatimizning turli viloyatlarida o 'tkaziladigan xatna to 'yi o 'z tarkibiga mansub udumlari bilan bir-biridan farqlanib turadi. Xorazm vohasida istiqomat qiluvchi aholi orasida xatna to 'yi «*maslahat palovi*», «*ko 'rpa iyma*», «*bug 'doy artish*», «*un artish*», «*idish tayyorlash*», «*xo 'nayo 'g 'ich yo 'nish*», «*chopon bichish*», «*po 'ssiq pishirish*», «*potiya olish*», «*bola gizlash*», «*qo 'l bog 'lash*», «*bog 'lov puli olish*», «*ko 'vish gizladi*», «*suyunchi puli*», «*usta haqqi*», «*bola ko 'rdi*», «*emish*», «*usta yo 'qlov*», «*hormasin*», «*pul tutar*», «*xalta to 'ldirar*», «*pul sanar*», «*oltin qovoq*», «*ko 'rpa yig 'ar*» kabi udumlarni o 'z ichiga oladi.

Surxon vohasi «*o 'g'il to 'yi*» marosimining tarkibi «*ko 'rpa tikdi*», «*kichik maslahat*» yoki «*kichik to 'y*», «*maslahat oshi*», «*o 'tin oshi*» yoki «*o 'tin yig 'ar*», «*qozon qurish*», «*non pishirar*», «*Bibi mushkul*», «*kiyit pichar*», «*xatmi Qur'on*», «*nahor oshi*», «*bola keldi*» yoki «*hayyor do 'st*», «*bola kiyintirar*», «*chanki*», «*katta to 'y*», «*qo 'noq berish*», «*gula qilish*», «*supra qoqdi*», «*bola ko 'rar*», «*xizmat oshi*», «*usta yo 'qlandi*» kabi uzvlardan tashkil topgan.

Andijon viloyatida esa «*sunnat to 'yi*»ning tarkibida «*bug 'doy tozaladi*», «*eshik tozaladi*», «*supra yozdi*», «*o 'tin oshi*», «*supra soldi*», «*supra ochdi*», «*maslahat oshi*», «*tandir qurdi*», «*un eladi*», «*novvoy soldi*», «*devonai Bahovaddin noni*», «*qozon qiyshaydi*», «*so 'qim oshi*», «*so 'qim yiqlmayapti*», «*xatmi Qur'on*», «*sabzi archdi*», «*ertalabki osh*», «*ko 'rpa yig 'di*», «*jiyan tovoq*», «*lakki*», «*to 'polon oshi*», «*to 'qqiz tortdi*», «*ot chopdi*», «*osh yedi*»,

«peshdasturxon», «oqsoqol tovoq», «yigit og'a tovoq», «ot yasatti», «ulush», «bola berkitdi», «qo'l bog'ladi», «bog'landi puli», «chukron», «chukron oshi», «chukron noni», «keskilik», «kulola», «kalish berkitdi», «sovrin haqi», «to'ylik», «o'pka urushtirdi», «xo'roz so'ydi», «kurash», «bola ko'rди», «shavla yedi», «ketar shavla», «mehmon oshi», «usta yo'qladi», «hormasin» singari udum, marosim, rasm-rusum va odatlar mavjud.

Sunnat to'yida maxsus jarchi tomonidan qishloq-mahalla ahlini to'yga chorlash udumi «jar» deb atalgan. Chortoq tumanidagi Hadikent qishlog'ida yashagan Qo'yvoshboy polvon degan kishining o'g'liga qilgan sunnat to'yiga jarchi shunday deb chaqirgan:

*Qo'yvoshboyning oshi bor,
Oltmisqo'yning boshi bor,
Bola-chaqang ola bor,
Qiljo'rjinni sola bor.*

Boysun tumanining To'da qishlog'ida uzoq yillar mobaynida jarchilik qilgan Boynazar Mustafoqulovdan yozib olingan ma'lumotga ko'ra, xatna to'yidan avval to'y egalari jarchini mehmonga chaqirib, kichikroq ziyofat berib, sarpo (odatda, chopon) kiygiladidi. To'ydan bir kun burun jarchi otga minib yurib, qishloqni aylanib chiqadi va quyidagi jar aytimini ijro etib, odamlarni to'yga chaqiradi:

*Odamlar-o, odamlar,
Bog'da bitgan bodomlar,
Chupron to'yi chachalab,
To'y qilarlar kechalab,
To'ydan keltirdim xabar,
Kelinglar xesh-u tabar!*

*Yer o 'choqlar o 'yildi,
Chorqirra qo 'ylar so 'yildi,
Ko 'pkarinining solimiga,
Qo 'shalab qo 'chqor qo 'yildi,
Kimming bo 'lsa tulpori,
Qolmasin, kelsin bari!
Odamlar-u, odamlar,
Eshitmadim demanglar.
Qani, naqshni olib chiqinglar,
«Naqsh» bazmini boshlaymiz, e-he-hey!*

– deb hammani bazmga chorlagan ovozi boshlab bergan.

Nikoh to'yłari folklori. Balog'atga yetgan yigit bilan qizning o'zaro roziligi bilan oila qurishi, bir yostiqqa bosh qo'yishi, kelin va kuyovning nikohini nishonlash marosimi nikoh to'yidir. Nikoh umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan urf-odat bo'lib, ibtidoiy jamiyatning so'nggi davrida yuzaga kelgan va keyinchalik yozma tarzda qonunlashtirilgan marosim shaklini olgan. «Nikoh» arabcha so'z bo'lib, «er-xotinlikni shariat yo'li bilan qonuniy rasmiylashtirish», degan ma'noni bildiradi. («O'zbek tilining izohli lug'ati», 38). Nikoh to'yi marosimi tuzilishiga ko'ra uch bosqichni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqich – «*to'y tayyorgarligi*» deb nomlanadi va bir necha xil marosimlarni o'z ichiga oladi, ya'ni «beshik kerti», «etak yirtar», «qulok tishlatar», «atab qo'yari», «qiz tanlash», «ro'mol o'rari», «lali yuborar», «sovchilik», «qiz sinov», «unashtirar», «non sindirar», «qonjig'a tovoq», «jalooq qizartirar», «fotiha to'yi», «yo'l to'sar», «shox uloq», «buqcha ochar», «hadya tovoq», «kulush yoki non-u sochiq», «qalliq o'yin», «paxta solar» kabi uzvlardan iborat.

Ikkinchchi bosqich – «*katta to'y*» deb nomlanib, kelin-kuyovni nikohlash va kelinni kuyovning uyiga olib ketishdan iborat marosimdir. Bu bosqich «vakil so'rash», «kuyov sinov», «o'tin yorar», «kuyov kiyintirar», «kuyov yor-yori», «oriyat yo'li», «to'qqiz tovoq», «qari ilik», «to'n kiygizar», «uzangi bardor», «chavqi qilar», «o't yoqar», «ota sinov», «olovdan aylantirar», «kampir o'ldi», «ipak iluv», «soch siypatar», «oyna ko'rsatar», «oyoq bosar», «shirin suv ichirar», «it irillatar» kabi qator uzvlarni o'z ichiga oladi va turfa rasm - rusumlarga boyligi bilan alohida ajralib turadigan asosiy tantana hisoblanadi.

Uchinchi bosqich – «*to'y yakuni*» deb ataladi va «bet ochar», «kelin salom», «kuyov salom», «eshik iluv», «chimildiq uzar», «chaqiruv» kabi marosimlardan iborat. Bu marosimda, asosan, kelin-kuyovning yaqin qarindoshurug'lari ishtirok etadilar. Kelin-kuyov qirq kun chilla saqlaydi va chilladan chiqqach, kelinning ota-onasi o'z qizini va kuyovini «chaqirdi» qiladi. Bu marosim xalq orasida «chaqiruv» deb yuritiladi. Ana shu marosim nikoh to'yining yakunlovchi qismi hisoblanadi.

Sovchilarning o'ziga xos aytim-so'zлari ham mavjud bo'lganki, bu ulardan so'zamollikni, chechanlikni, xushmuomalalikni talab qilgan. Xususan, Boysun tumanining Qizilnov qishlog'ida yashovchi Qatag'on urug'iga mansub o'zbeklarda sovchilikni «elchilik» deyiladi. Sovchilar qiznikiga borganda

*Elga tushgan elchiman,
Qizga kelgan sovchiman,
Bir qorabay cho 'ri so 'rab keldim, – deyishgan.*

Shu tumandagi Machay qishlog'ida esa sovchilikka kelgan kishilar «Biz sizning uyingizga kunda yorgani keldik»

deyishgan. Bu aytim o‘zbek nikoh to‘yi marosimi tizimidagi «kuyov sinov» udumi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ilgari qiz tomon katta daraxtlarning kundasini yordirish orqali bo‘lajak kuyovni sinab ko‘rgan. Kuyovga kunda yordirish odati Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanida yaqin vaqtlargacha saqlanib kelgan.

Boysun shahrining shundoq yonginasida joylashgan Sariosiyo qishlog‘ida sovchilikka borgan kishilar «*Sizlar bizning xesh-u taboramiz, shu bois qarindoshlikni mustahkamlash uchun sizning uyingizga yovchi bo‘lib keldik*» – deyishar ekan. Surxondaryo viloyatida sovchilar qizning uyiga borganda «*qullikka keldik*», «*eshik yoki hovli supurishga keldik*», «*qarindosh bo‘lish uchun keldik*», «*bir farzandingizning qo‘lini so‘rab keldik*», «*bir bolangizni bizlarga farzandlikka berarsiz deb keldik*», «*bir farzandimiz ikkita bo‘lsin deb keldik*», deya gap boshlashar ekan.

Xalqimizning bevosita nikoh to‘yi bo‘lib o‘tadigan kunda o‘tkazilgan turli-tuman udum va marosimlari ham mavjudki, ularning aksariyati o‘ziga xos qo‘shiqlari, aytim va olqishlari bilan alohida ajralib turadi. Kuyov kelinnikiga kelganida chimildiq tutilgan va kuyov bilan uning jo‘ralari chimildiqli uyga olib kirilgan. Kuyov odob saqlab o‘tirmay turganida kelinning otasi bilan onasi: «*O‘tiring kuyov, o‘tiring, davlatimizning sherigisiz, qizimizni sizga topshirdik, sizni Xudoga*», – deyishgach, kuyov o‘tirgan. «Kuyov o‘tirsin» udumiga ko‘ra, kelinni olib ketish uchun kelgan kuyov yigit qaynonasining uyida chimildiqqa kirganida odob va hurmat yuzasidan o‘tirmasdan tikka turaveradi. Shunda kuyovning qaynonasi kirib kelib:

*Ikki tog 'ning orasidan,
Oy chiqadi lovullab,
Kuyov to 'ra kirib kelar,
Sepichlari yalpillab.
O 'tirsinlar, kuyov to 'ra.*

*Kuyov to 'ra o 'tirmasa,
Uylarni berdim,
Qoziqda kishnagan,
Duldulni berdim.
Qafasda sayragan,
Bulbulni berdim,
O 'tirsinlar, kuyov to 'ra.*

*Kuyov-kuyov deydilar,
Mulla kuyov deydilar,
Qaynotasi bilan qaynonasi
Eshigidan borganda
Xush kelibsiz, deydilar,
O 'tirsinlar, kuyov, o 'tirsinlar,*

— deydi. Shundan keyin kuyov o'ziga belgilangan joyda o'tiradi.

Kuyovnikiga kelgan kelin uyga kirganidan keyin chimildiqning ichidagi to'shak ustiga o'tirmay tikka turadi. Shunda kuyovning onasi yoki buvisi kelinni o'tirishga taklif qilib qo'shiq aytadi. «**Kelin o'tirsin**» nomli bu an'anaviy xalq qo'shig'i buxoroliklar orasida keng tarqalgan bo'lib, «**kelin tushdi**» udumining qadimiy uzvlari sirasiga kiradi. Bu qo'shiqda qaynona o'z keliniga uyning to'rini, ro'zg'oridagi barcha ishlarni, bor davlatini baxsh etganligi ifoda etiladi:

*Oftobi anvarim, xush keldingiz,
Ikki diydam, sarvarim, xush keldingiz,
Siz uchun oy-u kun mushtoqdir,
Jon bolamning qallig'i, xush keldingiz.
Oyim kelin o'tirsin!*

*Yana kelin o'tirmasa, uylarni berdim,
Poygakni qo'yib, to'rlarni berdim,
Bor-u yo'q davlatimni berdim,
Jamiki savlatimni berdim.
Oyim kelin o'tirsin!*

*Kelin oyim yashasinlar,
Taglariga baxmal to'shasinlar.
Kelin oyim bilan o'g'limdan bo'lgan bolalar
Ota-onalariga o'xshasinlar.
Oyim kelin o'tirsin!*

Xalqimiz an'anasiga ko'ra, nikoh to'yining ertasi va undan keyingi kunlarda o'tkazilgan bir necha marosimlar ham mavjud bo'lib, ular o'ziga xos qo'shiqlari, ya'ni verbal komponenti bilan alohida ajralib turgan. To'yining ertasi kuni kelinchakning yuzini ochishga bag'ishlab o'tkaziladigan marosim «bet ochar» deyilgan. Surxon vohasi aholisi udumiga ko'ra, «bet ochar» rasmi nikoh to'yining ertasi kuni bajariladi Bunda kayvonilar bir yosh o'g'il bolaning qo'liga o'qlov yoki mevali daraxt shoxidan sindirib olingen novdani tutqazadilar. Ana shu o'qlovning uchiga oq paxta o'raladi. Yosh bola qo'lidagi o'qlov bilan kelinning boshiga solingan maxsus yoping'ich-ro'molni ko'tarib, yuzini ochadi. Shundan keyin o'sha o'qlov kelin betini ochgan o'g'il bolaning o'ziga beriladi. Ba'zi joylarda kichkina o'g'il bolaning qo'liga

mevali daraxtning cho‘pi beriladi va o‘sha cho‘pning uchiga paxta yoki doka o‘raladi. Bola shu cho‘p bilan kelinning betini ochib yuboradi.

«Bet ochar» marosimida kayvoni kelinni kuyov tomon qarindoshlari hamda qo‘ni-qo‘shnilar huzuriga boshlab keladi va «kelin salom» qo‘shiqlarini aytib, hazil-huzul bilan kelinga yangi oila a’zolari hamda bu xonadonning yaqin kishilarini tanishtiradi. «Kelin salom»da nomi aytilgan kishilar kelinga ko‘rmana beradilar. Oltinsoy tumanidagi Xo‘jaipok jamoa xo‘jaligidagi Oxun qishlog‘ida yashovchi 63 yashar Toshxol Jo‘rayevaning aytishicha, ijrochi bundan zavqlanib ketib shunday deydi:

*Oq bulutning ostidan,
Oyday kelin kelibdi.
Ko ‘k bulutning ostidan
Kundai kelin kelibdi.
Kelingiz og ‘a-inilar,
Kelin betin ochadi,
Ko ‘rmanani bergenlar,
Tanga-tilla sochadi.*

Shundan keyin isiriqqa tuz, qalampir qo‘shib tutadilar va isiriqni kelinning atrofidan aylantirib: «*Baniyati shifosini bersin, senday kelinning insof – topig ‘ini bersin*», – deyiladi.

«Yuz ochdi» marosimida esa mevali daraxt (ko‘pincha behi) novdasi bilan bir yosh bola kelinning yuzidagi ro‘molini ochgach, kayvoni yoki yangalardan biri «kelin salom» aytadi. Bu qo‘shiqlar qofiyadosh so‘zlar, kulgili hazil-mutoyiba, qiziqarli misralarga boyligi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Ijro jarayonida kelin sukut saqlagani holda salom qaratilayotgan kishiga egilib, ta’zim bajo keltiradi. Odatda, «kelin salom»

ijrosi, dastlab, Xudoga, payg‘ambarlarga, aziz-avliyolarga, muqaddas joylarga hurmat bajo keltirish bilan boshlanib, so‘ngra kuyovning bobosi va buvisi, ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, eng yaqin qarindoshlari, qo‘sniylari, kelinning ovsinlari, to‘yda xizmat qilgan kishilar – nonvoy, oshpaz, jarchi va boshqalarga ham bag‘ishlanadi. Yengil humor bilan yo‘g‘rilgan bu qo‘shiqdagi hazil-mutoyibalar hech kimning ko‘ngliga tegmaydi.

*O‘ho‘ - o‘ho‘ yo‘talgan,
Obdastasin ko‘targan,
Qaynotasiga salom.*

*Oq soqichday eshilgan,
Mahallaga kerilgan,
Qaynonasiga salom.*

*G‘o‘zadagi pechakday,
Qayrilmachoq gajakday,
Qaynonasiga salom.*

O‘zbek folklorining qadimiy janrlaridan biri hisoblangan «kelin salom» qo‘shiqlarida kuyovning ota-onasi, qarindoshlari va yaqinlariga chuqur hurmati, izzat-ikromi o‘z badiiy ifodasini topgan.

Motam marosimlari folklori. Motam marosimi folklorining katta qismini yig‘i va yo‘qlovlар tashkil etadi. Yig‘ilar, odatda, dafн marosimi kunidan boshlab to «uch» yoki «yetti» marosimigacha azadorlar yoki maxsus yollangan yig‘ichi (go‘yanda yoki nahvagar) tomonidan azaxonaga ta‘ziya bildirib kelganlar oldida yig‘i bilan ritual ijro qilinadi. Yig‘i matnlari qat‘iy turg‘unlikka ega bo‘lmaydi. Ular,

odatda, bir martalik ijroga moslashgan. Sababi, yig‘ilar mavjud holatdan kelib chiqib, badihatan kuyylanadi. Yig‘ilarga xos situativlik va improvizatsion sajiya ular ijrosiga yetarli ta’sir ko‘rsatadi. Yig‘ichi an’anaviy yig‘ilarni ijro etar ekan, uning qaysidir misrasini yoki so‘zlarini tushirib qoldirishi, o‘zgartirishi yoki an’anaviy misralar yordamida yangi yig‘i matnlarini yaratishi mumkin. Shu tariqa yig‘ilarda variantlashish hodisasi ham kuzatiladi.

Yig‘ilar tarkibida, albatta, yig‘ini ifoda etuvchi «voy-voyey», «voy-dod-ey» kabi undov so‘zlar hamda yig‘ining kimga kim tomonidan qaratilganligini bildirib turuvchi undalmalar mavjud bo‘ladi va ular yorqin ko‘zga tashlanib turadi.

Yig‘ilar kimga qaratilganiga, ya’ni marhum bilan yig‘ichining qarindoshlik darajasiga qarab, mavzu jihatidan farqlanadi va ularning har biri alohida turkumni tashkil qiladi. Masalan, otaga, onaga, boboga, buviga, akaga, opaga, ukaga, singilga, farzandga, erga, xotinga, ammaga, xolaga, amakiga, tog‘aga va boshqa har bir qarindoshlik rishtasi bilan bog‘langan kishilarga bag‘ishlangan yig‘ilar murojaat obyekti, badiiy vositalari jihatidan o‘zaro farq qilinadi. Ularning har biri yakka, mustaqil yashaydi va kimning o‘limiga bag‘ishlanganligiga qarab o‘zaro birlashib, kattakon yig‘i turkumini hosil qiladi. Jumladan, otaga yig‘i, onaga yig‘i, boboga yig‘i, farzandga yig‘i va hokazo kabi poetik turkumlar shular sirasini tashkil etadi. Bu turkumlarga kiruvchi barcha yig‘ilar ma’lum bir nisbiy mustaqillikka ega bo‘lib, jonli an’anada yakka-yakka ijro etiladi. Chunki ular bosh qahramonga berilgan baho, hajmi, kim tomonidan kuylanishi jihatidan bir-biridan farq qilib turadi. Aytaylik, ota yig‘isi turkumiga kiruvchi yuzlab yig‘ilar yaratilganligi ma’lum va ular alohida-alohida ijro etilishi kuzatiladi. Biroq ular qancha ko‘p bo‘lsa-da, ota o‘limiga bag‘ishlanganligi,

marhum ota obrazini talqin etishi, unga xos ramziy belgilarni tashib kelishiga ko‘ra o‘zaro mantiqan birlashib turadi. Lekin ota yig‘ilari otaning oiladagi o‘rniga berilgan bahoga va o‘g‘il yoki qiz farzand tilidan kuylanganligiga qarab bir-biridan farq qiladi. Binobarin, otaga bag‘ishlangan yig‘ilarda ota-quyoshga, ustunga o‘xshatilsa, ona-oyga, buloqqa o‘xshatiladi. Bobo eski bog‘ning kundasiga, amma eshikning tambasiga, xola gul-u lolaga, farzand gulga yoki bulbulga tashbeh qilinadi. Shuningdek, ularga nisbatan qo‘llaniladigan sifatlashlar ham o‘zaro farq qiladi. Masalan, ona – «sutli ko‘lim», ota – «suyangan tog‘im», uka – «sho‘x bulbulim», opa – «sirdoshim», buvi – «uyimning farishtasi» deya sifatlanadi.

Yig‘ilarning mavzu doirasi keng. Yig‘ichining hayotiy tajribasi va ruhiy dunyosi bilan shartlangan yig‘ilarda o‘limga munosabat maishiy-falsafiy ruhda ifodalanib keladi. Yig‘ilarning mavzu doirasi marhumning shaxsiyati, oiladagi tutgan o‘rniga qarab belgilanadi. Xuddi shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mavzu leksik-grammatik takrordan ma’lum bo‘ladi. Er o‘lsa – «vo, to‘ram», xotin o‘lsa – «vo, gulim» yoki «vo, uyim» deb, qarindoshlarga «jigarim» deya yig‘i beriladi.

Ota o‘limida otaga bag‘ishlab ijro etiladigan yig‘ilar motam folklori na’munalari orasida alohida turkumni tashkil etadi.

*Orqamdagи yuksak tog ‘im,
Otajonim, qaydasiz-a?
Bog ‘imdagi gul chamanim,
Qiblagohim qaydasiz-a?*

Otaga bag‘ishlab ijro etilayotgan bunday yig‘ilarda otaning oiladagi mavqeyi, uning xonadon boshlig‘i sifatida

bolalariga g‘amxo‘rligi, pushti panoh va himoyachiligi alohida tilga olinadi.

Oila boshlig‘i bo‘lgan otaning hurmati yuksak, baland toqqa tenglashtiriladi. Zero, otaga hurmat xalqimizning ulug‘ qadriyatlaridandir. Xalq orasida ota bilan bog‘liq e’tiqodlar juda ko‘p. Shuning uchun bolalar ota o‘tirgan uyning tomiga chiqishni gunoh deb biladilar. Shu tushunchalar asosida yig‘ilarda ota «qiblagohim» deya ulug‘lanadi. Hatto otaga qarata «mehribonim», «boshindagi panohim» deya murojaat qilinadi.

Ota oilani birlashtirib turuvchi, unga har tomonlama bosh-qosh, moddiy ta’mintonchi bo‘lgani bois ko‘p hollarda uning o‘limidan so‘ng oila a’zolari qiynalib qolishadi. Buni hatto bolalar o‘lim yuz bergen kundanoq his eta boshtagdilar va o‘z his-tuyg‘ularini yig‘i matnlarida ifodalar ekanlar, «boshindagi posboni», «oldidagi sarboni» o‘limidan qattiq aziyat chekayotganliklarini ta’kidlaydilar. Otasiz oilalarda yuz beradigan boshboshdoqlik «buzilgan qo‘rg‘on»ga qiyoslanadi.

Ona vafoti munosabati bilan aytildigan yig‘ilar ham talaygina. Ularda onanining mo‘tabar zot ekanligi, mehribonligi va fidoyiligi madh etilishi orqali ona o‘limiga achinish, bundan g‘am chekish holatlari ifoda etiladi.

Volidam, Makkam, Madinam

Mehribonim, jonim onam. (B.u.g‘., 39-b.)

Yoki:

Oq sutingga rozi bo‘l,

Azizam - Ka‘bam onam. (B.u.g‘., 34-b.)

Ona nomini muqaddas qadamjolar nomi bilan teng qo‘yish orqali uning ham mo‘tabar zot ekanligi ta’kidlanadi. Onaning

mo'tabarligi esa o'ta mehribonligi, fidoyiligi, g'amxo'rligi bilan belgilanadi. Ona vafotiga bag'ishlangan ayrim yig'ilar hatto kuya solinib, qo'shiq qilib kuylanadi.

Onalarga bag'ishlangan motam yig'ilarida, asosan, onaning beqiyos mehr-muhabbatli ekanligi, farzandlari uchun umrbod kuyib-pishganligi, mushfiqligi, shirinso'zligi, bolalarini oq yuvib, oq tarab, oq sut berib boqqanligi tilga olinadi. Ayniqsa, uning ro'zg'or qiyinchiliklariga sabr-toqat bilan yelka tutib bergenligi alohida madh etiladi:

*Boriga ham yo'g'iga,
Achchig'u ham totiga.
Dardiga ham dog'iga,
Sabri ul tog'im onam.* (B.u.g', 35-b.)

Ona o'limi-farzandlar uchun katta yo'qotish. Shuning uchun farzandlar ona o'limida:

*Xayr ketdi sen bilan,
Ko'rк ketdi sen bilan.
Bir o'zing dunyomiding,
Dunyo ketdi sen bilan,* (B.u.g', 36-b.)
– deya nolish qiladilar.

Ayniqsa, onalar qizlarning yaqin sirdoshi, ko'makchisi va maslahatdoshi bo'lishadi. Lekin ko'pincha qizlar ham, o'g'illar ham o'z ro'zg'orlari bilan bo'lib, onalarini unutib qo'yishadi. Uning holidan kamdan-kam xabar oladilar. O'lim yuz berganda ana shu haqiqat yuzaga chiqib, bundan farzandlar qattiq afsus-nadomat chekadilar. Ularning afsus-nadomati esa boshqalarga saboq bo'lib yangraydi:

*Qiz dedim, o 'g'il dedim,
Ro 'z dedim, ro 'zg'or dedim,
Hech o 'zimdan ortmadim.
Dilginang tortgan taom-la,
Bir kuni yod etmadim.
Kiydirgani, xush etgani,
To 'rt enlik mato topmadim.* (B.u.g‘., 35-b.)

Xullas, ona-buyuk zotbo‘lib, uning buyukligi farzandlariga g‘amxo‘rligida aks etadi. Farzandlar onasini «boshdagi tojga», «bog‘ning bog‘boniga», «ro‘zg‘orning sultoniga», «taxti ravonga», «mulki jahonga» tenglashtiradilar. Yig‘ilar orasida og‘a-inilarga, opa-singillarga bag‘ishlangan namunalar ham mavjud. Ular «akaga», «ukaga», «opaga», «singilga» bag‘ishlangan yig‘ilar sifatida alohida-alohida turkumni hosil qiladi va o‘ziga xos poetik lug‘ati bilan o‘zaro farq qiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Marosimlarning xalq hayoti va qadriyatlaridagi o‘rnimalarda ko‘rinadi?
2. Marosim folklori va ularning turlari haqida ma’lumot bering.
3. Hududingizda siz bilgan va qatnashgan marosimlar haqida so‘zlab bering.
4. Mavsumiy marosimlarning qanday turlari bor?
5. Badiiy asarlarda marosim folklori ifodalangan lavhalarni toping va tahlil qiling.

Adabiyotlar:

1. Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. – Toshkent: Fan, 1974. – 222 b.

2. Jo‘rayev M. O‘zbek mavsumiy marosim folklori. Pedagogika institatlari filologiya fakulteti talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. Mas’ul muharrir: A.Musaqulov. – Toshkent: Fan, 2008. – 1926.
3. Jo‘rayev M. Navro‘z bayrami. O‘zbek folklorshunosligi kutubxonasi. Mas’ul muharrir: T.Mirzayev. – Toshkent: Fan, 2009, 12 b.t.
4. Ismoilov H. O‘zbek to‘ylari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 189 b.
5. Ismanova O. Farg‘ona vodiysi o‘zbek to‘y marosim folklorida yor-yor janrining ijro o‘rnii // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2006. – 4–son. - B.68-71.
6. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: «Mumtoz so‘z», 2010
7. Navro‘z taronalari (Navro‘z bayrami va bahoriy udumlar bilan bog‘liq o‘zbek xalq qo‘sishlari). To‘plab, nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi: M.Jo‘rayev. – Toshkent: Kamalak, 2016.– 96 bet.
8. Navro‘z qo‘sishlari. To‘plab, nashrga tayyorlovchilar va so‘ngso‘z mualliflari: Sh.Turdimov, Jabbor Eshonqul. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010, 7 b.t.
9. Nurmurodova B. Folklorga oid maqolalar bibliografiyasি. Mas’ul muharrir: M.Jo‘rayev. –Toshkent: Fan, 2008, 6 b.t.
10. Ostonasi tillidan. To‘y marosim qo‘sishlari/ Nashrga tayyorlovchilar: M.Mirzayeva, A.Musaqulov. – Toshkent: Fan, 1992.
11. Safarov O. «Kelin o‘tirsin» va «Kuyov o‘tirsin» marosimi qo‘sishlari (Buxoro nikoh to‘ylari misolida) // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1989. – 5-son. – B.35-36.

12. Safarov O. «Kuyov eltish» va «Kelin eltish» udumlari va janrlari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1991. – 6-son. – B.35-36.
13. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti bakalavrлari uchun darslik. - Toshkent: 2010.
14. To'y muborak, yor-yor. O'zbek xalq nikoh to'yi marosimi qo'shiqlari. To'plab, nashrga tayyorlovchi: O.Safarov. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
15. O'rayeva D. O'zbek motam marosimi folklori. – Toshkent, 2009.

4-MAVZU. XALQ DOSTONLARI

Reja:

- 1. Doston – xalq og‘zaki ijodining sinkretik janri sifatida.**
- 2. Xalq baxshilari, dostonchilik maktablari.**
- 3. Dostonlarning tasnifi.**
- 4. Xalq dostonlarida turkumlik.**

1. Doston – xalq og‘zaki ijodining sinkretik janri sifatida. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalar orasida doston eng yirik hajmli va keng tarqalgan janr hisoblanadi. Dostonlar xalqning badiiy shakldagi taqdirmomasi, o‘ziga xos qomusidir. Har bir xalqning insoniyat tarixidagi o‘rnii, xizmati, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, madaniy mavqeyini eposlari namoyon etadi. Xalqning komil inson, adolat, haqiqat, ozodlik, tenglik tushunchalari, falsafiy, diniy qarashlari va bu yo‘ldagi ibratli qahramonlari, ideallari, ularning kurash yo‘li dostonlar mavzusini, g‘oyaviy mazmunini tashkil etadi. Ushbu mazmun va mundarija dostonlar syujeti, motivlar tizimi, badiiy tasviriy vosita va usullarida o‘z ifodasini topadi.

Hozirda keng omma orasida va folklorshunoslikda qo‘llanib kelayotgan «doston» so‘zi «qissa», «hikoya», «tarix»¹, sarguzasht, ta’rif va maqtov ma’nolarini anglatadi. Ammo atama sifatida folklordagi epik turga mansub, she’riy va nasriy parchalardan iborat, ma’lum bir qahramonlar hayoti, taqdirini tasvirlab beruvchi yirik hajmdagi, maxsus ijrochilar tomonidan kuylanuvchi asarga nisbatan qo‘llaniladi. Ayni paytda doston atamasiga muqobil ravishda epos termini ham ishlataladi. Epos – yunoncha «epos» – rivoyat, hikoya, qo‘sish so‘zidan olingan bo‘lib, badiiy adabiyotda voqeа,

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Birinchi jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 649.

hodisani bayon qilish, hayotiy lavhaning tafsilotlarini ifodalash ma’nosini anglatadi. Taniqli folklorshunos olimlar V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov 1947-yilda Moskvada e’lon qilingan katta hajmdagi kitobni «O’zbek xalq qahramonlik eposi» deb nomlangan va unda, o’zbek dostonlarining tabiat, turlari, doston ijrochilar, ijro jarayoni, yetakchi dostonchilar, dostonchilik maktablari, doston kuylash tartibi, ustoz va shogird munosabatlari, «Alpomish», Go’ro‘g’li turkumiga oid dostonlar, «Kuntug‘mish» kabi ishqiy-romanik dostonlar va boshqa masalalar tahlil etilgan.

Doston atamasi yozma adabiyotda ham katta hajmdagi epik asarlarga nisbatan keng istifoda etiladi. Biroq og‘zaki va yozma adabiyotdagi dostonlar hayotni tasvirlash vositalari, usullari, an’anaga munosabat va boshqa bir qator xossalari ko‘ra jiddiy farq qiladi. V.M. Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar ta’biri bilan aytganda, xalq og‘zaki ijodida doston o’tmish zamonlar to‘g‘risida qahramonlik idealizatsiyasi ko‘lamidagi hikoyalar va rivoyatlardir¹. Professor M.Saidov ta’rificha, avvalo, og‘zaki ijoddagi dostonlarda she’riy va nasriy parchalardan iborat badiiy manba – matn bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, dostonning musiqasi bo‘lishi lozim (Bu o‘rinda shuni aniqlab olish kerakki, har bir alohida olingan doston uchun alohida yirik musiqa asari bo‘lishi shart emas). Uchinchidan, dostonni bir kishi ijro etganligi tufayli kuylovchi do‘mbira cherta bilishi yoki qo‘biz chala bilishi zarur. To‘rtinchidan, dostonni kuylayotgan baxshi yaxshi ovozga ega bo‘lishi va qo‘sinq aytish mahoratini egallagan bo‘lishi zarur². Folklorshunoslarning bu fikrlari biri ikkinchisini

¹ Жирмунский В. М., Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. М., с. 303.

² Saidov M. Doston / Muhammadnodir Saidov – ma’rifat fidoyisi. – T.: MUMTOZ Saidov M./ Muhammadnodir Saidov – ma’rifat fidoiysi. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2009.– B.7.

to‘ldiradi va xalq dostonlarining mazmun-mundarijasi, qurilish tartibi, ijro o‘rni va boshqa jihatlarini qamraydi.

Xalq dostonlarida xalq taqdiri, tarixi, tarixiy voqelik xalqning oddiy mushohadalari asosida umumlashma obrazlarda o‘z ifodasini topadi. Dostonlarda epik umumlashtirish hukmronlik qiladi. Dostonlardagi epiklik, monumentallik xos bo‘lib, syujet va kompozitsion qurilish jihatidan murakkab voqeа-hodisalarni qamrab oladi. Bunday voqeа va hodisalar mazmunan favqulorra kuch-qudratga ega bo‘lgan xalq idealidagi bahodir – alp atrofiga birlashadi. Xalqning ozod va hur o‘lka, komil inson haqidagi orzu- o‘ylari doston g‘oyasini belgilaydi.

Doston sinkretik san’at namunasi, bir kishilik o‘ziga xos teatr hisoblanadi. Doston aytuvchi ayni paytda sozanda, kuylovchi, bastakor, aktyor va rejissyor. U doston ijrosi davomida barcha qahramonlar, personajlar obrazini tomoshabinga mahorat bilan yetkazib beradi. Doston ijrochisiga nisbatan baxshi atamasi qabul qilingan.

2. Xalq baxshilari, dostonchilik maktablari. «Baxshi» so‘zining «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da to‘rt xil ma’nosi izoh olgan: 1 – donishmand, 2 – dostonlarni kuylovchi, 3 – dam solib davolovchi tabib, 4 – Buxoro xonligida qurilish mablag‘ini nazorat qiluvchi. Yuqoridagi to‘rt ma’nodan uchtasi bevosita doston aytuvchi baxshilarga tegishli. Chunki xalq orasida baxshi bo‘lish uchun inson donishmand, aqli bo‘lishi kerak, degan fikr qayta-qayta ta’kidlanadi. Ikkinchidan, «baxshi» xalq dostonlarining ijrochisi. Uchinchidan, ibtidoda baxshi va shomon yagona tizimda qaralgan va so‘zning mo‘jizaviy magik fazilatidan foydalanib kishilarni turli xastaliklardan forig‘ qiluvchi shaxs hisoblangan. O‘zbek folklorshunosligi asoschisi H.T.Zarifovning ma’lumot berishicha, baxshi mo‘g‘ulcha va buryatcha «baxsha»,

«bag'sha» so'zlaridan olingan bo'lib, «ustod», «ma'rifatchi» ma'nolarida qo'llangan. Baxshi keng ma'noda xalq dostonlarini kuylovchi, yodda saqlovchi va nasldan naslga o'tkazuvchi san'atkor. Doston ijrochilarini Surxondaryo va Qashqadaryoning ayrim hududlarida yuzboshi, Janubiy Tojikiston o'zbeklari orasida soqi, ba'zi joylarda sozanda, Farg'ona vodiysida sannovchi, ba'zi joylarda jirov, jirchi, oqin, oxun deb ham atashagan. Yetuk baxshilar, badihago'y, epik an'ana doirasida o'zlarining yangi-yangi variantlarini, hatto yangi dostonlarni yarata bilgan ijodkorlarga nisbatan shoir nisbati ham qo'shib aytilgan. Masalan Ergash shoir, Fozil shoir, Islom shoir, Po'lkan shoir, Abdulla shoir kabi.

Baxshilar o'z dostonlarini do'mbira, ayrimlari qo'biz yoki dutor jo'rligida, ichki ovozda ijro qilishgan. Xorazm baxshilari o'z dostonlarini, asosan, dutorda ijro qilishgan, ularga ijro jarayonida g'ijjak va bulomonda sozandalar jo'r bo'lishgan. XX asrning 30-yillaridan boshlab Xorazm baxshilari dostonlarni tor va rubob jo'rligida ham kuylay boshlashdi. Ayrim baxshilar o'z to'piga doirachi va o'yinchini ham olib kirishdi. Xususan Bola baxshi to'pi bunga misol bo'la oladi. Xorazm baxshilari epik asarlar yoki ularning parchalarini garmon sozi bilan ijro qilishga o'tishdi. Bunday hollarda ular sozchi deb yuritildi. Masalan: Qurbon sozchi, Qodir sozchi va boshqalar. Sozchilar epik asarlarni to'liq ijro qilishdan ko'ra undan parchalar, termalar, o'zлari yaratgan asarlarni kuylashga alohida e'tibor berishgan¹.

Xalq dostonlarini kuylash jarayonida, asosan, yakka ijrochilik yetakchilik qilsa-da, Xorazmda jamoaviy ijro birinchi o'ringa chiqqanligini kuzatamiz.

Xorazm hududida xalq dostonlari va ulardan saralangan

¹Qarang: Mirzayev T. Doston. O'zbek folklorining epik janrlari. – T.: Fan, 1981.
– B. 21-37 .

parchalarni, termalarni kuylovchi ijrochilikning yana bir turi bu – xalfachilikdir. Xalfachilik, asosan, ayollar orasida keng urf bo‘lib, ijrochilar ham ayollar hisoblanadi. Xalfa san’atining ikki turi mavjud bo‘lib, jamoaviy xalfalar va yakka xalfalarga bo‘lingan. Jamoaviy xalfalar uch kishidan iborat guruhni tashqil qilib – ustoz xalfa (garmon chalib, ashula aytgan), doirachi (ashulaga jo‘r bo‘lgan, ba’zan raqsga tushgan) va o‘yinchi (raqsga tushgan, qayroq chalgan, yalla va lapar aytgan, ba’zan doira chalgan)dan tashkil topgan. Bibi shoira, Xonimjon xalfa, Ojiza, Onajon Safarova, Nazira Sobirova kabilar shunday xalfalardir.

Yakka xalfalar doston va qo‘shiqlarni sozsiz ijro etadi. Ular dostonlarni yoddan yoki qo‘lyozmalardan ma’lum bir ohangda o‘qish, «Yor-yor», «Kelin salom», «Muborak» kabi to‘y qo‘shiqlarini ijro etish bilan shuhrat qozonishgan. Roziya Matniyozova, Saodat Xudoyberanova, Poshsho Saidmamat qizi, Ambarjon Ro‘zimetova, Anorjon Razzoqova kabilar yakka holda xalfachilik qilganlar.

Xalfalar ko‘proq «Oshiq G‘arib va Shohsanam», «Oshiq oydin», «Aslxon», «Hurliqo va Hamro», «Qumri», «Qissayi Zebo», «Tulimbiy», «Bozirgon», «Xirmon Dali» kabi dostonlarni, Maxtumquli she’rlarini, turli marosim qo‘shiqlari va o‘zlari yaratgan asarlarni ijro etadilar. Ular xalqning barcha to‘y-hashamlarida, turli marosimlarda, ayollarning yig‘inlari va bayramlarda qatnashadilar, to‘y va marosimlarni boshqaradilar. Xalfachilik ayollar san’ati sifatida Xorazm vohasida shu kunlarda ham keng davom etmoqda¹.

O‘tmishda epik asarlarni xalqqa yetkazuvchilar qatorida qissaxonlar ham faoliyat yuritishgan. Qissaxonlar xalq dostonlarining qayta ishlangan nusxalarini, qiziqarli

¹ Qarang: Mirzayev T. Doston. O‘zbek folklorining epik janrlari. – T.: Fan, 1981.
–B.24-38.

tarjima hikoyalarni, mumtoz adabiyot namunalaridan «folklorlashtirilgan» variantlarni, turli jangnomalarni o‘ziga xos ohangda o‘qiganlar, hikoya qilganlar. Qissaxonlar «Rustami Doston», «Tohir va Zuhro», «Hikoyati Go‘ro‘g‘li Sulton», «Bahrom va Gulandom» kabi dunyoviy qissalarni ijro etish bilan birga, ko‘proq diniy mazmundagi «Bobo Ravshan», «Ibrohim Adham», «Abo Muslim» kabi asarlarni o‘qishgan. Ayrim hollarda eng qobiliyatli qissaxonlarning o‘zlari qissa tuzishgan, ba’zan yangi asarlar yaratishgan, aytilayotgan asarga ijodiy yondashishgan.

Doston kuylashning an'anaviy tartiblari, vaqtı mavjud. Odatda, dostonlar kech kuzdan erta bahorga qadar kechqurunları ijro etilgan yoki to‘y-tantanalar baxshilar ishtirokisiz o‘tmagan. Baxshi taklif etilgan xonadonga odamlar yig‘ilib, davra qurib o‘tirishgan. Doston kuylash kichik ziyofatdan so‘ng boshlangan. Baxshi dastlab termalar kuylagan. Do‘mbira ta‘rifi va boshqa turli mavzudagi termalar tinglovchi va baxshi o‘rtasida ruhiy yaqinlik, doston kuylash uchun maxsus tayyorgarlik vazifasini ham bajargan. Baxshi ma’lum muddat termalar aytib, tinglovchilar xohishini bilish maqsadida «Nima aytay?» («Doston terish») termasini kuylagan. Tinglovchilar ma’lum bir dostonni tanlashgan. Baxshi ularning istagiga ko‘ra so‘ralgan dostonni ijro etgan. O‘zbek xalq dostonlarining ko‘pchiligi bir kun kuylashga mo‘ljallangan, ammo «Alpomish»ga o‘xhash asarlar bir necha kunlab kuylangan. Doston voqealarining qancha cho‘zilishi tinglovchilarning xohishi, dostonni tinglash kayfiyatiga va baxshining badihago‘yligiga bog‘liq. Birgina dostonning bir hafta yoki bir oy davomida uzlusiz ijro etilganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Masalan: XVIII asrning ikkinchi yarmida yashagan Amin baxshi «Alpomish» dostonini tinglovchilarni zeriktirmay uch oy kuylagani

naql qilinadi. XIX asrda yashagan Jumanbulbul «Ravshan» dostonini ikki hafta davomida kuylagani el orasida og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan. Baxshilar ijro davomida dostonning har bir tasviriga mos so‘z va kuy topib avjga chiqqa boradi, ularning o‘zlarining ta’biri bilan aytganda, «qaynaydi». Baxshi kuylash davomida tinglovchi auditoriyasini ohangi, kuyi, doston voqealari tasviri bilan butunlay sehrlab qo‘yish holatlari ko‘p kuzatilgan. Bunday ajib xil alolo holatlarida kuyllovchi, tinglovchilar bir butun «vvujud»ga aylanganlar. Xorazm ekspeditsiyasida folklorshunoslar 300 kishidan ortiq davrada doston kuylagan Ahmad baxshining ijro davomida ilhomlanib, o‘rnidan turganligini, boshqa ijrochilar ham, dostonni sel bo‘lib tinglab o‘tirgan tinglovchilarning ham gur etib o‘rnidan turishganlarini kuzatishgan. Bu xil holatlar baxshi ijrosida ko‘p bor kuzatilgan.

Doston kuylash eng avj nuqtaga yetganida, vaqt yarim tundan oshgan paytda baxshi dam olish uchun tanaffus qilgan. Bu choqda baxshi eshituvchilarga yoki o‘z do‘mbirasiga murojaat qilib, bir nechta qistirma misralar to‘qib, ijroni to‘xtatgan:

*Seni uydan olib chiqdim bo‘ktarib.
Sen yuribsan ulfatingni axtarib,
Men qo‘yayin seni endi to‘nkarib.
Yarim kecha haddi bo‘ldi, jonivor.
Yig‘ib opsan ulfatingning jamini,
Egang olsin-da bir oz damini,
Damin olib aytib berar kamini,
Ro‘mol yozar vaqt bo‘ldi, jonivor...*

Shundan keyin baxshi chophonini, belbog‘ini va do‘mbiranini to‘nkarilgan holda qoldirib, dalaga (tashqariga)

chiqib ketadi. Bu payt davradagilardan biri baxshi belbog‘ini o‘rtaga yoyadi. Bu odat «ro‘mol yozmoq» deyilgan. Unga har kim o‘z imkoniyatiga yarasha pul yoki biror narsa tashlagan. Baxshi qaytib xonaga kirdi, yig‘ilgan pul va narsalar belboqqa tugib qo‘yiladi. So‘ng dostonning qolgan qismini kuylash davom ettirilgan.

Yetakchi xalq shoirlari bo‘lajak baxshini yetishtirishga, shogird tayyorlashga alohida e’tibor bergenlar, chunki og‘zaki yaratilib, og‘zaki kuylanib kelingan dostonlarni avloddan-avlodga faqat shu yo‘l bilangina yetkazish mumkin edi. Biroq o‘tmishda baxshilar orasida dostonchilik san’atini «sirli» hodisa sifatida tushuntirish, muayyan ustozdan o‘tganligini yashirish, professional ta’lim usullarini inkor etish hollari keng tarqalgan ediki, ular o‘zlaridagi ijodiy qudratni g‘ayritabiyy kuchlarning da’vati bilan birdaniga, to‘satdan paydo bo‘lgan qobiliyat, ilgaridan tayyorgarligi, shoirlik salohiyati bo‘lmagan kishilarda muayyan sharoitlarda «g‘oyibdan chaqiriq» tufayli bexosdan yuzaga kelgan ehson tarzida izohlash holatlariga tez-tez duch kelinadi. O‘zbek baxshilar orasida Ko‘rG‘oyib, Oshiq Oyin, Ovul patta kabi baxshilikning pirlari tilga olinadi va ularning ba’zilari haqida maxsus dostonlar ham mavjud. Baxshilar afsonaviy Murodbaxsh g‘orini baxshilik san’atini o‘rganuvchi ilohiy makon sifatida talqin etishadi. Murodbaxsh g‘ori turli hududlarda turli manzillarda deb ko‘rsatiladi. Masalan, Shahrisabzliklar Kenggo‘zar, Nurota hududida Kanda, Chashmai Zirak kabi tog‘ qishloqlarida, deydilar. Bu holat xalq orasida so‘z san’ati va baxshilikni ilohiy ne’mat sifatida anglash natijasidir.

Baxshilikni o‘rganish og‘zaki ravishda amalga oshadi. Xalq dostonlarini eshitish va kuylashga kirishish ta’limning eng birinchi va asosiy shartidir. Dastlab termalar, dostonlardagi an’anaviy misralar («Xazon urmay bog‘da

gullar so‘ldimi, So‘lgan gulga bulbul kelib qo‘ndimi», «Yana bahor bo‘lsa ochilar gullar, Gulni ko‘rsa mast bo‘p sayrar bulbullar», «Ot chopsa gumburlar tog‘ning darasi, Botirni ingratar nayza yarasi» kabi), umumiy o‘rinlar (epik klishelar), ya’ni ba’zi bir juz’iy o‘zgarishlar bilan ko‘pchilik dostonlarda takrorlanadigan parchalar (qahramonga nasihat, uni kuzatuv, qahramonlarning uchrashuvlaridagi savol-javoblari, qahramonlarning portretlari, otni egarlash, ot ta’rifi, otta safar, jang tasviri, boshlanma, tugallanma, voqealarni bir-biriga bog‘lovchi tasvirlar kabi) yodlatilgan. So‘ng ayrim olingen bir doston, keyinroq esa, ustoz repertuaridagi barcha asarlar o‘rgatilgan. Ustoz shogirdning badihago‘ylik qobiliyatini, ya’ni yodlab olingen an’anaviy misralar, epik klishelar asosida yangilarini to‘qiy olish salohiyatini, ularni tasvir vaziyatiga qarab turli xil stilistik o‘zgarishlar bilan qo‘llay bilish san’atini o‘stirishga alohida e’tibor beradi.

O‘rgatishning keyingi bosqichlarida ustoz shogirdni o‘zi bilan birga dostonchilik yig‘inlariga, to‘y-hashamlarga olib yuradi. Bunday paytlarda shogird ko‘pchilik oldida termalar, dostonlardan parchalar kuylaydi. Shogird ancha «pisib» qolgach, ustoz o‘zi kuylayotgan dostonning davomini unga ayttiradi yoki bir dostonni ustoz va shogird galma-gal kuylaydilar. Bunday hollarda ustoz tomoshabinlar reaksiyasini hisobga olib, uni shogirdiga uqtira boradi. Shu tariqa o‘rgatish va o‘rganish ishlari bir necha yil davom etadi. Ustoz shogirdi yetilganligini bilib unga el orasida fotiha bergen va shogird baxshi sifatida mustaqil kuylash huquqiga ega bo‘lgan.

O‘zbek dostonchligida doston kuylash an’anasi qadimda uch yo‘nalishda rivojlangan. Birinchidan, Bulung‘ur, Qo‘rg‘on, Shahrisabz, Qamay, Narpay, Sherobod, Janubiy Tojikistonda yashovchi o‘zbek-laqay dostonchilik maktablarida do‘mbira chertib yakka holda, bo‘g‘iz ovoz bilan ijro

etilgan. Ikkinchidan, Xorazmda tor, dutor, g‘ijjak, garmon, bulomon, qo‘schnay, doira jo‘rligida ba’zan yakka, ba’zan juft holda, ochiq ovoz bilan ijro etilgan. Uchinchidan, Farg‘ona vodiysida dutor jo‘rligida ochiq ovozda aytilgan.

Baxshilar o‘ziga xos poetik yo‘l, uslub, repertuar xarakteri, ijro usullari bilan bir-birlaridan farqlanadilar. Umumlashgan puxta epik an’ana doirasida ma’lum baxshi yoki baxshilar guruhiga xos individual ijodiy xususiyatlar, yo‘llar, uslublar o‘zgachaligi, ustoz-shogird munosabatlari mavjud. Bunday farqlarni ko‘rsatish uchun Hodi Zarif folklorshunoslikda dostonchilik (baxshilik) maktablari terminini qo‘llagan. O‘zbekistonning ko‘pgina yerlarida bir qancha dostonchilik maktablari – baxshilik san’atining ajoyib markazlari mavjud¹. Bu maktablar Qo‘rg‘on, Bulung‘ur, Nurota, Shahrisabz, Narpay, Sherobod, Qamay, Piskent kabi yetakchi baxshilar yetishib chiqqan joylar nomlari bilan ataladi. Aslida atamalar nihoyatda shartli bo‘lib, shunday maktablar vakillari yetishib chiqqan va ular dostonchilik qilib yurgan hudud juda ham kengdir.

Bulung‘ur dostonchilik maktabi vakillari qahramonlik dostonlarini ijro etish bilan mashhur bo‘lganlar. Sodda, yuksak, o‘ta an’anaviy, nisbatan arxaik bo‘lgan qahramonlik eposi uslubi bu dostonchilarning poetik yo‘li hisoblangan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li Bulung‘ur dostonchilik maktabining vakili hisoblanadi. Undan «Alpomish», «Yodgor», «Yusuf bilan Ahmad», «Malika ayyor», «Mashriqo», «Zulfizar», «Balogardon», «Avazxonning o‘limga hukm etilishi», «Intizor», «Nurali», «Jahongir», «Murodxon», «Rustam», «Shirin bilan Shakar», «Farhod va Shirin», «Layli va

¹ *Qarang:* Mirzayev T. Doston. O‘zbek folklorining epik janrlari. – T.: Fan, 1981. -B.24-38. Murodov M. O‘zbek baxshilari poetik maktablari. «Adabiy meros». Toshkent, 1976, 4-son, 87–92-betlar.

Majnun», «Bahrom va Gulandom», «Ra’no bilan Suxangul», «Zavarxon» kabi dostonlar yozib olingen. XVIII–XX asrlarda yashagan Amin baxshi, Muhammad shoir, Chini shoir, Tovbo‘zar shoir, Qurbonbek shoir, Sultonmurod, Yo‘ldoshbulbul, Yo‘ldosh Mulla Murod o‘g‘li, Yo‘ldosh Mulla Murod o‘g‘li, Suyar Mulla Murod o‘g‘li, Rahimbulbul, Jo‘ra shoir, Do‘sstyor Ho‘jayor o‘g‘li, Xo‘janazar baxshi, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Yorlaqab Beknazар o‘g‘li kabi o‘nlab dostonchilarni birlashtirgan bu maktab vakillari Bulung‘ur, Jomboy, Poyariq, G‘allaorol, Zomin, Jizzax atroflarida dostonchilik qilib yurganlar.

Epik san’atning ikkinchi bir muhim markazi Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi bo‘lib, bu dostonchilik maktabining Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan, Egamberdi Allamurot o‘g‘li, Rahmatulla Yusuf o‘g‘li kabi vakillaridan «Alpomish», «Yakka Ahmad», «Oysuluv», «Kuntug‘mish», «Qironxon», «Yusuf bilan Ahmad», «Alibek bilan Bolibek». «Ernazar», «Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi», «Yunus pari», «Misqol pari», «Gulnor pari», «Xushkeldi», «Hasanxon», «Chambil qamali», «Dalli», «Ravshan», «Avazxon», «Qunduz bilan Yulduz», «Bo‘tako‘z», «Xoldorxon», «Xilomon», «Berdiyor otaliq», «Zamonbek», «Xidirali elbegi» kabi ko‘plab dostonlar yozib olindi. Mangishtovdan Nurotaga qadar cho‘zilgan silsila tog‘larning, ayniqsa, Oqtovning shimoliy va janubiy etaklarida, hatto Miyonkolga qadar cho‘zilgan keng masofada yashagan xalq shoirlari Qo‘rg‘on dostonchilik maktabiga mansubdirilar. Bu yerlarda yetishgan baxshilarning ko‘pchiligi Qo‘rg‘on qishlog‘ida tarbiya topgan va haqli ravishda o‘z ustozlarini shu ajoyib shoirlar qishlog‘i bilan bog‘laydilar. XIX asrning o‘rtalarida Qo‘rg‘on qishlog‘ida yashagan yetti oilada yigirmadan ortiq baxshi bo‘lgan. Ergash shoir

otasi Jumanbulbulning shogirdi bo‘lgan. Jumanbulbulning ustozi Bo‘ron shoir (Kichik Bo‘ron) bo‘lib, uning ustozi Bo‘ron baxshi (Katta Bo‘ron)dir. Po‘lkan shoir Jossoqning o‘n ikkinchi shogirdi bo‘lib, Jossoqning ustozi Mulla Abduqodirdir. Mulla Abduqodirga otasi Bo‘ron baxshi (Katta Bo‘ron) ustozlik qilgan. Katta Bo‘ronning akasi Jolmon baxshi ham XVIII asrning dongdor kuychilaridan bo‘lgan. Og‘zaki ma’lumotlarga qaraganda, Qo‘rg‘on dostonchilik maktabining asoslarini Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining otababolari qurbanligi taxmin qilinadi va u XVII–XX asrlarda yashagan Yodgor Usta Ko‘lay o‘g‘li, Usta Lafas Yodgor o‘g‘li, Tilla kampir, Mulla Tosh Usta Lafas o‘g‘li, Mulla Xolmurod Mulla Tosh o‘g‘li, Jolmon baxshi, Bo‘ron baxshi (Katta Bo‘ron), Mulla Abduqodir Bo‘ron baxshi o‘g‘li, Bo‘ron shoir (Kichik Bo‘ron), Sulton kampir, Qulsamad baxshi Sulton kampir o‘g‘li, Xudoynazar qassob, Jossoq Mulla Xolmurod o‘g‘li, Yorlaqab Mulla Xolmurod o‘g‘li, Jumanbulbul Mulla Xolmurod o‘g‘li, Bolta Qulsamad o‘g‘li, Quvondiq Qulsamad o‘g‘li, O‘tagan Qulsamad o‘g‘li, Berdiqul (Qupbaqa baxshi). Rasul baxshi, Safarqul baxshi, Qultoy baxshi, Chuvoq baxshi, To‘xtamish baxshi, Ortiq baxshi, Ollomurod shoir, Darvish baxshi, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Abduxalil Jumanbulbul o‘g‘li, Sarimsoq baxshi, Jolg‘osh Jossoq o‘g‘li, Yo‘ldosh Jossoq o‘g‘li, Qo‘ldosh Jossoq o‘g‘li, Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan, Bo‘ta baxshi Ortiq o‘g‘li, Egamberdi Ollomurod o‘g‘li, Usta Xolqul, Abdumurod Berdixol o‘g‘li, Abdulla baxshi, Qurbonqul Jolg‘osh o‘g‘li, Mardi Jiyan o‘g‘li, Rahmatulla Yusuf o‘g‘li kabi ko‘plab baxshilarini birlashtiradi. Bu baxshilar, asosan, ishqiy - romanik dostonlarga ko‘proq e’tibor bergenlar. O‘ziga xos chuqur lirizm, chiroyli tasvirlar, she’riy bezaklar, tafsilotlarni atroflicha ishslash, noziklik va jimjimadorlik Qo‘rgon dostonchilik maktabi uslubining asosiy

belgilaridir. Bu hol uning vakillari kuylagan asarlarda yozma va og‘zaki adabiyot an’analari o‘ziga xos ravishda omuxta bo‘lib ketganligini ko‘rsatadi. Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi vakillari poetik formalar va ifodalar taraqqiyotida ancha olg‘a ketishganligini folklorshunoslar alohida ta’kidlashadi.

Doston ijrosida Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Farg‘ona vodiysidagi dostonchilik maktablari ham o‘z repertuariga, mashhur baxshi shoirlariga ega bo‘lishgan. Bugungi kunga kelib faqat Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlaridagi bir qator dostonchilik maktablari o‘z an’analarini davom ettirmoqda hamda o‘zbek eposining jonli ijroda yashash holatini saqlab kelishmoqda.

3. Dostonlarning tasnifi. O‘zbek xalq dostonlari nafaqat son jihatidan, balki mavzu va ma’no qamroviga ko‘ra ham rang-barangdir. Uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlaridan o‘tib kelgan dostonlarda qahramonlik, sevgi-muhabbat, jang-sarguzasht, lavhalari kuylanadi. Ammo asarning umumiyy mazmuni zaminida muayyan mavzu yetakchi hisoblanadi. Muayyan motivlar, syujetlarda umumiyliliklar bo‘lsa-da asarning bosh g‘oyasi talqinlarga ko‘ra ular o‘rtasida farq aniq namoyon bo‘ladi. Masalan, «Alpomish» va «Oshiq G‘arib va Shohsanam», «Tohir va Zuhra» dostonlari syujeti bir tipga kirsa-da ular syujet talqiniga ko‘ra turli tasniflar qamrovida baholanadi. «Alpomish» qahramonlik dostoni sifatida qaralsa, «Oshiq G‘arib va Shohsanam», «Tohir va Zuhra» romanik doston namunalarini hisoblanadi.

Epos namunalarining tahlili, avvalo, mavjud materialni tasnif etishdan boshlanadi. O‘zbek folklorshunoslida xalq baxshilarining epik repertuari bir qator olimlar tomonidan tasnif etilgan. Bu tasniflarda o‘zaro yaqinlik bo‘lsa-da ma’lum o‘rinlarda farq ham mavjud. Xalq dostonlarini dastlab tasnif etish V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlarga tegishli bo‘lib

olimlar o'zbek xalq eposini quyidagicha guruhlarga ajratib tahlil etadilar: 1. Qahramonlik eposi. 2. Jangnomalar. 3. Tarixiy mazmundagi dostonlar. 4. Romanik dostonlar. 5. Adabiy manbaga ega bo'lgan dostonlar. 6. Yangi dostonlar¹.

M.S.Saidov dostonlarni qahramonlik, sof muhabbatni kuylovchi, romanik, jangnomalar va tarixiy kabi turlarga ajratgan.² Olim epik materiallarni manbalariga ko'ra: a) og'zaki an'ana orqali yetib kelgan; b) kitobiy manbalar orqali yetib kelgan dostonlarga ajratadi. Shuningdek, xalq dostonlarini syujet voqealarining xarakteriga ko'ra an'anaviy va zamonaviy namunalarga bo'lib ko'rsatadiki, bu qarashlari hozir ham eposshunoslik taraqqiyoti tadqiqida o'z ahamiyatiga ega. Folklorshunos T. Mirzayev o'zining «O'zbek folklorining epik janrlari» kitobida³ xalq dostonlarini tasnif etishda V.M.Jirmunskiy, H.T.Zarifovlarning ilmiy tasniflarini yanada aniqlashtiradi.

B.I.Sarimsoqov xalq dostonlarini tarixiylik nuqtai nazaridan: qahramonlik, romanik, tarixiy kabi uch turga bo'ladi. Uning tasnifida jangnomalar va kitobiy dostonlar romanik dostonlarning ichki ko'rinishi sifatida qaraladi⁴.

O'zbek xalq dostonlarini eposning tarixiylik prinsiplari, voqelikni aks ettirish tarziga ko'ra qahramonlik, romanik, tarixiy kabi turlarga ajratish va ularni o'z ichida kitobiy, jangnomalar hamda boshqa ichki guruhlarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq.

4. Xalq dostonlarida turkumlik. Ma'lum bir epik qahramon, uning avlodlar va safdoshlari hayotidan hikoya

¹ Jirmunskiy V.M., Zarifov X.T. O'sha asar. – B.61-301.

² Saidov M.S. O'zbek xalq dostonchiligidagi badiiy mahorat masalalari. Toshkent, 1969, 30-32-bet.

³ O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: O'qituvchi, 1980. – B.203-206; Mirzayev T. Doston. O'zbek folklorining epik janrlari. – T.: Fan, 1981. – B.65-75.

⁴ Sarimsoqov B. Xalq dostonlarining tasnifi va oraliq shakllar masalasi // "O'zbek tili va adbiyoti", №3.

qiluvchi dostonlar silsilasi turkumlikni tashkil etadi. Turkumlikka kiruvchi dostonlar bir-birining izchil davomi bo‘lmay, har biri alohida-alohida voqealar asosiga qurilishi ham mumkin. Bu o‘rinda epik qahramonlar, epik makon va zamon umumiyligiga amal qilinadi. Folklorshunoslar turkumlikka ega dostonlarni mazmuniga ko‘ra biografik, nasliy va geografik kabi turkumlarga ajratib o‘rganishadi.

O‘zbek xalqi epik ijodida Go‘ro‘g‘li va uning asrandi o‘g‘illari, safdoshlari hayotidan hikoya etuvchi dostonlar majmuasi alohida o‘rin tutadi. «Go‘ro‘g‘li» turkumiga kiruvchi dostonlarda Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi, bolaligi, uylanishi, Avazxon va Hasanxonlarni asrab olishi, Avazxon, Hasanxon, ularning o‘g‘illari – Ravshan, Nurali, Sherali, keyingi avlod – Jahongirlarning hayotidan tortib, bosh qahramonning bir yuz yigirma yoshida g‘orga kirib g‘oyib bo‘lib ketgungacha bo‘lgan voqealar aks etadi. «Go‘ro‘g‘li» turkumiga kiruvchi har bir doston o‘zicha mustaqil xarakterga ega va ularning har biri el orasida alohida-alohida kuylanib kelingan. «Go‘ro‘g‘li» turkumi tarkibi g‘oyatda murakkab, kuylanish va ijro sharoitlarida o‘zaro mustaqil va har biri alohida yagona syujetga ega bo‘lgan bu silsila dostonlar Go‘ro‘g‘li va G‘irot obrazlari, Chambil mamlakati kabi asosiy nuqtalarda, shuningdek, qirq yigit, Soqibulbul, Hasanxon, Ahmad sardor singari an’anaviy obrazlar, ularning g‘ayriqutblari tasviri orqali bir-birlari bilan birlashsalar-da, bosh qahramonning muntazam epik biografiyasini emas, balki uning dovrugli afsonaviy hayotining ko‘pdan-ko‘p epizodlari tasvirlaridan iborat. «Go‘ro‘g‘li» dostonlari o‘tgan asrning boshlaridan turli yillarda, turli baxshilar tomonidan yozib olingan. «Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi», «Go‘ro‘g‘lining bolaligi», «Zaydinoy», «Yunus pari», «Misqol pari», «Gulnor pari» dostonlari atoqli baxshi Po‘lkan shoirdan ketma-ket yozib olingan bo‘lsa, taniqli

shoir-qissaxon Rahmatulla Yusuf o‘g‘li yigirma turkumning yigirma uch dostonini (yozilmaganlari bilan birgalikda o‘ttiz dostonning) o‘zicha ketma-ketligini belgilab, to‘rt jild qilib, Folklor arxiviga topshirgan. Turkum dostonlarining soni haqida ham baxshilar o‘rtasida har xil fikrlar mavjud. Ularning ko‘pchiligi «Go‘ro‘g‘li qirq dostondir», – deydilar. Nurotalik Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘lining «Avazning arazi» dostonida kuylashicha, uning ustozlari Go‘ro‘g‘lini «Oltmishto‘rt doston qip ta’rif etgan». Janubiy Tojikistondagi o‘zbek baxshilarining (soqlarining) naql qilishicha, XIX asrda yashagan mashhur dostonchi Qunduz soqi Go‘ro‘g‘lini bir yuz yigirma shoxa (doston) qilib aytar ekan. Shunda ham Go‘ro‘g‘li o‘lganda, Yunus pari: «Bedoston o‘tgan, to‘ram», – deya yig‘i bergen ekan. Folklorshunoslikda esa «Go‘ro‘g‘li» turkumi qirq dostonidan iboratdir, degan fikr qat’iylashgan. Keyingi kuzatishlar turkumga kiruvchi dostonlar soni yetmishdan oshishini ma’lum etdi. «Go‘ro‘g‘li» turkumi dostonlari hozirgi o‘rganilish holatida quyidagilardan iborat:

1. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi.
2. Go‘ro‘g‘lining bolaligi.
3. Zaydinoy (Zulkumor, Go‘ro‘g‘lining Rayhon arab qizini olib qochib kelishi).
4. Chortoqli Chambil.
5. Yunus pari.
6. Misqol pari.
7. Gulnor pari.
8. Qirq yigit bilan qirq qiz.
9. Soqibulbul.
10. Hasan ko‘lbar.
11. Doniyorxo‘ja – yozib olinmagan.
12. Shodmonbek – yozib olinmagan.
13. Berdiyor otaliq.
14. Xidirali elbegi.
15. Zamondek.
16. Hilomon (Elomon).
17. Xoldorxon (Go‘ro‘g‘lining Qirimga borishi).
18. Shohdorxon.
19. Shoqalandar.
20. Xushkeldi.
21. Rayhon arab.
22. Bektosh arab – yozib olinmagan.
23. Govdaroz dev.
24. Besh podshoning Chambilga yov bo‘lib kelishi.
25. Ro‘zaxon.
26. Yosqila.
27. Ahmad sardor va Hasan shoh – yozib olinmagan.
28. Ahmad sardor va Avazxon – yozib olinmagan.
29. Ahmad sardorning suyagi – yozib olinmagan.

30. Ahmad sardorning o'limga buyurilishi. 31. Hasanxon (Go'ro'g'libekning Hasanxonni olib kelishi). 32. Chambil qamali. 33. Dalli. 34. Avazxon (Go'ro'g'libekning Avazxonni olib kelishi). 35. Gulqizoy. 36. Gulqizoyning vafoti. 37. Intizor. 38. Malika ayyor (Gulshanbog', Tarkibadaxshon). 39. Mashriq. 40. Zulfizar. 41. Xoldor buvish – yozib olinmagan. 42. Oydinoy – yozib olinmagan. 43. Bo'tako'z (Oqbilak oyim yoki Oqchishboyning qizi). 44. Qunduz bilan Yulduz. 45. Balogardon. 46. Avazxonning arazi (Avazxonning dor ostidan qutqarilishi). 47. Avaz o'g'lonning Rumga qochishi. 48. Avazxonning o'limga hukm etilishi. 49. Sarvinoz. 50. Girdob. 51. Xonimoy. 52. Oyto'ra va Mastura. 53. Avaz va Gulton. 54. Oltin qovoq. 55. Zayidqul (Sakson nor). 56. Gulixiromon. 57. Zarnigor. 58. Avaz va Oyzaynab. 59. G'irotning o'g'irlanishi (Misqol pari va Avazxon) – yozib olinmagan. 60. Og'a Yunusning olib qochilishi. 61. Ravshan. 62. Nurali. 63. Nuralining yoshligi. 64. Sumbulsoch beka. 65. Balxuvon. 66. Jorxon maston. 67. Nurali va Qari Ahmad. 68. Nuralining yutilishi. 69. Malla savdogar. 70. Nurali va semurg'. 71. Sherali. 72. Sheralining uylanishi (Oynigor). 73. Jahongir. 74. Jahongirning yoshligi (Shahidlar darasi). 75. Ero'g'li (Shahidnama, Go'ro'g'lining o'limi, Go'ro'g'lining g'oyib bo'lishi). Hozirgacha yozib olinmagan va bugungi kunda unutilib ketgan sakkiz dostonni («Doniyorxo'ja», «Shodmonbek», «Bektosh arab», «Ahmad sardor va Hasanxon», «Ahmad sardor va Avaz», «Xoldor buvish», «Oydinoy», «G'irotning o'g'irlanishi» kabilarni) ushbu ro'yxatga kiritilsa turkum dostonlarining soni saksondan oshadi¹.

«Go'ro'g'li» dostonlarining bu xil turkumlikdan iborat ekanligi dunyo epik merosida noyob hodisa sifatida

¹Qarang: Mirzayev T. Doston. O'zbek folklorining epik janrlari. – T.: Fan, 1981.
– B.65-90.

baholanadi va o‘zbek xalqining poetik iqtidori, yaratuvchanlik quvvatining naqadar kuchli ekanligidan dalolat beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Dostonlarning boshqa janrlardan farqi nimalarda ko‘rinadi?
2. “Doston – sinkretik janr” ifodasini sharhlab bering.
3. O‘zbek xalq baxshilari va dostonchilik maktablari haqida nimalarni bilasiz?
4. Xalq dostonlarida turkumlik masalasi haqida gapiring.
5. Ijtimoiy tarmoqdan xalq baxshilarining jonli ijrolari bilan bog‘liq lavhalarni toping va tinglang.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro baxshichilik san’ati festival: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga bag‘ishlangan marosimdagи nutqi // Xalq so‘zi gazetasi, 2019-yil, 7-aprel. – №68(72-98) son. –B.1.
2. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T., «Musiqa», 2010.–368 b.
3. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: «Mumtoz so‘z», 2010.
4. Madayev O., Sobitova T. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi.–T., 2005.
5. Жирмунский В. М., Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. –М., с. 303.
6. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – T., 2009.
7. Mirzayev T. Doston. O‘zbek folklorining epik janrlari. - T.: Fan, 1981.
8. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 1995. –168 b.

9. Saidov M.S. O‘zbek xalq dostonchiligidagi badiiy mahorat masalalari. Toshkent, 1969.
10. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 1-kitob. T., 2006.
11. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 2-kitob. T., 2010.
12. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. T., 2010.
13. Turdimov Sh. Etnos va epos. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.
14. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. – Toshkent: Fan, 2006.
15. Introduction to Folklore. London, 2008.

5-MAVZU. QAHRAMONLIK DOSTONLARINING G'OVAVIY-BADIY XUSUSIYATLARI

Reja:

- 1. Qahramonlik dostonlarining belgilari.*
- 2. Alplik tizimi qahramonlik dostonlari uchun mezon.*
- 3. «Alpomish» – qahramonlik dostonining mumtoz namunasi.*
- 4. Qahramonlik dostonida etnos va epos muammosi.*

1. Qahramonlik dostonlarining belgilari. O'zbek xalq dostonchiligi taraqqiyotida alohida e'tiborga loyiq ikki qatlam davomiy ikki bosqich – qahramonlik va romanik dostonlar bosqichi olimlar tomonidan belgilangan. Qahramonlik dostonlari o'zbek baxshilar epik repertuarida muhim o'rinni tutadi. Qahramonlik dostonlari voqeligi urug'chilik munosabatlari, ko'chmanchilik va yarim ko'chmanchilik hayoti, etnosning shakllanishi va uning tarixiy taqdiri bilan bog'lab talqin etiladi. Bunday dostonlar bir qator urug' va qabilalarning muayyan etnos sifatida tashkil topa borishi, ilk davlatchilik kurtaklarining paydo bo'lishi va shu munosabat bilan xalq va elatlarning o'z mustaqilliklari uchun chet el bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashlari qahramonlik dostonlari uchun boy material bo'ldi. Mana shu kurashlar, tarkib topishlar, birlashishlar va ajralishlar jarayonida o'z-o'zini anglashning buyuk ifodasi sifatida qahramonlik eposi yuzaga keldi.

Epik mazmunning qahramonlik xarakteriga ega bo'lishi qahramonlik dostonlarining bosh xususiyatidir¹. Ana shu xususiyat uning butun mohiyati va asosiy yo'nalishini belgilab, o'ziga xos tasvir usullarini tayin etadi. Ushbu xususiyatlarni

¹ Пропп В. Я. Русский героический эпос. М., 1958, с. 5–6.

«Alpomish» dostonida to‘la ravishda ko‘rish mumkin.

Ko‘chmanchi qo‘ng‘iroq qabilasida urug‘chilik munosabatlari yemirila boshlagan zamonlarda yaratilgan bu monumental asar o‘zbeklar o‘rtasida ikki versiya va ko‘plab variantlarda juda keng tarqalgan. Bu paytgacha dostonning yigirma sakkiz varianti o‘ttiz uch marta (to‘la teksti, parcha, mazmuni) yozib olindi¹. Epos turkiy xalqlar o‘rtasida juda keng tarqalgan. Uning o‘zbek², qozoq³, qoraqalpoq⁴ versiyalari epik poema holida, tojik⁵, uyrot⁶, tatar⁷, boshqird⁸, O‘rta Osiyo arablari⁹ versiyalari ertak va rivoyatlar tarzida mashhurdir. O‘rta asr o‘g‘iz eposining muhim yodgorligi «Kitobi Dada Qo‘rqt» tarkibidagi «Bomsi Bayrak» asari o‘zining syujeti va kompozitsion qurilishi jihatidan «Alpomish» dostoniga juda ham yaqin turadi¹⁰. Turkiy xalqlarning «o‘rtoq bir dostoni» (Hamid Olimjon) bo‘lgan «Alpomish»ning bunchalik keng tarqalishi shu xalqlarning bir xil ijtimoiy-tarixiy sharoitda hayot kechirganliklari, o‘zaro yaqin madaniy munosabatda bo‘lganliklari, yaratish va ijodda hamkor, hamfikrekanliklarini ko‘rsatadi. Ammo «Alpomish»ning yaratuvchisi bo‘lgan har bir xalq unda o‘z tarixini, etnik va an’anaviy xususiyatlarini, ozodlik va tenglik haqidagi o‘z ideallarini aks ettiradi.

¹ Mirzayev T. «Alpomish» dostonining o‘zbek variantlari. Toshkent, 1968.

² Uch variant nasr etilgan: Alpomish. Aytuvchi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. Toshkent, 1958; Alpomish. Berdi baxshi variant. Toshkent, 1969; Saidmurod Panoh o‘g‘li varianti. «Odilxon» kitobida. Toshkent, 1972, 48–115-betlar.

³ Алпамис-батыр. Под ред. М. Ауэзова и И. Смирновой. Алма-Ата, 1961.

⁴ Сагтov И. Т. Каракалпакский героический эпос. Тошкент, 1962.

⁵ Алламыш. Таджикские варианты текстов. Сталинабад, 1959.

⁶ Суразаков С. С. Об алтайском сказании «Алып-Манаш». Сб. «Об эпосе «Алламыш». Ташкент, 1959, с. 197–202.

⁷ Валитова А. А. Татарская версия эпоса «Алламыш». Сб. «Тюрко-монгольское языкознание и фольклористика». М., 1960, с. 173–209.

⁸ Киреев А.Н. О башкирском эпосе «Алламыш». Сб. «Вопросы башкирской филологии». М., 1959, с. 52–59.

⁹ Жирмунский В. М. Сказание об Алламыше и богатырская сказка. М., 1960.

¹⁰ Книга моего Деде Коркута. М.–Л., 1962.

Qahramonlik dostonlarining boshqa guruh dostonlardan alohida ajralib turadigan jihatni unda xalqning alp haqidagi turg'un tasavvurlarini namoyon etuvchi alplik tizimining badiiy aks etishida ham ko'rinadi.

2. Alplik tizimi qahramonlik dostonlari uchun mezon.

Alplik tizimi – epik ijodda qahramonlik eposiga xos bo'lgan tasavvurlar birligining badiiy ifodasi. Faqat qahramonlik eposiga xos, bu tur dostonlarning o'zak mezonlaridan bo'lmish xalqning «alplik tizimi» bilan bog'liq tasavvurlarining qat'iy o'lchamlari mavjud.

– avvalo, qahramonning tug'ilmasdanoq homiy eranlar nazarida turganligi – nazarkarda ekanligi (eposning qadimiy shaklida alp to'g'ridan to'g'ri ilohlar farzandi, deb talqin etiladi).

– baxtli yulduz oyida tug'iluvchi, bo'lajak qahramonning paydo bo'lishi haqida dushman yurt kohinlarining karomatlar aytishi. Ularning bolani yo'q qilishga urinishlari.

– qahramonning dushmanlarni dog'da qoldirib ulg'aya borishi davomida «alplik dardi»ga yo'liqishi. Masalan: «Go'ro'g'li»dostonida qahramon qabiladoshlariga «ozor» yetkazadi. Lekin bu «ozor» shunchaki bezovta etish emas. Odatta qahramon – alp xalqning quvvati mudrayotgan, omma inert (sust) holatga tushgan bir davrda uni kuchga endiruvchi o'ziga xos «uyg'otuvchi» sifatida paydo bo'ladi. Bu davrda sust avlod ichida passionar (bunyodkor) avlod tug'iladi. Alp passionar avlod vakiligina emas, darg'asi – yo'lboshchisi hisoblanadi. Hamisha passionar(faol) avlod inert(sust) ommaning «halovati»ni buzadi. Bu jarayonsiz etnos quvvatga kirmaydi. Ya'ni, yangi sifat bosqichiga chiqmaydi. «Alpomish»dagi «zakot» masalasining kun tartibiga chiqishi va elning bu yangilikdan bezovta bo'lib ko'chishi, ana shu ikki avlod o'rtasidagi kurashning ifodasıdir. Dostondagi

«zakot» motivi asosida «alplik dardi» badiiy kodlari turibdi. Dostonning boshqa variantlarida bu motiv turlicha talqinlarda keladi. Ammo mohiyat o'zgarmaydi. Dostondagi «alplik dardi»ni ifodalovchi voqealar tafsiloti, passionar avlodning kuchga kirish davrida uni inert omma qabul qilolmasligini aks ettiradi. Ba'zan inert(sust) ommaning soyasi alpning xatti-harakatlariga ham ta'sir o'tkazadi. Alp esa bu davrda yo'l qo'ygan xatolari badalini ulg'ayganda to'laydi. Etnosning savob-u gunohi alpning taqdirida, Alpning savob-u gunohi etnosning taqdirida namoyon bo'ladi. «Alplik dardi» nafaqat alpning, balki «etnosning yangilanish bo'sag'asidagi «dardi», uyg'onish, harakatga kelish «og'riqlari» hamdir.

– «Alplik dardi»ning «tanlangan» (alp) va «tanlov»chilar – homiy eranlar o'rtasida bevosita muloqotning boshlanganligini bildirishi. Yanada aniq aytilsa, «alplik dardi» qahramonning yerda tug'ilib, ma'lum muddatga «yovvoyilashgan» (etnosning ushbu davrdagi zamon va makon ta'siriga qisman tobe turgan) ruh va tanini eranlar iqlimiga moslashtirish muddatidagi qarshiliklari va uyg'unlashuv jarayoni ekanligi.

– Eranlarning o'z makonida qahramonning jismi va ruhini ilohiy nur hamda sharob bilan toblab, emlab (bamisli asov tulporni jilovlab) darddan xalos etishi. Unga alplik sir-u sinoatlarini o'rgatishlari. Qahramonning alp sifatida qayta yaralishi. Alpning initsatsiya jarayonidan o'tishi.

– Qahramonning alplik kuch-qudratiga, bilimiga, sehrli xususiyatlariga, belgilariiga ega bo'lishi.

– Qahramonning eranlardan alplik qurol-aslahalarini olishi.

– Qahramonning eranlardan alp sifatida bajaradigan vazifasi – yerdagi missiyasi va taqdirini (ibtido va intiho) bilishi. Ayni talablar Alpomishning Alpinbiy yoyiga ega bo'lishi, chiltonlar huzurida Barchin va Alpomish ruhining uchrashuvi hamda boshqa tafsilotlarda aks etgan.

– Eranlarning qahramonga hamkor qilib o‘z sheriklari dan birini qo‘yishi ham «alplik tizimi»ning tayanch nuqtalari dan hisoblanadi. «Go‘ro‘g‘li» dostonlarida Soqibulbul, «Alpomish» dostonida Qultoy shunday obraz hisoblanadi. Dostonda Qultoy quyidagicha sifatlanadi: «Qultoy aytdi:

– Alpomishning belgisi shul edi, o‘ng egnida Shohimardon pirning besh panjasining dog‘i bor edi, chap egnida o‘zimning besh panjamning belgisi bor edi». Qultoy shunday quadratli chol ediki: «Qultoy ham zahar chol edi. Yotgan yerida bir qur hayt tortdi, to‘qson to‘qaydagi yilqi yig‘ilib qoshiga yetdi, hamma yilqilar jam bo‘lib turdi». Eng muhim jihat Qultoy Alpomishning oti – Boychiborni boqib, tarbiyalagan kishi. «Go‘ro‘g‘li» dostonida Soqibulbul G‘irko‘kning sayisi, Go‘ro‘g‘liga maslahatchi, davrasiga soqiylilik qildi.

– Qahramonning alp sifatida o‘z kuch-qudratini amalda namoyish etishi va xalq tomonidan alp sifatida tan olinishi. Jangovor otning alp bosib o‘tgan sinov va toblanishlar jarayonidan o‘tishi ham alplik mezonlari qatorida turadi. Umuman olganda «alplik tizimi» qahramonlik dostonlarining umurtqasi hisoblanadi.

Xalqning alp haqidagi bu yaxlit tushunchalar tizimining mohiyatidan nimalar anglashiladi? Javob shunday:

Yer yuzida o‘z izidan chiqqan tartibni o‘zaniga qaytarish oddiy xom sut emgan bandaning qo‘lidan kelmaydi. Yerdagi tartibning buzilishi esa, o‘z navbatida, kosmos va yer osti dunyosi mutanosibligini izdan chiqaradi. Shu sababli kosmos vakillari – homiy eranlar bu jarayonga aralashadilar. Ular ayni vazifani bajaruvchi xos vakil tanlashadi. Ushbu vakil butun borliq (kosmos, xaos, yer) kuchlarining quvvati payvand bo‘lgan joydan unib chiqadi. Chunki uning kosmos, xaos, yer dunyolarida tobga kelgan ruhi va tani butun olam tartibiga xalal beruvchi kuchlarning har birini o‘z joyida (ko‘kdagisini

ko'kda, yerdagisini yerda, suvdagisini suvda) o'rniga qo'yish imkonini beradi. Shuning uchun ham alp oddiy odamlar orasida tug'ilgan xos – tanlangan kishi hisoblanadi. Lekin u tug'ilib chinakam alp sifatida kamolga yetguniga qadar ketgan vaqtida lozim bo'lgan toblanishlar, sinovlar bosqichidan o'tadi.

3. «Alpomish» – qahramonlik dostonining mumtoz namunasi. Xalq og'zaki ijodidagi biron asarning yoki lug'at boyligimizdagi so'zning qadimiyligini aniqlash uchun uni yondosh xalqlar ijodida yoki o'sha millat tilida mavjudligini o'rganish yaxshi natija beradi. Bu jihatdan "Alpomish" dostoni mazmuniga oid asosiy voqealar oltoy, tatar, boshqird, qozoq, qoraqalpoq va boshqa turkiy xalqlarda ertak, rivoyat, doston shaklida mavjud ekani asar nihoyatda qadim zamonlarda yaratilganini dalillaydi. Professor To'ra Mirzayev doston variantlari yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida uning "Alpomish", "Alpamis", "Alpamis botir", "Alip - manash", "Alpamsha", "Alpamisha va Barsin xiluv" kabi nomlarda atalishini qayd etadi. Hatto "Dada Qo'rquq kitobi"ning uchinchi bo'y (doston)i "Bamsi Bayrak" o'zining syujet voqealari jihatdan "Alpomish"ga yaqin turishini ta'kidlaydi¹. O'zbek folklorshunosligida uning o'nlab variantlari to'liq va parcha holida yozib olingan. Qadimgi an'analar asosida doston kuylagan Jasoq baxshi, Yo'ldosh baxshi, Jumanbulbul, Ernazar baxshilar o'z tajribalarini Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Islom shoir, Po'lkan, Abdulla shoir, Nurman Abduvoy o'g'liga meros qilib qoldirganlar. «Alpomish» bu beباҳо мероснинг нойоб ва бетакрор мө'жизаси бо'ліб шуҳрат топди. 1928-йилда Mahmud Zarifov ustoz Hodи Zarif rahbarligida Fozil Yo'ldosh o'g'lidан иккى ой давомида «Alpomish»ning to'liq matnini yozib oldi. Bugungi

¹ Mirzayev T. Dostonlar guloji. Alpomish / So'zboshi. – T.: Sharq NMAK, 1998.
– B. 7-8.

kunda dostonning Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Xushboq Mardonaqul o'g'li, Berdi baxshi (Berdiyor Pirimqul o'g'li), Saidmurod Panoh o'g'li, Po'lkan va Ergash Jumanbulbul o'g'li variantlari nashr etilgan. Fozil Yo'ldosh o'g'li aytgan doston esa bir necha marta ustoz H.Zarifov va T.Mirzayev nashrga tayyorlagan shaklda e'lon qilindi.

Qabila, urug', elat tarixda alohida xalq sifatida shakllanar ekan, bu jarayon, avvalo, qahramonlik eposi hisoblangan maxsus yirik, epik asarda badiiy ifodasini topadi. Doston mazmunida Amu yoqasida yashagan aholi tarixiga oid juda ko'p lavhalar aks etgan. Qahramonlarning o'zaro munosabatlari: ota – o'g'il; ota – qiz; ona – o'g'il; ona – qiz; aka – uka; er – xotin; yurtni boshqaruvchi – el; oilaviy burch, farzand burchi, el oldidagi burch, vatan oldidagi burch va boshqa yo'naliishlarda moddama-modda aniq tarzda ifodasini topgan. Natijada, doston shunchaki tinglovchining vaqtini o'tkazish uchun yaratilgan ermak emas, xalq qahramonlik eposiga yuklatiladigan vazifani bajaruvchi asarligi ravshan bo'lib qoladi.

Dostonning tinglovchi e'tiborini o'ziga jalb etuvchi nuqtasi baxshi tomonidan hikoya qilinadigan dastlabki voqealar bayonidan boshlanadi. Shoir qadimgi o'n olti urug' Qo'ng'irot elida Dobonbiy, Alpinbiy, Boybo'ri, Boysari biylar (urug' boshliqlari) o'tganini hikoya qiladi. Demak, aka-uka Boybo'ri va Boysarigacha Boysun-Qo'ng'irot elatidagi hayot bir maromda favqulodda hodisalarsiz kechgan ekan. Ammo Boybo'ri va Boysariga kelganda, ular farzand ko'rmadilar. Mana shu holatning o'zi bizga «endi nimadir bo'ladi» degan xabarni berayotgandek tuyuladi. Bundan keyingi hayotda muayyan o'zgarishlar bo'lishiga farzand yo'qligi bilan tayyorgarlik ko'rilmoxda. Chunki xalqimizda uzoq kutilgan yoki Yaratgandan tilab-tilab olingan farzand

hamisha favqulodda ro'y beradigan yangiliklardan xabar beruvchi omil sifatida baholanadi.

Doston matnini o'qir ekanmiz, xalq og'zaki ijodidagi epik asarlarga xos xususiyatlardan biri – farzandning yetishmovchiligi pirovardida xursandchilik bilan yakunlanishiga guvoh bo'lamiz. Asarni yaratishdan nazarda tutilgan bosh maqsad farzand dunyoga kelganidan keyin boshlanadi. «Alpomish»da ham Boybo'ri o'g'il va qizko'rdi, Boysari qizli bo'ldi. Ana shu yangilikdan so'ng qahramonlik eposi o'z zimmasiga yuklatilgan ijtimoiy vazifani bajarishga kirishadi. Taniqli olimlar V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov bu vazifani qabila urug'chilik munosabatlarining yemirilishi va mamlakatni boshqaruvchi davlat tizimining vujudga kelishi bilan bog'laydilar. Bu g'oya keyinchalik M.Saidov tomonidan rivojlantirildi. Olimning fikricha, mamlakatni boshqaruvchi davlatni vujudga keltirish g'oyasi jamiyat yoshlari Hakimbek, Qaldirg'och, Barchin tomonidan ilgari suriladi. Alpomish tug'ilgunga qadar totuv yashayotgan el endilikda ikkiga bo'linadi. Endi Alpomish zimmasida bo'lingan aholini o'z harakati bilan birlashtirish vazifasi turadi. Bu vazifani bajarish uchun Alpomish Qalmoq yurtiga safar qilishi va musofirlikda yashayotgan yurtdoshlarini Boysun-Qo'ng'irotga qaytarishi kerak. Mazkur maqsadni amalga oshirish rejasi baxshi tomonidan juda asosli tuzilgan: Barchinga qalmoq alplari sovchi qo'yishadi. Barchin xat yozib, Alpomishni Qalmoqqa chaqiradi. Ammo Boybo'ri o'g'lining o'zga yurtga safar qilishini istamaydi. U maktubni sandiqqa yashirdi. Ana shu sabab bilan doston voqealarining faol rivojlanishi Qaldirg'och harakatiga bog'lanadi. Uning tashabbusi bilan Alpomish qo'riq vositasida Boychiborga ega bo'ladi va otasining ixtiyoriga qarama-qarshi ravishda Barchinga uylanish uchun Qalmoqqa jo'naydi. Qalmoqda esa uni katta sinov kutayotgan

edi. Professor M.Saidov fikricha, bu sinovni, aslida, kelajakda davlat boshqarishni bo‘yniga oladigan Alpomish uchun Barchin o‘ylab topadi. Uning mulohazasiga ko‘ra davlat boshqaruvchisi zotdor otga, sifatli yoyga ega bo‘lishi lozim. Shu bilan birga u odam jang san’atini, ayni paytda yoydan o‘q otishni bilishi, jismonan baquvvat bo‘lishi shart. Dostonning birinchi qismi asarni ijod qilgan ajdodlarimiz tomonidan qo‘yilgan dastlabki dovonni egallash bilan belgilanadi. Ya’ni Alpomish Boysun-Qo‘ng‘irot aholisini bir davlat chegarasida boshqarishni niyat qildi va bu niyatiga Qalmoqqa ko‘chib ketgan yurtdoshlarini qaytarish bilan erishdi.

Alpomish ikkinchi safarida Surxayil qo‘ygan tuzoqqa ilindi, yetti yil zindon azobini boshidan kechirishga majbur bo‘ldi. Endi Alpomish Toychixonni jazolashga haqli edi. Doston ijodkoriga qoyil qolish kerakki, bosh qahramonning yetti yil zindonda yotishi davomida tinglovchini zeriktirmasdan ko‘plab qiziqtiruvchi lavhalarni o‘ylab topgan. Doston bilan yaqindan tanishgan tinglovchi yoki matn o‘quvchisining diqqati bir daqiqa ham bo‘shashmaydi. Avvalo, Alpomishning zindonga tushishi, keyinchalik g‘oz ishtirokidagi lavhalar, Shakaman tog‘idagi kampir va ovchi yigit ishtiroki, Qorajonning do‘stini ozod qilish maqsadida Qalmoqqa kelishi, Tavkaning doston mazmuniga aralashuvi, Surxayil va Toychi munosabatlari, bozor epizodlari, Kayqubodning Alpomishga yordami kabilar shu qadar mahorat bilan tasvirlanadiki, biz, bir tomondan, Alpomish taqdiri guvohiga aylansak, ikkinchi tomondan, yirik epik tasvir yakunidagi qahramonlar harakatidan qoniqish hosil qilamiz.

Dostonda Alpomishning o‘z oilasiga qaytishini tasvirlashda baxshi doston eshitayotgan tinglovchilarga turli yo‘llar bilan hayotda ziyrak bo‘lish kerak, degan o‘gitni ham

berib o'tadi. Xususan, Qultoy Alpomishning Alpomishligiga ishonmaydi. Shundan keyin Alpomish chap yelkasidagi Qultoy panjasining dog'ini ko'rsatadi. Shundan keyin Alpomish Qultoy qiyofasida yurtdoshlari bilan uchrashadi. Bu ko'rinishlar tasvirlangan doston sahifalari xuddi badiiy filmdagi ekran lavhalarini eslatadi va har safar «Qultoy»da Alpomish belgilari namoyon bo'ladi.

Dostondagi Barchinoy bilan bog'liq voqealar baxshilar tomonidan alohida mehr bilan bayon etiladi. U zukkoligi, tadbirkorligi, donoligi, mardligi jihatdan Alpomishdan qolishmaydi. Surxayil kampir o'g'illari Barchinoyni zo'rlik bilan xotinlikka olmoqchi bo'lganlarida, qiz alplardan birini ko'tarib yerga shunday zarb bilan uradiki, alpning og'zidan ko'pik sachraydi. Shundan so'ng alplar Barchinga Alpomishni kutish uchun olti oy muhlat berishga majbur bo'ladilar. Baxshi dostonda Barchin ishtirokini tasvirlashda juda ehtiyyotkorlik bilan ish ko'radi va uni eng go'zal fazilatlarga ega ayol sifatida tasvirlaydi.

«Alpomish» dostoni badiiy jihatdan ham mukammal asar. Siz badiylik deganda badiiy tasvir vositalaridan foydalanish ko'laminigina tushunmasligingiz lozim. Chunki badiylik tushunchasining o'zi juda murakkabdir. «Alpomish» dostonida qabila-urug'chilik munosabatlarining tugallanishi va davlatning vujudga kelishi aks etgan dedik. Masalaning qo'yilishi boshqa, uni badiiy mukammal holda ishonarli qilib tasvirlash boshqa. «Alpomish» dostoni asrlar davomida xalqimizni mardlik, qahramonlik,adolat, irodalilik ruhida tarbiyalab keldi. Mana shunday vazifani sharaf bilan bajarib kelgan asar, albatta, badiylik talabiga javob bera oladigan bo'ladi, ya'ni asar ijrosini tinglovchilar qiziqish bilan qabul qiladilar.

Fozil Yo'ldosh o'g'li mohir va tajribali baxshi bo'lgani uchun asardagi voqealarini bayon qilishda shoshilmaydi,

har bir lavha ishtirokchilarining tashqi qiyofasini, ichki dunyosini, atrofdagi tabiat manzaralarini, voqealarni izchil ta'riflaydi. Tinglovchi ko'z oldida jonli voqealarni namoyon qiladi. Asardagi qahramon xatti-harakatlarini dalillashga e'tibor beradi, shuning uchun ham doston mazmuni bilan bog'liq yechilmagan jumboq qolmaydi.

4. Qahramonlik dostonida etnos va epos muammosi.

Qahramonlik eposi etnoslar taqdirining badiiy in'ikosi hisoblanadi. Har bir etnosni eposi orqali tanib, bilish mumkin. Etnos hayotida ro'y bergan olamshumul voqealar epos mazmunini tashkil qiladi. Epos etnosni tanitadi. Etnosning hayotiy tajribalari, o'tmish tarixidan uqqan saboqlari, tajribalarining quyma xulosalari eposda kuyylanadi.

Dostondagi har bir obraz etnosning ma'lum ijtimoiy tabaqa yoki biror guruhining ramzi sifatida qad rostlab, ularning intilishlari, fikr-o'ylari, taqdirini ham ifodalaydi. «Alpomish» va «Go'ro'g'li» dostonlarida Alpomish va Go'ro'g'li – buzilgan yurtni tuzuvchi shaxs timsollaridir. Bu xil tuzuvchi-bunyodkor shaxslarda butun xalq(bo'g'im) quvvati jamlanadi. Xalqning a'moli yurtning tuzilishiga asos bo'lsa, Alpomish va Go'ro'g'li kabi shaxslar tug'iladi. Bu holatga qarama-qarshi o'laroq, etnos manglayiga tanazzul tamg'asi tushsa, xalqning bunyodkorlik quvvati bo'linadi. «Alpomish» dostondagi ayni ko'rinish axborotini bo'g'in(uchlik) misolida dastlab Boybo'ri – Boysari taqdirida, so'ngra bo'g'im – Boybo'ri – Boysari, Alpomish – Barchin, Yodgor (yettilik) ko'lamida – Kashal podshosi Toychixon va to'qson alp timsolida badiiy tasvirini ko'ramiz.

Boysun-Qo'ng'iroq tanazzulga yuz tutganida, Kashal gullab yashnardi. Boysarining akasidan arazlab, o'n ming uqli el bilan Kashalga ko'chib kelishi Boysun-Qo'ng'iroq tanazzulining eng quyisi, Kashal etnosi rivojining esa eng yuqori

ko'rsatkichi edi. Shu nuqtadan boshlab charxning Boysun-Qo'ng'irot qismi tepaga ko'tariladi. Kashal bo'lagi quyiga inadi. Alpomish Barchin talabida Kashalga borgan vaqt esa Toychixon mamlakatida tanazzul buhroni avj nuqtasiga yaqin kelgan edi.

Har doim etnos tanazzulga kelgan davrda hokimiyat boshida turgan shaxs yetovda qoladi. Mamlakat jilovi bir necha kishi qo'liga o'tadi. Podsholikda rasmiy va norasmiy kuchning so'zi barobar yuradi. Ko'p hollarda norasmiy kuchning so'zi bosim keladi. Toychixon mamlakatning rasman hukmdori bo'lsa-da, amaldagi kuch to'qson alp tomonida. To'qson alpning o'dag'asi yetti aka-uka alp va ularni orqa qilib «qonundan tashqari» turgan Surxayil kampirning ham so'zi – o'ktam. Tanazzulni tutib bo'lmaydi. Uni bir kishi, bir avlod hosil qilmaydi. Aksincha, bir necha avlodlar a'moli tug'diradi(sust-faol-sust. Bo'g'in bo'g'imlarining davriy almashinuvi) – etnosning gunoh-u savobiga, karmasiga qarab yuzaga chiqadi.

Qalmoq mamlakatida kuchlarning bo'lingani Barchin uchun bo'lgan kurash – to'rt shartning bajarilish jarayonida ro'y-rost yuz ko'rsatdi. Poygada Boysun-Qo'ng'irot bilan Kashalning quvvati sinovdan o'tadi. Avvalo, poygada Qorajon Alpomish taraf, qolgan alplar o'z boshiga, Toychixon nomidan uch ot qatnashadi. Sirdan qaralsa, qalmoqlar o'z-o'zлari bilan talashib-tortishayotganday taassurot qoladi.

Ayni shu nuqtada tanazzulni boshidan kechirayotgan etnos va bu etnosning tanazzul chekiga tushgan avlod taqdiri, ularning turli toifa va sotsial guruhlarning ruhiy-siyosiy holatlari, missiya, vazifalari aniqlashadi.

Eposda bu jarayon Kashal etnosining quyidagi tiplari orqali berilgan. I guruh: a) Toychixon; b) Surxayil kampir; d) Ko'kaldosh; e) To'qson alp. II guruh: a) Qorajon. b) Tovka

oyim. Birinchi guruh Kashal etnosi vakillari Alpomishga qarshi kurashib, o‘z davlati mavqeini tiklamoqchi bo‘lishadi. Ikkinci guruh esa Alpomishga yordam berib, etnosga xizmat qilishni afzal bilishadi.

Yuksalish bosqichiga chiqqan Boysun-Qo‘ng‘irotda ham tiplar ikkiga ajralgan: 1. Alpomish, Barchin, Qultoy, Qaldirg‘och. 2. Ultontoz, Boybo‘ri, Boysari. Bu o‘rinda birinchi guruh etnos yuksalishiga kamarbasta tiplar. Ikkinci guruh manfaatlari esa qarama-qarshi harakat sifatida namoyon.

«Alp» etnosning bunyodkorlikka ingan bo‘g‘imida yetiladi. Bunyodkor bo‘g‘im quvvatini o‘zida jamlovchi alpning bichimi xalqning «alplik» haqidagi tasavvurlar tizimida turadi.

«Alp» xalqningadolat o‘rnatuvchi botiri, ideal qahramoni sifatida maydonga chiqadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Qahramonlik dostonlarining belgilarini sanab o‘ting.
2. Qahramonlik dostonlaridagi aplik tizimi haqida qanday ma’lumotlarni bilasiz?
3. “Alpomish” dostonidagi sizga eng manzur bo‘lgan lavhalarni aytинг va tahlil qilib bering.
4. “Alpomish” dostonidagi Barchinoy monologini yodlang.
5. Qahramonlik dostonlaridagi epos va etnos muammosi haqida gapirib bering.

Adabiyotlar:

1. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T., «Musiqa», 2010.
2. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: «Mumtoz so‘z», 2010.

3. Madayev O., Sobitova T. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. –T., 2005.
4. Жирмунский В. М., Зарифов Х. Т. Узбекский героический эпос. –М.:ГИХЛ,1947 С
5. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – T., 2009
6. Mirzayev T. Doston. O‘zbek folklorining epik janrlari. – T.: Fan, 1981.
7. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi.–Toshkent: Fan, 1995. –
8. Saidov M.S. O‘zbek xalq dostonchiligidagi badiiy mahorat masalalari. –Toshkent, 1969.
9. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 1-kitob. –T., 2006.
10. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 2-kitob. –T., 2010.
11. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. –T., 2010.
12. Turdimov Sh. Etnos va epos. –Toshkent: O‘zbekiston, 2012.
13. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. – Toshkent: Fan, 2006.
14. Eshonqulov J. Mif va badiiy tafakkur. – Toshkent. Fan, 2019.
15. Introduction to Folklore. London, 2008. Page 7

6-MAVZU. ROMANIK DOSTONLARNING G'OVAVIY-BADIY XUSUSIYATLARI

Reja:

- 1. Romanik dostonlarning o'ziga xosligi.**
- 2. «Go'ro'g'li» dostonlari romanik dostonlarning mumtoz namunalari sifatida.**
- 3. «Kuntug'mish» dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.**

1. Romanik dostonlarning o'ziga xosligi. Romanik dostonlar o'zbek xalq baxshilari repertuaridagi epik namunalarning eng katta guruhi hisoblanadi. V.M.Jirmunskiy va H.Zarifovlar «romanik» atamasiga sevgi-muhabbat romantikasi va oshiqlarning bu yo'ldagi qahramonona sarguzashtlardan hikoya qiluvchi, Yevropdag'i «xalq romanlari», «xalq kitoblari» uyg'un keluvchi epos tiplariga nisbatan qo'llashni ma'qul ko'rishgan va bu atama o'zbek folklorshunosligi tomonidan qabul etildi.¹

Romanik dostonlar mag'zida ajdodlarimizning ozod va obod mamlakat, tinch va farovon hayot, sof sevgi va barqaror do'stlik, mardlik va jasorat haqidagi yuksak ideallari o'zining badiiy ifodasini topadi. Orzu va ideal hamisha qo'l yetmas mavodek real hayotdan yuqorida turadi. Shu sababli romanik dostonlar syujeti aniq bir tarixiy voqeа yoki shaxs nomi bilan bog'liq holda izohlanmaydi. Ular idealdagi voqeа-hodisalar, obrazlar faoliyati bilan bog'liq holda kechadi. Mana shundan kelib chiqilsa, romanik dostonlarga xos yetakchi xususiyat ko'zga tashlanadi.

O'zbek folklorshunosligida romanik dostonlar epos

¹ Жирмунский В. М., Зарифов Х. Т. Узбекский героический эпос. – М.: ГИХЛ. 1947. – С. 133.

tadrijiy taraqqiyotining qahramonlik tipidan keyingi bosqichida rivoj topgan mustaqil badiiy-struktural hodisa sifatida yuzaga keldi, deb baholanadi.

T.Mirzayev qayd etishicha, romanik dostonlarning syujeti o‘zaro yaqin kelib, ularda g‘oyibona oshiq bo‘lgan qahramon go‘zal qizni izlab safarga otlanadi, ajoyib-g‘aroyib hodisalarni, qiyin sarguzashtlarni boshidan kechiradi, g‘ayritabiyy kuchlar bilan to‘qnash kelib, barcha qiyinchiliklarni yengib, o‘z maqsadiga erishishidan hikoya qiladi. Chindan ham olim ta’kidlaganidek, doston voqealari hashamatli saroylarda, shovqinli bozorlarda, sehrli bog‘larda, tilsimli qo‘rg‘onlarda, vahimali g‘orlarda, qo‘rquinchli yer va suv osti yo‘llarida kechadi¹. Biroq bu dostonlarning har biri kompozitsion qurilishi, obrazlari, motivlarining ishlanishi, xarakter va mazmunlari jihatidan mustaqil shaklda namoyon bo‘ladi, har birining spetsifik xususiyati, har birida o‘ziga xos badiiy zavq bor.

Fantastik voqealari va sarguzashtlar girdobida murakkab ijtimoiy voqelikni uning barcha real tafsilotlari, ikir-chikir va qarama-qarshiliklari bilan tasvirlash romanik dostonlarga xos sodda realizmni tug‘dirdi. Hayotiy-maishiy xarakterdagi bunday realistik mavzu xalqyumori va didaktikasi xususiyatlari bilan mahkam bog‘liqdir². Lirik yo‘nalishning birinchi planga chiqib, tasvirning intim tus olishi, yozma adabiyot ta’sirining sezilmas darajada ularning ichki taraqqiyoti bilan organik birlashib ketganligi romanik dostonlar uslubini belgilaydi, ya’ni romanik dostonlarda tasvirlangan ijtimoiy voqelik, yangi mavzular yangi formalarni ham keltirib chiqaradi.

Romanik dostonlarni tadqiq etgan S.Mirzayeva ularning syujeti nuqtai nazaridan ikki turini ajratib ko‘rsatadi. Birinchi

1 Мирзаев Т. Достон. Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. - Т.: Фан, 1981.
-Б.10-24.

2 Жирмунский В. М., Зарифов Х. Т. Узбекский героический эпос.
М.:ГИХЛ,1947. – С. 303.

holat – eposning «Go‘ro‘g‘li», «Rustamxon» turkumi misolida ko‘rinuvchi sof og‘zaki an’ana asosida kelayotgan syujet tipi bo‘lib, eposga xos syujetga mifologik va ertakka motivlar singishib ketganligi kuzatiladi. Ikkinchi holat – faqat ertak syujetiga asoslangan romanik dostonlar. Bularga «Shirin bilan Shakar», «Orzigul», «Tohir va Zuhra», «Zavarxon», «Boltakay botir» kabi dostonlar mansub.

Tadqiqotlarda romanik dostonlarning tarkibi nihoyatda murakkab ekanligi alohida ta’kidlanadi. Qahramonlik dostonlarda romanik ko‘rinishlar bo‘lganidek, romanik dostonlarda ham qahramonlik elementlari, jangnomalar xususiyatlari mustahkam o‘rin olgan. Hatto bir dostonda bir necha mavzu baravar ishlangan bo‘lishi mumkin. Ushbu xususiyatlarni hisobga olib, folklorshunoslikda bu tip dostonlarni: a) qahramonlik-romanik b) ishqiy-romanik v) maishiy-romanik kabi ichki turlarga bo‘lib o‘rganiladi. Qahramonlik-romanik dostonlarda («Rustamxon» turkumi, «Yakka Ahmad», «Go‘ro‘g‘li» turkumiga kiruvchi bir qancha asarlar) qahramonlik yo‘nalishi ustun tursa, ishqiy-romanik dostonlarda («Kuntug‘mish», «Go‘ro‘g‘li» turkumining so‘nggi dostonlari) sevgi mojarolari, sarguzashtli voqealar tasviriga alohida e’tibor beriladi¹.

Maishiy-romanik yoki ijtimoiy-maishiy dostonlarda («Sohibqiron», «Qironxon», «Orzigul», «Erali bilan Sherali» va boshqalar) realistik momentlar, mavjud tuzumdan norozilik kayfiyatları, maishiy turmush bilan bog‘liq turli-tuman tafsilotlarni bat afsil tasvirlash yetakchilik qiladi. Masalan, «Odilxon» («Qironxon») dostonida realistik holatlar fantastik voqealari va hodisalar bilan uyg‘un bir holda tasvirlanadi. Farzandsizlik tufayli chekilgan oh-zorlar, kundoshlarning

¹ Bu narsa «Malika ayyor» va «Ravshan» dostonlari misolida M. Saidov tomonidan bat afsil ko‘rsatilgan. Qarang: Saidov M. O‘zbek dostonchiligidagi badiiy mahorat. – Toshkent, 1969, 48–51-betlar.

mol-dunyo uchun har qanday yaramasliklardan qaytmasliklari, hatto o'zlarining g'arazli niyatlarining amalga oshishi uchun begunoh go'daklarni o'ldirishga ham tayyor turganliklari, hukindorning adolatsiz hukmi, Bo'tako'zning zindonda tortgan azoblari, Xudoyqul podachining (ba'zi variantlarda Qing'ir cholning) maishiy turmush sharoiti qanchalik real bo'yoqlarda ko'rsatilgan bo'lsa, cho'lga uloqtirilgan egizaklar – Qironxon va Qorasochlarning taqdiri, sarguzashtlari, Qironxonning o'zga yurtlarga qilgan safarlari (garchi bu safarlarning qo'zg'atuvchisi real asosga ega bo'lsa-da) shunchalik fantastik qobiqda, sehrli-fantastik ertaklarga xos tasvirda berilgan.

2 «Go'ro'g'li» dostonlari romanik dostonlarning mumtoz namunalari sifatida. «Go'ro'g'li» turkumi dostonlari o'zbek xalq baxshilari repertuarining kattagina qismini tashkil etadi. «Go'ro'g'li» dostonlari epik qahramon Go'ro'g'li, epik jangovor ot G'irko'k, epik ozodlik o'lkasi Chambil vositasida o'zaro birlashadi. Turkum voqealar yagona tizimga bog'lanib, mantiqan biri ikkinchisini to'ldirib boradi. Turkumni boshlab beruvchi dostonda qahramon go'rda tug'ilsa, turkum so'ngida g'orga kirib g'oyib bo'ladi. Ilk dostonda boshlangan voqealar halqasi so'nggi dostonda yopiladi. Turkumga kiruvchi har bir doston ayrim-ayrim nomga ega bo'lib, alohida ijro etishga mo'ljallangan, ammu ular har doim yagona asar sifatida qabul qilinadi. «Go'ro'g'li» dostonlari Yaqin va O'rta sharqda juda mashhur. Fanda ularni ikki tarmoqqa bo'lib o'rganish an'anasi mavjud. Biri – O'rta Osiyo versiyalari: o'zbek, turkman, qozoq, qoraqalpoq, tojik va boshqa namunalarni o'z ichiga olsa, ikkinchisi Zakavkazye va Yaqin Sharq versiyalari hisoblanib: ozarbayjon, turk, gruzin, arman va boshqalar kiritiladi. «Go'ro'g'li» dostonlarining bu ikki tarmog'i o'zaro jiddiy umumiyliliklarga

ega bo'lsa-da, dostonlarda qamrab olingan voqelik, epik an'ana va bosh qahramonga berilgan baho jihatidan, hajmi, kuylanishi va tarqalish xususiyatlari bilan ham bir-biridan keskin farqlanadi. Zakavkazye va Yaqin Sharq versiyalariga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar ozarbayjon variantlarida to'la o'z ifodasini topgan¹. O'rta Osiyo versiyalari, xususan, o'zbek variantlarida qahramonning g'ayritabiiy tug'ilishi, qahramon hayoti, o'g'illari, nevara-chevaralari taqdirining keng qamrovda batartib hikoya qilinishi bilan ham ajralib turadi. Eposda aniq tarixiy voqealar kelmaydi, balki etnos hayoti mislsiz romantik lavhalarda, xalqning beqiyos ideallari ko'lamida tasvirlanadi. Bu tasvirlardan o'zbek «Go'ro'g'li» dostonlari hayot bilan, xalq turmushi bilan aloqasi bo'lmagan qandaydir «uydirmalar» yig'indisi ekan, degan ma'no chiqmasligi kerak. Bu xil badiiy umumlashmalar eposga xos hayotni tasvirlash usuli bo'lib, unda kechmish zamoni ideallik darajasiga ko'tarilib tasvirlanadi. Ana shu bepoyon ideallik va cheksiz romantika bu dostonlarni yanada real, hayotiy, xalqqa yaqin va davrimizga hamohang qilgan. «Go'ro'g'li» dostonlariga yaxlit holda nazar tashlasak, ularning mohiyatini dono vaadolatli hukmdor, jasur va qo'rmas Go'ro'g'li boshchiligidagi ozodlik o'liasi – Chambil mamlakati va davlatining tashkil topishi, uni yanada mustahkamlash va sarhadlarini qo'riqlash uchun el botirlarining olib borgan kurashlari tasviri tashkil etadi. Chambildagi tutumlar o'rta asrlarda turkiy xalqlar tarixida paydo bo'lgan yirik markazlashgan feodal davrlardagi qonun-qoidalarni eslatadi. Hatto eng afsonaviy parilar yurti ham Chambildagi hayot tarziga o'xshashdir. ularning ham o'z podsholari, lashkarboshilari, munaqqash saroylari, hashamatli bog'-

¹ Qarang: Mirzayev T. Doston. O'zbek folklorining epik janrlari. – T.: Fan, 1981.
– B. 98.

rog‘lari, sahrolarini himoya qiluvchi mifologik qo‘riqbonlari bor.

«Go‘ro‘g‘li» dostonining O‘rtta Osiyo va Zakavkazye va Yaqin Sharq versiyalarida qahramonning nomi ma’lum o‘zgarishlarda kelishini ko‘ramiz. O‘zbeklarda Go‘ro‘g‘li, turkmanlarda Go‘ro‘g‘li, Ko‘ro‘g‘lu, Karo‘g‘li, ozarbayjon, turk, gruzin, arman va boshqalarda Ko‘ro‘g‘lu nomi mashhur.

«Go‘ro‘g‘li» («Ko‘ro‘g‘lu») dostonlarini dastlabki yozib olish, nashr etish va o‘rganish ishlari XVIII asrning birinchi choragi va XIX asrning 40-yillariga to‘g‘ri keladi. Janubiy Ozarbayjon oshiqlaridan 1721-yilda arman harflari bilan ozarbayjon tilida yozib olingan «Ko‘ro‘g‘lu» dostonidan o‘n uchta mustaqil qo‘shmasi¹, hamda Gruziya Fanlar akademiyasi Qo‘lyozmalar institutining musulmon fondidan 1856-yilda arman harflari bilan ozarbayjon tilida ko‘chirilgan yigirma sakkiz majlisdan iborat qo‘lyozmalarni² dastlabki yozma ma’lumot sifatida keltirib o‘tish mumkin. O‘zbek va turkman «Go‘ro‘g‘li»sining ayrim namunalarini qalamga olish ishlari esa, XIX asrning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. 1853-yilda ko‘chirilgan, K.P.Kaufman kolleksiyasida 321-inventar raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozma, shuningdek, 1936-yilda Hodi Zarif topgan yana bir boshqa qo‘lyozma³ bunga dalil bo‘la oladi. Bu o‘rinda 1870-yilda general-mayor A.K.Abramov tashkil etgan Iskandarko‘l ekspeditsiyasi kundaligidagi tarjimon Abdurahmon Mustajirov tomonidan o‘zbek tilida yozib olingan «Go‘ro‘g‘li» dostoni bir parchasi

¹ Тахмасиб М. Проблема народности азербайджанских дастанов и современное состояние исследования их // Вопросы изучения эпоса народов СССР. Москва: Наука, 1958. – С. 180.

² Qarang: Короглы Х. Г. Взаимосвязь эпоса народов Средней Азии, Ирана и Азербайджана. – Москва: Наука, 1983. – С. 169–247.

³ Qarang: Зарифов Х. Т. К изучению узбекского народного эпоса // Вопросы изучения эпоса народов СССР. – Москва: Наука, 1958. – С. 122.

matnini ham alohida ko'rsatib o'tish zarur¹. Jumladan, 1880 – 1881-yillarda o'zbek va turk versiyalarining litografik nashrlari amalga oshirildi. «Go'ro'g'li» («Ko'ro'g'lu») dostonlarini toplash, nashr etish va o'rganish borasida XX va XXI asrning boshlarida ham salmoqli ishlar bajarildi². «Go'ro'g'li» turkumi dostonlarini yetakchi xalq baxshilari og'zidan bevosita yozib olish ishlari 1926-yildan boshlandi. Shundan beri mamlakatimizning turli viloyatlariga o'nlab folklor ekspeditsiyalari uyuştirildi. Bu ekspeditsiyalarda o'zbek folklorshunoslarining barcha avlodi ishtirok etdi. To'plangan materiallarning kattagina qismini «Go'ro'g'li» turkumiga kiruvchi dostonlar tashkil etadi. Ularning umumiy adadi variantlari bilan birga hisoblanganda, ikki yuzga yaqindir³. Barcha manbalar hozirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining folklor arxivida saqlanmoqda.

O'zbek folklorshunosligida «Go'ro'g'li» turkumi dostonlarini o'rganish, avvalo, ularning alohida-alohida kitoblar tarzidagi nashrlari bilan boshlandi. Bu o'rinda

¹ Qarang: Брагинский И. С. О таджикском эпосе "Тургули". – Указ. сб. – С. 134–135.

² Quyidagi bir necha adabiyotlarni qayd etish bilan cheklanamiz: Жирмунский В. М., Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: ГИХЛ, 1947. – С. 165–279; Каррыев Б. А. Эпические сказания о Кёр-оглы у тюркоязычных народов. – Москва: Наука, 1968; Короглу. Озарбайжон достони. – Бакы: Элм, 1956; Гёрголы. Туркменский героический эпос. – Москва: Наука, 1983 (Туркман ва рус тилларида); Гуругли. Таджикский народный эпос. – Москва: Наука, 1987 (Тожик ва рус тилларида); Батырлар жыры, IV том, Көрүглы. – Алматы: Жазуши, 1989; Қарақалпақ фольклори, XV том, Гөруғлы. – Нұкис: Қарақалпақстан, 1986; Metin Ekiçi. Türk dünyasında Körögölü. – Ankara: Akçağ, 2004; Fuzuli Bayat. Köroğlu destani. İstanbul: Ötüken, 2009; Goroğlu. Türkmen halk destanı. I–VIII jıldılar. – Анкара, 1996 (Turkman va turk tillarida); Кёр оғылу // Дестанлар. – Toshkent, 1980. – 49–63-betlar. (Киримтатар версияси); Мамадзоз Б. Поэтика и современное битование туркменского героического эпоса "Гёрголи". Автореферат док. дис. – Ташкент, 1990; Go'ro'g'li. O'zbek xalq dostonlari. – Toshkent: Sharq, 2006 va boshqalar.

³ Qarang: Mirzayev T. Hikoyati Go'ro'g'li sulton. Toshkent – 2013 yil. –B. 4-6.

Hodi Zarifning 1941-yilda «Ravshan» va «Malika ayyor» dostonlariga yozgan so‘zboshilari xarakterlidir. Buyuk Karmiyning «Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi» dostoniga (1941) yozgan so‘zboshisi, V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlarning «O‘zbek xalq qahramonlik eposi» (1947) monografiyasida Go‘ro‘g‘li» turkumi dostonlari tahliliga bag‘ishlangan fikrlar, M.Saidov, M.Murodovlarning tadqiqotlarida¹ va boshqalarning monografiya hamda maqolalarida² «Go‘ro‘g‘li» turkumi dostonlari haqida qimmatli fikr-mulohazalar bildirilgan.

«Go‘ro‘g‘li» (Ko‘ro‘g‘lu) dostonlarining barcha variant va versiyalarini o‘rganishdagi muhim muammolardan biri ularning yaratilish davri, asosiy syujetning ilk o‘zagi, yuzaga kelgan o‘rni, rivojlanish bosqichlari, tadrijiy taraqqiyotini aniqlash masalasidir.

¹ Qarang: Saidov M. “Malika ayyor” dostoni. – Toshkent: Fan, 1964; Yana o‘sha. O‘zbek dostonchiligidagi badiiy mahorat. – Toshkent: Fan, 1969; Muرادов М. Образ Гороглы в узбекском народном эпосе. Канд. дис. автoreferati. – Toshkent, 1962; Yana o‘sha. Жанровые и идеально-художественные особенности дастанов “Гороглы”. Док. дис. автoreferati. – Toshkent, 1975; Умаров С. Трактовка главного героя в узбекских народных дастанах (на примере дастанов народного поэта Мухаммедкула Джанмурад оглы Пулкана). Канд. дис. автoreferati. – Toshkent, 1974.

² Qarang: Mirzayeva M. O‘zbek xalq dostonlarida turkumlik. – Toshkent: Fan, 1985; Mirkamolova M. A. Место эпоса “Гуруглы” в фольклоре узбеков-лакайцев. Канд. дис. автoreferati. – Samarqand, 1972; Халикулов Дж. Х. “Рождение Гороглы” и его место в цикле дастанов “Гороглы”. Канд. дис. автoreferati. – Toshkent, 1984; Мамашукоров К. Идейно-художественные особенности цикла дастанов “Нурали”. Канд. дис. автoreferati. – Toshkent, 1986; Sariyev S. M. Xorazm “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarining qo‘lyozma variantlari. Канд. дис. автoreferati. – Toshkent, 2007; Абдусамедов А. И. Эпическое мастерство Фазыла Юлдаш оглы (сюжет и композиция). Канд. дис. автoreferati. – Toshkent, 1970; Eshonqulov J. O‘zbek folklorida dev obrazining mifologik asoslari va badiiy talqini. Канд. дис. автoreferati. – Toshkent, 1996; Tilavov A. O‘zbek xalq dostonlarida ot obrazining tarixiy asoslari va badiiy talqini. Канд. дис. автoreferati. – Toshkent, 2000; Haydarov T. M. “Go‘ro‘g‘li” va mifologik sinkritizm. Канд. дис. автoreferati. – Toshkent, 1993; Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. Qarshi. 2008. Turdimov Sh. Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlar. – Toshkent: Fan, 2011. Eshonqul J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – Toshkent: Fan, 2011.

Folklorshunoslar H.T.Zarifov, B.A.Karriev,
V.M.Jirmunskiy, M.S.Saidov, T.Mirzayev, M.Murodov va
boshqalar «Go‘ro‘g‘li» («Ko‘ro‘g‘lu») eposining sharqiy va
g‘arbiy versiyalarini bir umumiy yadro asosida tarqalganligi
haqida yozishgan. Ular doston yadrosi janubiy Ozarbayjonda
XVI–XVII asrlarda kechgan tarixiy voqealar asosida vujudga
keldi, degan fikrni yoqlashadi¹. Folklorshunoslarning bunday
xulosaga kelishlariga arman tarixchilari Arakel Tabriziy
(1670-yili vafot etgan) hamda Elyos Mushgyan (XVIII asr)
larning taxminiy farazlari va jaloliylar (XVI–XVII asr) xalq
harakati asos qilib olinadi. Shu bilan birga, epos tarkibidagi
mifologik obrazlar, arxaik element va motivlar tadqiqotchilarni
birmuncha kengroq qarashga majbur etgan. Chunki eng
«tarixiy» deb belgilangan ozarbayjon «Ko‘ro‘g‘lu»sidagi
Qirot, Yildirim qilich, Qo‘scha buloq bilan bog‘liq motivlarni
XVI–XVII asr tarixiy voqealari qamrovida izohlab bo‘lmaydi
va M.Seyidov Ko‘ro‘g‘lu (Go‘ro‘g‘li)ni birgina jaloliylar
harakati bilan bog‘lab baholashga qarshi chiqqan edi².

B.A.Karriev va X.G.Ko‘ro‘g‘lular esa ozarbayjon
«Ko‘ro‘g‘lu»siga nisbatan turkman Ko‘ro‘g‘lu –
Go‘ro‘g‘lisida arxaik elementlar ko‘p o‘rin olganligini qayd
qilib o‘tishgan³. Ustoz olimlar bildirgan ushbu fikrlarni
quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin:

¹ Жирмунский В. М., Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: ГИХЛ, 1947. –Б. 165-279; Каррыев Б. А. Эпические сказания о Кёр-оглы у тюркоязычных народов. – Москва: Наука, 1968; –Б. 9-44; Saidov M. O‘zbek dostonchiligidagi badiiy mahorat. – Toshkent: Fan, 1969. –В. 70-144; Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – Toshkent: Fan, 1979. –В. 129-140; Murodov M. Po‘lkan shoir repertuarida «Go‘ro‘g‘li» dostonining o‘rnini // Po‘lkan shoir. – Toshkent: Fan, 1976. – Б. – 28; Короглы Х.Г. Трансформация заимствованного сюжета // Фольклор: поэтическая система. – М.: Наука, 1977. – С. 106 – 125.

² Сеидов М. Азэрбајҹан халгінің сојококуну душунәрәкән – Бакі: Іздічі, 1989. –Б. 245-322.

³ Каррыев Б. А. Эпические сказания о Кёр-оглы у тюркоязычных народов. – Москва: Наука, 1968; . –С. 149; Короглы Х.Г. Огузский эпос // Типология народного эпоса. – М.: Наука, 1975. – С. 109.

V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlarning «Узбекский народный героический эпос» kitobida bayon etilgan fikr. Bu mualliflar XVII asr boshlari XIX asrning birinchi yarmi davomida «Go‘ro‘g‘li» turkum dostonlari mavjud epik an‘analar asosida to‘liq shakllandi, deb ko‘rsatishadi¹

H.T.Zarifov keyinchalik doston asosini birmuncha chuqurroq qarash lozimligini aytgan. Olimning ushbu fikrini T.Mirzayev quyidagicha keltiradi: «Marhum folklorist Hodij Zarifovning og‘zaki mulohazalariga ko‘ra, qandaydir bir xalq bahodiri haqida ilgaridan dostonlar kuylanib kelingan. XVI–XVII asrlardan boshlab Ko‘ro‘g‘lu va uning nomi bilan bog‘liq dostonlar mashhur bo‘la boshlagach, ilgaridan mavjud dostonlarga yangidan yaratilganlari ham qo‘shilib, Go‘ro‘g‘li nomi atrofida turkumlasha boshlagan. Ilgarigi qahramon nomi ham Go‘ro‘g‘li bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Biroq qadimiy turkiy «go‘r-ko‘r» so‘zining «botir, mard, bahodir» ma’nolari arxaiklashib, qahramonning g‘ayritabiyy tug‘ilishi motivi formalariga ham o‘zgarishlar kiritilgan va qahramon nomi «go‘rda tug‘ilgan o‘g‘il» ma’nosini kasb etgan. Shu bilan birga, ayrim variantlarda «botir o‘g‘li» degan qadimiy ma’no ham parallel ravishda saqlangan. Turkumning so‘nggi dostonining «Ero‘g‘li» deb atalishi buni tasdiqlaydi»². T.Mirzayev fikr davomida yozadi: «Atoqli olimning bu mulohazasi qanchalik original va hayratomuz bo‘lishiga qaramay, qo‘sishimcha tekshirishlarni talab qiladi. Bizningcha, «Go‘ro‘g‘li» turkumidagi dostonlarning muayyan qismi ikki joyda, ikki xil ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yaratilib, mustaqil rivojlanishda davom etgan»³.

Folklorshunos X.G.Ko‘ro‘g‘lu «Go‘ro‘g‘li» eposining

¹ Жирмунский В. М., Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: ГИХЛ, 1947. – С.192;

² Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – Toshkent: Fan, 1979. – B.132;

³ O‘sha asar. – B.132

o'zbek, qozoq, tojik versiyalarini XVIII asrdan keyin shakllangan, deb hisoblaydi va ozarbayjon, turkman versiyalaridagi umumiy kompozitsiya yangi sharoitga tushib, butunlay o'zgarib ketganligi haqida mulohaza yuritadi¹.

Ko'rinish turibdiki, keltirilgan fikrlar, asosan, faraz tariqasida aytilan, yetarli darajada ilmiy dalillanmagan. Ayni paytda, shoir O.Sulaymonov, shuningdek, ozarbayjon folklorshunosi M.Seyidov umumturkiy «Go'ro'g'li/ Ko'ro'g'lu» genezisi yuzasidan o'rtaga tashlagan fikrlar bilvosita o'zbek «Go'ro'g'li»siga ham tegishlidir. Ya'ni O.Sulaymonov Go'ro'g'li so'zini «Quyosh o'g'li» deb talqin etadi va bu obrazni qadim Misrdagi quyosh o'g'li (Gor) haqidagi miflar bilan bir o'zakdan ungan deb ko'rsatadi². M.Seyidov esa Go'ro'g'li nomini «tog' o'g'li» deb talqin qilib, bu obraz «olov» va «quyosh» bilan ham bog'liq, bevosita o'lib tiriluvchi tabiat haqidagi miflar asosida shakllangan, deb yozadi³ va Go'ro'g'li obrazi eramizdan avvalgi IV yuz yilliklarda vujudga kelib, eramizning XVI–XVII asrlarida yanada kuchaygan, degan fikrni o'rtaga tashlaydi⁴.

T. Mirzayev keyinchalik «Hikoyati Go'ro'g'li sulton» kitobida «Go'ro'g'li» turkumi dostonlarida tasvirlangan hayot tarzi bu hashamatli epos «Kitobi dada Qo'rqu» va «Alpomish» dostonlaridan keyin XI – XII asrlarda O'rta Osiyoda yaratildi, degan qarashni olg'a surishga imkon beradi»⁵ deb yozgan. Sh.Turdimov esa «Go'ro'g'li» dostonining yadrosi, syujeti

¹ Короглы Х.Г. Трансформация заимствованного сюжета // Фольклор: поэтическая система. – М.: Наука, 1977. – С. 106 – 125.

² Сулейменов О.О., Кажибеков Е.З. Тюркология: вчера, сегодня, завтра // Советская тюркология. – Баку, 1989. №6. – С.104.

³ Сеидов М. Азэрбајҹан мифик тәфәккурунун гајнагларі. – Бакі: Іззічі, 1983. – Б.245-321.

⁴ Сеидов М. Азэрбајҹан халгінің сојқокуну душунэрекән – Бакі: Іззічі, 1989. – С.320.

⁵ Turdimov Sh. Go'ro'g'li" dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlar. – Toshkent: Fan, 2011.

va obrazlar tizimining mifologik hamda tarixiy asoslari qadim-qadimdan Sirdaryo va Amudaryo bo‘ylari, Orol dengizi atroflari, Turkiston kengliklarida yashab kelgan ajdodlarimizning tasavvurlari, dunyoqarashlariga bog‘liq sak, massaget va o‘g‘iz epik an’analari asosida eradan avvalgi ming yilliklarda yaratilib, bosqichma bosqich sayqal topib, to‘liq badiiy-estetik sathga o‘tdi. Arxaik eposning navbatdagি talqinlaridan bir shoxobchasi Markaziy Osiyodan Kavkaz va Kichik Osiyoga ko‘chgan o‘g‘iz qabilalari bilan u hududlarga ham tarqaldi, yangilandi. So‘nggi talqinlar o‘zaro madaniy-adabiy aloqalar natijasida Markaziy Osiyo versiyalariga ham ma’lum ta’sirini o‘tkazdi. O‘zbek «Go‘ro‘g‘li» dostonining qahramon tug‘ilishi tabiiy homila talqinini olgan versiyalarda bu holat aniq sezilsa-da, tug‘ilish g‘ayritabiiy homila talqinini olgan versiyalar qadimiyl o‘zanda rivojlanib, ta’sirlardan xoli qoldi. Ushbu versiyalarda saqlangan qadimiyl motiv va unsurlar doston genezisini aniqlashda tayanch omillar bo‘ladi. Doston syujeti asosida turuvchi mif dastlab tabiat hodisalarini izohlab, Go‘ro‘g‘li tabiat qudratining timsoli sifatida namoyon bo‘lgan, keyinchalik syujet voqelik epik sathga ko‘chgach, u endi epik qahramonga aylangan», deb ko‘rsatadi. Epos syujeti va yetakchi obrazlar talqinini xalqimiz orasida keng tarqalgan, bugungi kunda ham amal qilayotgan marosimbayramlardagi quyosh turkum miflariga qiyosan o‘rganib o‘z fikrini asoslaydi.

Baxshi-shoirlar orasida «Go‘ro‘g‘li qirq doston», deb yuritish keng tarqalgan. Lekin dostonlar sonini yetmish ikkita, hatto yuz yigirma doston sifatida ko‘rsatish ham bor.

Epik an’anaga ko‘ra, Go‘ro‘g‘li – 120 yoshga kiradi, asosiy variantga ko‘ra, u o‘lmaydi, balki afsonaviy Suldo‘zi

¹ Turdimov Sh. Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlar. – Toshkent: Fan, 2011.

tog‘ida, g‘orga kirib g‘oyib bo‘ladi. Turkumning so‘nggi dostonining laqay variantida u g‘orda uxlaydi, faqat yilda bir marotaba qimirlab, o‘ngarilib yotadi. Rivoyatlarga qaraganda, Go‘ro‘g‘li keksayganda, Yunus va Misqol parilar Go‘ro‘g‘liga sening nomingni o‘chirmaymiz, dostoningni aytiramiz, deb va‘da bergen emish. Parilar esa, o‘lmaydi, ular baxshilarga qo‘nib yurib, Go‘ro‘g‘lining so‘zlarini ularning ichiga joylar emish, shu tufayli baxshilar ham Go‘ro‘g‘lining o‘g‘illari emish.

Turkumda Go‘ro‘g‘li va Chambil yurtining doimiy tashqi dushmanlari sifatida Rayxon arab, Xunxorshoh, Bektosh arab va boshqalar tilga olinadi. Shirvon xoni Rayxon arabning Go‘ro‘g‘lining yangasi (Ahmad Sardorning xotini) Xoljuvonni olib qochib ketishi va o‘z navbatida yosh Go‘ro‘g‘lining Rayxon arabning qizi Zaydinoyni tog‘asiga keltirib berishi («Zaydinoy» dostoni) ular o‘rtasidagi qator dushmanlik harakatlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bunday dushmanlik turkumning bir qator namunalarida epizodik tarzda tilga olinsa, ayrim dostonlarda («Rayhon arab», «Chambil qamali» «Bektosh arab» va boshqalar) bu narsa ikki xalq o‘rtasidagi jang tarzida kengaytiriladi.

«Go‘ro‘g‘li» turkumi dostonlarida qahramonning ota jihatdan tog‘asi (otasi Ravshanning tog‘asi) Ahmad Sardor bilan, Ahmad Sardorning qirq yigit, Hasan, Avazlar bilan munosabatlari ham muhim o‘rin tutadi. Ahmad Sardorning oilaviy va siyosiy qutqulari, Go‘ro‘g‘li va uning yigitlariga nisbatan g‘arazi ayrim asarlarda («Xushkeldi», «Avazning arazi», «Intizor», «Xoldorxon», «Xidirali elbegi», «Malika ayyor» va boshqalar) umumiy tarzda kuylansa, bir qator dostonlarda («Ahmad Sardor va Hasanshoh», «Ahmad Sardor va Avaz», «Avazxonning o‘limga hukm etilishi») bunday harakatlar asar syujetining asosini tashkil etadi.

Turkumda Go‘ro‘g‘lining bahodir qirq yigitiga alohida o‘rin beriladi. Bular Go‘ro‘g‘lining bahodirliklarini tan olib, uning atrofiga ixtiyoriy ravishda uyushgan turli urug‘ va qabilalarning beklari hisoblanadi. Masalan, Zamondek taka urug‘idan, Shodmonbek o‘zbekning muytan urug‘idan, Xidirali elbegi qoraqalpoq, To‘lak botir Qandohorlik afg‘on va boshqalar. Ayrimlarini esa (Xoldorxon, Yusuf sulton, Ashurbek) Go‘ro‘g‘libek turli mamlakatlardan olib keladi. O‘tmishda turli urug‘ va qabilalar o‘rtasida kelishmovchilik va nizolar bo‘lib turgan bir paytda Go‘ro‘g‘li hukmdorligining bunday turli urug‘lardan, millatlardan tanlashi, uning Chambil elida olib borgan tolirant (bag‘rikenglik) siyosatidan xabar beradi. Go‘ro‘g‘lining yigit qayerdan va qaysi urug‘dan bo‘lmashin, epik ozodlik o‘lkasi Chambilning ozodligi, xalqining farovonligi uchun tinmay kurash olib boradi. Shuning uchun ham ular baxshilarimiz tomonidan buyuk samimiyat va hurmat bilan ulug‘lanadi. Go‘ro‘g‘lining doimiy yo‘ldoshi bo‘lgan bu jasur yigtlarning bir qanchasi faoliyatiga alohida-alohida dostonlar («Xoldorxon», «Zamondek», «Xidirali elbegi», «Berdiyor otalik», «Xilomon», «Shodmonbek», «Doniyorxo‘ja» va boshqalar) bag‘ishlangan.

Turkumdagagi anchagina dostonlar Go‘ro‘g‘lining asrandi farzandlari – Hasan, Avaz, nevaralari – Nurali, Ravshan va evarasi Jahongirlarning qahramonona sarguzashtlariga bag‘ishlangan bo‘lib, bular ham o‘zaro muayyan turkumchalarni tashkil etadi.

Bu ichki turkumlar asrandi farzandlarni olib kelinishini tasvirlovchi dostonlar («Hasanxon», «Avazxon») bilan boshlanadi. Hasan va Avazlarning o‘z epik biografiyasi bor, har biri turkumda muayyan o‘rin tutadi. Hasanxon turkumda faqat bir doston («Dalli») ning bosh qahramoni sifatida ishtiroy etadi. Avazxon esa, butun bir dostonlar («Balogardon»,

«Intizor», «Bo‘tako‘z», «Qunduz bilan Yulduz», «Zulfizar bilan Avaz» «Gulixiromon», «Malika ayyor», «Mashriq» va boshqalar) turkumining bosh qahramonidir. Bu dostonlarning asosini Avazxonning turli afsonaviy mamlakatlar go‘zallarini olib kelish uchun ko‘rsatgan bahodirliklari tashkil etadi. Hasan va Avaz kichik turkumlari Go‘ro‘g‘li, G‘irot, qirq yigit, doimiy traditsion obrazlar (Ahmad Sardor, Soqibulbul, Hasan Ko‘lbar, Hasan Chopson, Hasan Yakdasta va boshqalar), Chambil yurti orqali «Go‘ro‘g‘li» turkumiga birlashadi.

Nasliy turkumlik doirasida yuzaga kelgan navbatdagi dostonlar Go‘ro‘g‘lining nevaralari – Nurali va Ravshanlar ning nikoh safarini tasvirlovchi asarlar («Nurali», «Ravshan») bo‘lib, bu qahramonlar faqat bir doston doirasidagina harakat qiladilar. Ayrim joylarda (Surxondaryo va Qashqdaryo viloyatlarida) Nuraliga bir necha doston bag‘ishlangan, ya’ni bu joylarda Nurali ancha ommalashgan.

Nasliy turkumlanishning so‘nggi halqasini Go‘ro‘g‘lining evarasi (Nuralining o‘g‘li) Jahongir haqidagi epik rivoyat tashkil etadi.

«Go‘ro‘g‘li» turkumi «Go‘ro‘g‘lining g‘oyib bo‘lishi» yoki «Shahidnama» dostoni bilan yakun topadi.

Go‘ro‘g‘li dostonlarining syujet qurilishi, badiiyati, an’anaviy epik klischelari va boshqa jihatlari ma’lum dostonchilik doirasida o‘ziga xos ravishda namoyon bo‘ladi va o‘zbek epik ijodining boyligini ko‘rsatadi.

3. «Kuntug‘mish» dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan yozib olingan «Kuntug‘mish» dostoni syujeti, kompozitsion qurilishi jihatidan o‘zbek xalq dostonchiligida favqulodda o‘rin tutadi. Doston Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Nurman Abduvoy o‘g‘li, Islom Nazar o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Egamberdi Ollomurod o‘g‘li kabi baxshilardan yozib olingan. Umumiy

epik rivoyat, syujet va motivlari jihatidan bir-biriga o'xshash bo'lgan bu variantlar orasida Ergash shoir nusxasi¹ badiiy go'zalligi, kompozitsion pishiqligi bilan ajralib turadi. Zulm va zo'rlik bilan bir-biridan ajratilgan oshiq-ma'shuqlar taqdiri,adolatsiz zamon to'fonida ota-onasidan va bir-biridan ajralib qolgan egizaklar sarguzashti Ergash shoir variantida turli-tuman ijtimoiy hodisalar fonida nihoyatda konkret va real tasvirlangan. Bu variant dastlab Buyuk Karimov tomonidan nashrga tayyorlanib, Hodi Zarifning so'z boshisi bilan chop etildi², so'ng Hodi Zarif tomonidan nisbatan to'la nashri amalga oshirildi³. Dostonning boshqa variantlaridan Bekmurod Jo'raboy o'g'li nusxasi Z. Husainova tomonidan nashrga tayyorlanib, M. Saidov so'z boshisi bilan bosilgan⁴. Dostonning Ergash shoir va Nurman Abduvoy o'g'li nusxalari asosida Hodi Zarif tomonidan tuzilgan yig'ma (сводный) varianti ham bor.

Doston «No'g'oy podsholaridan Avliyoyi Qoraxon degan bor ekan, laqablari Qilichxon ekan, shu vaqtining odamlari Avliyo ota deydi», degan muhim bir xabar bilan boshlanadi⁵. Bu faktning o'ziyoq dostonning tadqiq etuvchi mutaxassislarini X asrdan boshlab Sharqiy Turkiston va Movarounnahrda ikki asrdan ko'proq hukmronlik qilgan qoraxoniylar davri bilan bog'lab o'rganishga, dostonda uchrovchi avliyo ota, Qoraxon, Buvraxon ismlari ham ayrim tarixiy joy va shaxs nomlarning turkiy tilda yaratilgan ilk yozma doston, XI asrning ulkan yodgorligi bo'lmish Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida Kuntug'di obrazi nomiga hamda

¹ Kuntug'mish. Yozib oluvchi Muhammad Iso Ernazar o'g'li. 1926, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti folklor arxivsi, inv. № 11.

² Ergash Jumanbulbul o'g'li. Kuntug'mish. Toshkent, 1949.

³ Bulbul taronalari. 1- tom, 171 - 342-betlar.

⁴ Xolbekha. Toshkent, 1967.

⁵ Bulbul taronalari. 1- tom, 178-bet.

qoraxoniylar hukmdori Tavg‘ach Ulug‘ Bug‘ra Qoraxon Abo Ali Hasan binni Arslonxon ismlarining doston qahramonlari nomiga uyg‘unligi¹, Akademik V. V. Bartoldning qadimiy Talas yaqinidagi xarobalaridan biri Kutumish atalishini xabar qilishi faktlari² doston genezisini ushbu davr voqealari bilan bog‘lab talqin etilishiga asos bo‘ldi.

Tekshiruvchilarning ta’kidlashicha, bunday afsona va rivoyatlar Avliyo ota (hozirga Jambul) atroflarida ancha keng tarqalgan³. Shunday bir rivoyatga ko‘ra, Qoraxon 95 yil umr ko‘rgan, 40 yil podsholik qilib, umrining so‘nggi 15 yilini toat-ibodat bilan o‘tkazgan. «Kuntug‘mish» dostonining oxirida ayni fikr sal o‘zgargan holda qaytariladi: «Qoraxon podsho.– necha yillardan beri o‘zining o‘rniga qushbegisini qo‘yib, Kuntug‘mishning o‘tiga kuyib, tagizaminga kirib, toat-ibodatga mashg‘ul bo‘lib yotgan edi»⁴. Yana shunisi muhimki, afsonada aytishicha, Qoraxon Talasda ko‘milgan, unga avliyo deb ehtirom ko‘rsatganlar, keyinchalik esa, Talas Avliyo ota, deb atalgan. «Qadimdan mashhur Talas, – deb yozadi Hodi Zarif, – VI asrdan boshlab Sharqiy Turkiston bilan G‘arb orasidagi savdo munosabatlarida muhim markaziy o‘rinlaridan biri edi. Sharq va G‘arb orasida qatnovchi karvon to‘dalari Talas orqali o‘tar, tizma tog‘larning etaklari bilan yurar edilarki, dostonda ham buning izlari ko‘rinib turadi»⁵.

«Kuntug‘mish» dostonidagi markaziy epizodlardan biri, ya’ni qahramonning karvon yo‘lidagi chashmaning ko‘zini egallab, unga hech kimni yo‘latmay, yaqinlashganni yutib

¹ Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Transkripsiya va hozirgi o‘zbek tiliga tavsif. Nashrga tayyorlovchi Q. Karimov. Toshkent, 1971. 9-bet.

² Бартольд В.В. Сочинения. Т. IV. М., 1967.– С. 30, 114.

³ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. М., 1947.– С. 140 – 142.

⁴ Bulbul taronalari. 1- том, 342-bet.

⁵ Hodi Zarif. “Kuntug‘mish” dostoni haqida. “Ergash shoir va uning doston-chiliqdagi o‘mi”. Tadqiqotlar. 2-kitob. –Toshkent, 1971, 44-bet.

yuborgan ajdarga qarshi kurashi va uni o'ldirishi tasviri ham bir qancha afsona va naqllar bilan o'xshashdir. Bunday afsona va rivoyatlar yana Talas atroflari va unga yaqin joylar bilan bog'lanadi. Akademik V.V. Bartoldga 1890-yilda Tulkiboshda (hozirgi Chimkent viloyat, Tulkibosh tumani) shunday bir naqlni so'zlab beradilar: qishloqdan besh chaqirim narida bir g'or bo'lib, uning ichidagi bir toshga odamni yutib turgan ilon surati o'yilgan emish, g'ordan doim tutun chiqib turarmish¹. Lekin bu g'orni hech kim tekshirmagan va o'sha toshni hech kim ko'rgan emas. Hozirgi paytda bunday naql o'sha yerda yashovchi kishilarning yodidan ko'tarilib ketgan. Har holda bu haqiqatdan ko'ra, ajdarga qarshi kurashuvchi qahramon obrazini yaratish to'qilgan afsonalardan biri bo'lishi kerak. Zero, xalq o'rtaida bunday afsona va rivoyatlar anchaginadir.

«Kuntug'mish» dostonining birinchi tadqiqotchisi H.T. Zarifov bu va shunga o'xshash bir qator tarixiy fakt va afsonalarni qiyosiy tahlil etib, shunday xulosaga kelgan edi: «Ba'zi tarixiy va jug'rofiy faktlar, qadim naqlar bilan «Kuntug'mish» dostoni ma'lum darajada yaqinlashdi va ayrim detallarda birlashdi. Lekin bu hol dostonning qoraxoniylar davrida yaratilganligiga dalil bo'la olmasa ham, dastlab qadim Talas tevaragida mahalliy naqlar, afsonalar yaratilgani, ajdar bilan kurashuvchi qahramon (Kuntug'mish) obrazi ishlangani, keyinchalik tarixiy faktlardan material olib, «Kuntug'mish» dostoniga asos solingenidan darak beradi»².

Bunday xulosa uchun muayyan asos bor. Chunki muntazam og'zaki epik an'anada xalq dostonlari doimo harakatda bo'lib, o'zlarining dastlabki asoslarini saqlaganlari holda epiklashtirish tomon rivojlanishda davom etganlar. Bu narsa folklor jarayoni uchun g'oyat xarakterli bir holatdir.

¹ Бартольд. В. В. Сочинения. Т. IV. М., 1967. –С. 115.

² Hodи Zarif. "Kuntug'mish" dostoni haqida. 45-bet.

Ayni holni «Kuntug‘mish» dostonining ijodiy tarixida ham kuzatish mumkin. «Kuntug‘mish» dostonining dastlabki asosi mo‘g‘ullar istilosidan ancha keyin, xalqning mo‘g‘ullar zulmiga qarshi noroziligi kuchaygan va ularga qarshi avj olgan davrlarda qadimiy Talas atrofida yaratilgan.

«Kuntug‘mish» dostoni qoraxoniylar davridagi tarixiy voqealarning aynan aksi ekan, degan xulosaga kelish to‘g‘ri emas. Uning yaratilish asoslaridagina juda oz miqdorda bo‘lgan tarixiy voqealar kuylanish va qayta ijod davomida doimiy ravishda epiklashib borgan. XVI asr oxirlaridan boshlab doston romanik planda jiddiy ravishda qayta ishlangan. Bunda Qo‘rg‘on dostonchilik maktabiga mansub baxshilarining xizmatlari nihoyatda katta bo‘lgan.

«Kuntug‘mish» dostoni bizga yetib kelgan holida badiiy barkamol, kompozitsion pishiq, ishqiy-romanik dostonlarning eng yetugi hisoblanadi. Unda ishq, muhabbat, vafo va oila masalalari ijtimoiy hayot hodisalari bilan bog‘liq holda tasvirlanadi.

Kuntug‘mish Zangarga kirib keladi. Qahramonning darvozabon, bozorda kalava sotuvchi kampir, Xolbekaning kanizi Zamongul bilan uchrashuvi epizodlarida uning mardligi, ahdiqa vafodorligi ta’kidlanadi.

Kuntug‘mish aql-farosati bilan nard o‘yinida ko‘plab talabgorlarni yenggan mag‘rur Xolbekani mot qiladi va shu mardligi tufayli ham u bilan qovusha oladi. Lekin ularni Buvraxon jallodlari band etishadi.

Kuntug‘mish va Xolbekani xom teri ichiga solib, asov baytalning dumiga taqib, cho‘l jaziraga haydash jazosi tayinlanadi. Kuntug‘mish va Xolbeka teridan omon-eson chiqib, Mo‘g‘ol tog‘ida makon tutib egizak farzand ko‘rishadi. Lekin karvonboshi Azbarxo‘ja hiyla bilan Kuntug‘mishni mast qilib, Xolbekani go‘daklardan ajratib olib ketishi

epizodida ona tilidan aytilgan uchta monolog ona qalbi va muhabbatini butun to‘laligi bilan namoyon etadi.

Dostondagi barcha motiv va epizodlarda uning yaxlit kompozitsion birligi ta‘minlagan. Undagi har bir detal muhim vazifa o‘taydi. Bu jihatdan dostoniga Kuntug‘mishni ko‘rgan cho‘pon hikoyasining kiritilishi xarakterlidir. Xuddi shu hikoya to‘rt tomonga tarqab ketgan egizaklar va otanonalar taqdirini ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi, asarning kompozitsion izchilligini ta‘minlaydi. Cho‘pon hikoyasi orqali o‘z boshlariga tushgan fojiani bilib olgan Gurkiboy avval Mohi bilan, so‘ng onalari va otalari bilan topishadilar.

«Kuntug‘mish» dostonida Ergash shoir va Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi baxshi-shoirlarining poetik iqtidori, iste’dodi, mumtoz adabiyot an’analari bilan uyg‘un yo‘llar yanada yorqin namoyon bo‘lgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Romanik dostonlarning o‘ziga xos qanday belgilari bor?
2. “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub dostonlar haqida ma'lumot bering.
3. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonidagi mifologik unsurlarni ayting.
4. “Kuntug‘mish” dostonidagi qaysi o‘rnlarda baxshining badiiy mahorati yaqqol namoyon bo‘lgan?
5. “Kuntug‘mish” dostonining audio yoki video nusxasini topib tinglang.

Adabiyotlar:

1. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T., «Musiqa», 2010. – 368 b.

2. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: «Mumtoz so‘z», 2010.
3. Madayev O., Sobitova T. O‘zbek xalq op‘zaki poetik ijodi. – T., 2005.
4. Жирмунский В. М., Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. М., с. 303.
5. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – T., 2009
6. Metin Ekiçi. Türk dünyasında Köroğlu. – Ankara: Akçağ, 2004.
7. Mirzayev T. Doston. O‘zbek folklorining epik janrlari. - T.: Fan, 1981.
8. Kuntug‘mish. Yozib oluvchi Muhammad Iso Ernazar o‘g‘li. 1926. O‘zbekiston FA Til va adabiyot instituti folklor arxivisi, inv.№11
9. Saidov M.S. O‘zbek xalq dostonchiligidagi badiiy mahorat masalalari. – Toshkent, 1969.
10. Cejidov M. Azerbaychan xalginin sojkokunu dushunereken – Baki: Jezichi, 1989. – S.320.
11. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 1-kitob. – T., 2006.
12. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 2-kitob. – T., 2010.
13. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. – T., 2010.
14. Turdimov Sh. «Go‘ro‘g‘li» dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlar. – Toshkent: Fan, 2011.
15. Turdimov Sh. Etnos va epos. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.
16. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. – Toshkent: Fan, 2006.
17. Eshonqul J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – Toshkent: Fan, 2011.

18. Fuzuli Bayat. Köroğlu destanı. İstanbul: Ötüken, 2009.
19. Introduction to Folklore. London, 2008. Page7
20. Hodi Zarif. “Kuntug‘mish” dostoni haqida. “Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o‘rni”. Tadqiqotlar. 2 – kitob. –Toshkent, 1971.

7-MAVZU. KITOBİY DOSTONLARNING XALQ MA'NAVIY HAYOTIDAGI O'RNI

Reja

- Kitobiy dostonlarning o'ziga xosligi.*
- Kitobiy dostonlarning yaratilish shartlari.*
- Kitobiy va an'anaviy dostonlar munosabati.*

1. Kitobiy dostonlarning o'ziga xosligi. O'zbek baxshilari repertuaridan mustahkam o'rinni olgan epik asarlarning maxsus bir turi – klassik poeziya namunalarining baxshilar tomonidan folklorga xos ravishda qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan yoki yaratilishi jihatidan yozma adabiy manbaga ega bo'lgan, shuningdek, bevosita yozma adabiyot ta'sirida yaratilgan asarlar – kitobiy dostonlar deb yuritiladi.

Kitobiy dostonlar unga asos bo'lgan manbaning xarakteriga qarab, romanik yoki qahramonlik dostonlari xususiyatlari ni o'zida kam yoki ko'p saqlagan bo'lishi mumkin. Ularda sof folklor dostonlari uchun xarakterli bo'lgan qahramonona jasorat, jang-u jadallardagi jangovarlik nihoyatda sust berilib, asosiy o'rinni ijtimoiy va oilaviy hayotning tashqi shart-sharoitlari bilangina kelisha olmagan zavqli, ko'tarinki muhabbat mavzusining turli-tuman ko'rinishlari egallaydi.

Kitobiy dostonlarning bir turi klassik adabiyot namunalarini baxshilarning qayta ishlashi natijasida yuzaga kelgan. Masalan, «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Bahrom va Gulandom»ning xalq variantlari Alisher Navoiy asarlari asosida, «Yusuf va Zulayho» shu syujetdagi forsiy va turkiy asarlar asosida, «Rustami Doston» «Shohnoma» asosida, «Sayf-ul Malik» Majlisiy asari asosida, «Varqa bilan Gulshoh», «Vomiq bilan Uzro» kabi asarlarning

xalq variantlari esa forschadan ozarbayjonchaga qilingan tarjimalar asosida yaratilgan. Biroq ularning xalq dostonchisi repertuariga kelish jarayoni turli-tuman bo'lib, mazkur asarlar bilan ularning xalq variantlari orasida turli davr shoirlari, savodli kishilar va qissaxonlar tomonidan tuzilgan nusxalar ham bo'lgan. O'z navbatida bunday asarlarni yaratgan yozma adabiyot namoyandalari ham xalq ijodidagi rivoyat va afsonalarga tayanganlar. Boshqacha qilib aytganda, xalq orasida keng tarqalgan qadimiy afsona va rivoyatlar biror shoirning ijodiy laboratoriyasida yozma adabiyot obidasiga aylantirilgan. Keyinchalik ular bevosita yoki bavosita turli yo'llar bilan og'zaki epik an'anaga moslashtirilgan holda baxshilar repertuariga o'tgan.

Kitobiy dostonlar orasida yana shunday namunalar borki, ularning yaratilishiga asos bo'lgan manbani to'g'ridan to'g'ri ko'rsatish mumkin emas, ammo asarning mavzusi, uslubi, tasvir mohiyati kitobiy manbaga asoslanganligini va yozma adabiyotga yaqin turganligini aniq ko'rsatadi. «Sanobar», «Zavarxon» kabi dostonlar shunday asarlardan hisoblanadi. Xorazm dostonchiligidagi shuningdek, «Malikai Dilorom», «Tohir va Zuhra» kabi bir qancha dostonlarda og'zaki va yozma adabiyotning juda murakkab formalariga, turli-tuman adabiy an'analarning o'ziga xos ravishda juda ham chatishib, chirmashib ketganligiga duch kelamiz. Bu murakkab jarayon hozirgacha maxsus tadqiqotlarga obyekt bo'lganicha yo'q. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yirik adabiyotshunos N. Mallayevning «Farhod va Shirin» hamda «Layli va Majnun» dostonlari bo'yicha kuzatuvlari muhim ahamiyatga ega¹.

Kitobiy dostonlarda qahramonlarning sevgi kechinmalaringin lirik tomonlariga alohida e'tibor beriladi. Qahramon yor uchun ajoyib-g'aroyib sarguzashtlarni boshidan kechiradi,

¹ Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq og'zaki ijodi. -Toshkent, 1974.

oh-fiq‘on chekadi, uzun monologlarda ayrılıq alamidan zorlanadi, yig‘laydi, shikoyat qiladi, g‘ayritabiyy kuchlarga yolveradi, ya’ni qahramon kechinmalari ba’zan diniy, ba’zan o‘ta sentimental mohiyat kasb etadi. Kitobiy dostonlar ana shu xususiyatlari bilan ishq-muhabbat mavzusi asosiy o‘rin olgan sof folklor dostonlari («Ravshan», «Kuntug‘mish» kabi)dan ajralib turadi.

2. Kitobiy dostonlarning yaratilish shartlari. O‘zbek dostonchiligidagi yozma adabiyot ta’siri murakkab ko‘rinishlarga ega. Xuddi shunday ta’sir va aks ta’sir natijasidagina o‘zbek xalq baxshilari repertuarida maxsus janr – kitobiy dostonlar paydo bo‘ldi. Bunday dostonlar («Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» «Bahrom va Gulandom» va boshqalar) klassik poeziya namunalarining baxshilar tomonidan folkloriga xos ravishda qayta ishlanishi natijasidir. Shuningdek, xalq kitoblari nomi bilan yuritilib kelinayotgan kattagina adabiy mahsulot borki, uning yozma og‘zaki manbalarini tekshirish adabiyot va folklor munosabatlariga doir qiziqarli ma’lumotlar beradi. O‘zbek folkloridagi ishqiy-romanik dostonlar janrining yuzaga kelishi va taraqqiyotini yozma adabiyot ta’sirisiz tasavvur qilish mumkin emas. Shuning uchun ham V.M. Jirmunskiy va X.T. Zarifovlar xalq baxshilarining podsholar saroylari va shaharlarga qatnovi, professional xalq ashulachilari tomonidan klassik lirika namunalarining ijro etilishi, shahar va shahar atrofidagi qishloqlarda maxsus xonaqohlarning mavjudligi bunday o‘zaro ta’sirga asosiy shart-sharoitlar yaratdi, busiz og‘zaki folklor janri – romanik dostonlarning rivojlanishi va taraqqiyotiga imkoniyat bo‘lmagan bo‘lar edi, deb ta’kidlagan edilar¹.

¹ Жирмунский В. М., Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. М., 1947. – С. 281.

Shunday romanik dostonlarning klassik namunalarini bergen baxshilar, asosan, Qo'rg'on dostonchilik matabining vakillaridir. Shu dostonchilik maktabining so'nggi iste'dodli vakili Ergash Jumanbulbul o'g'li bo'lib, undan yozib olingan va o'zi yozib topshirgan doston va termalar dostonchilikka yozma adabiyot ta'sirini yoritish uchun ancha qiziqarli materiallar beradi. «U shoirlar qishlog'i, shoirlar oilasida tug'ilib o'sganligi uchun ham, – deb yozgan edi professor H. Zarif, – har kuni qo'shiq tinglar, shu bilan birga, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Hofiz, Mirzo Abduqodir Bedil, Mashrab, Maxtumquli asarlarining kichik devonlarini qunt bilan o'qib borar edi. Bir tomondan, xalq shoirlaridan o'rganish, dostonchilik yo'llarini mukammal egallash; ikkinchi tomondan, o'zbek, fors, ozarbayjon va turkman klassikkleri ijodi bilan tanishishi Ergash Jumanbulbul o'g'liga juda samarali natija berdi, uning ijodida bamisolik ikki kattakon daryo qo'shilib, bir ummon hosil qilgandek bo'ldi»¹. Chindan ham Ergash shoir dostonlariga nazar tashlasak, undan yozma adabiyot unsurlarini, klassik adabiyotga xos she'r tuzilishi va poetik vositalarni istagancha topa olamiz.

Ma'lumki, g'azal – yozma adabiyotda asosiy janrlardandir. Ergash shoir g'azaldan ustalik bilan foydalanib, dostonlarda qahramonlarning dialog va monologlarida uning yaxshi namunalarini beradi². Shundaylardan biri «Kuntug'mish» dostonida Kuntug'mishning yori va bolalaridan ayrilib, gangib qolganida, tasodifan uchragan cho'ponning unga murojaatidir:

¹ Hodil Zarif. O'limas daho. «Sharq yulduzi», 1968, 12-son, 175-bet.

² Epik asarga g'azal, muxammas namunalarini kiritish an'anasi yozma-adabiyotda ham bo'lgan. Fuzuliyning «Layli va Majnun», Sayqaliyning «Bahrom va Gulandom» dostonlari va boshqalar bunga misol bo'la oladi.

*E, yori alam ko 'rgan, qaydin kelasan, ayg 'il,
Ko 'p ranj-u sitam ko 'rgan, qaydin kelasan, ayg 'il.*

*Kim erding guli so 'lgan, shum paymonasi to 'lgan,
Yoki bolasi o 'lgan, qaydin kelasan, ayg 'il...*

Ergash shoir yuqoridagi g‘azalni kimdan ilhomlanib yaratdi? Ma’lumki, Sobir Sayqaliyning «Bahrom va Gulandom» dostonidagi Bahromning gado qiyofasida Gulandom qasri oldiga kelib turganda, uning kimligini bilish uchun Gulandom noma yozib, kanizi Davlatdan berib yuboradi. Shu nomada yuqoridagidek g‘azal keltirilgan¹. Ergash shoir uchun ana shu g‘azal asosiy manba bo‘lgan. Bu fikrni har ikki g‘azalni oddiy qiyoslash tasdiqlaydi.

3. Kitobiy va an'anaviy dostonlar munosabati. Yozma adabiyot va an'anaviy dostonlar orasidagi munosabat muammosini bevosita Qo‘rg‘on dostonchilari, xususan, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li va Rahmatulla shoir ijodini tadqiq etish misolida keng yoritish imkonи mavjud. Klassik adabiyot namunalarini ko‘p mutolaa qilgan Ergash Jumanbulbul o‘g‘li va Rahmatulla shoir ulardagi she‘r tuzilishi badiiy tasviriy vositalar, she‘riy leksika va boshqa unsurlardan folklor yo‘liga moslab keng foydalangan. Xususan, Ergash shoirning original, g‘azalnamo misralar to‘qishiga ana shu ta’sirlanish, ilhomlanish bosh sabab bo‘ldiki, bu badiiy lavhalar dostondagi obrazlarning ichki ruhiy holatlarini tasvirlashda matn bilan zanjirdek birikib ketgan:

*Yangi tuqqan oyday botib boraman,
Ajal yoqasini tutib boraman.*

¹ Sayqaliy. Bahrom va Gulandom. Nashrga tayyorlovchi R. Aliyev. Toshkent, 1960, 91–92-betlar.

*O'zing rahm etmasang g'arib holima,
Borsa kelmas yo 'lga ketib boraman.
Bir vaqtida arz so 'ragan xon edim,
O'zimni bir nonga sotib boraman.
Xudoyo, go 'daklar senga omonat,
Qo 'sh bolamni yetim etib boraman.
Armon bilan yig 'lab qoldi ortimda,
Sanam yorimni unutib boraman.*

Demak, Ergash shoir o‘z dostonlaridagi g‘azallarida, birinchidan, klassik adabiyotimizdagi o‘ziga ma’qul tushgan ayrim g‘azallarning uslubini (vazn, qofiya, radif va tasviriy vositalarini) saqlagan holda yangi she’r yaratса, ikkinchidan, uning janr imkoniyatlaridan foydalanib, ham mazmun, ham uslub jihatidan mustaqil g‘azallar ijod qilgan.

Ergash Jumanbulbul o‘g‘li o‘z dostonlarida qahramonlar tilidan muxammas ko‘rinishidagi chiroyli she’rlarni ham beradi. «Yakka Ahmad», «Kuntug‘mish», «Alibek bilan Bolibek» va boshqa dostonlardagi qator she’riy parchalar bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

«Alibek bilan Bolibek» dostonining Shahrizar malikasi Badiuljamolning Alibekka oshiqligi va unga yetishishini tasvirlovchi ikkinchi qismi o‘zining syujeti jihatidan yozma adabiyotga (Majlisiyning «Sayful muluk» asariga) borib taqaladi. Bunda shoir yozma adabiy manbadan foydalanish bilan birga, klassik she’riy formalarda ham bir qancha parchalar to‘qigan:

*Devlarim, parvoz etib taxti samoni axtaring,
Hamd aytib, tinmasdan ushbu muddaoni axtaring,
Topmayin qo ‘ymang bu kun, dasht-u daloni axtaring,
Avvali Makka, Madina, Karbaloni axtaring...*

«Kuntug‘mish» dostonida yoridan ayrılib: bir o‘g‘lini bo‘riga, ikkinchisini baliqqa oldirgan qahramon tilidan olti bandli badiiy go‘zal, ajoyib bir muxammas beriladi. Kuntug‘mishning san’atkorona yaratilgan bu monologini to‘lqinlanmasdan o‘qish mumkin emas:

*Xonumonim bo ‘ldi chun barbod dastingdan, falak,
Bo ‘lmadi g ‘amgin bu ko ‘nglim shod dastingdan, falak,
Qilmading aslo dilim obod dastingdan, falak,
To qiyomat dod etarman, dod dastingdan, falak,
Dod dastingdan, falak, bedod dastingdan, falak!..
Deydi Kuntug ‘mish otimni, men No ‘g ‘ayning xoniman,
Dilbaridan ayrılib, men bir ajab sarsoniman,
Oldirib ikki ko ‘zimni diydayi giryoniman,
Onadin baxti qaro tug ‘dim, shuning hayroniman,
Dod dastingdan, falak, bedod dastingdan, falak!*

Bu badiiy parchani o‘qir ekanmiz, beixtiyor klassik shoir Boborahim Mashrabning mashhur «Dastingdan» degan muxammasini eslaymiz. Chindan ham lirik qahramonning kayfiyatini berishda bu muxammasning ruhi va formasi juda mos tushgan. Shuning uchun ham atoqli folklorshunos Hodi Zarif Ergash ota haqida gapirganda, uning ba’zan mashrabona satrlar ham yaratganligini qayd qilgan edi. Bunday parchalar doston qahramonlarining muayyan holatdagi ruhiy dramalarini atroflicha ochishda muhim bir vosita rolini o‘ynagan.

Demak, yozma adabiyotning o‘zbek xalq dostonchiligiga ta’siri turli ko‘rinishlarga ega bo‘lib, u xilma-xil aspektlarda zohir bo‘lgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Kitobiy dostonlarning yuzaga kelishida yozma adabiyotning ta'siri haqida gapiring.
2. Bunday turga mansub dostonlarning paydo bo'lishi uchun zarur shart va omillar nimalardan iborat?
3. Kitobiy va an'anaviy dostonlar o'rtaqidagi munosabatlar haqida to'xtaling.
4. "Layli va Majnun" kitobiy dostonini o'qing va tahlil qiling.
5. "Kuntug'mish" dostonidagi "Falak" radifli monolog va Boborahim Mashrabning "Dastingdan" muxammasini o'zaro qiyoslang.

Adabiyotlar:

1. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T., «Musiqa», 2010.
2. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: «Mumtoz so'z», 2010.
3. Madayev O., Sobitova T. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T., 2005.
4. Жирмунский В. М., Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. М., с. 303.
5. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – T., 2009.
6. Metin Ekiçi. Türk dünyasında Köroğlu. – Ankara: Akçağ, 2004.
7. Mirzayev T. Doston. O'zbek folklorining epik janrlari. – T.: Fan, 1981.
8. Bahrom va Gulandom. Nashr tayyorlovchi R. Aliyev. – Toshkent, 1960.
9. Saidov M.S. O'zbek xalq dostonchiligidagi badiiy mahorat masalalari. Toshkent, 1969.

10. Seyidov M. Azerbajchan xalqinin sojkokunu dushunereken – Baki: Jezichi, 1989. – S.320.
11. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 1-kitob. T., 2006.
12. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 2-kitob. T., 2010.
13. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. T., 2010.
14. Turdimov Sh. «Go‘ro‘g‘li» dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlar. – Toshkent: Fan, 2011.
15. Turdimov Sh. Etnos va epos. –Toshkent: O‘zbekiston, 2012. 112 b.
16. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. – Toshkent: Fan, 2006. 120 b.
17. Eshonqul J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – Toshkent: Fan, 2011.
18. Fuzuli Bayat. Körögöl destanı. İstanbul: Ötüken, 2009;
19. Introduction to Folklore. London, 2008. Page7

8-MAVZU. XALQ ERTAKLARI

Reja:

- 1. Ertak termini va unga muqobil atamalar.**
- 2. O'zbek ertakchilari va ularning ijrochilik an'analari.**
- 3. Hayvonlar haqidagi ertaklar.**
- 4. Sehrli-fantastik ertaklar.**
- 5. Hayotiy-maishiy ertaklar.**

1. Ertak termini va unga muqobil atamalar. Ertak epik turga mansub qadimiy janrlardan biri bo'lib, xalq orasida g'oyat keng tarqalganligi, asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar, xalq turmush tarzi, an'analarini va urf-odatlarini o'ziga xos tarzda epik talqin qiladigan, asosan, professional ijrochilar – ertakchilar tomonidan nasriy usulda og'zaki tarzda hikoya etish orqali ommalashishi, yaxlit poetik tizim sifatida shakllanganligi, o'ziga xos badiiy struktura va motivlar tarkibiga egaligi, hayotiy vogelikni xayoliy uydurma, fantastik talqin orqali ifoda etishi bilan xarakterlanadi. Ertak folkloarning afsona, rivoyat, naql, latifa singari janrlariga yaqin turganligi sababli folklorshunoslikda bu tip xalq ijodi namunalari «xalq nasri janrlari» silsilasida ham tasnifланади.

Ertak o'zbek xalq nasrining asosiy janrlaridan biri hisobланади. Tarixiy asoslari qadimgi mifologiya va arxaik marosimlarning epik diffuziyasiga aloqador bo'lgan ertak janrida o'zbek xalqining ezgu g'oyalari, o'ziga xos dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlari, ruhiy-emotsional kechinmalari, oilaviy-maishiy, diniy-axloqiy qarashlari hamda badiiy-estetik tamoyillari o'z aksini topgan. Ertak tinglovchiga badiiy-estetik zavq berish bilan bir qatorda unga muayyan axloqiy-didaktik, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya berish vositasi ham hisobланади.

Folkloarning boshqa janrlari kabi ertaklar ham xalq ommasi tomonidan ijod qilinib, asrlar mobaynida og‘izdan og‘izga o‘tib ommalashishi natijasida an’anaviy epik syujetlarning badiiy evolyutsiyasi ta’milnadi. Ertak janriga mansub matnlar ko‘pincha, xalq nasrining bu janriga oid asarlarni yaxshi biladigan, so‘z san’atini yuksak darajada egallagan professional ertakchilar tomonidan maromiga yetkazib ijro etilishi tufayli sayqallanib kelgan.

O‘zbek xalqi orasida ertak janriga mansub folklor asarlari nomini ifodalash maqsadida, asosan, quyidagi ikki atama faol qo‘llaniladi:

«Ertak» – o‘zbeklar istiqomat qiladigan barcha hududlarda keng tarqalgan atama bo‘lib, xalq og‘zaki badiiy ijodining to‘qima va xayoliy uydirmaga asoslangan, sehrli sarguzasht, fantastik talqin va maishiy mazmundagi epik turga mansub asar ma’nosida qo‘llaniladi. Bu termin mazkur janr nomini ifodalovchi eng qadimiy atamalardandir. XI asrning mashhur tilshunos olimi Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asarida bu atama «etuk» tarzida qayd etilgan: «Etuk – hikoya, ertak; biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish uchun ham bu so‘z qo‘llanadi. Asli bir narsani hikoya qilishdan olingan».¹

«Ertak», «ertaki», «irtaki» atamalari folkloarning epik turiga mansub nasriy janrlaridan birining nomi sifatida ko‘pgina turkiy xalqlar, xususan, o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq, uyg‘ur, qirg‘iz, oltoy tillarida faol qo‘llaniladi.

Ertak atamasi qadimgi turkiylar lahjasida «hazillashmoq», «so‘zlamoq», «hikoya qilmoq», «kuylamoq» ma’nolarida qo‘llanilgan va muayyan darajada omonimik mohiyat kasb etgan «ar//yer//ir//or» arxaiko‘zak-leksemasiga

¹ Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1960. – B.98.

«-ta» yasovchi qo'shimchasini qo'shish orqali fe'lning buyruq maylidagi shakli – «biror narsani hikoya qil», «muayyan voqeani so'zlab ber» ma'nosidagi «arta/yerta/irta» fe'li hosil qilingan. Ana shu leksemaga proturkiylar tilidagi harakat nomi yasovchi «-q»/-k» affiksini qo'shish natijasida xayoliy uydirma va fantastik tasvir asosiga qurilgan folklor janri nomini bildiruvchi «ertak» atamasi yuzaga kelgan.

«Cho'pchak» – ertak ma'nosini anglatuvchi bu atama, asosan, Toshkent shahri va uning atroflaridagi qishloqlarda qo'llanib kelingan. «Cho'pchak» atamasi muayyan fonetik o'zgarishlarga uchragan holda boshqa turkiy xalqlar tilida ham ishlatiladi. Masalan, oltoy tilida «chörchök» (ya'ni «cho'rchək») so'zi «afsona», «ertak», «masal» ma'nolarini anglatsa, «chörchöktö» fe'li «ertak aytmoq» ma'nosini bildiradi.¹ Alisher Navoiy asarlarida bu so'z «cho'rchak» shaklida «afsona, ertak» ma'nolarda qo'llanilgan.

Samarqand va Farg'ona vodiysining ayrim joylarida, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida «matal», Buxoro va Navoiy viloyatlarida «ushuk», Xorazm viloyati aholisi shevasida «vorsoqi» so'zi «ertak» ma'nosida ishlatiladi.

2. O'zbek ertakchilari va ularning ijrochilik an'anaları. Xalq ertaklarining an'anaviy syujetlarini yaxshi biladigan, hikoyago'ylik iqtidorini puxta egallagan, ma'lum darajada aktyorlik qobiliyatiga ham ega bo'lgan, ertak aytishga ixtisoslashgan, professional tayyorgarlikka ega bo'lgan ertak ijrochilari ham alohida ajralib turadi. Professional ertakchilarining quyidagi tiplari mavjud:

Klassik ertakchilar. Kuchli professional tayyorgarlikka ega bo'lgan bunday ertakchilar xalq og'zaki badiiy ijodi an'analarini juda yaxshi bilishi, tarixiy asoslari juda

¹ Будагов Л. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Т. I. – СПб. – М., 1869. – С.493.

qadimga borib taqaladigan majoziy va sehrli-fantastik ertaklarni yaxshi ijro etishi, ertaklarning an'anaviy syujeti va motivlar tarkibini to'la saqlagan holda aytishi, ijrochilik va ijodkorlik iqtidorini uyg'unlashtira olganligi, yuksak badiiy salohiyat va ijrochilik mahoratiga egaligi bilan ajralib turadi. Marg'ilonlik Husanboy Rasulov, toshkentlik Afifa Ahadova, namanganlik Husanboy Xudoyberdi o'g'li, Bibisora Xudoybergan qizi, pskentlik Tilla Dadasardor qizi, turkistonlik Ali Usmon, samarqandlik Zebo, xorazmlik Sobir Sherniyozov, qashqadaryolik Abdug'afur Shukurov kabi ijrochilar ana shunday klassik ertakchilar hisoblangan. Masalan, 1945-yilda vafot etgan qamaylik ertakchi Xadicha buvi Mo'minova ertak aytayotganida jonivorlar ovozi, uchib kelayotgan ajdar shamoliga dov-daraxtlarning qisirlashi, qahramonlarning holati va qiyofalarini tinglovchilarga nafaqat so'z bilan, balki xatti-harakatlar, yuz ifodalari va mimika bilan namoyish etib bergen. Juda yaxshi ovoz sohibasi bo'lgan bu ertakchi «Tohir va Zuhra», «Yoriltosh» singari ertaklarni aytayotganda matndagi ashulalarni shirali ovoz bilan kuylab, tinglovchilarni lol qoldirgan. Qisqa qilib aytganda, professional tayyorgarlikka ega bo'lgan klassik ertakchilar ijro etgan ertak o'zining xarakter-xususiyatiga ko'ra «bir aktyor teatri» tarzida namoyish etilgan sahna asari tipida bo'lgan.

Hajvchi ertakchilar. O'zbek ertakchiligining ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida ertaklarning muayyan turi – hajviy ertaklarni aytishga ixtisoslashgan alohida ijrochi tipi ajralib chiqqan. Ana shunday ertakchilardan biri toshkentlik Nurali Nurmat o'g'lidir. U serqirra qobiliyat sohibi bo'lib, shahar guzarlari va mahallalarida o'tkazilgan sayillarda an'anaviy xalq sirkı tomoshalarini ham ko'rsatishda ishtirot etgan. So'zga g'oyat chechan bo'lgan bu ijrochi hazil-mutoyiba,

umor va yengil kulgiga boy bo‘lgan xalq ertaklarini sevib ijro etgan.

Qissaxon-ertakchi. Professional ertakchilikning bu tipi ham nisbatan keyinroq, XVII-XVIII asrlardan e’tiboran folklor asarlarining yozma namunalari yoki an’anaviy epik syujetlarning «qissa» tarzida qayta ishlangan «xalq kitoblari» yuzaga kelishi natijasida paydo bo‘lgan. Bunday ertakchilar ko‘proq xalq qissalari asosida yaratilgan ertaklarni ijro etishgan. Ana shunday qissaxon-ertakchilardan biri Samarqand viloyatining Nurota tumanidagi Qorakisa qishlog‘ida istiqomat qilgan Rahmatulla Yusuf o‘g‘lidir.

Baxshi-ertakchi. O‘zbek xalq ertaklarining ajoyib namunalari nafaqat ertak aytishgagina ixtisoslashgan ijrochilar, balki doston aytuvchi ba’zi bir chechan baxshilar repertuarining ham salmoqli qismini tashkil etadi. Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi Qamay qishlog‘ida yashagan Hazratqul baxshi Xudoyberdi o‘g‘li, shahrisabzlik Zohir shoir Qo‘chqor o‘g‘li, chiroqchilik To‘qli shoir Qo‘ziyev, namanganlik Haydar baxshi Boychayev, Qozoqboy Razzoq o‘g‘li singari baxshilar repertuarida an’anaviy xalq ertaklarining ko‘plab namunalari mavjud bo‘lib, ularning asosiy qismi folklorshunoslar tomonidan yozib olingan.

Buyuk Karimiy o‘zbek folklorshunoslida ilk bor ertaklarni muayyan guruhlarga bo‘lib tasnifladi. Uning tasnifiga ko‘ra, o‘zbek xalq ertaklari quyidagi tiplarga bo‘linadi: 1) hayvonlar haqidagi ertaklar; 2) sehrli-fantastik ertaklar; 3) maishiy-novellistik ertaklar; 4) anekdot ertaklar.¹

Ertakshunos olim M.Afzalov esa o‘zbek xalq ertaklarini quyidagi ikki turga bo‘lib tasniflagan: 1) Fantastik ertaklar:

¹ Buyuk Karimiy. O‘zbek xalq ertaklarining ba’zi bir xususiyatlari // O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. – Toshkent: Fan, 2010. – B.37-48.

- a) hayvonlar haqidagi ertaklar; b) sehrli-fantastik ertaklar;
2) Realistik ertaklar: a) hayotiy ertaklar; b) satirik ertaklar.¹

K.Imomov va boshqa ertakshunoslarning fikrlariga tayanib ertaklarni quyidagi guruhlarga bo'lib tasniflash mumkin: 1) hayvonlar haqidagi ertaklar; 2) sehrli-fantastik ertaklar; 3) maishiy-novellistik ertaklar; 4) satirik ertaklar.

3. Hayvonlar haqidagi ertaklarning qahramonlari turli-tuman jonivorlar bo'lib, voqelik hayvonlar orasidagi munosabatlar tarzida bayon qilinsa-da, aslida ularda kishilar jamiyatiga xos voqeа-hodisalar majoziy tarzda aks ettiriladi. Hayvonlar haqidagi majoziy ertaklarning kelib chiqish tarixi kishilik jamiyatining ibridoiy davridagi hayoti, mehnat faoliyati, e'tiqodiy qarashlari va mifologik tasavvurlariga borib taqaladi. Ayniqsa, qadimgi odamlar dunyoqarashida muhim o'rin tutgan totemistik e'tiqodlar, ya'ni kishilarning o'z tevarak-atrofini o'rab olgan jonivorlar va o'simliklar bilan qon-qarindoshlik aloqalari bor, ya'ni har bir urug' muayyan jonzot yoki o'simlikdan kelib chiqqan degan ishonch-e'tiqodlarga asoslangan qadimgi tasavvurlar ko'plab totemistik miflarning, keyinchalik esa shu miflarning badiiy tafakkur evolyutsiyasi davomida diffuziyalanishi natijasida majoziy ertaklar yuzaga kelgan.

Eng qadimgi davrlarda yashagan odamlarning turmush tarzi ovchilik, baliqchilik va shu kabi kasblar bilan aloqador bo'lganligi sababli ular har kuni jonivorlar olami bilan ro'para bo'lishgan, ularning mifik tasavvurida jonzotlar ham bamisol odamlar kabi so'zlashgan, o'zaro munosabatga kirishgan. Ana shu kabi qarashlar, ishonchlar, e'tiqodlar keyinchalik hayvonlar to'g'risidagi ertaklarda ifodalangan. Shuning uchun ham jonivorlar haqidagi majoziy ertaklarning personajlari

¹ Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. – Toshkent: O'zR FA nashriyoti, 1964.
– B21.

hisoblangan hayvonlar ham insonlar kabi so'zlashadi, fikr yuritadi va ular o'rtasida jamiyatga xos munosabatlar mavjudligi tasvirlanadi.

Bu tip ertaklarda, asosan, o'zbeklarning qadim ajdodlarining ovchilik, chorvachilik va dehqonchilikdan iborat turmush tarzi bilan bog'liq qo'y, echki, bo'ri, kiyik, ot, sigir, ilon, kaptar, asalari, chumoli, ayiq, tulki, quyon, qo'chqor, chiyabo'ri, shoqol, qo'ng'iz, sichqon kabi jonzotlar obrazini uchratamiz.

Hayvonlar haqidagi o'zbek xalq ertaklarining personajlari odamlar kabi so'zlashishlaridan tashqari, ularning xarakter-xususiyatlarda ham kishilarga xos vafodorlik va vafosizlik, sotqinlik va sadoqat, do'stlik va dushmanlik, samimiylilik va xudbinlik, xokisorlik va ayyorlik singari insonlarga xos sifatlar mavjud bo'ladi. «Do'st bo'ri» ertagidagi do'st bo'rining poshshovachcha bilan samimiyl suhbat, «Bo'ri bilan tulki» ertagidagi bo'ri va tulki bilan yer haydab turgan dehqonning o'zaro gurungi fikrimiz isbotidir. Shuningdek, «Bo'ri bilan tulki», «Qarg'a bilan qo'zi» yoki «Qarg'a bilan tulki», «Tulki bilan xo'roz», «Ayiq bilan qiz», «Do'st bo'ri», «Cho'loq bo'ri», «Polvon zag'cha» yoki «Zag'cha» kabi ertaklarning personajlari ham o'zida insonga xos xarakter-xususiyatlarni ifodalaydi: bu tip ertaklarda tulki hiylakor - ayyor bo'ladi, uning qarshisida bo'ri esa biroz laqma va go'l bo'lib, tulkinining hiylalariga aldanadi. Bo'ri tulki qarshisida sodda, to'g'ri, tentak, ahmoq bo'ladi. Tulki shirinso'zlik bilan ayyorlik qilib daraxt shoxidagi xo'rozni pastga tushirib yemoqchi bo'ladi. Kal yoki yetim bola qo'lidagi zaxchasi tilidan gapirib boyni aldaydilar va h.k.

«Susambil» ertagida uy hayvonlari, parrandalar birlashib, yaxshi, farovon, tinch joy axtarib Susambil mamlakatiga yetib boradilar. Susambilga ega bo'lish uchun vahshiy hayvonlar

(sher, yo‘lbars, bo‘ri va boshqalar) hujum qilganlarida, insonga yaqin bo‘lib, u bilan bog‘langan uy hayvonlari – eshak hangraydi, ho‘kiz suzadi, ari chaqadi, xo‘roz qichqiradi, ot tepadi. Xullas, hammalari bir jon, bir tan bo‘lib, vahshiy hayvonlarni yengadilar va «o‘tning quyug‘i, suvning tinig‘i, unda juda erkinlik, azob-uqubat yo‘q» Susambilga ega bo‘ladilar. Bu ertakda xalq ommasining yaxshi, tinch, farovon, adolatli hayot kechirish yo‘lidagi fidoyiligi, o‘zaro hamjihatlik, do‘slik va xotirjamlikning ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

«Ovchi, Ko‘kcha va Dono» ertagida esa har xil turga mansub bo‘lgan jonzotlar – kaptar, sichqon, qurbaqa, toshbaqa, qarg‘a va kiyik o‘z sarguzashtlari davomida do‘slik va o‘zaro ahillik natijasida maqsadlariga erishishlari tasvirlangan. Har bir hayvonning boshiga og‘ir kun tushganda, ular ko‘pchilik bo‘lishib, bir-birlariga ko‘maklashib, o‘lim xavfidan qutuladilar. Bu ertak odamlarni o‘zaro hamjihat bo‘lishga undaydi, xalqni birlashib, ko‘pchilik bo‘lib, bir-biri bilan ahil bo‘lib yashashga chaqiradi. Ertakdan chiqadigan didaktik xulosa, kuch birlikda, agar ko‘pchilik birlashib, ahil bo‘lib yashasa, har qanday mashaqqatni ham yengib o‘tish mumkin degan g‘oyadir.

O‘zbek folklorida mavjud bo‘lgan majoziy ertaklarning aksariyati jahon xalqlari og‘zaki badiiy ijodiyotida mavjud bo‘lgan an‘anaviy epik syujetlar bilan mushtarak xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, bu tip ertaklar o‘ziga xos motivlar tarkibi va obrazlar silsilasiga egaligi, voqealar talqinining milliy an‘analarni ifodalashi jihatidan o‘ziga xoslik kasb etadi. Masalan, dunyoning ko‘pgina xalqlari folklorida uchraydigan «Echki bilan bo‘ri» ertagini olib ko‘raylik. Bu ertak o‘zbeklar orasida ham juda mashhur bo‘lib, ko‘plab variantlarga ega. O‘zbek ertagida ham bo‘ri

ovozini echki tovushiga o‘xshatib: «Eshikni och, og‘zimda suv keltirdim, mammada sut keltirdim» deb aldab, eshikni ochtirib, echkining bolalarini yeb ketadi. Ulardan biri o‘choq (boshqa xalqlar ertaklarida echki bolasi yashiringan joy o‘sha milliy turmush tarziga muvofiq tasvirlangan, masalan, rus ertaklarida pechka) ichiga bekinib qoladi. Lekin ana shu ertakda voqealar rivojining shundan keyingi talqini o‘zbek ertakchilari ijodiyotida boshqacha ko‘rinish kasb etgan: echki voqeadan xabardor bo‘lgach, bo‘riga urush e’lon qiladi. Bo‘ri ustaga borib tishini qayratib kelmoqchi bo‘ladi. Usta esa tulki bo‘ladi. U ayyorlik bilan bo‘riga «Sening tishlaringni po‘latdan qilib beraman» deb aldab, bo‘rining tishlarini bittalab sug‘urib oladi va o‘rniga chigitdan tish qo‘yadi. Echkining shoxlarini esa qayrab, pichoqdek o‘tkir qilib beradi. Shundan keyin echki o‘zining o‘tkir shoxlari bilan bo‘rining qornini yorib yuboradi va echkining bolalari qutulib chiqadilar. Ko‘rinadiki, bo‘ri hamla qilganda echki bolalaridan biri «o‘choq» ichiga kirib yashirinib omon qolishi, tulki bo‘riga «chigit»dan tish qo‘yishi, echki bolalaridan har birining «Olu-Bolu» kabi otlari bo‘lishi o‘zbek ertaginining milliy o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

Hayvonlar haqidagi majoziy ertaklar o‘zbek folkloridagi boshqa tur ertaklardan farqli ravishda kompozitsion qurilishi nisbatan sodda, motivlar tarkibi murakkab bo‘lmagan, dialoglarga boy, ular ko‘pincha qisqa didaktik xulosa chiqarishga asoslangan syujetga ega bo‘ladi.

4. Sehrli-fantastik ertaklar. O‘zbek folkloridagi sehrli ertaklarining o‘ziga xosligi va dunyoning boshqa xalqlari ertaklaridan farqli jihatni bиринчи navbatda ularning syujetiga asos bo‘lgan voqea-hodisalar talqinida tilsim, sehrli narsa-predmetlar, g‘aroyib xususiyatlari personajlar, sehrli makon mavjud bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Bu tip ertaklarning

qahramonlari o‘z sarguzashtlari mobaynida g‘ayritabiyy hodisalarga va g‘ayri oddiy mavjudotga duch keladilar, ularning o‘zлари ham tug‘ilishidanoq «sehr» bilan bog‘langan kishilar bo‘ladilar, ham doim «sehrli ishlarga», «sehrli joylarga» «sehrli narsalarga», «g‘ayri oddiy xususiyatga ega bo‘lgan ko‘makchi-yordamchi personajlarga» yo‘liqadilar. Katta-katta qo‘rquinchli va dahshatli tilsimlarni ochadilar. Bunday sehrli ertaklarning qahramonlariga yordam ko‘rsatuvchilar esa sehrli narsalar bo‘ladi. Sehrli ertaklarning qahramonlari o‘z dushmanlari yoki o‘z boshlariga tushgan kulfatlardan turli g‘ayritabiyy yo‘llar bilan qutuladilar.

O‘zbek xalq sehrli ertaklari orasida Kenja botir, Abulqosim, Qilichbotir, Erkenja, Shambirboz kabi nomlar bilan ataluvchi kenja o‘g‘il bilan uning akalari o‘rtasidagi konflikt kelib chiqishi tasvirlangan ertaklar salmoqli o‘rin tutadi. Bu tip syujetlar talqinicha, izlangan sehrli narsa, ot, qush yoki malikani axtarib topib kelgan kenjaga akalari dushmanlik qilishadi (kenjaning ko‘zini o‘yib quduqqa tashlash, oyoqlarini chopib tashlab ketish va h.k. motivlar). Bunday syujetlar qabilachilik tuzumining inqirozga yuz tutishi va urug‘ birligiga asoslangan yirik oila o‘rniga monogam oilalarning paydo bo‘la boshlagan davrda shakllangan. Ya’ni ota merosi uchun aka-ukalar o‘rtasidagi kurash va merosdan katta o‘g‘il ulushining ko‘pligi, eng kenjani ranjitish bu tip sehrli ertaklar syujetining yuzaga kelishiga asos bo‘lgan.

O‘zbek xalq sehrli ertaklari personajlari safarining epik makondagi yo‘nalishi qahramon oldidan chiqadigan uch yo‘l bilan bog‘liq bo‘ladi. Sehrli ertaklarda tasvirlangan uch yo‘l uch olam ruhlarining o‘zaro aloqada bo‘lishlariga imkon beruvchi magik nuqta, ezgulik va yovuzlikning ajralishi, bir-biridan uzoqlashish yo‘li hamdir. Bunday yo‘lda hamma vaqt yaxshilik va yomonlik kuchlari saralanadi. Sehrli

ertaklarda syujet rivojini ta'minlaydigan an'anaviy uch yo'l qahramonning safar yo'nalishini belgilovchi badiiy unsurdir. «Abulqosim» ertagida pishgan tariq noma'lum sabablarga ko'ra payhon etiladi. Podshoning uch o'g'li navbatma-navbat poyloqchilik qiladilar. Faqat uchinchi kecha qo'lga tushgan devlar kenjaga tulporining tukidan berishadi. G'aroyib otlarni izlab safarga otlangan og'a-inilar oldidan uch yo'l chiqadi.¹ «Mamajon va Qunduzoy» ertagida safar sababi zotdor otlarning yo'qolishi bo'lsa,² «Misr podshosi»da shoh tushida ko'rgan tilla qafas ichidagi bulbulni izlab uch aka-uka yo'lga chiqadilar.³ Odatda bunday ertaklarda kenja o'g'il mashaqqati nomidan ma'lum «borsa kelmas» yo'lini tanlaydi. Qo'rkoq akalar esa «borsa kelar» va «borsa xatar»ga otlanishadi.

An'anaviy uch yo'l motivi qadimgi turkiylarning mifologik tasavvurlariga borib taqaladi.

O'zbek xalq sehrli ertaklarida sharq – ezgulik ramzi, g'arb esa yovuz devlar makoni sifatida tasvirlanadi. Ertaklardagi mashaqqatli sarguzashtlar bilan bog'liq epik yurt g'arb tomonda, ya'ni kunbotardadir. An'anaviy uch yo'l motivi gorizontal yo'nalishga ko'ra tasvirlanganda o'ng-chap tomonlar ramziga alohida e'tibor berilgan. «Sumbul qush» ertagida podshoning uch o'g'li ajoyib qushni ovlash uchun yo'lga chiqadilar. Katta yo'l ayrilishda shunday yozuv uchraydi: «Borsa kelar o'ngda, borsa kelmas chapda, to'g'ri yurgan gumona».⁴ «Misr podshosi» ertagida aka-ukalar yo'l uchga ayrılgan yerga yetib kelganlarida «uch ko'cha og'zida bittadan tosh qo'yilgan bo'lib, toshlarga «chap qo'l ko'cha – borsa kelmas», «o'rta ko'cha – borsa xatar», «o'ng

¹ Gulpari. Namangan ertakları / O'zbek xalq ijodi. Nashrga tayyorlovchi: T.G'ozi-boyev. – Toshkent, 1969. – B.33-34.

² O'sha manba. – B.45.

³ O'sha manba. – B.53-54.

⁴ Kenja botir. Ertaklar. – Toshkent: Fan, 1973. – B.109.

qo'sl ko'cha – borsa kelar», deb yozilgan ekan.¹ Bunday ertaklarda o'ng tomon – borsa kelar – sharq – omad – hayot tushunchalari, chap tomon – borsa kelmas – g'arb – omadsizlik – o'lim tushunchalariga qarama-qarshi qo'yiladi. Fikrimizcha, qadimgi turkiylar dunyoqarashida muhim rol o'ynagan quyosh kulti olamning gorizontal yo'nalihidagi tuzilishiga asos bo'lgan. Olamning uchlikka asoslangan kosmogonik talqini qadimgi turkiylarning mifologik qarashlari asosini tashkil etgan. Arxaik miflarda madaniy qahramonlarning sarguzashtlari uch olam bilan bog'liq bo'lib, Ko'k – Zamin – yer osti asosiy mifologik makon areali bo'lib, bu struktura keyinchalik sehrli ertaklarga ham o'tgan.

O'zbek xalq sehrli ertaklarida ko'pincha qahramonlarning yordamchilari zoomorf shaklda, ya'ni hayvonlar va qushlar qiyofasida tasvirlanadigan g'aroyib jonzotlar – uchar ot, laylak, bulbuligo'yo, bo'ri, Semurg', anqo, oltin baliq, chumoli, oltin tuyuoqli kiyik singarilar xayoliy timsollardir. Qahramonning boshiga juda og'ir ish tushganda yoki juda uzoq masofali va qo'lga tushirilishi qiyin bo'lgan narsalarni keltirish topshirilganda, biror munosabat topilib, qahramonga bo'ri yo'liqtiriladi. Ana shu jonzot bu qiyin ishlarni osonlik bilan hal bo'lish yo'lini ko'rsatib, unga yordam beradi.

O'zbek sehrli ertaklaridagi g'aroyiblik antropomorf shaklda yoki inson ko'rinishidagi personajlar vositasida tasvirlanishi o'ziga xoslik kasb etadi. Bu tip personajlarga Xizr, sehrgar chol yoki kampir (jodugar, maston, shum kampir), zar kokilli bola, kulsa og'zidan gul, yig'lasa ko'zidan dur sochadigan qiz va boshqa bir qator obrazlar misol bo'la oladi. Ular sehr-jodu qudrati, g'aroyib xislati, sirli ko'rinishi, g'ayrioddiy tug'ilishi, unib-o'sishi, sirli namoyon bo'lishi bilan e'tiborni tortadi. Bunday g'aroyib obrazlarning har

¹ Gulpari. – B.54.

biri o'ziga xos badiiy ko'rinishda va vazifada talqin qilinadi. Jumladan, «Guliqahqah», «Samo tulpori», «Ilon pari» kabi sehrli ertaklarda tasvirlangan maston kampir sehrli-fantastik ertaklarda eng ko'p uchraydigan an'anaviy obrazlardan biri bo'lib, avvalo, evrilish va ertak personajlarini istagan ko'rinishga krita olish xususiyatiga egaligi, «ming bir sehr»ni bilishi, sehrgarlarning sarkori, boshlig'i ekanligi bilan ajralib turadi. «Tanasiz kalla-yu, kallasiz tana» ertagida maston kampirning ajdahosi bo'laklangan tanani yutib, qayta butun qilib chiqaradi. Sehrli ertaklarning an'anaviy homiy-personaji hisoblangan Xizr obrazi «oppoq soqolli kishi», «oppoq soqolli, malla choponli bir chol» sifatida xarakterlanadi. Ba'zi ertaklarda esa u bir duo bilan kishini o'zga ko'rinishga evriltira oladigan darvesh-qalandar, qahramonga yo'l ko'rsatib, ko'zdan g'oyib bo'ladigan g'aroyib chol sifatida ham tasvirlanadi.

Epik asarlarda ko'p tasvirlanadigan qaldirg'och, qarg'a, bulbul, laylak va boshqa qushlar obrazi esa hayotiy asosga egaligi bilan ajralib turadi. Chunki bunday qushlar hayotda mavjud bo'lsa-da, sehrli ertaklar tarkibida keltirilganda ular ba'zan g'aroyib xususiyatlari qilib tasvirlanadi. Aytaylik, «Oypari» ertagidagi qaldirg'och, «Hotam» ertagidagi kaptarlar tilga kirib, insondek gapiradi; shum kampir esa qora qarg'a ko'rinishiga evriladi. «Ur to'qmoq» va «Oltin tarvuz» ertagida laylak, «Ochko'z boy» ertagida esa o'rdak ertak qahramonlariga tilsim buyumlar beradi.

Sehrli-fantastik ertaklarda suv oti, ko'k qo'chqor – qizil devning o'g'li, evrilish xususiyatiga ega bo'lgan bo'ri va suv ichida yashaydigan qanotli oq ot, osmonda ucha oladigan, suvda suza oladigan, yerda chopcha oladigan tulpor ot, yolini tutatganda yetib keladigan g'aroyib ot, qanotli tozi kabi qator g'aroyib jonivorlar obrazi keltiriladi. O'zbek xalq ertaklari

talqinicha, qahramon ko‘pincha ana shunday zoomorf ko‘makchilar yordamida «g‘aroyib predmet»larni qo‘lga kiritadi.

Sehrli ertaklarda sirli gul, hayot guli, dorivor sehrli giyoh, mehriгиyo, bargi shifobaxsh daraxt, so‘lmas gul kabi g‘aroyib o‘simliklar ham mifologik kod sifatida syujet qurilishida muhim o‘rin tutadi.

O‘zbek xalq sehrli ertaklarining obrazlar tizimida kelib chiqishi qadimgi mifologik tasavvurlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan dev, pari, yalmog‘iz kampir, ajdar singari mifologik obrazlar asotiriy personajlar muhim o‘rin tutadi. Bu tip obrazlar ertak badiiy strukturasida qahramoniga yordam beruvchi homiy-personaj, unga dushmanlik qiluvchi raqib-personaj, «g‘aroyib predmet»larni hadya etuvchi epik homiy kabi vazifalarda keladi. Ertaklarda faol qo‘llaniladigan tilsimiy vositalardan biri hayot baxsh etuvchi sehrli suv, ya‘ni obi hayot, befarzand malika yeganidan keyin bo‘yida bo‘lib qoladigan yoki o‘likka ham jon ato etadigan sehrli olma, g‘aroyib meva qiladigan oltin tarvuz urug‘i va h.k.lar bo‘lib, bu narsalar sehrli ertakka xos tilsimning yuzaga chiqish vositasi vazifasini bajaradi.

O‘zbek xalq sehrli ertaklarida tilsimni yuzaga chiqaruvchi ochil dasturxon, qaynar xumcha, ur to‘qmoq, sehrli nay, uchar gilam, oynai jahon, sehrli chiroq, sehrli taroq, sangilsopoltosh, «kimonazar, labbay nazar» kabi «g‘aroyib predmet»lar ko‘p uchraydi. Xususan, «Ur to‘qmoq» ertagida laylak kal yoki kambag‘al cholga yordam beradi. Unga «ur to‘qmoq», «ochil dasturxon», «pishti palov» kabi asboblar taqdim etadi. «Uch og‘ayni» ertagida qahramonga chumolilar yordam berib, sochilgan donlarni yig‘ib beradilar. «Badalqorachi» ertagida qahramonga otlar yordam beradilar. Yoki gavhar tuxum qilib beradigan qushlar o‘z tuxumlari bilan kambag‘al o‘tinchi-cho‘ponlarni boy qiladilar va h.k.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq ertaklarining milliy o'ziga xosligi birinchidan, ertakchilik ijodiyotining qadim zamonlardan buyon shakllangan izchil ijrochilik an'analari doirasida uzlusiz taraqqiy etib kelganligi, O'zbekistonning o'ziga xos tabiiy-iqlimi shart-sharoitlari, tabiat, nabotot va hayvonot dunyosi, xalqning o'ziga xos milliy an'analari, ma'naviy qadriyatlari, urf-odat va marosimlari, ishonch-e'tiqodlari va dunyoqarashining ertaklarda o'z aksini topganligibilanbelgilanadi. Ikkinchidan, o'zbekertakchiligidao'zi-ga xos hududiy-lokal ijrochilik an'analari mavjud bo'lganligi, ertakchilik maktablarining ustoz-shogirdlik an'analari asrlar mobaynida izchil davom etib kelganligi, epik syujetlar iqtidorli ertakchilar tomonidan ijodiy qayta ishlangan, sayqal berilgan, yangidan yangi variantlar yuzaga kelgan. Uchinchidan, ertakchilar ijodiyoti faqat ijrochilikdangina iborat bo'lmay, balki yaratuvchilik ham muhim o'rin tutgan. Shu bois, ular an'anaviy ertaklarni ijro etish barobarida yangi ertaklarni ham yaratishgan. Natijada ertak syujetlari takomillashib, yangi motiv va talqinlar hisobiga boyib, o'zgarib boravergan. Bu esa o'zbek ertaklarining milliy o'ziga xosligi va originalligini ta'minlagan.

5. Hayotiy-maishiy ertaklar. Maishiy ertaklar mazmun jihatdan hayvonlar, sehrli ertaklardan bevosita hayotiy voqeahodisalar haqida hikoya qilishi bilan farqlanadi. To'g'ri, bu turdag'i ertaklarda sehrli-fantastik belgilarning mavjudligini inkor qilib bo'lmaydi. Ammo umumiy ifoda chegarasi maishiy ertaklarda ancha cheklangan. Chunki ularda xalq, avvalo, oddiy odamlar qo'lidan keladigan ishlar yuzasidan fikr yuritadi. Bevosita real hayot, turmushda ro'y berishi mumkin bo'lgan voqealar asos qilib olingani uchun ham bunday asarlar turkumiga maishiy ertaklar atamasi berilgan. Ularda haqiqiy hayotdag'i inson – millat vakili (xoh ijobiy, xoh salbiy

bo‘lsin), uning imkoniyati darajasidagi jismoniy kuchi, ilmi, aqliga voqealar zaminida tavsif beriladi. Aksariyat hollarda asar qahramonlarining ismlari ham qayd etilmaydi. Chol, kampir, bir odam, o‘g‘il, qiz, kambag‘al kabi nomli insonlar mazkur ertaklarning qahramonlari bo‘lib kelaveradi. Bu bilan dono xalq ertakda bevosita tinglovchi aholining har biri asar qahramoni ekanini ta’kidlagan bo‘lishi mumkin.

Hayotiy ertaklarda to‘g‘rilik va egrilik, mehnatsevarlik va dangasalik, poklik va nopolik, mardlik va xiyonat doimiy ravishda qarama-qarshi qo‘yiladi. Xalq ertak davomida kichik, e’tiborga arzimaydigan unsurlardan ustalik bilan foydalanadi, vaziyat yechimini ular orqali hal qiladi.

Xalq ertaklari badiiy so‘z san’atining go‘zal namunasi sifatida alohida ahamiyatga ega. «Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir och ekan, bir to‘q ekan...» jumlasidan boshlanar ekan, ertak «murod-maqsadiga yetibdi» degan yakungacha tinglovchi diqqati voqealarga to‘liq ravishda jalb etiladi. Undan keyin nima bo‘ladi, bu hodisa qanday tugaydi, degan savollar tinglovchi xayolini band etib turadi. Ertaklarning yashovchanligiga sabab ham ularning badiiy mukammalligi bilan belgilanadi. Mazmun jihatdan hayotning turli masalalari ertaklar mavzutik diapazonini ta’minlaydi. Ertaklarda xalq milliy tiliga mansub so‘zlardan o‘rnida foydalanish sezildi. Aytuvchi o‘z hikoyasini sodda gaplardan tuzilgan aniq fikrlar vositasida davom ettiradi. Bu janrga mansub asarlarda, albatta, qizlar o‘n to‘rt kunlik oydan go‘zal, yigitlar mard, qilichlar keskir, dasturxonlar ochiluvchan, xumlar qaynama xususiyatlarga ega bo‘ladilar. Ertaklarda juda boy va turli-turli o‘xshatish, sifatlash, mubolag‘alar majmuasiga duch kelamiz. Shuning uchun ham og‘zaki ijodimiz tarkibidagi bu asarlar haqiqiy ma’noda qadriyatlar namunasi, madaniy merosimizning noyob gavhar – injulari darajasida e’zozlanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ertak janrining o‘ziga xos belgilarini aytib bering.
2. O‘zbek ertakchilari va ularning ijrochilik an’analari haqida nimalarни bilasiz?
3. Ertak turlarini sanang, misollar keltiring.
4. Ertaklardagi ramzlar haqida ma’lumot bering.
Fikrlaringizni biror ertak tahlili misolida bayon eting.
5. Qardosh xalq ertaklari haqida nimalar bilasiz?

Adabiyotlar:

1. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T., «Musiqa», 2010. – 368 b.
2. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: «Mumtoz so‘z», 2010.
3. Madayev O., Sobitova T. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T., 2005.
4. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik assoslari. – T., 2009 yil.
5. Kulsa–gul, yig‘lasa–dur/Ertaklar.–T.,1983
6. Oltin beshik/Ertaklar.–T.,1985
7. Jalolov G’. O‘zbek xalq ertaklari poetikasi. –T.,1976
8. Eshonqul J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – Toshkent: Fan, 2011.
9. Turdimov Sh. Hikmat xazinasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
10. Introduction to Folklore. London, 2008. Page7

9-MAVZU. QO'SHIQ VA LIRIKA ATAMALARI HAQIDA. MEHNAT QO'SHIQLARI VA TERMALAR

Reja:

- 1. *Qo'shiq va lirika atamalari haqida ma'lumot.***
- 2. *Mehnat qo'shiqlari, ularning turlari.***
- 3. *Termalar va ularning o'ziga xos xususiyati.***

1. Qo'shiq va lirika atamalari haqida ma'lumot.

Qo'shiq xalq og'zaki ijodining lirik turiga kiruvchi eng ommaviy, keng tarqalgan, faol turi hisoblanadi. Xalq lirikasi janrlari uchun ham folkloriga xos yetakchi xususiyatlar: og'zakilik, ommaviylik, an'anaviylik, variantlilik, anonimlik birdek tegishlidir. O'zbek xalq lirikasi namunalari marosimlar tarkibida va mustaqil ijro etiladigan qo'shiqlardan iborat bo'lib, janriy jihatdan: to'y va motam qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, allalar, termalar, ishqiy-maishiy lirik qo'shiqlar, bolalar folkloriga ajraladi.

Lirik asarlarda inson hayoti uning turmush lahzalari ta'sirida ko'ngidan o'tgan kechinmalari qo'shiqlarda o'ziga xos tarzda ifodalanadi. Ana shu xususiyati bilan lirika eposdan farqlanadi.

Xalq lirikasi spetsifikasi, poetikasini va ularning xalq marosimlari, urf-odatlarni va alohida ijro jarayonlaridagi o'rmini, har bir qo'shiq tarkibidagi badiiy ifoda vositalari: ramz hamda obrazlar tizimi xususida to'xtalishdan, avval, **qo'shiq, ashula, lirika** atamalariga munosabat bildirish lozim.

Ashula atamasi qo'shiqning biror cholg'u sozi bilan ijrosi va bevosita qo'shiq ma'nosida ham qo'llaniladi. Musiqashunoslar tili bilan aytilsa, ijro jarayonida avjga ega namunalar ashula, avji yo'qlari esa qo'shiq deb yuritiladi.

Adabiyotshunoslik va folklorshunoslikda lirika atamasi keng qo'llanilib kelinadi. **Lirika** – yunoncha «*lira*» deb yuritilgan cholg'u asbobi nomidan olingan bo'lib, kuylanadigan asarlarni bildiradi.

Qo'shiq – atamasi asosida «*qo'sh*» o'zagi turadi. Turkiy xalqlarda «*qo'sh*» so'zi uch ma'noda: «*kuylamoq*», «*qo'sh qo'shmoq*» – yer, haydab, ekin ekmoq va juft ma'nolarini bildiradi. Har uch ma'no ham bir-birini inkor etmaydi. «*Qo'sh*» mavsum, ya'ni bahor marosimida ilohlarni ulug'lab aytilgan qutlov, alqovdir. (Saxa turklarida shomonlik *qo'shig'i* – kuturuu – so'zi kut – ruh, uruu-ulug'lamoq, qutlamoq ma'nolarini anglatadi).¹ Shuning uchun «*kuylamoq*»ning bevosita hosildorlik kulti bilan aloqadorligi, ekin-tikin payti bu *qo'shiqning kuylanishi* albatta shart bo'lган.

*Qo'shiqning qo'sh bilan o'zar o'zaro bog'liq ekanini folklorshunos olim Asqar Musaqulov o'rinali izohlab bergen.*²

Ma'lumki, *qo'shiqlar*, asosan, to'rtliklardan tashkil topgan. Ikki misraning birikib, juftlik, ya'ni «*qo'shiq*» hosil qilishi shunchaki tasodif emas. «Er-u xotin – *qo'sh ho'kiz*»

degan maqol bor. *Qo'sh haydamoqning ko'chma ma'nosi*

qiz va yigitning qo'shilishi, ya'ni oila qurishi, juftlashish ekanligini ustoz olim Asqar Musaqulov o'z tadqiqotlarida ta'kidlab o'tgan.³ Xalq *qo'shiqlarida* bu tasavvurlar o'zining chiroyli ifodasini topgan. Shunday ekan, yuqoridagi maqol bilan *qo'shiq kuylayotganda* «*juft bo'lsin*» degan ibora ham aslida *qo'shiq* va *juftlikni* muqaddas deb bilish bilan bog'liq qadim tasavvurlarning mahsulidir.

Qo'shiq so'zi «Devonu lug'otit turk»da «*koshug'*», Yusuf Xos Hojibda «*qoshuq'*», Haydar Xorazmiyda «*qo'sh*», Mahmud Umar Zamaxshariyining «*Muqaddimatul-adab*»

¹ Обрядовая поэзия Саха (Якутова). – Новосибирск: Наука. 2003. – С.59.

² Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 2010. – B.31-33.

³ Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 2010. – B.30.

asarida «qo'shiq», Alisher Navoiy asarlarida «qo'shiq», «surud», «ayolg'u», «lahn», «turku», Zahiriddin Muhammad Boburning «Bobirnomma»sida «qo'shiq» shaklida kelganini ko'ramiz.¹ Alisher Navoiy ham, Bobur ham xalq qo'shiqlarini nazarda tutganda «qo'shiq» kalimasini ishlatadi. Qolgan paytlarda «surud» yoxud boshqa bir atamani keltiradi.²

Turk folklorshunoslari ham O'rta Osiyo xalqlaridagi «qo'shiq» Turkiyadagi «qoshma» va «turku»lar bilan o'xshash ekanligini ta'kidlaydilar.³

O'zbek xalq qo'shiqlari bugungi kunga qadar ko'p marotaba o'rganilganligiga qaramay, afsuski, yetarli darajada tasnif etilgan emas.

Folklorshunos olima Muzayyana Alaviya o'zbek qo'shiqlarini 1. Lirik; 2. Mehr baytlari; 3. Terma; 4. Mehnat qo'shiqlari; 5. Mavsum-marosim qo'shiqlariga bo'ladi.⁴

F.Karomatov xalq qo'shiqlarini: maishiy, oilaviy-marosim, mehnat, tarixiy va sotsial norozilik qo'shiqlariga bo'lib tahlil etadi.⁵ Asqar Musaqulov qo'shiqlarni uch guruhga: a) marosim: to'y va motam qo'shiqlari, b) nomarosim

¹ Qarang: Divanu Lugat-it Turk. Çeviren Besim Atalay. I cild. – Ankara: Turk Tarih Kurumu basimevi, 1992. – S. 376; Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Nashrga tayyorlovchi Qayum Karimov. – Toshkent: Fan, 1971. –B.58; Alisher Navoiy. Mezonul avzon. – Toshkent: Badiiy adabiyot,1967. –B.180: Zahiriddin Muhammad Bobur. Bobirnomma. –Toshkent, 2015.

² Qarang: «Yana «qo'shiq» durkum, yarg'ushtak usulida shoyi'dur va ba'zi advor qutubida ul usul zikr bulubtur». Alisher Navoiy. Mezonul avzon. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1949. –B.68

³ Fuad Köprülü «Edebiyat araştırmaları» kitobida: «Koşuk: koşma, eskiden şiir, recz, kaside manalarında kullanılan bir kelimedir. ..Bu koşuklar hayatı olan hükümdarlara, yahut hatunlara takdim ediliyordu», deydi. Qarang: **Fuad Köprülü. Edebiyat araştırmaları. – İstanbul: Ötüken,1989.** – 114 s. Bundan tashqari Fuad Köprülü «Devonu lug'otitit turk»ka suyanib qo'shiqdagi kuy qadimda «Kok» deyilganini va «Kok» so'zining mavi, sema, dikis, ahenk ve sada ma'nolarda kelishini ta'kidlaydi. Qarang: Fuad Koprulu. Edebiyat araştırmaları. – İstanbul: Ötuken, 1989.-S.113.

⁴ Alaviya M. O'zbek marosim qo'shiqlari. – Toshkent: Fan, 1974. –B.49.

⁵ Karomatov F. Uzbekskaya instrumentalnaya muzika. – Tashkent: Fan, 1972. –S.161.

lirika: mehnat qo'shiqlari, allalar, termalar, ishqiy-maishiy qo'shiqlar va d) bolalar folkloridagi lirik qo'shiqlarga bo'ladi. Bu tasnifni boshqa tasniflarga qaraganda nisbatan mukammal deyish mumkin. Biroq bu o'rinda mavsum marosim bilan bog'liq qo'shiqlar e'tibordan chetda qolmoqda. M.Alaviya tasnifiga kelsak, unda oilaviy marosim qo'shiqlariga o'rin ajratilmagan. Mehr baytlari esa umuman xalq qo'shiqlarining tasnifi doirasiga kirmaydi. F.Karomatov tasnifida ko'pgina noaniqliklar ko'zga tashlanadi. Birinchidan, maishiy va oilaviy marosim deb ajratilishida noaniqlik mavjud. Chunki oilaviy marosimlar maishiy xususiyati bilan ajralib turadi. Ikkinchidan, sotsial-norozilik qo'shiqlar deyish ham tasnifda chalkashlikka olib keladi.

Turkiyalik olimlar Abdurahmon Gözal va Ali Turinlar turku(qo'shiq)larni: 1) mavzusiga ko'ra va 2) qurilishiga ko'ra deb ikki guruhga ajaratadi.¹

Qardosh qoraqalpoq mutaxassislari qo'shiqlarni besh turga: 1) mavsum qo'shiqlari, 2) to'y qo'shiqlari, 3) motam qo'shiqlari, 4) cho'pon qo'shiqlari va 5) diniy qo'shiqlarga bo'lishgan.²

Sibir xalqlari turkiy xalqlarida qo'shiqlar musiqaga munosabatiga qarab tasnif etilgan. Tuvalik follkorshunos Z.K. Kirgis qo'shiqlarni: 1. Uzun irlar, 2.Qisqa irlar, 3. Naqarot (kojamiktan)larga bo'ladi.

Qo'shiqlarning tasnifi masalasida xorijlik olimlarning ham fikri turlicha. Ayrimlari qo'shiqlarning ijro etilishi holati va musiqiyligiga qarab tasnif etilish kerak desa, ayrimlari ijro o'rniga qarab tasniflash lozim deyishadi. Ayrim olimlar qo'shiqning ma'lum bir turi yuzasidan fikr bildirsa, boshqasi boshqa bir tur xususiyatidan kelib chiqib, fikr yuritadilar.

¹ Abdurahman Güzel, Ali Torun. Türk Halk Edebiyatı El kitabı. – Ankara: Akçag, 2003. – S.169.

² Qarang: Qoraqalpoq folklori ocherklari. – Toshkent: Fan, 1977. – B.130-142; Ayimbetov Q. Qoraqalpoq folklori. – Nukus, 1977. – B.24-40.

Rus folklorshunosi D.M.Balashov xalq qo'shiqlarini 1) mavsum, 2) to'y, 3) motam marosimi folklori namunasi sifatida o'rgansa, V.Propp mavsum va oilaviy marosim deb ikki guruhga ajratadi.¹

Shu o'rinda qo'shiqlarni qaysi mezonlar asosida tasnif etish lozim, degan savolning qo'yilishi tabiiy, albatta.

Qo'shiqlarning tasnifida eng, avvalo, bitta mezonga amal qilish lozim. Qo'shiq janrining ichidagi tur va uzvlarning har biri o'z spetsifik xususiyatlariga ega ekanligi tabiiy. Biroq bu xususiyatlar ularni tasnif etilishida yaxlit bir mezondan kelib yondoshishga monelik qila olmaydi. Shunday ekan qo'shiqlar ijro o'mni, holati, musiqaga munosabati va badiiyatidan kelib chiqib: 1) ijro o'mni, 2) poetik strukturasi, 3) musiqiyligi va raqsga munosabatiga qarab tasnif etilishi lozim.

Ijro o'rniga qarab tasnif etilganda qo'shiqlar: marosim va nomarosim qo'shiqlariga ajraladi. O'z navbatida marosim qo'shiqlari ham ikki: mavsum marosim va oilaviy-maishiy marosimlar qo'shiqlariga bo'linadi. Mavsumiy marosim qo'shiqlari mavzutik va funksional xususiyatlariga ko'ra, yilning to'rt mavsumi bilan bog'liq (Navro'z, Sust xotin, Choy momo, Obla baraka, Yasun-Yusun) bilan bog'liq qo'shiqlarni kiritish mumkin.

Marosim qo'shiqlari inson hayotining eng muhim davrlari, burilish nuqtalari: tug'ilish, to'y (balog'at, uylanish), o'lim va ularning tabiatga munosabati o'z aksini topgan bo'lib, maishiy, psixologik hamda estetik funksiya ham bajarib keladi.

Ayrim mavsumiy marosim qo'shiqlari davrlar o'tishi bilan lirik qo'shiqlarga aylangan holatlar mavjud. «Qoshingni

¹ Qarang: Балашов Д.М. О радовой и видовой систематизации фольклора // Русский фольклор. Том 17. – Ленинград: Наука, 1977. – С.23-33; Пропп В. Жанровой состав русского фольклора // Фольклор и действительность. – Москва, 1976. – С.66-69.

qora deydilar», «Kichkinajon – kichkina», bolalarning «Boychechak», «Chuchvara qaynaydi», «Oftob chiqdi olamga» qo’shiqlari ana shular jumlasidandir. Bu qo’shiqlar dastlab faqat mavsum marosimida ijro etilgan. «Qoshingni qora deydilar», «Kichkinajon kichkina», «Boychechak» bevosita Navro‘z, ya’ni bahorgi marosim bilan bog‘liq.

Oilaviy-maishiy marosim qo’shiqlari safiga to‘y, farzandning tug‘ilishi, xatna to‘yi va nikoh to‘yi, motam-marosimi bilan bog‘liq yig‘i-yo‘qlov, motam yor-yorlari va shomon aytimlari bilan bog‘liq kinna, badikni kiritish mumkin.

Nomarosim qo’shiqlari esa, asosan, lirk qo’shiqlardan tashkil topgan bo‘lib, marosim qo’shiqlaridan farqlanib turadigan jihatni ularning biror-bir marosim bilan maxsus bog‘lanmaganligi, istalgan paytda, istagan joyda aytishidir. Bu yo‘nalishdagi qo’shiqlar:

1. Mehnat qo’shiqlari.
2. Tarixiy qo’shiqlar.
3. Termalar.
4. Bolalar qo’shiqlari: allalar, huyalar, bolalarning o‘zi tomonidan kuylanadigan qo’shiqlar.
5. Lirk qo’shiqlar.

Mutaxassislar mehnat qo’shiqlarini xalq lirkasining eng qadimiy janrlaridan biri sifatida bilishadi. Mehnat qo’shiqlari ham qachonlardan maxsus marosimlar tarkibida ijro etilgan. Keyinchalik davrlar o‘tishi bilan marosim unutilib, faqat qo’shiq matni qolgan. Misol uchun qo’sh, o‘rim, oblo baraka, ho‘p mayda, yorg‘ichoq qo’shiqlarini olaylik. Qadimda qo’sh haydash ham, o‘rim ham, oblo baraka ham maxsus marosim sanalgan.

Mehnat qo’shiqlarining o‘zi ko‘plab: a) dehqonchilik bilan bog‘liq qo’shiqlar (qo’sh, oblo baraka, yorg‘ichoq

qo'shiqlari); b) chorvachilik bilan bog'liq qo'shiqlar (sog'im qo'shiqlari: hushey-hushey, turey-turey, churey-churey); d) kasb-hunar (charx, bo'zchi, gilam to'quvchilar va hokazo) qo'shiqlaridan tashkil topgani holda, tarixiy qo'shiqlar tarixda bo'lib o'tgan biror-bir voqeа yoxud shaxs haqida to'qilgan satrlardir. Tarixiy qo'shiqlarning eng go'zal namunasi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk» kitobida keltirilgan. Bu kitobdagi to'rtta marsiyani yig'iyo'qlov namunasi emas, tarixiy-qahramonlik qo'shig'i namunasi sifatida o'rganmoq lozim. O'zbeklardagi «Namoz», «Mardikorlar» kabi qo'shiqlarni ham ushbu turkumga kiritish mumkin.

Termani mutaxassislar ham lirik, ham epik turga kiritishadi. To'g'ri, termaning professional ijodkor – baxshi tomonidan ijro etilishi, doston kuylash an'anasi bilan chambarchas bog'liqligi uni epik tur deya tadqiq etish imkonini beradi. Biroq unda epik voqelik emas, ijodkorning ma'lum bir holatdagi kechinmalari o'z ifodasini topadi. Ya'ni baxshi terma kuylash orqali o'zini doston aytishga, tinglovchini esa doston tinglashga tayyorlagan. «Kunlarim», «Do'mbiram», «Nima aytay» ana shunday termalar sirasiga kiradi. «Oq olma, qizil olma» to'plamida noma'lum shoirdan yozib olingan «Bibi shaylanayotir» termasi shu paytgacha yozib olingan termalarning eng go'zal namunasidir.¹

Bolalar qo'shiqlari atamasini ham keng ma'noda tushunmoq kerak. Birinchi o'rinda kattalar tomonidan bolalarga atab aytildigan qo'shiqlar: Alla va huyalar. Alla hamma uchun tushunarli. «Huya» bu O'zbekistonning janubiy viloyatlarida otalarning bolalarni erkalatish uchun aytgan qo'shiqlaridir. Alladan farqli tomoni uni faqat erkaklar

¹ Oq olma, qizil olma. O'zbek xalq qo'shiqlari. – Toshkent: Badiiy nashriyot, 1972. –B. 224–226.

ijro etadi. Huya aytish an'anasi bugungi kungacha yaxshi saqlanib kelinyapti. Ikkinchisi esa bolalarning o'zi tomonidan kuylanadigan qo'shiqlar. «Boychechak», «Chittigul», «Oq terakmi, ko'k terak», chorlamalar shular jumlasidandir.

O'zbek xalq qo'shiqlarining asosiy qismini lirik qo'shiqlar tashkil etadi. Bu o'rinda lirik deganda biz sevgi-muhabbat haqidagi ishqiy-maishiy qo'shiqlarni nazarda tutamiz. Lirik qo'shiqlarni ham: 1) aytishuv yo'nalishidagi (o'lan va lapar); 2) aytishuv yo'nalishida bo'limgan; 3) turli mavzudagi qo'shiqlarga ajratib tasniflash mumkin.

O'lan ham, lapar ham qadimda to'y kuni, qiz uzatish marosimida aytilgan.¹ Qiz va yigitlar tarafma-taraf bo'lib shod-u xurramligini, baxtiyorligi yoxud afsus-nadomatini, xullas, kechinmalarini qo'shiq orqali ifoda etishgan. Har ikkalasi ham aytishuvga, ya'ni qiz va yigitning so'z musobaqasiga asoslanadi. Faqat laparlarda voqeabandlik kuzatilsa, o'lanlarda bu holat kuzatilmaydi. Bugungi kunda o'lan ham, lapar ham istalgan sharoitda, istalgan joyda ijro etilishi mumkin. O'lanlar, asosan, chorvachilik bilan shug'ullangan, ko'chmanchi hayot kechirgan urug'lar orasida uchrasa, laparlar ko'proq o'troqlashgan hayot tarziga mosligi ko'zga tashlanadi.

Poetik strukturasiga ko'ra tasnifda qo'shiqlar ohangini, ya'ni yo'lini naqarotlar va takrorlar belgilab beradi. Qo'shiqlar ohang yo'liga qarab farqlanganda ikki holatni kuzatamiz. Birinchi holat to'rtliklar erkin holda birikib, har bir to'rtlik individual bir kechinmani aks ettiradi va o'ziga xos kompozitsion qurilmaga ega bo'ladi. Ikkinchisi qo'shiq matnidagi to'rtliklar o'zaro birlashib, ma'lum bir voqeani yoxud kechinmani ifodalab keladi. Qo'shiqlar ohang yo'liga ko'rab farqlanganda ular, asosan, ikkita katta guruhga ajraladi:

¹ Fuad Ko'pruli o'lanni to'y marosimlarda ijro etiladigan qo'shiqlar deb ta'riflaydi. Qarang: Fuad Köprülü. Edebiyat araştırmaları. – İstanbul: Ötüken, 1989. – S.114.

b) voqeaband bo‘lмаган – то‘ртлик qо‘шиqlар.

a) voqeaband – to‘rtlik qо‘шиqlар.

Voqeaband qо‘шиqlarda yuqorida ta’kidlaganimizdek, har bir to‘rtliklar ma’lum bir voqeа bilan o‘zaro birikib keladi. Bu yerda to‘rtliklarning ketma-ketligi turg‘un holatga kelib, voqeabandlik hosil bo‘ladi.

Voqeabandlik masalasiga olimlarning qarashlari turlicha. Ayrim olimlar voqeabandlik (syujet) barcha qо‘шиqlarga xos desa¹, boshqa olimlar butunlay teskarisini, ya’ni syujetlilik qо‘шиqlarga xos emasligini uqtirishadi.² Har ikki qarashga ham qо‘shilib bo‘lmaydi. Birinchidan, syujet hamma qо‘шиqlarda ham uchrayvermaydi. Biz tahlilga tortgan qо‘шиqlarning asosiy qismi voqeaband emas, ya’ni syujetga ega bo‘lмаган qо‘шиqlardir. Bundan syujet qо‘шиqlarga xos emas, degan fikr kelib chiqmaydi. Shunday qо‘шиq namunalari borki, ularda voqeabandlik ustunlik qiladi. Bunday qо‘шиqlar ma’lum bir syujet asosiga quriladi va matndagi satrlar ushbu voqeani ifodalab keladi.

Misol uchun:

Oqty, oqty, oqty

Aminaxon oqty.

Hasan-Husanlar bilan,

Soylarga botdi.

Uni ko‘rib onasi

Bilagidan tortdi.

«Tortmang, onajon, tortmang»,

Deb soyga oqdi.

¹ Акимова Т.М. О поэтической природе народной лирической песни. – Саратов, 1966. – С.9–11.

² Тимофеев Л.И. Лирика // Краткое литературная энциклопедия. – М.:1967. Т.4. – С.210.

*Aminaning kovushini
Soylardan topdi.
Qilgan sayohatlari
Qon bo 'lib oqtisi.
G 'isht ko 'prik tagida
Uch kuncha yotti.
Chilvir-chilvir sochlari,
Balchiqqa botdi.
Yalli, yalli, yalli,
Yallining boshi.
Aminaxonning yoniga botgan,
Soylarning toshi.*

Bu qo'shiqda Aminaxon ismli qiz balog'at yoshiga yetib, bir yigitning yolg'on va'dasiga ishonib, homilador bo'lib qolgani, onasi bilib qolgach, qiz nomusiga chiday olmasdan o'z joniga qasd qilgani, uch kundan keyin uning jasadini ko'prik tagidan topib olingani hikoya qilinmoqda.

«**Savrixonning ro'moli**» qo'shig'ida ham aynan shunday voqeabandlikni ko'ramiz. Bunday voqeabandlik kelin salom, yor-yorlarda va ayrim mehnat qo'shiqlarida ham uchraydi.

Voqeaband bo'limgan qo'shiqlarda har bitta to'rtlik mustaqil alohida bir kechinmani ifodalab keladi. Ularni faqat ohang va naqarotlar bog'lab turadi.

*Devor ustiga devor,
Devona bo 'lsin akang.
Boshida shoyi ro 'mol,
Parvona bo 'lsin akang.
Yaqu-yaqu yaqu yaq. Yaqu-yaqu yaqu yaq.*

*Tog 'lar boshi o 'rama,
Kiyik shoxi burama.
Boy qizini bermasa,
Boyni Xudo urama.
Yaqu-yaqu yaqu yaq. Yaqu-yaqu yaqu yaq.*

O'lanlarda ham voqeabandlik kuzatilmaydi.
Voqeaband bo'limgan qo'shiqlarning o'zi kompozitsion
jihatdan yana uchga bo'linadi.

1. **Holat qo'shiqlar.** Hamma qo'shiqlarda kechinma, holat aks etsa-da holat qo'shiqlarida qahramon hech kimga murojaat qilmaydi, balki o'z holatini anglatishga harakat qiladi:

*Yor yurgan ko 'chalarni,
Supuray sochim bilan.
Chang chiqsa suv sepay,
Ko 'zdag'i yoshim bilan.*

2 **Murojaat qo'shiqlar.** Bunday qo'shiqlarda qahramoning so'zlari kimgadir – sevgilisi, yaqinlari yoki boshqa bir kimsaga murojaat tarzda bo'ladi:

*Otma meni toshlar bilan,
Uchib ketay qushlar bilan.
Qushlar qaytsa, men qaytmasam,
Ko 'zing to 'lsin yoshlar bilan.*

3. **Aytishuv qo'shiqlarining eng go'zal namunasi o'lan va laparlardir.** Ularda qiz va yigit juft bo'lib yoxud tarafma-taraf bo'lib, aytishuvda o'zaro musobaqalashadilar.

Yigit:

Kakang keldi deganda, kakang keldi, yor-yor.
 Xo‘rozlarning ichida, dakang keldi, yor-yor.
 Qiziq-qiziq o‘landan aytoxunqiz, yor-yor,
 Taraf bo‘lib aytmoqqa akang keldi, yor-yor.

Qiz:

Bulbullarning qo‘ngani gul bo‘ladi, yor-yor,
 Olamdagi bor so‘zni, til biladi, yor-yor.
 Taraf bo‘lib aytmoqqa kepsiz, aka, yor-yor,
 Oxunliging bu yerda kim biladi, yor-yor

Qo‘shiqlarning asosiy qismi barmoq vaznidagi to‘rtliklardan iborat bo‘lib aruz vaznidagi namunalar ham uchraydi.¹ To‘rtliklar qo‘shiqning eng qadimiy namunasi ekanligini mutaxassislar e’tirof etishadi. Qo‘shiqlarda bir xil turoqlarga amal qilinishi qo‘shiqning ohangdorligini ta’minlab, uning poetik xususiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xo‘p hayda-yo, xo‘p hayda, mayda-yo, mayda. 7+5=12
 Qalqon tuyog‘im hayda, mayda-yo, mayda. 7+5=12
 Temir tuyog‘im hayda, mayda-yo, mayda. 7+5=12
 Xirmonni qilgin mayda, mayda-yo, mayda. 7+5=12
 (Yanchish qo‘shiqlari)

Takrorlar xalq qo‘shiqlari badiiyati tizimidagi muhim unsurlardan biri hisoblanadi. Satr boshida, o‘rtasida yoki oxirida kelishidan qat‘iy nazar takrorlar qo‘shiqdagi ilgari surilgan mazmunni ochib berishga xizmat qilish barobarida ohang va kuyning yaxlitligini ta’minlab beradi.

¹ Fuod Ko‘pruli qisqa hijoli, ya’ni to‘rtlik shaklidagi qo‘shiqlar uzun hijoli qo‘shiqlarga nisbatan oldinroq paydo bo‘lganini va turk qo‘shiqlari asosan 5 dan tortib to 15 hijoga qadar bo‘lishini aytadi. Fuad Köprülü. Edebiyat araştırmaları. – İstanbul: Ötüken, 1989. – S.125.

Qo'shiqlardagi naqarotlar esa an'anaviy naqarotlar va noan'anaviy naqarotlarga bo'linadi. An'anaviy naqarotlarda: so'z; misra; to'rtlik takrorlanib keladi. Bular an'anaviy naqarotlar. Bu naqarotlar turli xil qo'shiqlarda uchrashi mumkin. To'g'rirog'i, bu yerda ohangni ushlab turuvchi naqarotlar qoladi, faqat matn o'zgaraveradi. Har qanday matn ushbu naqarot ohangiga moslashadi. Takrorlarda matn bilan chambarchas bog'liqlik ko'zga tashlansa, naqarotda mazmun bilan bog'liqlik sezilmaydi. Bu o'rinda ohang muhim ahamiyat kasb etadi.

Bulardan tashqari, faqat ayrim qo'shiqlarning o'zigagina xos bo'lgan ma'lum tovush (Ha, hu) va misra takrorlanib kelish holatlari borki, ularni noan'anaviy naqarotlar sifatida baholash mumkin.¹

Qo'shiqning kuyga munosabatiga kelsak, hamma, hatto motam qo'shiqlarida ham musiqiy ohang mavjud, biroq motam marosim qo'shiqlari biror-bir musiqiy asbob jo'rligida kuyylanmaydi. Motam marosimi va ayrim mavsum marosim qo'shiqlarini inobatga olmaganda hamma holatlarda qo'shiqlarga biror musiqa asbobida kuy chalinishi mumkin. Shunga ko'ra qo'shiqlarni: 1. soz bilan ijro etiladigan qo'shiqlar; 2. hech qanday sozsiz ijro etiladigan qo'shiqlarga bo'lish mumkin.

Hozirgi jonli jarayonda o'zbek qo'shiqlari doira, do'mbira, dutor, bulomon, tor va hokazo musiqa asboblari jo'rligida ijro etiladi. Qanday musiqa asbobi tanlanishi qo'shiq mazmuni va ijro etilayotgan vaziyatdan kelib chiqiladi.

¹Arxiv materiallari. Aytuvchi Bibisora momo. Qashqadaryo viloyati, Nishon tumani.

2. Fuad Ko'pruli "dala" so'zini "dalamak", "dalanmak", "dalaşmak" so'zleri bilan qiyoslab, quyidagi naqarot ekanini urg'ulaydi. Qarang: Fuad Köprülü. Edebiyat araştırmaları. – İstanbul: Ötüken, 1989. – S. 114.

Qo'shiq va raqs haqida so'z ketar ekan, ularning hamma davrlarda kuy bilan uyg'unlikda qaralganligining guvohi bo'lamiz. Fuod Ko'pruli turklarning adabiy qarashlari diniy tasavvurlar hamda raqs va musiqa bilan birgalikda taraqqiy etganini yozadi. «Chig'atoy lug'ati»da qo'shiq «raqs havosiga bog'langan kuy» tarzda kelgani aytildi.

Qo'shiqlarning raqsga munosabatiga kelsak, hech bir qo'shiq yo'qki, unda harakat bo'lmasin. Yig'iyo'qlov, motam qo'shiqlarida ham garchand harakatlar raqs deb atalmasa-da, raqs elementlarni o'zida to'la saqlab qolgan. Birgina misol, motam marosimida azador o'zining yuzlarini timdalab, sadr tushishi bu motam marosimidagi raqsning eng qadimiy ko'rinishlaridan biridir.

Qo'shiq va raqsning eng mukammal uyg'unligini biz «Beshqarsak» qo'shiqlari va o'yinida ko'rishimiz mumkin. Bu o'yinni o'rgangan san'atshunos olim Muhsin Qodirov uni o'zbek xalq san'atining qadimiy ko'rinishlaridan biridir deydi.¹ Bu o'yinda qarsak va qo'shiq qaytariqlari alohida ahamiyatga ega. Raqqoslar doira shaklini yasab qarsak ohangiga mos harakatlar qilishadi. Qarsakning turlari ko'p: mayda qarsak, yakka qarsak, qo'sh qarsak va hokazo. Cholq'u asbobi vazifasini ko'pincha qarsaklar bajaradi. Biroq bu qo'shiq kuysiz ijro etiladi degani emas. Qarsak ham, kuy ham, naqarotlar ham eng mukammal uyg'unlik kasb etadi. O'rtada raqqos turli harakatlar bilan raqs tushadi, davradagilar qarsak chalib, kuya mos qo'shiq ijro etishadi. Qarsak o'yinlarida naqarotlar muhim ahamiyatga ega.

Hoy bola-bola, yor-yor,

Omon bola yor-yor.

Hay-hu, ho-ho-ho.

¹ Qodirov M. O'zbek an'anaviy teatri. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2010. –B.315.

Oq otingni maqtaysan,
Bo‘z otimga yetmaydi.

O‘yinchingni maqtaysan,
Qarsoqchidan o‘tmaydi.

Hoy bola-bola, yor-yor,
Omon bola yor-yor.
Hay-hu, ho-ho-ho.

Bu raqs o‘yin sifatida san’atshunoslar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, bu o‘yining verbal qismi, ya’ni so‘z komponenti olimlar e’tiboridan chetda qolib kelmoqda. Bu raqsda kuylanib kelinayotgan «Omonyor», «Gulbog‘», «Dig‘ajon», «Hoy bola-bola, yor-yor»lar xalq qo‘shiqlarining eng yorqin namunalaridir.

«Qarsoq» bo‘ri degani¹, ya’ni «Bo‘ri o‘yini» raqsi va qo‘shiqlari, asosan, chorvachilik bilan shug‘ullangan joylarda to‘y-tomoshalarda, gap-gashtaklarda, Navro‘z bayramlarda sevib ijro etilgan.

Ishtirokchilarning qarsak chalib doira hosil qilishi, raqqosning o‘rtada turishi uch narsani yodimizga soladi. Birinchisi, qadimda ovchilarning ovga chiqib, halqa hosil qilib, o‘ljasiga hujum qilishi. Ikkinchisi, o‘tov chang‘arog‘ining aylana shaklda ekanligi, unga birikkan uvuqlar bizga raqqosni o‘rtaga olib, davra hosil qilgan qarsoqchilarni eslatadi. Uchinchisi, «Ko‘pkari» (Boshqa bir nomi «Ko‘kbo‘ri») o‘yinini. Ya’ni ko‘pkari o‘yinida ham chavondozlar dastlab davra hosil qilishib, keyin «o‘lja» – uloqqa tashlanishadi.

Bizning nazarimizda har uchala holat ham xalqimizning mavsumiy marosimi, ya’ni Navro‘z bilan bog‘liq. Chunki qish kirishi bilan ko‘klam-bahorning yaxshi kelishi uchun ko‘plab marosimlar o‘tkazilgan. Shulardan birinchisi ov, ikkinchisi

¹ Mahmud Koshg‘ariy «Devonu lug‘otit turko»da qarsoqni tulkinining bir turi deydi.

ko'pkari va nihoyat bahor kelishi bilan chorvadorlar keng yaylovlarga chiqib o'tov tikishgan.

Fuod Ko'pruli qadimda turklarning kuy-kuklarning soni 365 ta, ya'ni yil kunlariga teng bo'lib, har kuni xoqon huzurida ayri bir kuy chalinganini urg'ulaydi.¹ O'tovdagি uvuqlar soni ham odatda 52 ta, ya'ni yillik haftaga tengligi tasodifiy bo'lmasa kerak.

Navro'zga bag'ishlangan ko'pgina marosimlar, udumlar, aytim va qo'shiqlar zamirida quyoshga bo'lgan topinch yotganini ko'rishimiz mumkin. Qarsak o'yinidagi halqa bizga kunni-quyoshni ham eslatadi. Qolaversa, qo'shiq matni naqarotidagi «hu», aslida xu, qu, ku (gu) kun-quyosh so'zi bilan o'zakdosh emasmikan degan taxmin uyg'otadi. Nima bo'lganda bu o'yin qo'shiqlari maxsus tadqiq etilishi lozim.

Tasnifni yana davom ettirish mumkin. Misol uchun erkak va ayol qo'shiqlari, har bir hududning o'ziga xosligidan kelib chiqib, Surxondaryo, Qashqadaryo; Jizzax, Samarqand, Buxoro; Toshkent, Namangan, Andijon, Farg'ona hamda Xorazm qo'shiqlari deyish ham mumkin. Biroq bunday tasniflar ikkilamchi tasnifga kiradi. Eng muhimi esa qaysi turkum qo'shiqlari bo'lmasin, marosim qo'shiqlarimi yoxud nomarosim qo'shiqlarimi, yuqorida biz tilga olgan barcha turkumlik uchun birdek bo'lgan umumiylar mezonlardan kelib chiqqan holda tasnif etilmog'i lozim.

2. Mehnat qo'shiqlari, ularning turlari. O'zbek xalqi tarixini shartli ravishda mehnat qilish tarixidan iborat deyish mumkin. O'zbeklar to'y marosimlarini, gap-gashtaklarni, sayillarni, turli bayramlarni o'tkazishda o'ta tashkilotchi va ijodkor xalq sifatida shuhrat topgan. Dam olish, hordiq chiqarishni o'miga qo'ygan xalq, odatda, mehnat qilishni ham biladi.

¹ Fuad Köprülü. Edebiyat araştırmaları. – İstanbul: Ötüken, 1989. – S. 113.

Mehnat qo'shiqlari o'z tarkibida bir necha janrlardan iborat bo'ladi. Har bir janrni bevosita mehnatning qaysi turi bilan band bo'lish belgilaydi. Xususan, o'rmak qo'shig'i gilam to'qishda aytilar ekan, aynan shu namuna kashta tikuvchi, qo'sh haydovchi shaxs tomonidan ijro etilmaydi. Ya'ni har bir mehnat sohasi o'zining maxsus qo'shig'iga egaligi bilan ajraladi. Shuningdek, ko'p qo'shiqlarda ish qurollariga murojaat qilish odati bor. Bug'doy yanchayotgan dehqon ho'kizi bilan tillashadi, un chiqarayotgan ayol yorg'ichqqa murojaat qilishi mumkin. Binobarin, mehnat qo'shiqlarining ichki turlarini matnda esga olingan ish quroli vositasida ham aniqlash imkonи bor. Yana bir xususiyatni eslab o'tish joiz. Mehnat qo'shiqlari uzoq muddat davomidagi ishni bajarishda o'ziga xos vosita bo'lgani sababli ularda qayta-qayta bir matnni takrorlash, ish qilayotgan odamning sergakligini oshirish maqsadida turli xitoblarga murojaat qilish ham an'ana hisoblanadi.

Folklorshunos Bahodir Sarimsoqov mehnat qo'shiqlarini o'rganish, tahlil qilishning qulayroq yo'lini belgilash maqsadida ularni quyidagi turlarga bo'lishni ma'qul topgan:

1. Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar.
1. Chorvachilik bilan bog'liq qo'shiqlar.
2. Hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlar¹.

Keltirib o'tilgan tasnif mehnat turlariga ko'ra amalga oshirilgan. O'z navbatida ularning har biri ma'lum ichki bo'linmalardan tashkil topdi.

Xalqning dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlarining yorqin misoli sifatida Qo'sh qo'shig'ni keltirish mumkin, Qo'sh qo'shiqlarida dehqonning mashaqqatli mehnati va bu mehnatni oz bo'lsa-da oson qilgan ho'kizidan minnatdorligi,

¹ Sarimsoqov B. Qo'shiqlar / O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: O'qituvchi, 1990. – B. 144.

ana shu ho‘kizini olqishlab, maqtash davomida o‘z ishidan
mammuniyat sezish ham ifoda etilgan:

*Enib kelding ekishdan,
To ‘rt oyog ‘ing kumishdan.*

Yoki

*Tarlon tayog ‘im hayda,
Temir tuyog ‘im hayda.
Ishni tamom qilmasang,
Jonimga orom qayda.*

Qo‘sh ishlarini yakunlab yerga baraka urug‘lari qadalgach, bu orada bahor ham ancha amalga kirib, gul-u lolalar ochilib Navro‘z bayrami, Lola sayli, Gul bayramlariga ulanib ketadi. Lola sayli va Qizil gul bayramlarida aytiluvchi qo‘shiqlarni ham, ko‘klam paytidagi sog‘in qo‘shiqlarini ham keng ma’noda Navro‘z qo‘shiqlari turkumiga kiritish mumkin. Chunki bu qo‘shiqlarning barchasi bahor qo‘shiqlari hisoblanadi. Xuddi shu kabi chorvachilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar va hunarmandchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlarni ham ko‘rib chiqish mumkin.

Mehnat qo‘shiqlaridagi ba’zi irimlarning poetik ifodasi jonivorlarga ongli mavjudot sifatida murojaat qilish, mayda, Odam Ota, Xo‘jayi Xizir, Bobo Dehqon, Zangi ota kabi obrazlarning qayta-qayta tilga olinishi, o‘tmishda magik qudratli deb tushunilgan naqarotlarning juft-juft takrorlanishlari ham ularning tarixiy asoslari qadimiyl davrlar, hosildorlik kultlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bora-bora bu obrazlar kishilarining to‘kin turmush, baxtli sevgi va serfarzand oila istaklarini badiiy ifodalashga xizmat qilgan. Shuningdek, mehnat qo‘shiqlaridagi o‘simgiklarning jonli deb tasavvur qilinishi faqat ongli ko‘chimlar natijasi bo‘lmay, qadimgi animistik tasavvurlar rudimentlari hamdir.

3. Termalar va ularning o‘ziga xos xususiyati. Xalq og‘zaki ijodida qo‘sishq va doston o‘rtasida vujudga kelgan bir janr bor. Unda qo‘sishqdagi lirik ifoda, ayni paytda epik bayon qilish xususiyati uyg‘un namoyon bo‘ladi. Bunday asarlarga xalq terma deb nom bergan. So‘zning lug‘aviy ma’nosini ko‘pdan terib olingan, ajratib saralangan tushunchalarini beradi. O‘zbek folklorining yirik tadqiqotchisi, filologiya fanlari doktori, professor To‘ra Mirzayev termalar janriga shunday ta’rif beradi: «Pand-nasihat, odob-axloq, soz va so‘z haqida yaratilgan, ijtimoiy hayotdagi turli hodisalar, shaxs va jonivorlarning ta’rifi va tanqidiga bag‘ishlangan, baxshilar tomonidan kuylanadigan 10-12 satrdan 150-200, ba’zan undan ham ortiq misralargacha bo‘lgan lirik, liro-epik she’rlarga terma deyiladi»¹.

Ta’rifda diqqatni jalb qiluvchi bir nechta fikriy nuqtalar bor. Avvalo, termalar mavzu jihatdan, ko‘pincha, pedagogik ahamiyatni nazarda tutgan hayotiy lavhalar bayonidan iborat bo‘ladi. Ikkinchidan, ularda yozma mumtoz adabiyotdagi qasida vazifasi bajariladi. Ya’ni ayrim shaxslar, do‘mbira, ot yoki yana nimalargadir she’r-maqtovlar bag‘ishlanadi. Uchinchidan, termalar lirik parchalardan tashkil topishi mumkin. Demak, bunday termalarda ijrochining bosh maqsadi his, tuyg‘u, ichki kechinmalar ifodasiga qaratiladi. To‘rtinchidan, liro-epik she’rlardan iborat bo‘lganda, voqealar bayoni his-tuyg‘u vositasida aks etadi. Va, nihoyat, hajmi 10-12 va 150-200 misra atrofida, ya’ni ijrochi baxshining xohishi bilan belgilanadi.

Filologiya fanlari doktori, professor Abiyr Musaqllov esa xalq termalarining estetik ahamiyatiga diqqat qilib shunday deydi: «Termalar o‘zbek folklori estetikasini o‘rganish uchun g‘oyat muhim manbadir. Go‘zallik va xunuklik, baxt va

¹ Mirzayev T. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: O‘qituvchi, 1990. – B. 169.

baxtsizlik haqidagi termalar fikrimizga dalil bo'la oladi». Mazkurmulohaza muallifi termalarning xalq ommasi orasidagi haqiqiy insoniy fazilatlarni targ'ib qilish quroli ekanini alohida ta'kidlamoqda. So'z san'atining bosh vazifasi ham aynan insonga go'zallik va xunuklik vositasida uning qalbiga yo'l topish orqali ruhiy ta'sir o'tkazishdir. Termalarning janr xususiyatlari ana shu tushunchalar orqali namoyon bo'ladi.

Professor Hodi Zarifov bergen ma'lumotlarga qaraganda, Jumanbulbul o'g'li Ergashni maktabdor O'tamurodning qizi Ziynatoyga uylantirganlar. Ammo baxshi yashaydigan hudud an'anasisiga ko'ra kelin to'ydan keyinoq kuyovnikiga kelmas ekan. Uning kuyovnikiga kelishi uchun yana bir to'y o'tkazish odati bor ekan. Afsuski, birinchi to'ydan keyin Jumanbulbul vafot etadi. Ergashning esa keyingi to'yga mablag'i bo'lmaydi. Otasidan qolgan arzimas bor-yo'q narsalarni qarz evaziga olib ketishadi:

*Bo 'lib-bo 'lib olib ketdi haqini,
Biz bilmaymiz haqi bor yo yo 'g'ini,
Zoti yo olismi, bizga yaqini,
Bariga haq berib turgan kunlarim.*

Ergash hayotida juda murakkab tanqis holat ro'y beradi:

*Xotin qoldi otasining uyida,
Men bilmayman ne gaplar bor o'yida,
Ko 'p va'dalar bo'lgan edi to'yida
Uyalib, borolmay yurgan kunlarim.*

Shunday qilib, vaqtida jonkuyar insonlar harakati bilan yozib olingan termalar yordamida baxshi hayotidagi o'ta sirli va betakror hodisalar haqida ma'lumot olamiz.

¹ Musaqulov A. O'zbek folklori ocherklari. I tom. – T.: Fan, 1988. – B. 269.

Mashhur baxshilar yurtda sodir bo‘layotgan adolatsizliklarga beparvo qarab turolmaganlar. Ayrim termalar matnida O‘zbekiston hududidagi tarixiy voqealar ham aks etgan. Xususan, Hodi Zarifov qayd qilishicha, 1898–1908-yillarda O‘rta Osiyoni chigirtka bosgan ekan. O‘tgan asrda qariyalarning xotirasiga qaraganda, ayrim hududlardagi chigirtkani kuraklarda qopga solib ulgurishmagan ekan. Ana endi ofatni ekin maydonlarida tasavvur qiling. 1908-yilda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li «Chigirtka» nomi bilan terma yaratadi:

*Bozorchidan shayton qaytib,
Biriga uch baho aytib,
O‘ttiz olib, to ‘qson sotib,
Davlatmandlar qabon bo ‘ldi.*

*Kambag‘alning aqli shoshib,
O‘g‘il-qizman kengashib,
Kecha-kunduz zor yig ‘lashib,
Do ‘stlar qaddi kamon bo ‘ldi.*

Bu qo‘sinq-termada yurtimiz boshidan kechgan musibatli kunlar badiiy aksini topgan.

Baxshilar tomonidan kuylab kelingan «Do‘mbiram», «Kunlarim», «Nima aytay?», «Go‘ro‘g‘li», «Bormi jahonda?...» kabi termalarning hammasida ham ma’lum darajada real tarixiy voqealar, xalqning kechinmalari ifodalangan. Ularni yaratishda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Islom shoir, Umir Safarov, Bola baxshi (Qurbanazar Abdullayev), Rahmatilla Yusuf o‘g‘li, Qodir baxshi, Qahhor baxshi ijodi muhim ahamiyatga ega.

Professional ijodkorlik xalqimiz dunyoqarashida Xudo bergen salohiyat hisoblanadi. Shu sababli baxshi-shoirlarning ijodi haqida ko‘plab rivoyatlar, u bilan bog‘liq irim va marosimlar borki, ular an’anada ijodkorlikning ruhlar dunyosi bilan bog‘liqligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Xalq baxshilarining repertuari, asosan, termalar va dostonlardan tashkil topgan. Shu sababli xalq termalarini epik poeziya bilan lirik poeziya o‘rtasidagi bir bosqich deyish mumkin. Folklorshunos B.Sarimsoqov o‘zbek xalq termalarini og‘zaki ijodning epik turiga kiritadi.

Bizning kuzatishlarimiz termalarning katta qismida lirizm yetakchiliginini ko‘rsatadi. Shunga asosan lirik xarakterdagi termalarni xalq lirkasi tarkibiga kiritamiz.

Shunday qilib, termalarni xalqimiz og‘zaki ijodidagi mustaqil janr sifatida baholash mumkin. Ular xalq hayotining badiiy ifodasi sanaladi. Termalarning xalq dostonlari va haqqoniy hayot o‘rtasidagi aloqa bog‘lovchi vositachilik ahamiyati g‘oyatda muhimdir.

Savol va topshiriqlar:

1. Qo‘sish va lirika atamalarining mazmun-mohiyatini yoritib bering.
2. Xalq qo‘sishlarining tasnifi qanday asoslanadi?
3. Mehnat qo‘sishlari, ularning turlari haqida gapiring.
4. Terma haqida nimalar bilasiz? Misollar yordamida tushuntiring.
5. Ergash shoirning “Kunlarim” termasini tahlil qilib bering.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat. 2008. –176 b.

2. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T., «Musiqa», 2010. 368 b.
3. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: «Mumtoz so'z», 2010.
4. Madayev O., Sobitova T. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T., 2005.
5. Жирмунский В. М., Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. М., с. 303.
6. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – T., 2009 yil.
7. Metin Ekiçi. Türk dünyasında Köroğlu. – Ankara: Akçağ, 2004;
8. Mirzayev T. Doston. O'zbek folklorining epik janrlari. - T.: Fan, 1981.
9. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi.–Toshkent: Fan, 1995. –168 b.
10. Saidov M.S. O'zbek xalq dostonchiligidida badiiy mahorat masalalari. – Toshkent, 1969.
11. Cejidov M. Azerbajchan xalginin sojkokunu dushunereken – Baki: Jezichi, 1989. – S.320.
12. O'zbek folklorshunosligi masalalari. 1-kitob. – T., 2006.
13. O'zbek folklorshunosligi masalalari. 2-kitob. – T., 2010.
14. O'zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. – T., 2010.
15. Turdimov Sh. «Go'ro'g'li» dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlar. – Toshkent: Fan, 2011.
16. Turdimov Sh. Etnos va epos. –Toshkent: O'zbekiston, 2012. –112 b.
17. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. – Toshkent: Fan, 2006. –120 b.

18. Ro‘zi baxshi Qulto‘ra o‘g‘li Qo‘ng‘irot dostoni va termalar. – Toshkent: Sano-standart, 2017.
19. Fuzuli Bayat. Körögöl destani. İstanbul: Ötüken, 2009;
20. Introduction to Folklore. London, 2008. Page7

10- MAVZU. BOLALAR FOLKLORI VA ULARNING TALQINLARI, BADIY XUSUSIYATLARI

Reja:

- 1. Bolalar folklorining o‘ziga xos xususiyatlari.*
- 2. Bolalar qo‘shiqlari.*
- 3. Alla qo‘shiqlari badiiyati.*

O‘zbek bolalari o‘zlarining xilma-xil o‘yinlari va rang-barang janrdagi qo‘shiq repertuarlarini yaratganlarki, ularda bolalikning qalb tebranishlari, qiziqish va ehtiroslari, voqelikka munosabatidagi o‘ziga xosliklari, psixologiyasi balqib turadi. Bolalar shular bilangina cheklanmaganlar; ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot taqozosi bilan kattalar repertuariga daxldor ayrim folklor hodisalarini o‘zlashtirib – «o‘zlariniki» qilib borganlar. Bugungi kunda topishmoqlar, tez aytishlar va qo‘g‘irchoq teatrining tom ma’noda bolalarmiki bo‘lib qolgani hech kimda shubha uyg‘otmaydi. Ana shu taxlitda o‘yinlar, qo‘shiqlar, og‘zaki nasr, muqallid yoki og‘zaki teatr tarzida tarmoqlangan va o‘zaro chambarchas bog‘lanib, bir butunlik holatiga kirgan o‘zbek bolalar folklori shakllanib ulgurgan.

1. Qo‘shiqlar. Bolalar ijodkorligi va ijrochiligida salmoqli mavqega ega bo‘lgan qo‘shiqlar tabiatiga ko‘ra lirik va hajviy mohiyatga molikligi bilan ajralib turadi:

a) onalar allalaridan ritmik uquvi shakllana boshlagan kichkintoylarda 2–5 yasharliklaridayoq o‘z xatti-harakatlari va o‘yinlarini ritmik jihatdan baholash va boshqarish mayli tug‘iladi. Bu shunchaki baholash va boshqarishgina bo‘lmay, ularning o‘sha xatti-harakatlari, o‘yinlaridagi hayotiy mazmunni ritmga solishdan iborat poetik ko‘tarinkilik hisoblanadi. Shu sababli ular shovqin solib aytildi va aksar holatlarda ikki satrdan oshmaydi. Tovushlar shovqinining

ritmik garmoniyasi hosilasi sifatida to'qilgan bunday *qiqillamalar* bolalar ijrochiligidagi ilk poetik akt hisoblanishi bilan qimmatlidir.

Turli yoshdagagi bolalarning voqelikka poetik munosabatlari chuqurlashgani sayin ular ijod va ijob etgan qo'shiqlar ham shakl, ham mazmun jihatidan teranlashib, takomillashib boradi. Shu zaylda uchlik, to'rtlik, beshlik, oltilik va sakkizlik shaklidagi qo'shiqlar yuzaga kelgan. Ayniqsa, to'rtlik shakli bolalar repertuarida keng tarqalgan. Shuningdek, kompozitsion jihatdan dialog negizida qurilgan qo'shiqlar ham anchagina. Odadta, ular *aytishuvlar* (aytishmalar) ham deyiladi. Hajman anchayin katta voqeaband qo'shiqlar ham bor. Xullas, lirik qo'shiqlar qanday hajm va shaklda bo'lishidan qat'iy nazar bolalar yoshi va saviyasi darajasida ijtimoiy voqelikka poetik munosabat ifodasi sifatida yaratilganligi bilan xarakterlanadi.

b) bolalar ham hazil-mutoyibaga alohida rag'bat bilan qarashadi. Bir-birlarida tabiiy yoki ma'naviy qusur hamda kamchiliklarni payqashgan zahotiyoy tap tortmasdan, ayashmay, avvaliga nomga qofiyadosh laqab topib, keyinroq – jarayon chuqurlashgani sari shu laqabning ohangdoshligiga omuxta ritmga uyg'unlashgan hazilni chuqurlashtirib mazax qilishadi, tegishadi, hatto ota-onalaridagi nojo'ya xattiharakatlarni ham boplab yuzlariga solishadi.

Bolalar, aql-idroklli to'lisha va teranlasha borgani sayin, ijtimoiy voqelikka ham faolroq munosabatda bo'lishga harakat qiladilar. Shu jarayonda payqagan ijtimoiy illatlarni masxaralash darajasida o'zlarida jur'at sezal boshlaydilar. Ana shunday taassurot zamirida ularning folklor bisotida *hajviy yoki satirik va yumoristik* qo'shiqlar silsilasi yuzaga kelgan.

2. O'yinlar. Bular bolalar faoliyatida alohida rol o'ynaydi va bolalar o'yin folklori sifatida maxsus guruhni tashkil etadi.

Qolaversa, o‘yinlarning o‘zi ham harakat maqsadiga ko‘ra, ikki katta guruhga bo‘linadi:

a) *harakatli o‘yinlar*. Ma’lumki, bolalarning bunday o‘yinlari asosini harakat tashkil etadi. Ammo harakat esa o‘z-o‘zidan voqelikka aylanmaydi, uning yuzaga kelishida taqlid, narsa (predmet) va poetik so‘z vosita vazifasini o‘taydi. Shu xususiyatiga ko‘ra harakatli o‘yinlarning uch ichki tipini ajratish mumkin:

- taqlid negizida qurilgan harakatli o‘yinlar;
- narsa yoki o‘yinchoqlar harakatni boshqaradigan o‘yinlar;
- poetik so‘z harakatni boshqaradigan o‘yinlar.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, bolalar ijrochiligidagi o‘yinlar qo‘shiqlar bilan ziynatlangani tufayli favqulodda estetik mohiyat kasb etgan. Zero, qo‘shiq harakatdan iborat o‘yinlarning ajralmas uzviy qismi sifatida ularning mazmundorligini to‘ldirishga xizmat qilgan, aniqrog‘i, qo‘shiq bolalarni o‘yinga chorlaydi yo ular o‘yiniga muqaddima bo‘ladi yo o‘yin uchun shart vazifasini o‘taydi. Bunday vaziyatda u o‘yining debochasini tashkil qiladi yo o‘yindagi harakatning yo‘nalishini belgilab, dramatik holatni yuzaga keltiradi yo o‘yinga yakun yasab, ishtirokchilarni tarqalishga da’vat etadi. Bunday qo‘shiqlar o‘yining tarkibiy qismi sanaladi. Chunki ularda butun o‘yin jarayoni zuhur topmaydi. Chorlamalar, cheklashmachoqlar, sanamalar, shuningdek, o‘yindagi harakatni boshqaruvchi badihalar va tarqalmachoqlar shunday xarakterga ega;

b) *ma’naviy yoki so‘z o‘yinlari*. Bolalar so‘z bilan o‘ynab, ma’naviy kamolot pillapoyalaridan ildamlaydi. Bola o‘z kamolotining ilk bosqichida so‘z ma’nosini anglashdan yiroq turadi. Biroq so‘zning sehrli olamiga u bilan o‘ynab turib kira boradi. Onalar allalarining nazokatli ohangi bilan

tanglayi ko'tarilgan bolakay endi tovushlarning mo'jizakor ohanglaridan huzurlana boshlaydi. Eng muhimi, shunday huzurlanish zavqini o'zi uchun o'zi kashf etishga intilib, asta-sekin so'zlar hosilasidan tug'ilgan ritmlarning harakatga yoki fikrga uyg'un tarovatidan ma'no uqishga mayli kuchaya boradi. Kattalar bolalardagi bu ma'naviy ehtiyojni qondirishni ko'zlab, qachonlardir topishmoq, tez aytish singari so'z o'yinlarini o'ylab topganlar. Bolalarga bular g'oyat maqbul tushdi va ularni chinakamiga o'zlashtirib, hatto «o'zlariniki» qilib oldilar. Ayni choqda o'zlar ham guldur-guplarni, bir-birlarini so'zda chandishni chinakam ma'naviy o'yin darajasiga ko'tardilar, shuningdek, so'zlarni sindirib ma'no uqish mashqlaridan iborat sirli yashirin tilning xilma-xil ko'rinishlarini o'ylab topdilar.

Allalar beshik qo'shiqlarining keng tarqalgan an'anaviy janri hisoblanadi. Jahonda biror xalq, millat yoki elat yo'qliki, ularning o'z allasi bo'lmasa... Ruslarda «bayki» yoxud «bayushki»¹ deb yuritiluvchi bunday qo'shiqlar turkmanlarda «huvdilar»², tatarlarda «alli-balli»³, qoraqalpoqlarda «heyya-heyya»⁴, turklarda «nini-nini»⁵, forslarda «lo-lo», inglizlarda «cradlesong lullaby», nemislarda «wiegeliege», fransuzlarda «berceuse»⁶, o'zbek va tojiklarda «alla» va «allo» atamalari bilan mashhurdir. Binobarin, alla – jahon onalarining mehrga yo'g'rilgan bir qadar farahbaxsh, ammo o'rni bilan esa bir qadar ma'yus, muqaddas qo'shig'idir.

«Allalar, odatda, bolalarning emizikli davridan to uch yoshni to'ldirguniga qadar aytildi. Ularning ana shu

¹ Даль В. Толковый словарь живого великорусского языка. Т. I. М., 1955, – С. 57.

² Хапыз ага. Ашгабат, 1975, 21-бет.

³ Татар халкының балалар фольклоры, 41-бет.

⁴ Карапаллак халқ қосыклары. Нокыс, 1965, 21-бет.

⁵ Çocuk Edebiyatı Antologiyası. Anqara, 1957, 3-бет.

⁶ Капица. О.И. Детский фольклор. –С. 34.

yosh bilan bog‘lanishi qat’iy bo‘lib, bu xususiyat faqat beshik qo‘shiqlarigagina xosdir. Shu sababli allalarni ona suti bilan bog‘lashlari bejiz emas. Ha, allada ona sutining tiniqligi, pokizaligi bor. Uning mo‘tabarligi shundan. Bunga chaqaloqning ma’sumligi, pokligi, begunohligi, bezavolligi, musaffoligi va norastaligi qo‘silib, allalar yana bir qadar muqaddaslashtirilgan. Natijada allalar bora-bora «Haq qo‘shig‘i» sifatida ilohiyashtirilgan:

1. Ayollar allalari. Bular asosiy ko‘pchilikni tashkil etadi va janr tabiatini tahlil qilishga oid barcha namunalar shu tipga mansub.

2. Erkaklar allalari. Bular huyalar deb yuritiladi. Bu haqda dastlab G‘ozzi Olim Yunusov 1926-yilda «Maorif va o‘qitg‘uvchi» jurnalining 4-sonida bosilgan «Allalar haqida so‘z» maqolasida eslatgan edi. Hodi Zarif esa, G‘.O.Yunusovning o‘sha davrlardayoq huyalarning bir necha yaxshi namunalarini yozib olganligi haqida guvohlik bersa-da, bu matnlar taqdiri hanuzgacha noma'lumligicha qolib kelayotir. Oqibatda bugunga qadar huyalarning allalardan farqli xususiyatlarini muayyanlashtirish e’tibordan chetda qolayotir. Buning yana boshqa bir sababi shundaki, allalar Xorazmda «hey», qoraqalpoqlarda «heyya-heyya» va turkmanlarda «huvdi» tarzida atalganidan istilohlar o‘xhashligi yuzaga kelganligi tufayli folklorshunoslikda o‘zbeklardagi allalarga iqrorlik va huyalarga ishtiboh bilan qarash oyinga aylangan.

Holbuki, allalar ham, huyalar ham o‘zbeklar orasida qadimdan kuylanib keladi. Endilikda motam allalari silsilasida ayollar ijrochiligida kuylanadigan huyalar borligi aniqlandi. Rost, huyalarni, asosan, otalar va bobolar kuylaydilar. Ular chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi o‘zbeklar orasida keng tarqalgan. Buni ularning mazmuni ham tasdiqlaydi:

Huya, bolam, huyang qani?
Buvang bergan tuyang qani,
Buvang bergan tuyang bo'lsa,
Boqib yurganlaring qani?
Boqib yurgan tuyang bo'lsa,
Adiring-cho'llaring qani?
Huya, bolam, huya!

Chindan-da, ayollar uy-ro'zg'or yumushlari bilan band bo'lgan paytda chaqalojni ovutish, uxlatish erkaklar zimmasiga tushgan. Shunday kezlarda ular bolani tizzalariga olib, tebratish marosimiga mos ohangda huya kuylab, bolaga uyqu chorlaganlar¹.

Allalar poetik pafosiga ko'ra, lirik va humoristik ruhda bo'ladi. Lirik allalar asosiy ko'pchilikni tashkil etadi. Ular mavzu-motiv mohiyatiga ko'ra avaylovchi, maishiy va tarixiy yo'nalishga ega. Ularning marosimiga aloqador namunalari ham mavjud. Asosan, motam allalari deb yuritiluvchi bu turkumning o'lim allalari – marhum tilidan aytildigan allalar, chaqaloq o'lganda sadr tushib aytildigan allalar singari yig'i tiplari va yo'qlov allalaridan iborat ichki xillari aniqlangan².

Avaylovchi allalar ancha keng tarqalgan bo'lib, asosan, bolalarni erkalash, ularni o'rabi olgan muhit bilan tanishtirish, faqat o'zlarigagina bog'liq bo'lgan narsalarni poetik ta'riflay turib, bola taqdirini orzular silsilasida ko'rish motivlariga limmo-lim. Bu jihatdan, ayniqsa, bola beshigining poetik ta'rifiga alohida e'tibor berilganini qayd etish lozim. Axir beshik-go'dakning uyi-da, u shu beshikdagina orom olishi,

¹ Bu xususda batafsilroq qarang: Safarov O. Huyalar-otalar allasi // «Maktabgacha tarbiya» jurnali, 1994, 5-6-sonlar, 20-bet. Maqolada huyalar namunalari ham ilova qilingan.

² Safarov O., O'rayeva D., Narzullayeva D. Motam allalari haqida mulohazalar. // O'TA, 5-son, 30-34-betlar. Yana: O'rayeva D. O'zbek motam marosimi folklori. Toshkent: «Fan», 2004, 36-44-betlar. Yana: Bo'zlardan uchgan g'azal-ay. Buxoro, 2004, 98-110-betlar.

shunday paytlarda esa, ona o‘z yumushlarini amalga oshirishi mumkin.

O‘zbeklar qadim zamonlardan beri beshikning qanaqa materialdan yasalishiga, pardoziga alohida e’tibor bergenlar; o‘tmishda uni, asosan, tut, o‘rik va yong‘oq kabi mevali daraxtlardan yasaganlar. Beshikning mevali daraxt tanasidan yasalishiga insonning sermeva ko‘p farzandli bo‘lishiga oid istakni ramzan nazarda tutganlar.

Allaning oti Haqdir,
Haqdan dilaklar^{*1} ko‘pdir,
Yetirsa^{2*} dilagimni, alla,
O‘lsam armonim yo‘qdir.

Qorako ‘llik 75 yashar Zuhra bibi Qilichova o‘z armonlarini allada ana shunday kuylaydi. U bizga ona-yu buvilari ham shunday allani kuylashganini, bu allani aslida buvijonidan o‘rganganini, binobarin, bu yodgor qo‘sinq ekanini alohida ta’kidladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Bolalar folklorining o‘ziga xos xususiyatlarini sanab o‘ting.
2. Bolalar o‘yini va bolalar qo‘sing‘i o‘rtasidagi munosabat haqida aytib bering.
3. Alla janri haqida nimalar bilasiz?
4. Ayollar va erkaklar alla namunalaridan yozib oling va yodlang.

¹ Tilaklar

² Yetkirsma

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T., «Musiqa», 2010. –368 b.
3. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: «Mumtoz so'z», 2010.
4. Madayev O., Sobitova T. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T., 2005.
5. Жирмунский В. М., Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. М., с. 303.
6. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – T., 2009 yil.
7. Metin Ekiçi. Türk dünyasında Köröḡlu. – Ankara: Akçağ, 2004;
8. Mirzayev T. Doston. O'zbek folklorining epik janrlari. - T.: Fan, 1981.
9. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 1995. –168 b.
10. Saidov M.S. O'zbek xalq dostonchiligidida badiiy mahorat masalalari. Toshkent, 1969.
11. Seyidov M. Azerbaychan xalginin sojkokunu dushunereken – Baki: Jezichi, 1989. – S.320.
12. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. –T.:O'qituvchi 1975.
13. Safarov O. O'zbek bolalar poetik folklori.– T.:O'qituvchi, 1985.
14. Boychechak. Qo'shiqlar.–T.:1984.
15. Turdimov Sh. «Go'ro'g'li» dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlar. – Toshkent: Fan, 2011.
16. Turdimov Sh. Etnos va epos. –Toshkent: O'zbekiston, 2012. 112 b.

17. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. – Toshkent: Fan, 2006. 120 b.
18. Eshonqul J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – Toshkent: Fan, 2011.
19. Fuzuli Bayat. Köroğlu destani. İstanbul: Ötüken, 2009;
20. Introduction to Folklore. London, 2008. Page7

11-MAVZU. LIRIK QO'SHIQLAR

Reja:

1. Qo'shiq – lirik janr.
2. Lirik qo'shiqlarining badiiy xususiyatlari.
3. Tarixiy qo'shiqlar.

1. Qo'shiq – lirik janr. Lirik qo'shiqlar, asosan, to'rtliklar sifatida shakllangan bo'lib, ma'lum ohang yo'llari ularni ijro jarayonida so'zlar birlashtirib turadi. Lirik qo'shiqda vazn, ohang, kuylovchi kechinmalarini, o'y-xayollarini, hissiyotlarni ifodalovchi turli badiiy ko'chimlar qo'llanilib, so'z, ohang, kuylovchi va tinglovchida tug'iluvchi xayolot qo'shiqni so'z san'atining mo'jisiga aylantiradi.

Xalq qo'shiqlarining boshqa janrlari kabi lirik qo'shiqlar ham tarixan, magik-ritual ahamiyatga ega bo'lib, maishiy-ethnografik hodisadan badiiy-estetik hodisaga aylanguncha uzoq tadrijiy yo'lni bosib o'tgan. Ammo lirik qo'shiqlarning bu kungi holati hayotda yashayotgan insonning quvonchu g'ami, turmush achchiq-chuchuklarini totib ko'nglidan kechirayotgan ruhiy iztiroblari va hayajonlarining kuylanuvchi in'ikosi deb aytish mumkin .

Lirik qo'shiqlar ham folkloarning barcha janrlariga tegishli bo'lgan og'zakilik, jamoaviylik, an'anaviylik, variantlilik qonuniyatları asosida rivojlanadi, kuyylanadi, keng omma orasiga yoyiladi, avloddan avlodga o'tib an'analashadi. Har qanday iste'dodli qo'shiq – jamoaviy ijod mahsuli. Ammo bu holat el orasida mashhur iste'dodli, professional qo'shiq ijrochilar bo'lganligini, ularning ijro mahorati, iqtidori sabab qo'shiqlar go'zal shaklda bizgacha yetib kelganligini inkor qilmaydi. Xalq qo'shiqchilari qanchalik iste'dodli, badihago'y bo'lmasin, an'ana qonuniyatlariga bo'ysunganlar.

Lirk qo'shiqlarda ustuvor ko'rinish olgan poetik ramzlar tizimi, turli badiiy tasvir vositalarining qo'llanilishi va ular asosida yuzaga chiquvchi vogelik, hatto lirk qahramonning dunyoqarashi, qalb kechinmalari ham an'anaviy xarakterga ega bo'ladi. Masalan, xalq lirikasida qizil sifatlashi hech qachon erlarga nisbatan qo'llanmaydi. Agar qo'llangan bo'lsa, u sun'iy o'zgartirilgan ko'rinishdir.

Lirk qo'shiqlar paydo bo'lishini ayrim mutaxassislar feodalizmgacha bo'lgan davr, ba'zilar feodalizm bilan bog'laydilar. Mustaqil lirk qo'shiqlarning janr sifatidagi paydo bo'lishi, shubhasiz, tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlariga xosdir. Chunki lirika inson o'z shaxsini tanigan, o'zini shaxs sifatida anglagach, o'zini olam ichra yana bir olam deb bilgan va tashqi obyektiv olamga yangicha qaragan sharoitlarda paydo bo'ladi.

Ammo bu ta'rif og'zaki lirikaning paydo bo'lishini to'la ta'riflay olmaydi. Sababi, yuqorida aytilganidek, xalq qo'shig'inining lirk qahramoni umumlashma tipligi, an'anaviy poetik tafakkur mevasi ekanligidadir. Aytaylik, yor-yorlarda kelinchak haqida juda ko'p kuylashadi. Bu maqtovlar, tilaklar ayni paytdagi kelinchakka ham, uning bir paytlar kelin bo'lgan buvisiga ham, kelajakda kelin bo'ladigan nevarasiga ham taalluqlidir.

Shubhasiz, xalq lirk qo'shig'i nisbatan keyin paydo bo'lgan janr hisoblanadi, ammo unda uzoq o'tmishning izlari mavjudligini, lirk obrazlar qayta-qayta mushohada qilinganligini, hozir ham ma'lum darajada mifologik tafakkur bilan bog'liqligini inkor etmaydi. Xalq lirikasining qadim tasavvurlar, marosimlar bilan bog'liqligi uning juda qadimiyligini ko'rsatadi.

Mavzu ko'لامи bevosa ташқару мөхаббат кечинмалари
bo'lgan lirk qo'shiqlar an'anaviy qo'shiq janrlarining boshqa

ko‘rinishlaridan farqli ravishda xalq turmushining barcha sohalarida erkin kuylanadigan, o‘yin, biron marosim bilan bog‘liq bo‘limgan namunalarni qamrab oladi. Ayni paytda hajviy yo‘nalishdagi qo‘shiqlar ham ushbu janr tarkibiga kiradi. Bu janrda sevgi mavzusi va oilaviy munosabatlar, turmush tashvishlari ifodasi birinchi o‘rinda turadi.

Rus folklorshunosi V.P. Anikin nomarosim xalq lirikasining genezisini: a) lirik syujetning shakllanishi; b) xalq qo‘shiqlarida lirik «men»ning paydo bo‘lishi; d) maishiy turmushning poetiklashuvi (poetik mushohada qilinishi) bilan bog‘laydi.

Shu belgilar xalq lirikasining poetik asoslari bo‘lib, ular doimo mavjud bo‘ladi, rudiment holiga tushib qolmaydi. Bu poetik asoslarni esa tarixiy ildizlar paydo qiladi. Xalq lirikasini yashnab turgan gulga o‘xshatsak, poetik asoslar uning bizga ko‘rinib turgan qismi, tarixiy ildizlar esa tomirlarini tashkil etadi va an’ana ularning har ikkisini uyg‘unlashtirib turadi.

Hozirda xalq qo‘shiqlarini tinglaganimizda, odatda, uning tashqi ma’nosini, juda nari borsa, poetik ko‘chimlarga asoslangan mazmunini anglaysiz. Biroq xalq qo‘srig‘ining barcha tashqi va ichki mazmuniy qirralarini izohlash uchun buning o‘zi kifoya qilmaydi. Mashhur xalq qo‘srig‘ini ko‘rib chiqaylik:

*Sunbula-yu sunbula,
O‘rab olay gul bilan.
Mening ko‘nglim sen bilan,
Sen ketasan kim bilan,
Qadamingga gullar sochilsin.*

Qo‘sinqning tashqi – so‘zma-so‘z ma’nosini quyidagicha: Sunbula badiiy obraz – qo‘sish qahramonining poetik jufti, qahramon uni gullarga burkamoqchi, ammo yor ko‘ngli begonada. Shunday bo‘lsa-da, oshiq fidoyilik qilib, yor

qadamiga gullar sochmoqchi yoki shunday bo‘lishini astoydil istaydi.

Bu bandni tarixiy asoslariga ko‘ra, sharhlasak, Sunbula oyning nomi bo‘lib, 22-avgustdan 23-sentabrgacha bo‘lgan muddatni qamrab oladi. Bu ayni pishiqchilik davri, suvlar tinigan, maqolda aytilganidek, «Sunbulaning suvi – sharob» payti bo‘ladi. Demak, qo‘sinqdagisi Sunbula balog‘atga yetgan yor ramzidir. «Sunbula burji suvrati qo‘liga bug‘doy boshog‘ini ushlab turgan qiz shaklidadir», – deydi akademik Alibek Rustamov shu oy haqidagi xalq tasavvurlarini ifodalab.

Qadimiy mifologik tafakkurda inson gulga teng, gul shakliga evrilishi, ya’ni aylanishi mumkin. Ushbu tasavvurga asoslangan poetik tafakkur insonni gulga qiyoslaydi,

o‘xshatadi. Mifo-poetik tafakkurga ko‘ra, qo‘sinqdagisi gul bilan o‘rab olish lirik qahramonning o‘z yorini quchish istagini ifodalaydi. Yor qadamiga gullar sochish ham mifologik inonch, iz magiyasiga ko‘ra yorning poyiga bosh qo‘yish bilan teng. Lirik qahramon yor uni sevmasa ham, uning yo‘llariga gullar

sochilishini, unga ko‘plab qizlar maftun bo‘lishini istaydi. Qadimiy inonchlarga ko‘ra, insonning izi ham uning o‘rnini bosishi mumkin. Shu bois hozirgacha «Bosgan izlaringdan o‘rgilay!» yoki «Qadamingizga hasanot!» deyish insonning o‘zidan o‘rgilish va insonning tashrifini ulug‘lashga tengdir.

Buning aksicha «Qadaming qursin!», «Izing o‘chsin!», – deyish insonga ajal tilashdir. Xalq ongida Sunbula haqidagi tasavvurlar, ijodida maqollar va afsonalar mavjud bo‘lgan va ba’zilari bizgacha yetib kelgan. Xalqimiz ana shulardan kelib chiqib, qayta poetik mushohada qilib, yuqoridagi kabi bandlarni ijod qilgan.

*O‘choq boshida qumg‘on,
Atrofi baland qo‘rg‘on.
Sevganimga yetolmay,*

*Yurak-bag 'rim bo 'ldi qon,
Qadamingda gullar ochilsin...*

*Men bu yerda o 't yoqsam,
Andijonda tutun-ey.
Bu dunyoda bormikan,
Yurak bag 'ri butun-ey.
Bu dunyoda bor bo 'lsa,
Yurak-bag 'ri butun-ey.
Qog 'ozdan qozon yasay,
Guldan qilay o 'tin-ey...*

Ma'lum bo'lmoqdaki, lirik qo'shiqlarda keluvchi obrazlar tizimi inson kechinmalari xalqning ko'p asrlik tasavvurlari, mifologik qarashlari, odat va udumlariga chambarchas bog'liq ravishda o'ta poetik ko'rinishlarda ifodalanadi.

Endi quyidagi to'rtlikka e'tibor bering:
Oq ilon, oppoq ilon,
Oydinda yotganing qani?
Men – yomondan ayrilib,
Yaxshini topganing qani?

Qadim ajdodlarimizda oydinda yotgan oq ilonni ko'rgan odam baxtli bo'ladi, degan ishonch bo'lgan. Biroq bu deyarli sodir bo'lishi mumkin bo'lmanagan vaziyat. Oshiq to'lin oy kechasida (oydinda) oppoq ilonni yotganini ko'rish mumkin bo'lmanidek, sen ham mendan voz kechib baxtli bo'lomaysan, demoqda go'yo.

2. Lirik qo'shiqlarining badiiy xususiyatlari. Lirik qo'shiq hajmining kichikligi matndagi har bir so'z zimmasiga boshqa janrlarga nisbatan ortiqroq badiiy «yuk» beradi. Poetik

san'atlar orasida ramz birgina so'z orqali keng mazmun ifodalash imkoniyatiga ega. Bu esa aynan qo'shiq janrining talablariga mos keladi. Lirik qo'shiqlarda ramzning boshqa poetik san'atlarga nisbatan keng qo'llanilishini shu sabab bilan ham izohlash mumkin.

Poetik ramz qo'shiqlardagi mavhum tushunchalarni, anglatish qiyin bo'lgan nozik tuyg'ularni, turli ruhiy holatlarni bir yoki bir necha so'z orqali ifodalash imkoniyatini beradi. Qo'shiqning ohangdorligini ta'minlaydi, badiiy qimmatini oshiradi.

Lirik qo'shiqlarda qo'llaniluvchi poetik ramzning ikki muhim tipini ajratib ko'rsatish mumkin: 1. *O'zak ramzlar*. 2. *Vaziyat ramzlar*.

O'zak ramzlar. Ramziy obrazlarning bu ikki tipini qarama-qarshi qutblar sifatida qaramaslik lozim. Ular qo'shiqning jonli ijro jarayoni davomida bir-birini to'ldiradi, biri ikkinchisi bilan chambarchas bog'liq yuradi.

Ramziy obrazning barcha qo'shiqlar uchun umumiy bo'lgan an'anaviy tub poetik ma'noli shakli o'zak ramz hisoblanadi. «O'zak» atamasi tilshunoslikdan olingan. Ma'lumki, aglyutinativ tillar (jumladan, o'zbek tili)da so'z asosini o'zak tashkil etadi. O'zakka turli so'z yasovchi qo'shimchalar birikib yangi ma'noli so'zlar hosil bo'ladi. Sintaktik munosabatni bildiruvchi qo'shimchalar esa so'zlarni bir-biriga bog'lovchi vosita vazifasini bajaradi. Tildagi o'zak so'z kabi o'zak ramz ham muayyan matnda turli sifat, belgilari bilan kelib o'z poetik ma'nosini u yoki bu bu tarzda kengaytiradi, oydinlashtiradi. Masalan: ro'mol obrazining barcha qo'shiqlar uchun tub ramziy ma'nosini «oila». Ammo ro'mol u yoki bu qo'shiq tarkibida turli sifat, holatlarda tasvirlanadi. Misol uchun ushbu to'rtlikni olib ko'raylik:

Ro‘molini yuvdirdim, omon yor,
Qora tolga ildirdim, omon yor.
Qora toli qurisin, omon yor,
Qaroqchiga oldirdim, omon yor.

Qo‘sishiq tarkibida o‘zak ramzlar: «ro‘mol» – oila, «tol» – oshiq yigit tub ramziy ma’noga ega. «Ro‘molimni yuvdirdim» misrasida «yuvdirdim», «qora tolga ildirdim» misrasidagi «ildirdim» o‘zak ramz «qo‘sishimcha»lari hisoblanib, bu so‘zlar ramziy obrazning ushbu qo‘sishqdagi badiiy mazmunini yanada aniqlashuviga yordam bermoqda. Matnda «qo‘sishimcha»lar o‘zak ramz ma’nosini bilan bog‘liq ramziy mazmun olmoqda. Ya’ni: «yuvilgan ro‘mol tolga ilindi», lirik qahramon – ma’shuqa «oshiq yigitga ishonib, unga o‘z qalbini bag‘ishladi. Shirin oila, baxtli turmush quramiz, deb o‘yladi. Lekin ma’shuq bevafolik qildi. Ma’shuqa: «Qora toli qurisin, qaroqchiga oldirdim» deb «ro‘molidan» – «oila haqidagi shirin orzu-istiklaridan ayrilganligini» kuylamoqda. Qo‘sishqda «ro‘mol» tub o‘zak ma’nosini «qo‘sishimcha»lar yordamida kengaytirib, «oila haqidagi o‘y, sevgi» poetik ma’noga ega bo‘lmoqda. «Tol» an’anaviy «oshiq» ma’nosida kelmoqda.

O‘zak ramz lirik qo‘sishqlarda qo‘llaniluvchi asosiy ramz bo‘lib, uning yetakchi xossalari sifatida quyidagilarni sanash mumkin: a) o‘zak ramz asrlar davomida shakllanib, tarixan xalqning qadimiy mif, turli e’tiqodiy dunyoqarashlariga borib bog‘lanadi. Chunki «Har qanday mif ramz, lekin hamma ramzlar mif emas» (A.F.Losev); b) o‘zak ramz barqaror shakl va mazmunga ega; d) o‘zak ramz poetik ma’nosini obraz ichida yashirin keladi. Muayyan matnda bu yashirin poetik ma’no xalqning ushbu obraz haqidagi tasavvur, tushunchalari asosida anglashiladi; e) ramz obrazning poetik va lug‘aviy ma’nosini o‘rtasida bilvosita bog‘lanish mavjud. Obraz bilan

bog‘liq tasavvurlar unutilsa ramziy ma’no anglanmay qoladi; f) o‘zak ramzning tub ma’nosи muayyan matnda ramziy «qo‘sishimcha»lar vositasida o‘z ma’no ko‘laminи u yoki bu darajada kengaytiradi. Ba’zi holatlarda o‘zak ma’noga bevosita bog‘liq yangi poetik ma’no hosil bo‘lishi mumkin.

O‘zbek xalq lirik qo‘sishimchalarida ayni xususiyatlarga ega o‘zak ramzlar, asosan, uch xil shaklda uchraydi: 1. *Sof leksik birlik shaklidagi o‘zak ramzlar*. 2. *Birikma ko‘rinishidagi o‘zak ramzlar*. 3. *Gap tuzilishidagi o‘zak ramzlar*.

Sof leksik birlik shaklidagi o‘zak ramzlar birgina so‘zdan iborat bo‘lib, boshqa tur ramzlarga nisbatan keng qo‘llaniladi. Bu tur o‘zak ramzlarga ro‘mol, tog‘, tol, tom, suv, daryo, g‘oz, o‘rdak, qarg‘a, turna, olma, bozor, xol, tamaki, ilon, soch, oq, qizil, qora, sariq va boshqa obrazlar kiradi.

Birikma ko‘rinishidagi o‘zak ramzlar, asosan, ikki so‘zdan tashkil topgan bo‘lib, ko‘pchilik holatlarda sofleksik birlik sifatida keluvchi ikki mustaqil ramz birikib yaxlit o‘zak ramz shaklida keladi; qizil gul, qizil olma, oq olma, oq ilon, qora tol, qora soch kabilar. Bu xil ko‘rinishdagi ramzlarda poetik ma’no har ikkala ramz ma’nolarining yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Masalan:

*Oq olma, qizil olma pishmas ekan,
Ikki yaxshi bir yerga tushmas ekan.
Ikki yaxshi bir yerga tushganida,
Umrining o‘tganini bilmas ekan.*

Bu to‘rtlikda kelayotgan «oq olma», «qizil olma» ramziy birikmalarni tashkil etuvchi oq, qizil, olma obrazlarining har biri mustaqil o‘zak ramz. Oqning birlamchi o‘zak ma’nosи er kishi, yigit. Qizil «ayol, qiz» ramziy ma’noga ega. «Olma» ramzi bu o‘rinda «sevgi, muhabbat» ma’nosida kelgan. Biz ana shu asosda oq olmani yigit, qizil olmani qiz sevgisi ma’noda kelayotganligini anglaymiz. Qo‘sishqda bir-biriga

munosib, yigit va qiz sevgisi, hamma vaqt ham murodiga yeta olmas ekan. Agar ular qovushsa, armonlari qolmay, baxtli yashashar edi, deb kuylanmoqda.

O'zak ramzning gap tuzilishidagi ko'rinishi ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topib, asosan, qo'shiqlarning dastlabki misralarida namoyon bo'ladi. Bu ko'rinishdagi ramzlarga «choponimning yengi tor», «beqasam to'n qildim, bir yengini tor qildim», «hovuz bo'yini o'ydin», «Ariq bo'yini o'ydin», «muzni teshdim, suvni ichdim, loy ekonin bilmadim», «Ariq bo'yi loy ekan», «suv bo'yida o'tirib suvni loylatmang, to'ram» kabi misralardagi «tor yeng», «hovuz yoki ariq bo'yining o'yilishi», «suvning loyqalanishi» kabi birikmalarni keltirish mumkin. Masalan, «suvning loyqalanishi» bilan bog'liq to'rtlikni ko'rib chiqaylik:

Muzni teshdim, suvni ichdim, loy ekanin bilmadim,

Ko'pni ko'rdim, birni sevdim, yori borin bilmadim.

Ko'pni ko'rghan birni sevgan kimni olding yoningga,

Biz tag'in bir yor kutib, o'tlar yoqaylik joningga, –

misralarida aytilganidek, «muzni teshdim – ko'pni ko'rdim, suvni ichdim – birni sevdim, loy ekanin bilmadim – yori borin bilmadim» poetik ma'nosiga uyg'un keladi. Demak, suvning loyqalanishi – muhabbatning poymol bo'lishi – xiyonat ekan.

O'zak ramzning gap tuzilishidagi ko'rinishi sof leksik birlik va birikma ko'rinishidagi ramzlarga nisbatan ixcham, barqaror shaklga ega emas. Ularda so'zning poetik va lug'aviy ma'nosи o'rtasidagi bog'liqlik ramziy mazmunni anglashda vosita bo'ladi. Shu jihatи bilan gap tuzilishidagi o'zak ramzlar vaziyat ramzlarga yaqin turadi. Har bir gap tuzilishidagi o'zak ramz tarixiga qaralsa, ularning vaziyat ramzlar asosida o'sib chiqqanligini ko'rishimiz mumkin. Ularni o'zak ramz va vaziyat ramzlarning oralig'idagi o'ziga xos bosqich

ekanligini kuzatish mumkin. Davrlar o'tishi davomida ular sof leksik birlik va birikma ko'rinishidagi ramziy obrazlarga aylanishi mumkin. Sof leksik birlik va birikma shaklidagi o'zak ramzlar tarkibida bevosita tabiiy qiyos asosida paydo bo'lgan ramzlar ana shu taraqqiyot yo'lini bosib o'tishgan.

Vaziyat ramzlar. Lirik qo'shiqlarda inson tabiatning turfa iqlimlari, uning turli tuyg'u, orzu-intilishlari qisqa va sodda shaklda ifodalanadi. Bu ifoda aksariyat holatlarda tabiat lavhalari bilan inson hayotiga bog'liq motivlarning parallel berilishi orqali reallashadi. Inson tabiatdan o'z ruhiyatining ifodasini avloddan avlodga o'tib kelayotgan turli tasavvurtushunchalar kundalik kuzatishlar, tajriba va bilimlar orqali ajratib oladi. Ushbu jarayon insonning ong osti zamiridagi «kulkan bilim» bilan bevosita bog'liq kechadi. Ayni jarayonda insonning tasavvuri, kuzatishi, bilimlarining hosilasi turli narsa va predmetlarni ko'nglining qiyosiy ifodachisiga aylantiradi. Natijada tabiat va qalb hodisalar o'rtaсидаги ichki uyg'unlik asosida yangi ramzlar, obrazlar tug'iladi. Vaziyat ramzlar aynan ushbu uyg'unlikning mahsulidir. Masalan:

O'choq boshida qumg'on,

Atrofi baland qo'rg'on.} A

Yorginamga yetolmay,

Yurak bag'rim bo'ldi qon} B

Qadamizda gullar ochilsin.

Keltirilgan to'rtlikda tabiiy tasvir o'z holicha vaziyat ramzni yuzaga keltirayotgani yo'q: bu tasvir (A) lirik qahramon hayotiga tegishli motiv (B) bilan qiyos qilinmoqda. Natijada tabiat tasviri ramziylik kasb etmoqda. Qo'shiqdagi «qumg'on» va «qo'rg'on» obrazlarini vaziyat ramzga aylantirmoqda. Qumg'onning qoraligi, olovda kuyayotgani, qo'rg'onning baland va chiqib bo'lmasligi zamirida lirik qahramonning hayoti, dardi, orzu-armonlari umumlashmoqda.

Qumg‘on uning yuragi – barbod bo‘lgan sevgisi, amalgam oshmay qolgan umidlari. Qo‘rg‘on uni shu holga solgan, orzu-umidlariga zid bo‘lgan kuchlarning ramziy ifodachisiga aylanmoqda. Bu o‘rinda lirik qahramon hech qanday qo‘rg‘on ichida, o‘choq boshida o‘tirgani yo‘q. U yot kuchlar tazyiqida sevgan kishisidan ayrilganligi, sevganiga yetisholmasligini, sog‘inchini kuylayapti, xolos.

Qo‘shiq inson ruhiyatining oynasi. Oyna sirlari ramziy obrazlar zamirida yashirin keladi. Ramziy obraz zamiridagi yashirin ma’no ilg‘ansagina qo‘shiqda ifodalangan mazmun anglanadi.

Xalq qo‘shiqlaridagi ramzlar ma’nosini bilmaslik ularda ifodalangan asl mazmunga parda tortib, an'anadan uzilgan avlod uchun begona, tushunarsiz hodisaga aylantiradi. Ana shu o‘rinda ilmiy tadqiqot, izoh va talqinlarga ehtiyoj tug‘iladi. Xususan bugungi globallashuv davrida ramzlarni tushunish ehtiyoji dolzarb muammoga aylandi. XX asr mutafakkirlaridan biri E.Fromm keng ma’noda «ramzlar tili» borasida so‘zlar ekan: «Men shuning uchun ham ramzlarni tushunishni maktab va kollejlarda xuddi chet tillarni o‘rgatgandek o‘qitish lozim, deb hisoblayman. Chunki ramzlar insoniyatning ong osti – ko‘ngil tubining mevasi hisoblanadi». Insonning ko‘ngil tubidagi «xazina»sidagi ramz, timsollar jami tiriklik – bir hujayrali mavjudot, nabotot-u hayvonotdan tortib odamzodgacha tabiiy bog‘langan «ulkhan bilim»dan bahra olib ijod qilgan. Folklor, umuman xalq ijodiyotining barcha turlari ana shu «xazina»dan quvvat olib, unadi, o‘sadi. Baxshi-shoir, qo‘shiqchi ilhom onlari «eskilar izidan» borib, ushbu xazina «boyliklari»dan bahra oladi. Bu holat boshqa mavjudodlarning to‘dalashib mavsumiy ko‘chishlarda «to‘da quvvati» bilan instiktiv «ulkhan bilim» – yo‘lchi yulduzga bog‘lanib, kerakli manzillarini adashmay yo‘l topishlariga,

yashashlariga uyg‘un keladi. Olimlar to‘dasidan ajralgan «yolg‘iz» hamisha yo‘ldan adashib, «ulkhan bilim»dan bebahra qolganligini kuzatishgan. Baxshi-shoirlar ham an'anadan chekinib, individual ijodga o‘tsa, o‘zi doston-qo‘shiq ijod qilsa, ko‘pincha «adashib» aro yo‘lda qolib ketishi shundan. Bunga ko‘pchilik baxshi-shoirlarning sho‘ro davridagi mualliflik termalari yorqin misol bo‘lib turibdi. Yoki xalqona yo‘lga taqlidan yozilgan aksariyat asarlarning shaklni olib, qalbsiz qolishi, badiiy sayozligi sababi ham ushbu qonuniyatda izoh topadi. Xuddi shuningdek, xalq ijodiyotida an'anadan uzilgan avlod va shaxs ham xalqona ramz va obrazlarni tushunmay qiynaladi. Shu ma’noda E.Fromm ramzlar tilini maktablarda chet tilini o‘rgatganday o‘qitish kerak, deganda haqlidir.

Ramzlar qo‘shiqlar mazmunini tushunishda bir kalit. Kalit qopqani ochadi. Qopqadan kirish, xazinaga ega bo‘lish, ochguvchiga bog‘liq. Har qanday boylik qadrlansa bahosi bilinadi. Bahosini olgan nimaiki bor, yangidan tug‘ilib, qayta quvvatga kiradi.

Qo‘sqidha lirik qahramon ayriliq, hijron dardida o‘rtanib, yori, ota-onasi, do‘s-t-u birodarlari va yo elidan xabar kutib, baxtiga, sevgisiga g‘ayirlik qilgan bo‘htonlardan kuyinib kuylaganda, uning «xabar» bilan bog‘liq ichki kechinmalari, o‘y-tuyg‘ularini ifodalashda vosita bo‘lgan obrazlar mazmuniga ko‘ra «xabarchi» ramzlar hisoblanadi. Qo‘sqidha xabarchi ramz sifatida qarg‘a, g‘oz, o‘rdak, turna, qaldirg‘och kabi qushlar obrazi keladi. Faqat XX asrda yaratilgan bir qator namunalarda bu vazifani qushga shaklan o‘xhash – samolyot ham bajargan.

Lirik qo‘shiqlar tarkibida ro‘mol – oila; olma – farzand, sevgi; tom – turmush qurish; tol – yigit; tog‘ – suyanchiq; ota-on, yaqin qarindosh, do‘s-t; shaftoli – o‘tkinchi muhabbat; qizil – qiz, ayol; oq – er kishi; qora – motam; sariq – ayriliq, hijron, yasama xol – xiyonat tub ramziy ma’nolariga ega.

3. Tarixiy qo'shiqlar. O'zbek xalq og'zaki ijodidagi tarixiy qo'shiqlar bevosita bugungi kun repertuarida nisbatan kam uchraydigan ijro namunasidir. O'tmishda tarixiy qo'shiqlar ommaviy janr hisoblanganiga shubha yo'q. Bir tomonidan, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otut-turk» asaridagi Alp Er To'nga marsiyalarini ham tarixiy qo'shiqlar sirasiga qo'shish mumkin.

XX asr boshlarida Namoz boshlagan harakatlar xalq tilida doston bo'lgan. Namoz yoki Niyozag bag'ishlab qo'shiqlar vujudga kelgan. Keyinchalik Isfandiyor va uning amaldorlari kirdikorlarini fosh etuvchi to'rtliklar yaratilgan:

*Isfandiyor xon bo 'ldi,
Bag 'rimiz to 'la qon bo 'ldi.
Azroildan kam emas,
Olajagi jon bo 'ldi.*

Bu to'rtliklar xalq ijtimoiy hayotining hamrohi bo'ldi. Tarixiy vaziyatga nisbatan ifodalangan g'azab va xonga nisbatan nafrat zamonga xalq bergen baho darajasida edi. Aniqrog'i, jazolov hukmi bo'lib jarangladi.

Umuman, XX asrning 15-25 – yillari o'rtasida yaratilgan tarixiy qo'shiqlar son jihatdan ko'p, sifat jihatdan mazmunli edi. Ehtimol, bu holat yurtimiz tarixiga oid turli yo'nalishdagi tarixiy voqealarning ko'p ro'y bergeniga bog'liqdir. Isfandiyor, Said Ahmad, Nikolay kabi podshoh va xonlarningadolatsizligi va bosqinchilik urushlariga bo'lgan keskin qoralovchi ayblar mazkur qo'shiqlarning bosh mazmunini tashkil qildi.

Shunday qilib, tarixiy qo'shiqlar bevosita aniq voqeahodisa yoki aniq qahramon ishtirok etgan tarixiy davr haqida yaratilgan asar namunasi hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Xalq lirik qo'shig'inинг belgilari nimalardan iborat?
2. Lirik qo'shiqlarning badiiy xususiyatlarini misollar yordamida tushuntiring.
3. Qo'shiqlardagi ramzlar haqida gapiring.
4. Tarixiy qo'shiqlar haqida ma'lumot bering.
5. Qardosh xalqlar xalq qo'shiqlari namunalarini topib, o'zbek xalq lirik qo'shiqlari bilan qiyoslashga harakat qiling.

Adabiyotlar:

1. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: «Musiqa», 2010
2. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: «Mumtoz so'z», 2010
3. Alaviya M. O'zbek xalq qo'shiqlari. – T., 1959.
4. Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. – T.: Fan, 1974.
5. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. – T.: Fan, 2010.

12- MAVZU. XALQ MAQOLLARI, TOPISHMOQLAR VA CHALDIRMOQ JANRI

Reja:

- 1. Maqol – og‘zaki ijodning eng faol janri.**
- 2. Maqollarda o‘z va ko‘chma ma’no.**
- 3. Topishmoq parimik janr sifatida.**
- 4. Chaldirmoq janrinining o‘ziga xos xususiyatlari.**

1. Maqol – og‘zaki ijodning eng faol janri. Maqol deb xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so‘zlarga aytildi. Maqol o‘zbek tilida maqol, tojiklarda zarbulmasal, ruslarda poslovitsa, arablarda (jonli so‘zlashuvda) naql, turklarda ata so‘zi atamasi bilan yuritiladi. Maqol atamasi arabcha – «qavlun» – «gapirmoq, aytmoq» so‘zidan olingan.

Folklorshunos olimlar maqollar va matallarni o‘rganuvchi sohani paremiologiya deb atashadi. Paremiya – yunoncha chuqur ma’noli gap, hikmatli so‘z, ibora, maqol, matal ma’nosini beradi.

Maqollarning janr xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) maqollarning hajmi qisqa va cheklangan;
- 2) maqollar mazmunan serko‘lam va chuqur ma’noni ifodalaydi;
- 3) xalq maqollari shaklan she’riy va nasriy bo‘ladi; Ammo nasriy maqollar ham she’riy misralarni eslatadi. Masalan: *Ko ‘za kunda emas, kunida sinadi*;
- 4) maqollarda hayotiy voqeа-hodisa haqida qat’iy hukm ifolanadi. Bu hukm musbat yoki manfiy mazmunda aks etadi;
- 5) maqol shaxs hayotidagi xususiy vaziyatni xalq, omma, hayot nuqtai nazardan umumlashtiradi;

6) maqol matni tilshunoslikda shaxsi umumlashgan gap hisoblanadi.

Xalq maqollari tarixi o'nlab asrlar bilan o'lchanadi. O'rxun-Enasoy bitiklarida «Oriq va semiz buqani (birov) tezagidan bilsa, birov oriq va semiz buqani ajrata olmaydi», «Yupqa qalin bo'lsa, tor-mor qiladigan bahodir emish, ingichka yo'g'on bo'lsa, uzadigan bahodir emish» kabi maqolni eslatuvchi parchalarni o'qiymiz.

Maqol—og'zaki ijodning eng faoljanri. Xalq maqollarining mazmun ko'lami inson hayotining turli sohalarini qamraydi. Inson hayotidagi voqeа-hodisalarining cheki yo'q ekan, maqollar mazmuni chegarasini ham o'lchab bo'lmaydi. Maishiy hayotdagi kichik bir e'tiborga arzimaydigandek ko'rinvchi lavhadan tortib chuqur falsafiy mushohada ifodasigacha maqollar mazmunida o'z aksini topgan. Agar «Uyga palos yarashur, xotinga libos» maqoli maishiy hayotga taalluqli bo'lsa, «Yozda miyang qaynasa, qishda qozoning qaynar» maqolida vaqtini bekor o'tkazmaslik, aql bilan ish ko'rish insonga hayot imkonini yaratishi qayd etiladi, «Vaqting ketdi – baxting ketdi» maqolida esa falsafiy mazmun ifodalangan bo'lib, inson taqdirida Vaqt tushunchasining qanchalar muhim ekanligi ta'kidlangan.

Maqollarni tasnif qilishning bir turida mazmun yetakchi hisoblanadi. Unga ko'ra Vatan, mehnat, xalq, ilm-hunar, mardlik, mehmon, tadbirkorlik, muhabbat va vafo, yaxshi so'z – jami 30 ga yaqin mavzular qayd etilgan. Ammo bu mavzularni yana ko'paytirish ham, kamaytirish ham mumkin. Muhimi, mazmun yetakchi bo'lgan tasnifda masalani har tomonlama ifodalashga urinish aniq seziladi.

Xalq og'zaki ijodidagi maqollar janri tarixiy hayot davomida son va mazmun jihatdan boyish xususiyatiga ega. Ya'ni maqollar zamon o'tishi bilan iste'moldan chiqishi va

ayni paytda yangi-yangi namunalarini vujudga kelishi mumkin.

2. Maqollarda o‘z va ko‘chma ma’no. Maqollar o‘z va ko‘chma ma’nolarga ega bo‘lishi bilan yana ham diqqatga sazovordir. «Yomon xotin olguncha, bo‘ydoq yurgan yaxshiroq», «Qizi borning nozi bor», «Quda bo‘lguncha, ko‘p sinash, quda bo‘lgach, ko‘p siylash» kabi maqollar o‘z ma’nosida qo‘llanadi. Ayrim maqollar faqat ko‘chma ma’noda qo‘llanadi. «Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamas», «Egrining omochi yerga botmas», «O‘tin ayirgan bolta maydonda qolar» kabi maqollar bilan tanishganimizda ko‘chma ma’no yashiringanini his qilamiz.

«Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda» maqolini Xorazm viloyatida o‘z ma’nosida qo‘llab bo‘lmaydi. Sababi, Xorazmda «yer osti suvlari yer sathiga yaqin bo‘lgani uchun, kuzda haydalsa, yer qatqaloq bo‘ladi va hosildorlik pasayadi.

Xalq maqollarining badiiy jihatdan mukammalligi taniqli olimlar va shoir, yozuvchilar tomonidan tan olingan. Bu jihatdan maqollar so‘z san’atining oliy namunasi sifatida baholanishga loyiq. Hajm jihatdan kichikligi, mazmunan serma’noli, mavzu jihatdan hayotiyligi maqollarning asrlar davomida og‘izdan og‘izga o‘tib yashashini ta’minlagan omillardir.

Ayni chog‘da badiiy go‘zallikning bevosita so‘z tanlash, tasvir vositalaridan unumli foydalanish jihatlari ham bor. Ularning ayrimlarini esga olib o‘tamiz:

1. Qarshilantirish (tazod).

«Yaxshidan bog‘ qolar, yomondan dog‘».

Bu maqolda «yaxshi», «yomon»; «bog‘», «dog‘» so‘zlari qarama-qarshi ma’nolarni bildiradi va shu bilan birga «bog‘» – «dog‘» so‘zlari chiroyli qofiyani ta’minlaydi.

2. Tovushdoshlik (alliteratsiya, assonans).

«*Boy boyga boqar, suv soyga oqar*».

Maqolda «B», «Y», «R», «S» kabi undosh tovushlar alliteratsiya – undosh tovushlar uyg‘unligini, «O», «A»lar esa assonans – unli tovushlar o‘xshashligini ko‘rsatadi va maqol qimmatini oshiradi.

3. Metafora – ko‘chim (istiora).

«*Otning yag‘iri toyga qolar*».

Bu maqolda «ot» so‘zidan qarindosh-urug‘chilikdagi katta avlod vakilining ramzi sifatida foydalanilgan.

Xalq maqollari shakl va mazmun jihatdan matallarga yaqin janr hisoblanadi. Matallar ham ixcham matnga ega ekanligi bilan maqolga o‘xshaydi. Matal, odatda, notiq nutqi tarkibiy qismini tashkil etadi, ammo mustaqil qo‘llanganda tugal fikr anglatmaydi. Masalan, xalqimizda «Yaxshi gap bilan ilon inidan, yomon gap bilan qilich qinidan chiqar» degan maqol bor. Agar maqolning yarim matnini «Falonchi ilon inidan chiqadigan qilib gapirdi» tarzida qo‘llasak, biz matal aytgan bo‘lamiz va «Falonchi yaxshi gapirdi» ma’nosini bildiramiz. Chunki «ilon inidan chiqadigan» so‘z birikmasi alohida aytilsa, mustaqil ma’no anglatmaydi. Ma’lum bo‘ladiki, matal shaxs nutqini go‘zallashtirish uchun xizmat qilar ekan, xolos. Maqol esa mataldan mustaqil ma’no ifodalay olish xususiyati bilan farqlanadi.

Yozma adabiyotda maqollardan foydalanishning bir necha ko‘rinishlari mavjud. Jumladan, ba’zan maqol aynan keltiriladi, ba’zan maqoldagi ayrim so‘zlar o‘zgaradi, ammo ma’no saqlanadi. Ba’zan esa adib maqollardagi ma’nolarni o‘ziga xos boshqa so‘zlar bilan ifodalaydi. Quyidagi misollarga diqqat qilaylik:

Kimki falak sori otar toshni,
Tosh ila ozurda qilar boshni.

* * *

Kimgaki bir rishta yeturding ziyon,
Qatlingga ul rishtani bilgin yilon.

* * *

Masaldurkim, uyqu o'limdir.

* * *

Xotirni jam istar esang, avval xavotir daf'in et.

Alisher Navoiy

* * *

Tikansiz-gul, sadafsiz-dur, mashaqqatsiz hunar bo'lmas,
Riyozat chekmaguncha Yor vasliga yetib bo'lmas.

Boborahim Mashrab

* * *

Ayoqingga tushar har lahza gisu,
Masaldurkim: «Chiroq tubi qorong'u»...
Tilar vaslingni Lutfiy, qil ijobat,
Ki ayturlar: «Tilaganni tilogu».

Lutfiy

3. Topishmoq paremik janr sifatida. Topishmoqlar hajmi va shakliga ko'ra maqollarga o'xshaydi. Ba'zan mazmuniga ko'ra ham yaqinlik seziladi. Ammo yaratilish maqsadi boshqa hisoblanadi. Janrning nomlanishiga e'tibor bering. «Top» so'zining talaffuz etilishidanoq o'yla, axtar, solishtir, izla ma'nolari yetakchilik qiladi. Unga «ish» qo'shimchasi qo'shilganda, vazifa aniqlashadi: «-moq» harakat nomi qo'shimchasidan keyin «qo'lingdan kelsa», «eplasang», «uddalay olsang» tushunchalari ifodalanadi. Topishmoqlarning quyidagi janr xususiyatlari bor:

1) hajm jihatdan qisqa va ixcham;

- 2) shaklan she'riy, nasriy ko'rinishga ega;
- 3) yaratilish maqsadida matnda yashiringan narsani topish vazifasi qo'yiladi;
- 4) mazmunida hayvonot, o'simlik, koinot, maishiy hayotdagi narsalarning xususiyatlari yashirin tarzda ifodalanadi, uni topishga da'vat etiladi;

5) topilishi lozim bo'lgan narsa, ko'pincha, bitta, ba'zan ikki va undan ortiq miqdorga ega bo'ladi;

6) topishmoqlarda qo'llangan asosiy badiiy san'at istiora (metafora) hisoblanadi;

Topishmoqlarda topilishi lozim bo'lgan narsaning shakli, hajmi, rangi, vazifasi va shu kabi xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi, ammo bu belgilar istiora san'atidan foydalanilgan holda boshqa narsa bilan bog'lanadi. Masalan:

Qopcha,

Qopcha ichida uncha,

Uncha ichida ustuncha.

Bu matnda yashiringan narsaning uchta belgisi uchta istiora vositasida berilgan. Demak, uning shakli qopga, ichidagi qismi unga o'xshatilmoqda. Faqat un o'rtasida ustuni ham bor ekan. Topishmoqni topayotgan odam matnda jiyda haqida gap ketayotganini topsa, fikriy musobaqada yenggan bo'ladi.

Topishmoqning paydo bo'lishi haqida folklorshunoslikda aniq daliliy ma'lumotlar yo'q. Ayrim olimlar uning qadimiy ekanini qayd qiladilar. Ammo maqollar namunalari ko'plab

keltirilgan «Devonu lug'otit turk» asarida topishmoq matni uchramaydi. Shu bilan birga «tabzug» - topishmoq ekanligi qayd etilgan.

Odatda, topishmoqlar xalq hayotining hamma sohalarini egallagani bilan ham diqqatga sazovor. Maishiy hayotdagi,

ijtimoiy muhitdagi munosabatlar topishmoq mavzularida o‘z ifodasini topadi. Ko‘rpa, qulf, qozondan tortib qozi, sudxo‘rlarning kirdikorlarigacha topishmoqlarda aks etishi mumkin. Xalq topishmoqlarini mukammal o‘rgangan Zubayda Husainova 1981-yilda G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti tomonidan e’lon qilingan «Topishmoqlar» kitobidagi matnlarni tartiblashtirishda ularni yirik ikki guruhga ajratadi: «An’anaviy topishmoqlar» va «Yangi topishmoqlar». Birinchi guruhda osmon, yer, suv; tabiat hodisalari, yil fasli va mavsum; odam, uning a’zolari va xislatlari – jami 21 mavzu jamlanadi. Yangi topishmoqlarda elektrotexnika, radiotexnika, maktab va o‘quv qurollari – jami 9 mavzu jamlangan. Ma’lum bo‘ladiki, topishmoqlarda aks etmagan mavzuning o‘zi yo‘q ekan.

Xalq orasida yashab kelayotgan topishmoqlar bir jumboqli va ko‘p jumboqli bo‘lishi mumkin. Ammo shunday topishmoqlar ham borki, ularga javob berish uchun ikki va undan ortiq narsalarni eslashga to‘g‘ri keladi:

Tog ‘da talaymonni ko ‘rdim,

Suvda sulaymonni ko ‘rdim.

Tuzsiz pishgan oshni ko ‘rdim,

Yumalab yotgan toshni ko ‘rdim.

Bu topishmoqdagi to‘rt misrada to‘rtta narsa yashiringan. Birinchisida bo‘ri, ikkinchisida baliq, uchinchisida sumalak, to‘rtinchisida toshbaqa so‘zлари yashiringan.

Xalq og‘zaki ijodidagi topishmoqlar badiiy jihatdan ham so‘z san’ati hisoblangan adabiyotda qo‘llangan juda ko‘p san’atlarga boy. Bu san’atlarning topishmoqda uchraydigan eng ommaviysi istioradir. Oyna – ko‘z, ilon – soch, qizil toychoq – til kabi o‘nlab misollarda istiora san’ati kelgan.

Qardosh xalq og‘zaki ijodida ham topishmoqlarning go‘zal namunalariga duch kelamiz: «Neseli Bilmeceler – Quvnoq topishmoqlar». (Toshkent: «Yurist-media markazi», 2010) to‘plamidan olingan quyidagi topishmoqlarga e’tibor bering:

*Osti marmar, usti marmar,
Ichida bir kelin o ‘ynar.*

(Tish, til)

*Ketdi – kelmaydi,
Keldi – ketmaydi.*

(Yoshlik, qarilik)

*Kelar Laylo, ketar Laylo,
Bir oyoqda turar Laylo*

(Eshik)

*Yetti tuynukli to ‘qmoq,
Buni bilmagan ahmoq.*

(Bosh)

4. Chaldirmoq janrining o‘ziga xos xususiyatlari.

Yaqin vaqtlargacha chaldirmoqlar topishmoq janri tarkibida qaralib, baholanib keldi. Qadimda chaldirmoq o‘yin shaklida amal qilgan. Chaldirmoqni ko‘pchilik, ikki kishi o‘ynasa ham bo‘ladi. O‘yin avvalida shart belgilab olinadi. Masalan, kim yengilsa, ma’lum joygacha yelkasida ko‘tarib borib kelish yoki boshqa biror shart aytildi. Shundan keyin kelishuv bilan harflardan biri chaldirmoq quyuvchi, boshqasi yechuvchi bo‘ladi. Masalan, shunday chaldirmoq aytildi:

– Bir yigit otiga bir qizni mingashtirib ketayotgan ekan.
Oldidan bir to‘p lakak(chillak) o‘ynayotgan bolalar chiqibdi.

Shunda bolalardan biri sheriklariga: «Qaranglar, hov yigit birovning qizini olib qochib ketyapti», – debdi. Bu gapni eshitib otga mingashgan qiz o'sha bolaga javob qilibdi:

– *Jonimning jononasi,*
Boshimning parvonasi,
Bu yigitning onasi,
Mening onam qaynonasi.

Raqib ma'lum muddat ichida javobni aytishi kerak. Deylik, raqib tomon u yigit qizga og'a ekanligini topdi. Shundan keyin shart bajariladi. Keyingi chaldirmoq aytish navbatni yechgan bolaga keladi va o'yin ushbu tartibda davom qiladi.

Yuzaki qaraganda biror bir fikr, narsa, hodisa va ma'lum raqam, miqdorning chalg'itib aytishi, raqibdan uning yechimini topish talab etilishi chaldirmoqlarni topishmoqqa yaqinlashtiradi. Lekin chaldirmoqning aytish jarayoni, yetakchi xususiyatlari, poetik qurilishi topishmoqdan farq qiladi. Farq, avvalo, chaldirmoqning o'yin tarkibida kelishida ko'rindi. Topishmoqlarning bugungi holati bevosita harakatli o'yin bilan bog'liq emas.

Topishmoqlar ixcham, lo'nda she'riy shaklga ega. Ularda vaziyat, holat batafsil izohlanmaydi. Personajlarning o'zaro savol-javoblari batafsil berilmaydi. Chaldirmoqda vaziyat to'liq tushuntiriladi. Ishtirokchi personajlar savol-javoblari aytildi va shu savol-javobda chalg'itib berilgan mazmunni yechish talab qilinadi. Topishmoqda bu tartibdagi talab yo'q.

Chaldirmoqning ijro o'rni va poetik qurilishini quyidagi tartibda bayon etish mumkin:

1. Ma'lum vaziyatning bayon etilishi. Savol-javobning berilishi. Yechimning talab qilinishi.
2. Yechim.

3. Topishmoq, asosan, she'riy shaklga ega. Chaldirmoqlar, deyarli, nasriy ko'rinishda, ba'zan savol-javoblar she'rda aytilishi mumkin.

4. Topishmoqda ma'no yashirilsa, chaldirmoqda chalg'itilib beriladi.

5. Topishmoqda narsa turli qiyos, o'xshatish, tashbeh-larda yashirib aytildi. Masalan:

Suv ichar ko 'ldan,

Ko 'zlari nurdan,

Terisi puldan.

(Baliq)

Chaldirmoqda chalg'itib berilayotgan fikr, narsa-hodisalar savol-javobning mantiqiy mushohadasi orqali xuddi matematik masaladek yechiladi. Chaldirmoqda topishmoqdek obrazlilik yo'q.

Masalan: «Yigit-qiz bir-birini yaxshi ko'rар ekan. Ba'zida ota-onalaridan yashirinchha (bekitikcha) uchrashib turishar ekan. Bir kun yigit qizning oldiga singlisini jo'natib, uchrashuvga chaqirib chiq, debdi. O'zi avvaldan belgilangan joyga ketibdi. Nimagadir sevgilisi aytilgan joyga chiqmabdi. Yigit uyiga qaytib kelib singlisidan, nima bo'ldi? – deb so'rasa, singil:

– Bordim yo'q ekan,

Aytdim, keladi.

Kelmasa edi,

Kelardi.

Kelibdi,

Kelmabdi-da, – deydi.

Singil nima degan? – yech.

Javob: Qizning uyiga bordim. Uyida o'zidan boshqa hech kim yo'q ekan. Aytdim, «ota-onam kelib qolmasa chiqaman», dedi. Ota-onasi kelibdi-da, shunga chiqolmagan. Misoldan

ko‘rinib turibdiki, bu yerda yashirin fikr topishmoqdagi kabi turli qiyoslar orqali ifodalanmagan, balki chalg‘itib aytilmoqda.

Chaldirmoq – bolalarning ma’lum badiiy matnga qurilgan harakatli o‘yini. Chaldirmoq matnida biror bir vaziyat, holat, voqeа tushuntirilib, undagi personajlarning o‘zaro savol-javoblari beriladi. Savol-javobda qandaydir fikr, narsa, holat, son chalg‘itib aytiladi va raqibdan uni aniqlab, aytib berish talab etiladi. Chaldirmoqlar bolalarni mantiqiy fikrlashga, atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatishga, hozirjavoblikka o‘rgatadi. Chaldirmoq atamasi chaldir – chalg‘it, adashtir fe’liga «-moq» qo‘srimchasi birikuvi orqali yasalgan. Xuddi «topish +moq» qo‘silib topishmoq atamasi hosil bo‘lgani kabi. Chaldirmoqlarning boshqa turkiy xalqlar, jumladan turk, uyg‘ur va qoraqalpoqlar o‘rtasida ham mavjudligi bu janrning lokal hodisa bo‘lmay, keng tarqalgani, topishmoqday qadimdan kelayotganligini isbot etadi.

Qoraqalpoq olimi Najip Dovqarayev qoraqalpoq topishmoqlari haqida yozar ekan, ikki chaldirmoqni misol keltiradi, lekin boshqalar qatorida ularni topishmoqning turi sifatida talqin etadi. E’tiborli jihat shundaki, har ikki chaldirmoq ham ma’lum o‘zgarishlarni hisobga olmasa, o‘zbek xalqi orasida ham aynan aytiladi. Chaldirmoqlarning birini keltiramiz:

«Bir g‘oz uchib kelib, qirda o‘tirgan g‘ozlarga:

– Assalommu alaykum yuz g‘oz, – debdi.

O‘tirgan g‘ozlar:

– Yo‘q, biz yuzta emasmiz, yuzta bo‘lishimiz uchun, bizlarga tag‘in shuncha, yana shuning yarmicha, yarmimizning yarmi bo‘lsa, yana sen qo‘silsang yuzta bo‘lamiz, – debdi.

– Yerda o‘tirgan g‘ozlar qancha?

Javobi: 36 (36+36+18+9+1)

Ko‘rinib turibdiki, misol chaldirmoqning go‘zal namunalaridan biri.

N. Dovqarayev bu namunaning qanday vaziyatda aytilishi haqida ma'lumotlar keltirmaganligi sababli qoraqalpoq folklorida ushbu janrning o‘yin shakli saqlanganmi, yo‘qmi, aniq bilmaymiz.

Folklorshunos Bahodir Sarimsoqov chaldirmoq Laqaylar o‘rtasida umumxalq hashari bo‘layotgan payti hasharchilar yonidan o‘tgan yo‘lovchilarga quvilishi holati uchrashi haqidagi faktni aytgan edi. Bu o‘rinda biror bir shart qo‘yilar ekan. Yo‘lovchi chaldirmoqni yechsa, o‘z yo‘lida ketishi mumkin, mabodo yecha olmasa, hasharchilar buyurgan yumushni bajarishi talab qilinar ekan.

Chaldirmoqning ayrim namunalarini qardosh xalq og‘zaki ijodida uchratamiz:

«Uch kishi ko‘priordan o‘tmoqda: bittasi ko‘radi, bosadi, o‘tadi; yana bittasi ko‘radi-yu bosmay o‘tadi; uchinchisi ko‘rmasdan, bosmasdan o‘tadi».

(Javob: Qo‘lida bolasi bor va homilador ayol).

* * *

Bir kishi boqqa kiribdi. Bir qop anor olibdi. Bog‘ning yettita eshigi bor ekan. U kishi qaysi eshikning oldiga borsa, qopdagи anorning yarmini to‘kdirishibdi. Nihoyat, yettinchi eshikdan chiqibdi. Qarasa, qopda bitta anor qolibdi. Bu odamning qopida nechta anor bo‘lgan?

(Bir yuz yigirma sakkizta)

Chaldirmoqni quyish, yechish asosida biror-bir shartning kim tomonidan bajarilishini aniqlash o‘yin va hasharda chaldirmoq quyishni bir-biriga yaqinlashtiradi, ularning ijro o‘rni ayricha bo‘lsa-da, ildizi bir ekanligini ko‘rsatadi.

Chaldirmoqlar ba'zan ertak, afsona, naqlar tarkibida ham keladi. Bunday holatda chaldirmoq asar syujetiga singishib, janrga xos ijro o'rmini yo'qotadi, sof badiiy-estetik vazifa bajaradi. Chaldirmoqni quyish, yechimini topish asardagi obrazlar zimmasiga tushadi. Misol tariqasida «Podsho bilan chol» naqlini olib qaraylik:

«Qishning kuni vaziri bilan shikorga chiqqan podsho baliq ovlayotgan cholga duch kelib, so'rabdi:

– Ha, ota to'rtni uchga urolmayapsizmi, qishda baliq ovlab qolibsiz?

Chol:

– To'rtni uchga urishga urdim-u, o'ttiz ikki qo'ymadi-da.

Podsho:

– Bir g'oz yuboraman, patini yula olasizmi?

Chol:

– Aytganingizdan ziyoda qilaman.

Podsho bu savol-javobning mazmunini vaziridan so'raydi. Vazir lol qoladi. Podsho vazirga muddat belgilab yo javobni topasan, yo jon-u molingni berasan, deydi. Vazir podshoning g'azabidan qo'rqib, katta davlat evaziga choldan sirli savol-javobning mazmunini so'raydi.

Chol:

– Hurmatli vazirim, podshoning «to'rtni uchga urmadingizmi», degani, yilda to'rt fasl bor, shuning uch fasli – bahor, yoz, kuzda yaxshilab mehnat qilib, qishda yeb yotsangiz bo'lmasmidi, degani. Mening «o'ttiz ikki qo'ymadi», deganim, o'ttiz ikki tish yeb bitirdi, deb aytganim. Biz gaplashayotganda siz hayron bo'ldingiz. Podsho buni darrov sezdi va sizga ishora qilib, «Bir g'oz yuboraman patini yula olasizmi?», dedi. Men «Aytganingizdan ziyoda qilaman», deb javob qaytardim. O'sha g'oz siz bo'lasiz. Mana mening oldimga keldingiz, bu sirni mol-dunyo evaziga bilib oldingiz.

Shunday qilib, dono chol, aql-u farosati bilan boy bo‘libdi».

Bu xil namunalarni chaldirmoq matni qaysi janr tarkibida kelayotganligiga nisbatan, chaldirmoqli ertak, chaldirmoqli naql, chaldirmoqli afsona sifatida nomlanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Maqolning janr xususiyatlarini sanab bering.
2. Maqollardagi o‘z va ko‘chma ma’noni misollar yordamida tushuntiring.
3. Yozma adabiyotda maqollardan foydalanish usullari haqida ayting, fikringizni bir adib ijodi misolida isbotlang.
4. Topishmoqning paremik janr sifatidagi ahamiyatini so‘zlab bering.
5. Chaldirmoq janrining o‘ziga xos xususiyatlarini ayting.

Adabiyotlar:

1. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T., «Musiqa», 2010.
2. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: «Mumtoz so‘z», 2010.
3. Sarimsoqov B., Maqollar / O‘zbek folklori ocherklari. 1-jild. – T.: Fan, 1988. – B. 85-98.
4. O‘zbek xalq maqollari. – T.: Fan, 1978.
5. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. – T., 1990. – B. 44.
6. Safarov O. Xalq ganjiga mehr / Folklor bebahoxazina. – T.: Muhammarrir, 2010. – B. 285-298.
7. Quvnoq topishmoqlar. – T.: «Yurist-media», 2010.

13- MAVZU. LATIFALAR, LOF

Reja:

- 1. Latifa – nozik fikrlash san’ati.**
- 2. Loflarning janr xususiyati.**

1. Latifa – nozik fikrlash san’ati. O’zbeklar dunyodagi boshqa xalqlar kabi hazilni, taqlidni, kulgini yaxshi ko‘radilar. Kulgi insonga sog‘lik, yaxshi kayfiyat, o‘z-o‘zidan qoniqish tuyg‘usini bag‘ishlaydi. Xalqimizning dono farzandlari Yusufjon qiziq, Aka buxor, G‘anijon Toshmatov kabilar mashaqqatli kechgan paytlarda ham yurtimiz ahliga tetiklik, umid, ishonch ularshganlar. Bunday natijaga erishish o‘z vaqt uchun juda og‘ir kechgan. Latifalar, loflar, askiya, xalq dramasi asarlari, muqallidchilikdan unumli foydalanish zukko va iqtidorli insonlarni haqiqiy ma’noda xalq sevgisini qozonish sharafiga tuyassar qildi.

Inson qalbidagi tashvishni, tanasidagi xastalik xurujini chetraqqa surishda kulgili latifalar juda samarali vosita hisoblangan. «Latifa» atamasi arabcha «lutf» so‘zidan olingan bo‘lib, nozik fikrlash, yaxshilik qilmoq, muruvvat ko‘rsatmoq, sharaflamoq ma’nolarini anglatadi.

Nasriddin Afandi nomi bilan latifalar mazmunining bog‘lanib, uyg‘unlashuvi XIX asr oxiri XX asr boshlari bilan belgilanadi. O’zbek folklorshunosligi fani asoschisi, professor Hodi Zarifov qayd qilishiga binoan, Nasriddin Afandi nomining o‘zbek latifalarida shuhrat topishi yurtimizda matbaaning paydo bo‘lishi, Nasriddin Afandi latifalarining kitob tarzda nashr ettirilishidan boshlangan.

O’zbek Nasriddin Afandi latifalarida bosh qahramon o‘ta hozirjavob, o‘ta zukko, dono va tadbirkor inson sifatida gavdalanganadi. Hayotda uni so‘z bilan, xatti-harakat bilan

yechimi yo‘q vaziyatga tushirish mumkin emas. Chunki aqlli, mutafakkir Nasriddin Afandi qiyofasida butun xalqning, millatning so‘zga chechanligi, zakiy, ya’ni nozik fikr yuritish fazilati o‘z ifodasini topgan. Har bir latifa matnida uni o‘ylab topgan shaxs aqli, vaziyatni aniqlash kayfiyati va zakovati namoyon bo‘ladi. Latifalarning e’tiborli, tinglovchini o‘ziga jalb qiladigan jihat shundaki, ularda savol-javob qilayotgan taraflar bir-birini mutlaqo yechimi topilmas vaziyatga tushirishga urinadilar. Ayniqsa, Nasriddin afandi qismati latifaning yakuniy qismiga yetgunga qadar juda og‘ir va chorasisiz taqdir sharoitida tasvirlanadi. Ammo xalq Nasriddin afandi tarafida bo‘lgani uchun ana shunday mushkul vaziyatdan ham o‘z topqirligi, so‘zga ustaligi bilan qahramonimiz yechim topib keta oladi.

Afandi latifalarida Afandidagi ikkinchi xislat – uning nihoyatda soddaligi, aniqroq aytsak, no‘noqligini namoyish qilish bilan izohlangan. Bunday namunalarda biz Afandining soddaligidan, hayotdagи ko‘ngilsiz voqealarni o‘ziga olmaslididan zavqlanamiz. Afandining Afandiligi uning afandiligi bilan sharhlanadi. Ya’ni birorta es-hushi joyida odam qilishi mumkin bo‘lmagan qarorni aynan afandi qabul qiladi.

Nasriddin Afandi ko‘chada ketayotib, kichkina bir ko‘zgu – oyna topib olibdi. Uni qo‘liga olar ekan, o‘z aksini ko‘rgani zahoti: «E, kechirasiz, oyna siznikimidi?» – deb tashlab yuboribdi. Oyna sinibdi. Shunda Afandi: «Kerak bo‘limasa, ayta qolmaysizmi? O‘zim olar edim-ku», – degan ekan.

Bunday latifalar bilan tanishish, ayniqsa, hikoya qilish mahoratiga ega inson ijrosida tinglash odamga huzur bag‘ishlaydi. Bu turdagи latifalarda tinglovchi sodda Afandi qarorlaridan kuladi. Lekin shuni ham qayd qilish lozimki, xalq bu bilan nima demoqchi ekanini tushunib yetishga

ham harakat qilish zarar keltirmaydi. Ehtimol, dono xalq shu kabi latifalar vositasida «Sen bunchalik sodda bo'lma!» demoqchimi? Xulosa chiqarish har kimning o'ziga havola.

Har bir xalqda ham hayot lavhalaridan kulgili vaziyat yaratadigan insonlar bor. Ularning fikr yuritish usulida favqulodda komik holat hosil qilish sirlari bo'ladi. Shuning uchun ham hindlarda Birbol, arablarda Jo'ha, qozoqlarda Aldar ko'sa, tojiklarda Mushfigiy, turkmanlarda Mirali, qoraqalpoqlarda Umrbek, turklarda Temel nomlari bilan latifa qahramonlari shuhrat topgan, ammo latifa matnlarida mushtarak vaziyatlar juda ko'p uchraydi. Biroq bunday holatlarda qaysi xalq vakilidan boshqa xalq vakili muayyan voqeani o'zlashtirgan yoki ko'chirgan, degan savolni qo'yish to'g'ri emas.

2. Loflarning janr xususiyati. Xalq og'zaki ijodidagi loflar mubolag'a san'atiga asoslanadi. Lug'atda «lof» – fors tilidan olingan so'z bo'lib, quruq (puch) gap, safsata, maqtanchoqlik. 1. Folklordagi hajviy-yumoristik janrlardan biri: haddan tashqari bo'rttirilgan, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yolg'on gap»¹ deb izohlangan.

Loflar xalq og'zaki ijodining latifalar va askiya kabi kulgi uyg'otuvchi ommaviy janri hisoblanadi. Asosan, janrda qo'llanadigan san'at mubolag'aning ig'roq va g'uluvv turi hisoblanadi.

Loflar badiiy adabiyotning epik turi (jinsi)ga mansub janr. Uning hajmi cheklangan: ikki-uch, uch-to'rt jumladan iborat. Asosan, dialogda qatnashgan ikki lofchi suhbatidan bir lavha tarzida bo'ladi. Ularda bo'rttirilgan, yolg'on voqeа to'qishda mohir, tajriba to'plagan lofchi deb hisoblangan shaxslar musobaqalashadi. Har ikki taraf aytayotgan

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. Ikkinci jild. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - B. 509.

voqeasining yolg'on va to'qima ekanini juda yaxshi biladi, lekin mutlaqo bu fikrini ochiq aytmaydi. Bu shart buzilsa, lof butun mohiyatini, jozibasini yo'qotadi. Aksincha, bir lofchi suhbatdoshining bo'rttirilgan yolg'on gapini aksariyat hollarda tasdiqlaydi, e'tiroz bildirmaydi. Faqat lofning mazmunidan xabar topganidan so'ng unikidan o'tkizroq, yana ham mubolag'ali, yolg'onroq javob topishi lozim. Muhimi, ikkinchi lofchi keyin javob bergani uchun lof shu o'rinda tugaydi. Ba'zan dialoglar bir oz davom etishi mumkin, lekin bari bir so'nggi fikr bildirgan lofchi g'olib chiqaveradi.

Folklorshunos Omonulla Madayevto 'g'ri ta'kidlaganidek: «Latifalarda, lofda, askiyada kulgiga sabab bo'lgan jumlanı kashfiyot darajasida baholash mumkin. Ularni o'ylab topgan shaxs katta hayot tajribasiga ega bo'ladi, ayniqsa, vaziyatni to'g'ri baholab kulgi hosil qilish mahoratini namoyish etadi. Buning uchun u til boyligidan ham yaxshi foydalana olish fazilatiga ega bo'lishi zarur».

Savol va topshiriqlar:

1. Latifaning janr xususiyati haqida nimalar bilasiz?
2. Nasriddin Afandi obrazining o'ziga xos jihatlari nimalarda ko'rindi?
3. Latifalarning zohiriya va botiniy mazmunini latifalar tahlili orqali tushuntirib bering.
4. Lof janrining o'ziga xos jihatlarini gapiring, misollar keltiring.

Adabiyotlar:

1. Muhammadiyev R. Askiya. – T., 1962.
2. Askiyada ijrochilik mahoratini oshirish yo'llari (metodik tavsiyanoma). Tuzuvchilar: M.Jo'rayev, T.Sobitova. – T, 1985.

3. Said Anvar. Muhiddin Darvesh. – T.: Sharq NMAK, 2006.
4. Razzoqov H. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida satira va humor. – T.: Fan, 1965.
5. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T., «Musiqa», 2010
6. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: «Mumtoz so‘z», 2010
7. Yo‘ldosheva F. O‘zbek latifalarida Nasriddin afandi obrazi. – T.: Fan, 1979.
8. Shoh Akbar va dono Birbol. – T., 1994.
9. Afandi latifalari. – T., 1989.
10. Sarimsoqov B. Lof / O‘zbek folklori ocherklari. 2-tom. – T.: Fan, 1989.
11. Hikmatli sharhlari bilan Nasriddin Afandi latifalari. – Toshkent: «Sano-standart», 2020.

Reja:

- 1. Askiya o‘zbek xalqining milliy merosi sifatida.*
- 2. Askiya san’atining o‘ziga xosligi.*

1. Askiya o‘zbek xalqining milliy merosi sifatida.

«Askiya» so‘zining asosi arab tilidagi «zakiy»dan olingan bo‘lib, sof fikrli, o‘tkir zehnli, zakiy – nozik tabiat bilan fikr yuritish ma’nolarini anglatadi. «Azkiyo» esa ko‘plik shakldir. Fikrimizcha, «к» jarangsiz undosh tovushi ta’sirida «з» jaranglisi jarangsizlashib «с»ga aylangan bo‘lishi mumkin.

Askiya san’atini ilmiy o‘rgangan olim Rasul Muhammadiyev o‘zbeklarning askiya aytishi qadim zamonlardan boshlanganini qayd etgan. Xususan, XV asrda yashagan shoir Zayniddin Vosify o‘z xotiralarida Hirot shahrida Mirsarbarahna, Burhoniy Gung, Hasan Voiz, Said G‘iyosiddin, Sharfiy, Halil Sahhob, Muhammad Badaxshiy kabi o‘tkir so‘z ustalari borligini aytib o‘tgan. Hunarmandchilik rivojlangani sari askiya ham keng ommalashdi. Ayniqsa, bo‘z, atlas to‘qiydigan kosiblar qo‘l va oyoqlari muttasil harakatda bo‘lgani bois yo qo‘sinq, ashula aytishgan, yo askiya bilan ko‘ngilni ovutishgan. Bu jihatdan Farg‘ona vodiysi aholisi alohida ajralib turgan. Yusufjon qiziq Shakarjonov, Mamayunus Tillaboyev, Erka qori Karimov, Amin buva, G‘anijon Toshmatov, Tursun buva Aminov, Abdulhay Maxsum kabi mashhur so‘z ustalari askiya san’atini rivojlantirishda munosib hissa qo‘shdilar.

Askiya san’atining asosini badiiy adabiyotdagi iyhom deb ataluvchi badiiy tasvir vositasi tashkil etadi.

Masalan, Rasul Muhammadiyev 1962-yilda e’lon qilgan «Askiya» kitobida quyidagi matnni keltiradi:

«Qodirjon aka:

– Ikromiddin, bu yoqqa qarang, bizga pishirishingiz bitta osh, qovoq ham solasiz-a!

Ikromiddin:

– Qodirjon aka, sizlardaqa aziz mehmonlarga atab har xil ovqat qilganmiz: bu sho'rva, oshqovoqda...

Ikromiddin:

–... bir oz u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tiringlar, boshqa ovqat qilaman: qovoq-siz!

Endi askiyada qayta-qayta takrorlangan «qovoq» so'ziga diqqat qilamiz. Avvalo, «qovoq» so'zining ma'nolarini ko'rib chiqaylik. Birinchidan, palak otib o'sadigan poliz o'simligi. Ikkinchidan, shu o'simlik qobig'idan tayyorlangan idish. Unga, odatda, sut, ovqat solib saqlanadi. Uchinchidan, odamning qoshi ostidagi ko'z kosasini qoplovchi teri. Askiya matnida uchta ma'noning hammasi faol ishtirok etadi.

Kulgi hosil qilishning yana bir usuli askiyabozlarning laqablari bilan bog'liq so'z o'yinlaridir. Haqiqiy mohir askiyabozlar raqiblarining laqablarini askiya matniga shunday singdirib yuborishar ediki, faqat askiyani nozik tushunadigan tinglovchigina uning ma'nosiga fikr qilib yetib borar edi.

Mashhur hofiz Mamayunus (laqabi kal) poyezdda ketishayotganda do'sti Erka qorini (ko'zi ojiz) askiyaga tortar ekan, qori akaning ko'zi ojizligiga shama qilib:

– Turing, qori aka! Ko'r otga (kurortga) keldingiz! – deydi. Erka qori yostiqdan boshini ko'tarar ekan, shoshib-pishib kupe derazasidan tashqariga qaragan bo'ldi-da, darhol yuzini Mamayunus aka tomon burib:

– Hovliqmay qoling, Mamayunus! Sho'rtepa-ku! – deydi.

Matnni tahlil qilishda tinglovchi «ko'r ot», «sho'rtepa» so'zlarining ma'nosini shu zahoti zakiylik bilan ko'zi ojiz, kal ma'nolarida tushunib yetmasa, askiyaning butun mohiyati o'z

qadrini yo‘qotadi. Natijada, Mamayunus akaning mahoratini ham, Erka qorining topqirligini ham baholay olmaydi.

Askiya tarkibida kichik turlar mavjud. Ularning eng ommalashgani payrav, qolganlari gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz; o‘xshatdim, qofiya, tugal, bo‘lasizmi, rabbiya, afsona, safsata kabi nomlar bilan ataladi.

Payrovda askiyabozlar tinglovchilar auditoriyasining kasbi, hududi, mahalliy sharoit xususiyatlariga ko‘ra o‘zaro kelishib mavzu tanlashadi. Mavzular dehqonchilik, kosiblik, o‘qituvchilik, badiiy asarlar, maqollar, paxta, imorat, tabobat va boshqa yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin.

Askiya yuzasidan ma’lumot berishda bir masalani esdan chiqarmaslik lozim. Gap shundaki, askiya tabiatida pornografiya – uyatli ma’no ifodalash xususiyati bor. Aytish kerakki, umuman, xalq og‘zaki ijodidagi deyarli hamma janrlarda uyatli tushunchalarni pardali tasvirlash odatini inkor qilib bo‘lmaydi. Ayrim qo‘shiqlarda, topishmoqlarda, latifalarda, dostonlar va ertaklarda ba’zan ijrochilar tinglovchi auditoriyasini yanada qizdirish, e’tiborni o‘ta jalb qilish, kulgi darajasini ko‘tarish maqsadida bu usuldan foydalanganlar. Ammo odob chegarasi ularning juda erkin so‘z ishlatish va harakatlariga yo‘l qo‘ymagan. Shu bilan birga askiya ijrosida iyhom san’atidan foydalangan holda pornografik ma’noli askiya matnini qo’llash tajribada ko‘proq namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham askiya erkaklar o‘rtasida aytilganda, ayollarning davrada qatnashishi ma’qul sanalmagan. Folklorshunoslikda ayollar o‘rtasida alohida askiyalar bo‘lib turgani haqida ham ma’lumotlar bor.

Shunday qilib, askiya o‘zbek xalq og‘zaki ijodining so‘z o‘yini asosida shakllangan va ommalashgan o‘ziga xos janri sifatida baholanishi mumkin. Askiya jozibasi asrlar davomida ota-bobolarimiz tomonidan ijro etib kelingan. Uning

taraqqiyotiga bugungi kunda Jo'raxon aka Po'latov, Bahodir Shokirov, Ne'matjon Toshmatov, Akromjon Anvarov, Mansurjon Oxunov, Sodiqjon Hasanov, Muhammadsiddiq Shiryayev, Ubaydulla Abdullayev, Ma'ruf Rahimov, Jaloliddin Rahimov, Xotamjon Hakimjonov, Xotamjon Teshaboyev kabi so'z san'atkori munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

2. Askiya san'atining o'ziga xosligi. Askiya haqida fikr yuritishdan avval uning mohiyati haqida qisqacha mulohaza bildirish joiz. Askiya aytish qanchalar murakkab bo'lsa, uni tushunish ham oson emas. Chunki askiyachi aytgan askiyada nozik so'z o'yini qo'llaniladi. So'z o'yinini tushunish esa uni o'ylab topishdek qiyin. So'z o'yinida uni o'ylab topgan odamning fikrlash usulini qo'llash lozim bo'ladi. Shu bois askiya paytida kimdir kuladi, kimdir gap nima to'g'risida borayotganini anglay olmay garang bo'lib turaveradi. Askiya janrining bosh maqsadi, uning mohiyati so'z o'yini vositasida kulgi hosil qilishdir.

Askiya jahondagi bironta xalq og'zaki ijodida uchramaydigan, so'zdan so'z hosil qilish, so'z jilosidan to'liq foydalanish, so'z o'yiniga asoslangan janrdir. Boshqa xalqlarda bu janrning uchramasligini esa, asosan, o'zbek tilidagi so'z boyligi bilan izohlash maqsadga muvofiqidir. Xususan, maqol, topishmoq, ertak, qo'shiq, doston janrlari jahon xalqlari ijodida aynan yoki bir oz o'zgargan holda uchraydi, ammo olimlar shu kungacha askiyaning boshqa xalqlarda mavjudligini aniqlamaganlar. To'g'ri, ba'zi paytlarda latifalarda askiyaga o'xshash vaziyatlar uchrashi mumkin (peshka xodit ye 2-ye 4; on xodit yedva, yedva – shaxmat o'yinidagi eng kichik sipoh ye 2 xonasidan ye 4 ga yuradi, biz nazarda tutgan odam esa zo'rg'a-zo'rg'a yuradi). Ammo muayyan xususiyatlarga ega alohida janr sifatida uchramaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. Askiya janri o‘zbek xalqining milliy merosi ekanini izohlab bering.
2. Askiya tarkibidagi kichik turlarni ayting. Payrov tushunchasiga izoh bering.
3. O‘zbek askiyachilarining repertuaridagi namunalardan misol keltiring.
4. Askiya matnida kulgi uyg‘otuvchi usullar haqida ma’lumot bering.
5. Ijtimoiy tarmoqdan o‘zbek askiyachilarining jonli ijrosini tinglang va tahlil eting.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat. 2008. – 176 b.
2. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T., «Musiqa», 2010. 368 b.
3. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: «Mumtoz so‘z», 2010.
4. Madayev O., Sobitova T. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T., 2005.
5. Жирмунский В. М., Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. М., с. 303.
6. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – T., 2009 yil.
7. Metin Ekiç. Türk dünyasında Köroğlu. – Ankara: Akçağ, 2004;
8. Mirzayev T. Doston. O‘zbek folklorining epik janrlari. – T.: Fan, 1981.
9. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 1995. – 168 b.
10. Saidov M.S. O‘zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat masalalari. Toshkent, 1969.

11. Cejidov M. Azerbajchan xalginin sojkokunu dushunerek – Baki: Jezichi, 1989. – S.320.
12. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 1-kitob. T., 2006.
13. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 2-kitob. T., 2010.
14. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. T., 2010.
15. Turdimov Sh. «Go‘ro‘g‘li» dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlar. – Toshkent: Fan, 2011.
16. Turdimov Sh. Etnos va epos. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. –112 b.
17. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. – Toshkent: Fan, 2006. –120 b.
18. Eshonqul J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – Toshkent: Fan, 2011.
19. Fuzuli Bayat. Köroğlu destanı. Istanbul: Ötüken, 2009;
20. Introduction to Folklore. London, 2008. Page7
21. Muhammadiyev R. Askiya. –T.: 1962
22. Said Anvar. Muhiddin Darvesh. – T.: Sharq NMAK, 2006
23. Razzoqov H. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida satira va humor. – T.: Fan, 1965

15- MAVZU. TOMOSHA SAN'ATI¹

Reja:

- 1.O'zbek an'anaviy teatr san'ati.*
- 2.Xonliklar davrida tomoshagoohlar.*
- 3.Tomosha turlari.*

O'zbekiston hududlarida yashovchi mahalliy aholi azaldan o'zining rang-barang ijodiy merosi bilan badiiy madaniyatimizni boyitib kelgan. Bunda ijrochilikka asoslangan an'anaviy teatrning alohida o'rni bor. Ular kelib chiqishiga ko'ra, uzoq tarixga ega bo'lib, ajdodlarimiz ijodiy salohiyati, ma'naviy va badiiy-estetik talab-ehtiyojlari negizida ijod etilgan, bugungi kunda ham shu maqsadlarga xizmat qilib keladi. Avloddan-avlodga o'tishi, ommaviyligi, mehnat jarayonlari, urf-odatlar, marosimlar, bayramlar bilan bog'liq holda yashashi xalq teatrining asosiy xususiyatidir.

O'tmishda va hozirgi kunda ham amal qilayotgan o'zbek xalq tomoshalari ana shunday an'anaviy va ommaviy ijod mahsulidir. Ular asrlar davomida ijtimoiy hayot, siyosat, mafkura ta'sirida o'zgarib, tuslanib bordi. Ba'zilari unutildi. Ammo aksariyat tomoshalar xalq urf-odatlari, marosimlari va bayramlardan oziq olib, hayot bilan hamnafas yashab, oddiy kishilar ma'naviy hayotida muhim o'rin egallab kelgan.

Qancha mafkuraviy tazyiqlarga uchragan bo'lmasin, aholi ma'naviy fazilat (his-tuyg'u, e'tiqod, odat kabi)larining shakllanishida muhim bo'lgan san'at, shu jumladan, teatr san'ati vositalaridan keng miqyosda foydalanuvchi xalq marosimlari doim yashab keldi. Aksariyat marosimlarda sahnaviy shakllardagi badiiy obrazlar yaratildi. Xalq

¹Ushbu mavzu I.Abdurahmonov, B.Sangirolarning "O'zbek an'anaviy qiziqchilik san'ati" ("Tafakkur gulshani", Toshkent -2017) kitobi asosida tayyorlandi.

termalari aytishuvlari, savol-javoblari, qo'shiqlari, raqslari-dan foydalanilgani malakali tashkilotchi(korfarmon, o'yinboshi, nadim, onaboshi, bakovul, oqsoqol)lar tomonidan tayyorlanishi va o'tkazilishi sababli, marosimlar ko'p hollarda ommaviy tomosha shaklini olgan va qatnashuvchilarning kayfiyatlarini, ehtiroslarini umumlashtirgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, aksar tomoshalar bir zamonalr marosim sifatida vujudga kelib, jamiyat taraqqiyoti davomida o'z asosidan uzoqlashib, oddiy o'zin hamda oddiy tomoshaga aylanib borgan. Ayni chog'da marosimlar, shuningdek, xalq bayramlari asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ko'pgina o'zin va tomoshalar zamirida xalqimizning ijrochilik salohiyati, iste'dodi, dunyoqarashi, orzu-intilishlari yotadi. Jonli va hayotiy obrazlar, tomosha vositalari ularda yetakchilik qiladi.

O'zbek an'anaviy teatr san'atining eng keng tarqalgan turi bu shubhasiz, qiziqchilik san'atidir. Bu san'at turi vatanimizda keng ma'nolarga ega bo'lib, ayrim hollarda "tomosha" nomi ostida xalq madaniy hayotining tarkibiy qismiga singib ketgan. Ayni paytda xalqimiz badiiy madaniyatining eng ommabop va ko'pqirrali murakkab sohalaridan biridir.

Istiqlol yillarida qiziqchilik san'atini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochildi. Poytaxt va viloyatlarda o'nlab yangi ijodiy guruhlar paydo bo'ldi, turli teleko'rsatuvlar tayyorlanib, muntazam ravishda efirga uzatilayotgani ham shundan. Ayniqsa, poytaxtimizda tashkil etilgan Mustaqillik va Navro'z bayramlari tomoshalarida askiyachilar guruhlar ijrolarining o'rinni olishi davlatimiz rahbarining bu sohaga bo'lgan alohida e'tibori va g'amxo'rligidan dalolat beradi.

An'anaviy teatr deganda nimani tushunishimiz kerak? Mazkur savol anchadan beri ilm ahlining e'tiborini tortib keladi. Xususan, professor M.Qodirov mazkur tushunchani

shunday izohlaydi: “An’anaviy teatr – ijrochilik san’ati. Bu yerda hal etuvchi ijrochi aktyor, uning e’tiqodi, qobiliyati, malakasi, mahoratidir. Zotan, xalq aktyori tomoshabinlar davrasidan hosil bo‘lgan o‘ziga xos “sahna”da, maxsus ayvonlarda, ko‘shkarda tomosha ko‘rsatgan. Rasman dekoratsiya yo‘q, voqealor o‘rni va payti esa shartli. Bunday sharoitda aktyor faqat o‘ziga, o‘z san’atiga ishonib ish ko‘radi. U mustahkam an’anaviy fabula, voqealar, obrazlar silsilasi, barqaror savol-javoblarga tayangan holda so‘z va harakatlar to‘qiydi, ya’ni badihago‘ylik (improvizatsiya) qiladi. Tomoshabinlar u yoki bu tomoshani, sahnani ko‘rish uchun emas, balki ma’lum masxarani, qiziqchini, qo‘g‘irchoqbozni ko‘rish uchun yig‘iladi. Negaki, tomoshabin ijro etilishi mumkin bo‘lgan xalq komediyalarining ko‘pini oldindan bilgan, shu bois unga kim ijro etishi va qanday ijro etishi muhim edi. Binobarin, aktyor chinakam mahorat namoyish etishi, mahalliy sharoit va tomoshabinlar tarkibidan kelib chiqib topag‘onlik ko‘rsatishi, an’anaviy syujet, ko‘rinish va obrazlar talqiniga o‘zgartirishlar kiritishi, shevalardan, askiya, qo‘sinq, usul, raqs vositalaridan foydalanishi zarur bo‘lgan. Natijada, tomoshabin ham, spektakl ishtirokchisiga aylangan”¹

Tarixiy manbalar va san’atshunos tadqiqotchilarining shohidlik berishicha, masxaraboz va qiziqchilar san’ati Turkiston hududlarida juda qadimdan mavjud bo‘lib, xalq madaniy hayotining bir ko‘rinishi sifatida asrlar davomida yashab kelgan. Masxaraboz va qiziqchilar o‘z tomoshalarini odatda xalq og‘zaki dramalari asosida amalga oshirganlar. Bu dramalar adoqsiz darajada ko‘p bo‘lib, ijrochilarning o‘zlari tomonidan yaratilgan. Og‘zaki dramalar ijrodan ijroga, u guruhdan – bu guruhga o‘tib, o‘zgarib, qo‘silib, qisqartirilib

¹ Qodirov M. An’anaviy teatr dramaturgiyasi.-T.: Yangi asr avlod., 2006. 7-b.

ijro etilaverган. Улар оғ‘заки ко‘ринишда бо‘лганлиги жиҳатидан давр о‘тishi, ijrochilar avlodining almashinuvi oqibatida ko‘plari unutilib, yo‘q bo‘lib ketgan. Faqat XX asrning boshlaridan e’tiboran tadqiqotchilar xalq og‘zaki dramalari va ularning ijrochilari hayoti va san’atlarini o‘rganish ishlari bilan mashg‘ul bo‘la boshladilar”¹

Xonliklar davrida barcha yirik shaharning o‘ziga xos sayilgoh, tomoshagohlari bo‘lgan. Qo‘qonning «Katta chorsu»si katta sayilgoh vazifasini o‘tagan. Sathi uch ming kvadrat metrli keng maydonga o‘n-o‘n besh ming tomoshabin yig‘ilgan. Ayrim paytlarda xonning farmoni bilan O‘rda atrofida ham turli tomoshalar tashkil etilgan. Shuningdek, «Yangi chorsi», «Muyimarak», «Qaynar buloq», «Ovg‘on bog‘», «Erhubbi», «Qorayuz buvo», «Xo‘jaytirab» kabi sayilgohlarda ham tomoshabinlar yig‘ilib sayillar, bayramlar tashkil etilgani.

M.Qodirov Madalixon davrida saroyda Bidiyorshum o‘z shogirdlari bilan «Mudarris» spektakli ijro etilganligini yozadi. Saroyda xalq cholg‘u asboblari va mahalliy raqs jamlanmasi hamda aktyorlar guruhi faoliyat ko‘rsatgan. Saroy qiziqchilariga Zokir eshon bosh bo‘lgan. Uning rahbarligida Rizo qiziq, Sa‘di Maxsum, Normat qiziq, Boybuva qiziq, Mo‘min qishloqi, Bahrom qiziq, Usmon qiziq, Ro‘zi gov, Baxtiyor, Shomat qiziq, Davlat qiziq, mullo Hoshim, Usmon qiziq, Xolmat qiziq, Qalsariq qiziq, Avliyoxon qiziq kabilar o‘z mahoratini namoyish etishganlar.

Zokir eshon jamoasi turli mavzulardagi 40 dan oshiq tomoshalarni sahnalashtirganlar. «Mudarris», «Zarkokil», «Avliyo», «Xon hajvi», «Sirka taroq azizlar», «Farzand duosi», «Qalandarlar», «Dorbozlik», «Xatna», «Mardikor

¹ Tursunov T. XX asr o‘zbek teatri tarixi (1900-2007). – T.: ART-PRESS. 2010.
16 -b.

va nonvoy», «Shayxul Islomning sud munozarasi», «Yomon uka», «Chusti muqallidi», «To‘rt jinni yoki Azayimxon», «Qo‘ydi-chiqdi», «Imom domlaning uylanishi», «Uloq», «Kelin tushirdi», «Maqtanchoq kishi», «Er va xotin» «Duxtorbozlik», «Oqsoqol», «Qozi», «Mamayunusning dadasi», «Sudxo‘r», «Lo‘li», «Attorlik», «Ketmon o‘g‘risi» yoki «Xotin janjali», «Bachchaboz», «Hoji kampir», «Hammom», «Mozor», «O‘lik sotdi», «Murob boshi», «Obijuvoz», «Xotin tug‘dirish», «Xonga ariza», «Uy tesharlar», «Uylanish», «Suxmozor», «Kafan o‘g‘risi», «Boy bilan mardikor», «To‘rg‘ay», «G‘irrom polvon» kabi asarlar ijro etilganligi aniqlangan.

XVIII va XIX asrlarda Buxoro xonligida ham turli tomoshalar namoyish etilgan. Abulfayzxon (1711 —1747) saroyida maxsus san’atkorlar guruhi faoliyat ko‘rsatgan 1870-yilda Buxoroga sayohat qilgan rus missiyasining ishtirokchisi L. R. Kostenko Buxoroda ko‘rgan spektakllari to‘g‘risida o‘z taassurotlarini yozib qoldirgan. Bunday ma’lumotlar 1878-yilda Buxoroda bo‘lgan I. L. Yavorskiy asarida ham uchraydi.

Samarqandda 1891-yildagi Navro‘z bayramida aktyorlar o‘ynagan «Kiyik ovi» (yoki «Mergan») spektakli tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘lgan. 1900-yilda Toshkenda Samarqand truppasining o‘ynagan «Mirob», «Eshak savdosi», «Hundilar» spektakllarida aktyorlarining saviyasi Toshkent san’atkorlaridan har tomonlama yuqori bo‘lganligi haqida ma’lumotlar uchraydi. Buxoro xonligi tarkibidagi Samarqand, Shahrisabz, Kattaqo‘rg‘on, Jizzax, Boysun, Denov shaharlarida XVIII va XIX asrda professional san’atkorlar guruhi faoliyat ko‘rsatgan.

XVIII—XIX asrda Xorazmda ham tomosha san’ati rivojlangan. Olloqulixon (1825—1842) o‘g‘il to‘yi

munosabati bilan 1835-yilda o'tkazilgan tomoshalarda sozanda va masxarabozlar chiqishlari yuqori bo'lgan. H.Vamberi Xorazmda o'zi ko'rgan turli tomoshalar haqida yozadi. Unga ko'ra xonning maxsus qiziqchisi bo'lgan, kechki ovqatdan so'ng huzurida soz chalinib, qo'shiq kuylangan, so'ngra masxarabozlarga gal berilgani yozilgan.

Muhammad Rahim II (Feruz) hukmronlik qilgan davrda (1865—1872) tomosha san'atining deyarli barcha turlari taraqqiy etgan. Chunki, xonning o'zi shoir, bastakor sifatida atrofiga sozandalar, shoirlar, hofizlar va masxarabozlarni yig'ib, ularga shart-sharoitlarni yaratib bergen, homiylik qilgan. Doimiy ravishda ularning ijodidan bahramand bo'lgan. T.Obidovning aniqlashicha, Xorazm mahalliy tomoshalarini bir necha guruhga ajratadi. Bular – musiqali va musiqasiz ijroga mo'ljallangan muqallidlar; bir aktyor spektakli, jamoaviy ijrodagi «Xatarli o'yin» tomoshalaridir. «Xatarli o'yin» katta turkumdag'i tomosha bo'lib, turli mavzulardagi ko'plab tomoshalarni o'z ichiga oladi.

Xorazm muqallidlari ikkiga ajratiladi: hayvonlar mavzusidagi: «Tustovuq o'yini», «Chag'aloq», «Kaptar o'yini», «Ot o'yini», «Ayiq o'yini»; mehnat jarayonini ifodalovchi: «Olma terish», «Chugurma tikish», «Kampir», «Ko'knori» va boshqalar ijro etilgan.

XVIII asrdan to XIX asrning ikkinchi yarmigacha kechgan sharqona tomoshalar M.Umarov tomonidan har tomonlama jiddiy va chuqur o'rganilgan. Olim mazkur davrdagi tomosha turlarini quyidagi guruhlarga shartli ravishda ajratadi:

1. Xalq dostonlarda tomoshalar bayoni haqida gapirar ekan, bu davrda o'zbek adabiyotining bitmas-tuganmas chashmalaridan hisoblangan xalq og'zaki adabiyoti – folklor sohasida ham xilma-xil durdonalar yaratildi: "Alpomish" dostoni va "Go'ro'g'li" turkumidagi epik qissalar keng

tarqaldi. “Tohir va Zuhra”, “Yusuf va Zulayho”, “Bahrom va Gulandom”, “Gulfarah”, “Sanobar”, “Bo‘z o‘g‘lon” yoki “Yusufbek va Ahmadbek” kabi o‘nlab kitoblar yozildi. Bu epik asarlar haqiqatan ham xalq dahosining nishonasi bo‘lib uning sahifalarida oddiy kishilarning og‘ir hayoti, baxt-saodat uchun kurashi o‘z ifodasini topdi. Shuningdek ularda bayramlar, sayillar, to‘y, bazmlar ta’rifi berildi. Ayniqsa, qahramonlarni to‘ylardagi tomosha turlari alohida izohlanganligi aniq misollar bilan bayon etgan.

2. Qo‘g‘irchoq o‘yin. O‘zbekistonda qadim zamonlardan o‘ziga xos teatr turi sifatida taraqqiy etib kelgan. Chodir ichida, parda ortida yashiringan aktyor qo‘g‘irchoqbozlar tomonidan harakatga keltirilib ko‘rsatiladigan tomosha shunday nomlanib kelinadi¹. Mazkur teatr ildizlari, turlari, tarixiy yo‘nalishlari va mashhur qo‘g‘irchoqbozlar repertuarlari to‘g‘risida M.Qodirovning «Qo‘g‘irchoq teatri» va «O‘zbek xalq tomosha san’ati» kitoblarida mukammal yoritilgan. «Bizda, – deb yozadi M.Qodirov, – «qo‘g‘irchoq o‘yin» deb yuritiluvchi bu san’atning, xususan, qo‘lga kiyib o‘ynatiladigan, ip bilan boshqariladigan va soyasi tushiriladigan turlari o‘tmishda keng tarqalgan. Ular «chodir jamol», «chodir xayol» va «fonus xayol» deb atalgan. «Chodir xayol» teatri «chodir jamol»ga nisbatan ancha murakkab va mukammaldir. Bu teatr tomoshalari, odatda, kechqurunlari ko‘rsatilgani, shu’la va shovqindan foydalanaligani tufayli qora pardalar ichidagi qo‘g‘irchoqlarning iplari ko‘rinmay, xuddi qo‘g‘irchoqlarning o‘zлari harakat qilayotganday tabiiy va ajib manzara hosil qilgan. Har bir mohir qo‘g‘irchog‘boz ayni vaqtida iplar yordamida 8–10 qo‘g‘irchoqni harakatga keltira olgan. «Qo‘l qo‘g‘irchoq» teatrida bir tomoshada ko‘pi bilan o‘n qo‘g‘irchoq ishtirotk etgan bo‘lsa, «Chodir xayol»da

¹ Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. – T.: Yangi asr avlod. 2009., 271 b.

bir yo‘la ellikdan ortiq qo‘g‘irchoq o‘ynagan. Bu teatrlarda musiqa badiiy bezak sifatida, ko‘proq qahramonlar holatini ifodalovchi vosita sifatida xizmat qilgan. Qo‘g‘irchoqboz-sozandalar qo‘g‘irchoq o‘yinlar uchun maxsus «Ufor», «Miyonxona», «Charx», «Duchava partron», «Chog‘olloq», «Ot eroniy», «Qum pishig‘i», «To‘rg‘ay chirillama» kabi bir qancha ajoyib kuylar yaratganlar»¹.

Savol va topshiriqlar:

1. Tomosha san’ati haqida nimalarni bilasiz?
2. O‘zbek an’anaviy teatr san’atining o‘ziga xos jihatlarini sanab o‘ting.
3. Xonliklar davridagi tomoshagohlar haqida ma’lumot bering.
4. Tomoshaning qanday turlarini bilasiz?
5. Yozma adabiyotda tomosha san’atiga oid o‘rnlarni toping va tahlil qiling.

Adabiyotlar:

1. Qodirov M. An’anaviy teatr dramaturgiyasi.-T.: Yangi asr avlod.,2006.
2. Tursunov T. XX asr o‘zbek teatri tarixi (1900-2007). – T.: ART-PRESS. 2010.
3. Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. – T.: Yangi asr avlod. 2009.
4. Qodirov M. Tomosha san’ati o‘tmishidan lavhalar.T.: - Fan. 1993.
5. Muhammadiyev R. Askiya. –T.: 1962
6. Said Anvar. Muhiddin Darvesh. – T.: Sharq NMAK, 2006
7. Razzoqov H. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida satira va humor. – T.: Fan, 1965

¹ Qodirov M. Tomosha san’ati o‘tmishidan lavhalar.T.: - Fan. 1993.-165 b.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-mavzu. Mustaqillik davrida «O‘zbek xalq og‘zaki ijodi»ni o‘rganishning yetakchi masalalari. Folklor atamasi, yetakchi xususiyatlari, tur va janrlari	5
2-mavzu. Mif va uning mohiyati. Afsona, rivoyat, naqlarning badiiyati	24
3-mavzu. O‘zbek marosim folklorining janrlar tarkibi va badiiyati	43
4-mavzu. Xalq dostonlari	77
5-mavzu. Qahramonlik dostonlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.....	96
6-mavzu. Romanik dostonlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.....	110
7-mavzu. Kitobiy dostonlarning xalq ma’naviy hayotidagi o‘rnii	132
8-mavzu. Xalq ertaklari.....	141
9-mavzu. Qo‘sish va lirika atamalari haqida. Mehnat qo‘sishlari va termalar.....	158
10-mavzu. Bolalar folklori va ularning talqinlari, badiiy xususiyatlari.....	182
11-mavzu. Lirik qo‘sishlari	191
12-mavzu. Xalq maqollari, topishmoqlar va chaldirmoq janri.....	— 205
13-mavzu. Latifalar, lof	219
14-mavzu. Askiya	224
15-mavzu. Tomosha san‘ati	230

Qaydlar uchun

O‘quv nashr

**To‘ra Mirzayev, Shomirza Turdimov,
Mamatqul Jo‘rayev, Jabbor Eshonqulov,
Abdumurod Tilavov**

O‘ZBEK FOLKLORI

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: T. Raxmatullayev
Musahhih: N. Ismatova
Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.
Bosishga ruxsat etildi 22.10.2021 y.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi. “Times New Roman”
garniturasi. Hisob-nashr tabog‘i. 15,0.
Adadi 500 dona. Buyurtma № 64.

«MALIK PRINT CO» MChJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil:
Toshkent vuloyati., Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi.



ISBN 978-9943-7906-3-6

9 789943 790636